O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TO’QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI

**MASHARIPOVA Gularam Kamilovna,**

**TOG’AYEVA Gulandon Jummayevna**

# DINSHUNOSLIK” FANIDAN O’QUV QO’LLANMA

**1-kurs bakalavr barcha ta’lim yo’nalishlari uchun**

**Toshkent-2020**

**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO’QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**“IJTIMOIY FANLAR” KAFEDRASI**

# DINSHUNOSLIK” FANIDAN O’QUV QO’LLANMA

| | | |
|---|---|---|
| **Ta’lim sohasi** | **320 000** | Ishlab chiqarish texnologiyalari |
| | **610 000** | Xizmat ko’rsatish sohasi |
| | **310 000** | Muhandislik ishi |
| | **230 000** | Iqtisod |
| | **110 000** | Pedagogika |
| | **150000** | San’at |
| **Ta’lim yo’nalishi** | ***5310900*** | Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (paxta, to’qimachilik va yengil sanoati) |
| | ***5320900*** | Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (to’qima; yigirilgan ip ishlab chiqarish; ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish; |
| | ***5321200*** | Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi (paxta) |
| | ***5320300*** | Texnologik mashinalar va jihozlar (to’qimachilik, yengil va paxta sanoati) |
| | ***5610600*** | Xizmat ko’rsatish texnikasi va texnologiyasi |
| | ***5231900*** | Korporativ boshqaruv |
| | ***5150900*** | Dizayn (kostyum) |
| | ***5111000*** | Kasb ta’limi yo’nalishi |
| | ***5320800*** | Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi |
| | ***5311000*** | Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (paxta, to’qimachilik va yengil sanoat) |
| | ***5320900*** | YSBKIT (to’qimachilik sanoati; ri va mo’ynaga ishlov berish ) |
| | ***5320400*** | Kimyoviy texnologiya (to’qimachilik sanoati; qog’oz sanoati) |

**Toshkent-2020**

**G.K.MASHARIPOVA** - TTYESI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi t.f.n., dotsent.

**G.J.TOG’AYEVA** - TTYESI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi f.f.n., dotsent.

***TAQRIZCHI:***

**X.Jumaniyozov** – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlari nomzodi.

**SH.Agzamxodjayeva** - Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.n.

O’quv qo’llanmada “Dinshunoslik” oʻquv kursi boʻyicha namunaviy fan dasturi, o’quv reja va ishsi o’quv dasturi asosida tuzilgan va «Dinshunoslik» fanini oʻqitadigan oliy oʻquv yurti bakalavr bosqichi barcha yoʻnalishidagi talabalar uchun moʻljallangan.

TTYESI Kengashida muhokama qilingan va chop etishga tavsiya qilingan. “__” yanvar, 2020 yil, bayonnoma №.

© G.K.Masharipova, G.J.Tog’ayeva. Dinshunoslik. (O’quv qo’llanma) - T.: TTYESI, 2020, 507 b.

## ANNOTATSIYA

O‘quv qo’llanma to’rtta bobdan iborat bo’lib, unda dinshunoslik faniga oid ma’lumotlar, jumladan, dinning ibtidoiy shakllari, dining asosiy funksiyalari, davlat va din o’rtasidagi munosabatlar, urug’-qabila dinlari, milliy dinlar, buddaviylik, xristianlik, islom dini va islom ta’limoti, xalqimiz ma’naviy yuksalishida dinlarning o’rni, O’zbekistonda vijdon erkinligi to’g’risidagi qonun hamda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash: O’zbekiston tajribasiga oid dinshunoslik bilan bog‘liq mavzular yoritilgan. Shuningdek, tinchlikka raxna solayotgan missionerlik, prozelitizm, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash yo‘llari, turli g‘oyalarni ilgari surayotgan diniy harakatlar va sektalarning faoliyatlari, ekstremizm va unga qarshi kurash bo’yicha O’zbekiston tajribasi va diniy jarayonlar bilan bog‘liq masalalar ochib berilgan. O‘quv qo’llanma oliy ta’lim tizimining “Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” blokidagi “Dinshunoslik” fanini o‘qitishda o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

Учебное пособие разделено на четыре главы, в которых содержится сведение о курсе по религиоведению, в том числе, ранные формы религии, основные функции, отношение между государством и религией, национальные религии, мировая религия: Буддизм, Христианство, Ислам; основы вероучения ислама, роль религий в духовном развитии народа, Закон о свободе совести в Узбекистане и борьба с религиозным экстремизмом и терроризмом: опираясь на опыт Узбекистана. А также раскрыты вопросы, связанные с миссионерством, прозелитизмом, причиняющие урон мирной жизни, методами борбы против религиозного экстремизма и терроризма, деятелностью религиозных движений и сект, выдвигающих разные идеи основываясь на опыте Узбекистана. Учебное пособие рекомендуется для студентов, изучающих предмет «Религиоведение» в блоке «Гуманитарные и социально-экономические науки» системы высшего образования.

The study guide is divided into four chapters, which contain information about the course on religious studies, including early forms of religion, basic functions, the relationship between the state and religion, national religions, world religion: Buddhism, Christianity, Islam; foundations of the teachings of Islam, the role of religions in the spiritual development of the people, the Law on Freedom of Conscience in Uzbekistan and the fight against religious extremism and terrorism: drawing on the experience of Uzbekistan. It also disclosed issues related to missionary work, proselytizing, causing damage to peaceful life, methods of fighting against religious extremism and terrorism, the activities of religious movements and sects, putting forward different ideas based on the experience of Uzbekistan. The manual is recommended for students studying the subject of "Religious Studies" in the block "Humanitarian and socio-economic sciences" of the higher education system.

# SO‘Z BOSHI

Dinshunoslik gumanitar fanlar qatoridagi insoniyatning madaniy, ma’rifiy, fikriy tarixini o‘z ichiga olgan ilmlar qatoriga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘qitiladigan «Dinshunoslik» fanlari doirasida dinlar tarixi, ta’limoti, manbalari kabi dinshunoslikning boshlang‘ich asoslari o‘qitiladi. Shu sababli ham oliy ta’lim tizimining bakalavr bosqichidagi «Dinshunoslik» fani doirasida quyi bosqichda berilgan ma’lumotlar asosida dinlarning rivojlanish tendensiyalari, bugungi kundagi holati hamda din niqobidagi turli buzg‘unchi g‘oyalarning kelib chiqish sabablari, oldini olish yo‘llari haqidagi ma’lumotlar taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

**Fanni o‘qitishdan maqsad** - talabalarga milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligini tushuntirish, ularda diniy bag‘rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvini shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

**Fanning vazifasi** – talabalarga hozirgi davrdagi dinlarning ma’lum xalq hayotida tutgan o‘rni haqida umumiy nazariy tushunchalar berish, ularning davlat va din munosabatlari, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi va madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini boyitish: din va diniy qadriyatlarning talqin etilishi va bugungi kundagi ahamiyatini o‘rgatish; globallashuv jaryonida diniy sohada kechayotgan tendensiyalarni yoritish, yoshlarda turli zararli diniy sekta va oqimlarning buzg‘unchi g‘oyalariga qarshi immunitetni shakllantirish.

Fan bo‘yicha talabaning bilim, kunikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi. Talaba:

- Markaziy Osiyoda tarqalgan dinlar tarixi, ta’limoti, muqaddas manbalari, yo‘nalishlari, jahonda mavjud bo‘lgan dinlarning mushtarak xususiyatlari, dinlardagi oqimlar va mazhablar, dunyoning konfessional xaritasi, din va qonun o‘zaro munosabatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi.

- missionerlik, prozeletizm va diniy ekstremizmning jamiyat hayotiga tahdid solishi hamda salbiy ta’siri va oqibatlari; dinlararo bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilish, dinning mohiyati ezgulikdan iborat ekanini anglash, dinning ijtimoiy taraqqiyot bilan bevosita bog‘liqligini tushunib etish; din va diniy qadriyatlarning inson ma’naviy hayotida tutgan o‘rnini his etishni bilish va ulardan foydalana olishi:

- dunyoviy va diniy ilmlarning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini anglash, ularga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildirish; din niqobi ostidagi turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitetini shakllantirib borish, ularning yovuz niyatlariga o‘zining erkin va xolis munosabatini bildirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida millatlararo totuvlikni mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarga alohida e’tibor qaratdilar[1]: “Mamlakatimizda “Jaholatga qarshi – ma’rifat” degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ‘ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Joriy yilda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, kalom ilmi asoschisi Abu Mansur Moturidiy va uning davomchisi Abu Muin Nasafiy hayoti, ilmiy merosiga bag‘ishlangan hamda diniy bag‘rikenglik mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi.

Imom Buxoriy bobomizning Samarqanddagi yodgorlik majmuasini bu mo‘tabar zotning musulmon dunyosidagi ulug‘ maqomiga mos ravishda mutlaqo yangi loyiha asosida qayta barpo etish ishlarini ham boshlaymiz.

Shuningdek, buyuk alloma Bahovuddin Naqshband bobomizning 700 yillik tavallud ayyomini yuqori saviyada o‘tkazishimiz kerak”.

Mamlakatimizdagi ko‘pkonfessiyalilik sharoitida turli millat, elat va din vakillari orasidagi totuvlikni ta’minlash, jahonda tinchlik va barqarorlikni

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so’zi, 2020 yil, 25 yanvar, № 19 (7521), 4-bet.

mustahkamlash ishiga munosib hissa qo‘shish har bir fuqaroning, ayniqsa, oliy ma’lumotli ziyolining muqaddas burchidir. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan ta’kidlanganidek, «Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o‘rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon ham eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz»[2].

Dunyo miqyosida millatlararo va konfessiyalararo hamkorlik, hamjihatlikni mustahkamlash ko‘p jihatdan jamiyat hayotiga bag‘rikenglik tamoyillarining samarali joriy etilishiga bog‘liq. Jahondagi murakkab va ziddiyatli kechayotgan jarayonlar turli din vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik va hamjihatlik ruhidagi aloqalarni mustahkamlash tarixiy zaruriyat ekanini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»ning beshinchi bandida «xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat» mamlakatimizda asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilishi[3] ham turli konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlikka davlatimizda xalqaro ahamiyatga ega masala sifatida qaralayotganining yorqin ifodasidir.

O‘zbekistonda davlat va din masalalarini bilish jamiyatimizning har bir ilg‘or fuqarosining burchidir. Davlat va din o‘zaro munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha respublikamizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar hatto butun jahon miqyosida ham e’tiborga loyiq. O‘quv qo’llanmada davlat va din

---

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil, 22 dekabr// www.uza.uz.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2017 yil 20 sentyabr.

munosabatlariga oid taqdim etilgan ma’lumotlar kelgusida Vatan taraqqiyotiga oʻz hissasini qoʻshish niyatida boʻlgan yoshlarimizning amaliy faoliyatida dasturul amal boʻlib xizmat qiladi. Oliy ta’limning bakalavr bosqichi talabalari dinning mohiyati, uning falsafiy talqinlari, unga berilgan turli ta’riflar haqida atroflicha ma’lumotga ega boʻlishlari lozim. Shuning uchun ham ushbu qoʻllanmada dinni oʻrganishdagi yondahuvlar, dinshunoslik maktablari, asosiy namoyandalari haqida etarlicha ma’lumot berilgan.

Respublikamizda dinshunoslik sohasini rivojlantirish, milliy va diniy qadriyatlarni e’zozlash, dinning ma’naviy-ma’rifiy jihatlarini xalqimizga keng yoritib berishga qaratilayotgan e’tiborni quyidagilarda ham yaqqol koʻrishi mumkin: Oʻzbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbuslari bilan Toshkent xalqaro Islom akademiyasining ochilishi (1999-2018 yillarda Toshkent islom universiteti), Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Moturidiy markazi qoshida kalom ilmi, Fargʻonada – Margʻinoniy ilmiy markazida islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida tasavvuf, Qashqadaryoda – Abul Muin Nasafiy markazida aqida ilmi maktabining tashkil etilishi; «Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida», «Abu Iso Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorlar, «Abduxoliq Gʻijduvoniy tavalludining 915 yiilligini va Bahouddin Naqshband tavalludining 700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik koʻrish hamda uni oʻtkazish toʻgʻrisida»gi farmoyishning qabul qilinishi, «Oʻzbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi»ning tashkil etilishi, «Oʻzbekiston Islom akademiyasini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va boshqalar.

Ushbu oʻquv qo’llanma o’quv rejadagi barcha mavzularni qamragan holda yot g’oyalarning namoyon boʻlish turlari, oʻz-oʻzini niqoblash usullari va ularga qarshi «jaholatga qarshi ma’rifat» shiori ostida kurash olib borish yoʻllari ham koʻrsatib berilgan.

# I BOB. DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI

## 1.1. DINSHUNOSLIK FANIGA KIRISH

**REJA:**

1. Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari hamda boshqa sohalar bilan bog‘liqligi.

2. Din va dinshunoslik atamalarining ta’rifi.

3. Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti.

4. Dinlarni tasniflash.

**Tayanch tushunchalar:** *Din, e’tiqod, yo‘l, mazhab, religiya, «religio», «relegere», transsendent, immanent, kult, dinshunoslik, «al-Firaq», «ar-Radd», «ad-Diyonot», «al-Milal», din fenomenologiyasi, din sotsiologiyasi, din psixologiyasi va din falsafasi.*

**Mavzu o‘quv maqsadi:** Talabalarda dinning mohiyati, dinshunoslik fanining yuzaga kelishi tarixi, dinshunoslik fani sohalari, dinning jamiyatdagi funksiyalari, dinlarning tasnifi haqida tuShuncha va tasavvurlarni shakllantirish.

**1. Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari hamda boshqa sohalar bilan bog‘liqligi.** Dunyo xaritasida mavjud mamlakat borki, unda yashovchi xalqlarning o‘z dini, urf-odatlari va an’analari mavjud. Ana Shu qadriyatlar xalqlarning yurish-turishi, kundalik faoliyati va umuman hayot tarzini belgilashda asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. «Dinshunoslik» fani ana Shu muhim omilni tadqiq etib, tahliliy o‘rganadi.

«***Dinshunoslik***» ***fanini o‘qitishdan maqsad*** – talabalarga diniy va milliy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligini tuShuntirish, ularda diniy bag‘rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to‘g‘ri yondaShuvni shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Mustaqillik davrida jahonda xalqlarining dinlari haqida keng ma’lumot olish, ularning qadriyatlarini o‘rganish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada, dinshunoslik fani izchillik bilan rivojlana boshladi. Bunda, ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-

ma’naviy merosni o‘rganish bilan birga shu kunga qadar chet ellarda amalga oshirilgan izlanish va tadqiqotlarning natijalaridan unumli foydalanish zarurati paydo bo‘ldi.

«Dinshunoslik» fani dinni tanqid qilish yoki ko‘r-ko‘rona maqtash maqsadida emas, balki dinni tarixiylik, xolislik asosida turli xalqlar hayotida tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan, ma’naviy hayotning bir bo‘lagi sifatida yondoshib o‘rganadi.

***«Dinshunoslik» fanining vazifasi*** – talabalarga hozirgi davrdagi dinlarning ma’lum xalq hayotida tutgan o‘rni haqida umumiy nazariy tushunchalar berish, ularning davlat va din munosabatlari, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi va madaniyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini boyitish, shu bilan birga:

- dinning jamiyatga ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy ta’siri haqida bilimlar berish;
- ibtidoiy diniy tasavvurlar, milliy va jahon dinlari ta’limotlari haqida ma’lumot berish;
- dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati taraqqiyotidagi turli tarixiy bosqichlarda tutgan mavqei haqida tuShuncha berish;
- jamiyatni ma’naviy jihatdan kamol toptirishda diniy qadriyatlarning ahamiyatini yoritish;
- dunyoviy davlat va dinning o‘zaro munosabatlarini yoritib berish;
- diniy aqidaparastlik, ekstremizm va fanatizm kabi salbiy illatlar mohiyatini yoritish va ularga qarshi g‘oyaviy immunitetni shakllantirish;
- O‘zbekiston Respublikasida dinga nisbatan munosabatning tubdan o‘zgarganligi, xususan, islom dini qadriyatlarini tiklash yo‘lida qilinayotgan ishlar haqida keng tasavvur hosil qilish.

«***Dinshunoslik***» ***fanining amaliy ahamiyati*** shunda ko‘rinadiki, u talabalarda barcha dinlar qadriyatlariga hurmat bilan qarash, ularni qadrlash madaniyatini tarbiyalaydi.

Dinshunoslikning tarix, falsafa, psixologiya, sotsiologiya, arxeologiya va boshqa ijtimoiy fanlar bilan mustahkam bog‘liqligi uning nazariyasini boyitishga xizmat qiladi.

Dinshunoslikning qator fanlar bilan o‘zaro munosabatga kirishishi natijasida uning turli sohalari yuzaga keldi. Ulardan asosiylarini quyida keltirib o‘tamiz.

***Din fenomenologiyasi.*** Fenomen, namoyon bo‘luvchi, ko‘zga ko‘rinuvchi narsa bo‘lib, fenomenologiya ko‘zga ko‘rinuvchi narsaning sistematik shaklda tadqiq qilinishidir. Dinning ko‘zga ko‘rinuvchi, tashqarida aks etuvchi jihatlarini o‘rganuvchi ilm sohasiga «Din fenomenologiyasi» deyiladi. Din fenomenologiyasi, tarixiy shakllanishlarni e’tiborga olmagan holda diniy fakt va voqelikning bizga namoyon bo‘lgan jihatlarini asosiy o‘ringa ko‘taradi. Turli dinlarning ibodat va marosimlarini, muqaddas joy, zamon, narsa va shaxsiyatlarini tadqiq qilib, mushtarak jihatlarini topishga harakat qiladi.

Din fenomenologiyasi diniy tuyg‘u va bu tuyg‘uning ko‘rinishlari deyarli butun dunyoda bir-biriga o‘xshashiga ishora qiladi; barcha dinlarning asli va g‘oyasining bir ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Shuning bilan birga diniy ramz (belgi) larda yashirgan ma’nolarni ochish va majoziy so‘zlarning muqaddas mazmunini yoritish kabi ishlar ham uning vazifalariga kiradi.

Din fenomenologiyasi, materiallarini dinlar tarixidan oladi. Lekin u bu materiallarga tarixiylikdan ham ko‘ra ko‘proq sistematik jihatdan yondashadi. Shunday qilib diniy asoslar, diniy fenomen va shakllanishlarni muqoyasa qiladi. Din fenomenologiyasi boshqa din ilmlarini bilan ba’zi nuqtalarda birlashishiga qaramasdan, mustaqil bir ilm sohasi sifatida, ba’zan farqlangan jihatlari ham bo‘lib turadi.

Din tushunchasiga olimlar tomonidan yuzlab ta’riflar berilgan. Bunda, turli soxa va dunyoqarash egalari, o‘z soxalari va qarashlaridan kelib chiqib dinga ta’rif berishgan. Shu tufayli turfa xil ta’riflar yuzaga kelgan. Quyida ularning ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

**•«Din, insonning muqaddas deb bilgan narsalariga nisbatan munosabatidir».**

***Rudolf Otto.***

**•«Din, ruhiy borliqlarga nisbatan ishonchdir».**

***Edvard Teylor.***

**•«Din, insonning abadiyatni anglashini ta'minlovchi, aql va mantiqqa tobe' bo'lmagan zehniy malaka yoki iqtidordir»**

***Maks Myuller.***

**•«Din, malakalarimizni erkin holda qo'llashni to'suvchi ta'qiqlar majmuasidir»**

***Salmon Reynax.***

**•«Din, e'tiqodlar, xatti-harakatlar va ijtimoiy hayotning muayyan shartlariga ko'ra tashkil etilgan muassasalar tizimidir»**

***Vitold Taylok.***

**•«Din, eng buyuk ijtimoiy qadriyatlar shuuridir»**

***Edvard S. Amis.***

**•«Din, muayyan jamoatning vujudga kelishini ta'minlovchi marosim va e'tiqodlar majmuidir».**

***Emil Dyurkgeym.***

Abu Nasr Forobiy fikricha "Din nazariy va amaliy qonunlar tuzilgan paytdagina odamlar e'tiqodi, ta'limi tarbiyasi yo'llari ishlab chiqilgandagina paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Ana shunday din tufayli omma baxt saodat uchun etarli bilim olishi mumkin".[1] Odamzot o'zini qurshagan borliqni faqat qisman anglab etadi. Ayni shu sababli olam inson uchun sirlar va mo''jizalarga to'ladir. Odamzot o'zi e'tiqod qiladigan ko'p narsalarni faqat aqlga tayanib isbotlashga ham, rad etishga ham qodir bo'lmaganidek, yuqorida zikr etilgan sirlar va mo'jizalarga javob topishga ham (balki hozircha) qodir emas.

---

[1] Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: Шарқ, 1999 –Б.93-94.

Bilish va ma’naviy sayohat yo‘lida odamga uning tafakkuri yo‘l ko‘rsatadi. Ko‘rsatilgan bosqichlarning har biridan o‘tish natijasida odam axloqiy va ma’naviy jihatdan takomillashadi va haqiqatni bilishga yaqinlashadi.

Abu Homid G‘azzoliy so‘fizmni panteizmdan tozalashga harakat qildi va u bunga muvaffaq bo‘ldi. G‘azzoliy fikriga ko‘ra, «har qanday ma’naviy poklanishlardan qat’i nazar, inson hech qachon Xudoga aylana olmaydi». Bu bilan u so‘fizm va panteizm o‘rtasida o‘ziga xos «xitoy devori»ni o‘rnatdi.

Chunki aynan XX asr boshlarida shakllangan jadidchilar harakati “jamiyatni ma’rifat orqali yangilash” g‘oyasini ilgari surganlar, Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat kabilar bir guruh yoshlarni chet elga o‘qishga yuborib, yangi avlod ziyolilarini tarbiyalashga o‘zlarining munosib hissasini qo‘shganlar.

Dinlar tarixi, ular bilan bog‘liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jabhalari bilan o‘zaro ta’sirlashuvini o‘rganuvchi fan «Dinshunoslik» deb ataladi.

***Din sotsiologiyasi.*** Din – jamiyat munosabatlarini, bu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi voqea-hodisalarni o‘rganadi. Shu tufayli bu ilm sohasi ijtimoiy diniy muassasalarni, dinning davlat, xalq, oilaga nisbatan munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqea-hodisalarni, turli din jamoalarining jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlarini asosiy mavzu sifatida tadqiq qiladi. Demak, din sotsiologiyasining mavzusi, jamiyatning asos shakllari va dinning tashqi ko‘rinishlari bilan ijtimoiy jarayonlar, ularning tuzilish va qonunlaridan iborat ekan. Boshqacha qilib aytganda bu ilm sohasi, tarix bo‘yicha xususiy va mushohadaga suyanuvchi din va jamiyat tadqiqotlarini; dinning ijtimoiy hayotdagi ko‘rinishlarini o‘rganadi.

Din sotsiologiyasi, bir tomondan jamiyat, bir tomondan diniy ilmlarga tayanadi; bu ikki asos ustida yakdillikni keltirib chiqarishga harakat qiladi.

***Din psixologiyasi.*** Bu ilm sohasi, zamonaviy psixologiya bilan birgalikda shakllangan va uning bir tarmog‘i holiga aylangan. Din psixologiyasi, avvalo insonga oid bo‘lgan diniy hayotning turli jihatlarini psixologik jihatdan o‘rganadi. Ya’ni din psixologiyasi dinning psixologik jihatini, shaxsning diniy tajribasini va

bu tajribaning turli ko‘rinishlarini bayon qilishga harakat qiladi. Natijada u dinning inson ruhidagi asosiy xususiyatlari xatti-harakatlarga bo‘lgan ta’siri to‘g‘risida atroflicha to‘xtaladi. Ruh-jasad aloqasi bilan atrof-madaniyat ta’sirlarining barchasini ichida o‘rganuvchi diniy e’tiqod, shaxslarning ichki olamidagi turli rivojlanishlarni ko‘rsatib beradi. Shu sababli Din psixologiyasi diniy tajribadan boshlagan holda inson turlarini atroflicha o‘rganib, xos tipologiyalarni kashf qiladi. Kishining diniy his, tushuncha va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusidir. U shaxsda din tuyg‘usi va hissining qanday qilib kelib chiqqanligi va shakllanishini, ihtido (hidoyat topish) yoki inkor hodisalarini, dindan kelib chiqqan ruhiy keskinlik va Shubhalarni tadqiq qiladi.

Din psixologiyasi umumiy psixologiyaning barcha metodlaridan foydalangan holda o‘ziga taalluqli bo‘lgan mavzularni muhokama qiladi. Bu ilm turi, dindorlikning shaxs ruhiyatidagi siljish va ta’sir jarayonining tadqiq qilinishida umumpsixologiyadagi tamal asoslar, berilgan ma’lumotlarga (raqamlar)ga qarab anketalar, testlar va kuzatuvlardan foydalanadi.

***Din falsafasi.*** Din sotsiologiyasi, psixologiyasi kabi asosiy mavzusi «din» bo‘lgan din falsafasi, «din»ni falsafadan kelib chiqib tadqiq qiladi. Bu tadqiqot asnosida aqliy va betaraf yo‘l tutadi. Bu ilm turi, qandaydir bir yaratuvchi kuch e’tiqodiga falsafiy bir asos topishga harakat qiladi. Shu tufayli ham Din falsafasi sohasida faoliyat ko‘rsatuvchilarning maqsadi dinning haq yoki botil ekanligi masalasi bilan mashg‘ul bo‘lish emas, diniy hukmlarning mantig‘i va mohiyatini ochib berishdir. Bu maqsad bilan ular, eng avvalo Xudoning mavjudligi bilan bog‘liq dalillarning tanqid yoki tahlilini qiladi, bu dalillarning qanchalik asosli yoki asossiz ekanligi masalasini ko‘rib chiqadi.

Din falsafasini boshqa din ilmlaridan ajratib turuvchi jihat bu, undagi hukm berish, xulosa yasash xususiyatidir. Boshqa din ilmlari, baho berish, munosabat bildirish metodiga suyangan holda diniy masalalarni hal qilishsa; Din falsafasi, ular yasagan xulosa va erishgan natijalardan keng miqyosda foydalanadi va bu natijalar sababli bir qancha hukmlarni chiqaradi. Hatto Din falsafasi, dinni maqsad qilib

olgan ilm turlari qo‘lga kiritgan natijalar va bu natijalarga erishish uchun ular qo‘llagan metodlar haqida ham hukm chiqarishi mumkin.

Din falsafasi, dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bo‘lgan bog‘liqligini o‘rganadi. Bu ilm turining e’tiborida bo‘lgan mavzularning boshida Xudoning borligi, sifatlari, yaratuvchi-koinot munosabati, yaratish, olamning yaratilishidagi maqsad, qayta tirilish, payg‘ambarlik va vahiy kabi keng miqyosda metafizik bir xarakterga ega masalalar asosiy o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari ilm-imon, ilm-din, din-madaniyat (din-san’at, din-til-adabiyot) diniy tajriba, diniy his kabi asoslar ham bu ilm turining sarhadlariga kiradi.

***Din antropologiyasi.*** Dinlarning inson bilan aloqasining turli jabhalarini o‘rganuvchi soha. U din psixologiyasi va sotsiologiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning asosi qadimgi miflarga borib taqaladi.

Jumladan, barcha dinlar va diniy tasavvurlarda birinchi odamning paydo bo‘lishi Xudo yoki xudolar tomonidan yaratilish g‘oyasi bilan bog‘lanadi. Masalan, qadimgi Bobilda yaratilgan «Enum Elish» dostonida dastlabki inson xudolar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urushdan so‘ng loy va qondan paydo bo‘lgani, Qadimgi Misrdagi afsonalardan birida esa Xnum nomli iloh odamni kulolchilik charxi yordamida loydan yasagani aytiladi. Shu bilan birga, islom, xristianlik va Yahudiylik dinlarida ham insoniyat yagona Xudo tomonidan tuproqdan yaratilgani aytilib, ilk inson Odam yoki Adam deb nomlanadi. Umuman olganda, din antropologiyasi barcha dinlardagi inson haqidagi g‘oyalarni o‘rganib, tizimlashtiradi.

Din antropologiyasini o‘rganishda qator metodlar mavjud bo‘lib, falsafiy, materialistik maktab vakillari dinshunoslikning bu sohasini ham evolyusion nazariyaga moslashtirishga harakat qilganlar. Jumladan, ko‘plab adabiyotlarda Jahon dinlari o‘zlarining aksar e’tiqodlarini qadimgi Bobil, Misr, Mesopotamiya, fors va hind afsonalaridan o‘zlashtirgani aytib o‘tiladi. Bu, bir yoqlama yondaShuv bo‘lib, teologik metod tarafdorlari dinlardagi bu o‘xshashlikni ularning bir o‘zakdan kelib chiqishi bilan bog‘laydilar. Dinshunoslikda esa, barcha dinlarning

antropologik qarashlari, hech qanday shaxsiy fikr bildirmagan holda, boricha o‘rganish nazarda tutiladi.

Dinshunoslik yuqoridagi fan sohalaridan tashqari, boshqa bir qancha ilm turlari bilan ham bog‘liq. Ularning ichida birinchilardan bo‘lib tarix o‘rin oladi. Tarix, makon va zamon ta’yin qilgan holda o‘tmishdagi voqea-hodisalarni o‘rganuvchi bir ilm turi bo‘lishi bilan birga moziy va hozirdagi dinlarning tarixiy shakllanishi jihatidan Dinlari tarixiga Yaqindan ko‘makchi bo‘ladi.

**2. Din va dinshunoslik atamalarining ta’rifi.** Din arabcha so‘z ekani barchaga ma’lum. Lekin, din tuShunchasini to‘liq anglab olish uchun, uning ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’nolarini alohida-alohida olib tanishib, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Arab manbalarida qayd etilishicha, din so‘zi « «دان («dâna») fe’lidan yasalgan bo‘lib, «kimgadir bo‘ysunmoq, bo‘yin egmoq, itoat etmoq, kimdandir qarzdor bo‘lmoq, e’tiqod qilmoq, qilgan ishiga yarasha mukofotlamoq»; «diynun» so‘zi esa, «din, imon, ajr-mukofot, qilingan ishga yarasha berilgan haq» kabi ma’nolarni bildiradi.

O‘zbek tili lug‘at adabiyotlarida «din» - ishonch, ishonmoq, e’tiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo‘ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo‘l tutish, odat qilish, e’tiqod qilish ma’nolarini bildirishi keltirib o‘tiladi.

Islomdan avval turkiy xalqlarning din tuShunchasini ifodalash uchun turli davrlarda «darm», «nom» va «den» kabi so‘zlarni ishlatganlari ma’lum. Ulardan «drm», «darm» din, aqida ma’nosida sanskritcha (qadim hind tili) «dharma»dan (Pali tilida dhamma); «nom» din ishonch, qonun ma’nosida sug‘d tilidan kirib kelganligi aytiladi.

O‘zbek tilidagi «din» ma’nosini beruvchi atamalar barcha tillarda mavjud. Jumladan, zardushtiylarning manbasi «Avesto»da «din» sifatida «daena», qadimgi fors pahlaviy tilida «den», «din», «dena», «daena» so‘zi ishlatilib, «yo‘l», «mazhab», «marosim», «uslub», «tarz» kabi ma’nolarni bildirgan. Ibroniy tilida

istifoda qilinadigan «dath» so‘zi «din» tuShunchasini ifodalash uchun umumiy termin bo‘lib, «hukm», «amr» va «qonun» ma’nolarini anglatgan.

Rus tilida din ma’nosini anglatadigan «religiya» so‘zining kelib chiqishi borasida lug‘atlarda bir qancha yondaShuvlar keltirib o‘tilgan. Ulardan ba’zilariga ko‘ra mazkur atama lotincha «religio» so‘zidan kelib chiqib, «diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojo‘ylik, mo‘minlik, taqvo, muqaddas narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, ibodat-topinish-sig‘inish va u bilan bog‘liq diniy marosimlar» degan ma’nolarni anglatadi.

Ikkinchi guruh tilshunoslar «religio» so‘zi semantik, ma’no va morfologik jihatdan «relegere» so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, «yangidan to‘plamoq, yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish» kabi ma’nolarni anglatadi, deb ta’kidlaydilar.

Umuman olganda, olimlar muayyan e’tiqod din deb atalishi uchun **uch** asosiy xususiyatga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydilar. Bulardan ***birinchisi***, g‘ayritabiiy iloh (yoki ilohlar) haqidagi tasavvurning mavjudligi. Har bir dinda topinish ob’ekti – Xudo bo‘lishi shart hisoblanadi.

Mavjud dinlardagi Xudo haqidagi tasavvurlarni shartli ravishda ikkiga – *transsendent* va *immanent* ilohlarga bo‘lish mumkin. Transsendent ilohlarga insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo‘lmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi. Bunga misol sifatida tom ma’noda islom dinidagi Alloh taolo va qisman xristianlikdagi Ota Xudo, Yahudiylikdagi Yaxvelarni keltirish mumkin.

Immanent ilohlar deganda esa tabiatning bir bo‘lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o‘xshab ketadigan, biroq g‘ayrioddiy yaratuvchilik, buzg‘unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo‘lgan Xudolar kiradi. Bunday turdagi ilohlar ko‘pincha yo antropomorf (inson qiyofasida) yo zooantropomorf (yarim odam yarim hayvon) yoki zoomorf (hayvon) shaklda tasavvur qilinadi. Bunga misol sifatida Qadimgi Misr, Yunon, Rim sivilizatsiyalari, zamonaviy Hindiston, Xitoy, YAponiya dinlarini sanash mumkin.

***Ikkinchisi,*** Xudo bilan insonlarni bog‘lab turuvchi kult yoki kultlar majmuasi. YUqorida aytilganidek har bir dinda topinish ob’ekti - Xudo bo‘lishi lozim. YAratuvchi bilan insonni bog‘lab turadigan ibodat va marosimlar majmui (qurbonlik, ro‘za, bayramlar) kult deb ataladi. Kultlar kundalik yoki mavsumiy, yakka tartibdagi yoki jamoaviy kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Jumladan, islom dinida «Namoz mo‘minning me’roji» (ya’ni Alloh taoloning xuzuriga ko‘tarilishi) hisoblansa xristianlikdagi «sirli marosimlar»da Muqaddas Ruhning o‘zi ishtirok etadi deb hisoblanadi. Shu tariqa, mavjud barcha dinlarda kultlar vositasida e’tiqodchilar o‘z ilohlari bilan bog‘lanadilar.

***Uchinchisi*** esa e’tiqodchilarni o‘zida jamlaydigan diniy tashkilotlarning mavjudligi. Diniy tashkilot, bu bir din izdoshlarining jamoaviy ravishda o‘z diniy rasm-rusum, ibodat marosimlarini o‘tkazadigan, diniy ta’lim oladigan muassasalaridir. Bu, islomda - masjid, madrasa, xristianlikda - cherkov, seminariya, Yahudiylikda - sinagoga va hokazo.

Dinlar tarixi, ular bilan bog‘liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jabhalari bilan o‘zaro ta’sirlaShuvini o‘rganuvchi fan «Dinshunoslik» deb ataladi.

Dinshunoslik barcha ijtimoiy fanlar qatori ham o‘zining o‘rganish ob’ektiga ega. U dinning paydo bo‘lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e’tiqodlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyusiyasini ilmiy jihatdan o‘rganadi.

**3. Dinshunoslik fanining paydo bo’lishi va tarixiy taraqqiyoti.** Dinlarni o‘rganish uzoq tarixga ega. Har bir inson yon-atrofidagilarning e’tiqodi, qaysi dinga mansubligiga qiziqadi, ular haqida bilishni istaydi. Bu boradagi ilk ma’lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri «tarix otasi» nomini olgan Gerodot (mil. avv. V asr) o‘zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma’lumotlar keltirgan. Bu qiziqish O‘rta asr Evropasida ham mavjud bo‘lgan. Lekin boshqa dinlar haqida fikr bildiruvchilar, xristianlarning e’tiborini jalb qilmaslik va ularni o‘sha dinlarga kirib

ketmasliklari ta’minlash maqsadida, u dinlarga nisbatan salbiy fikr bildirish, ularni yomonlash orqali ularga yondashishni ma’qul deb topganlar.

Islom olamida ham dinlarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Milodiy VII-VIII asrlardayoq diniy tortiShuv (munozara)larni o‘z ichiga olgan «maqola»lar (keyinchalik «maqolot»), VIII-IX asrlardan e’tiboran esa boshqa dinlarga «raddiya»lar yozila boshlangan. Keyingi asrlardan esa «al-Firaq» (Firqalar), «ar-Radd» (Raddiya), «ad-Diyonot» (Dinlar) va «al-Milal» (Xalqlar) yo‘nalishidagi adabiyotlar vujudga kelgan.

«Ad-Diyonot» (Dinlar) yo‘nalishida yozilgan ilk asar Hasan ibn Muso an-Navbaxtiyning (vaf. 910 y.) «al-Aro’ vad-diyonot» (E’tiqodlar va dinlar) kitobi hisoblanadi. Keyinchalik Mas’udiy (vaf. 957 y.) o‘zining «ad-Diyonot» (Dinlar), Masbihiy (vaf. 1029 y.) «Darkul bug‘yati fiy vasfid diyonoti val ibodoti» (Dinlar va e’tiqodlar vasfida maqsad me’yori) kitoblarini yozganlar. Shuningdek Beruniyning (vaf. 1048 y.) «Tahqiqun ma lilhind min maqulatin, maqbulatin fil-aqli av marzulatin» (Aqlga maqbul yoki noma’qul bo‘lgan Hindistonga oid izlanishlardan) nomli kitobi ham Shular sirasiga kiradi.

«Al-Firaq» (Firqalar) yo‘nalishida yozilgan kitoblarga Abu Mansur Abdulqodir Bag‘dodiyning (vaf. 1038 y.) «al-Farq bayn al-firaq» (Firqalar orasidagi farq) asari hamda Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydullohning (vaf. 1092 y.) «Bayn al-adyon» (Dinlar orasida) asarlarini kiritish mumkin.

«Al-Milal» yo‘nalishida Qozi Abu Bakr Baqilloniyning (vaf. 1012 y.) «al-Milal van-nihal» (Dinlar va xalqlar), Abu Muhammad Ali Ibn Hazmning (vaf. 1064 y.) «Kitob al-fasl fi-l-milal va-l-ahvoi va-n-nihal» (Dinlar, havo va xalqlar haqida ajraluvchi kitob), Abul-Fath Muhammad ibn Abdulkarim SHahristoniyning (vaf. 1183 y.) «al-Milal va-n-nihal» asarlarini sanash mumkin.

«Ar-Radd» (Raddiya) yo‘nalishida ham ko‘plab asarlar dunyo yuzini ko‘rgan. Ularga Imom G‘azzoliyning (vaf. 1111 y.) «ar-Radd al-jamil» (Go‘zal raddiya), Ibn Kalbiyning (vaf. 819-821 y.) «Kitob al-asnam» (Butlar kitobi) nomli asarlarini alohida qayd etish lozim.

Darhaqiqat, Musulmon Sharqi o‘lkalarida bu sohada ko‘plab asarlar yaratilgan bo‘lib, keyinchalik ular «Dinshunoslik» fanining taraqqiyoti uchun fundamental manba bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning «al-Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» («O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar»), «Hindiston», Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniyning «al-Milal va-n-nihal» («Dinlar va oqimlar»), Ibn Hazm Andalusiyning «al-Fasl fi-l-milal va-l-ahvo va-n-nihal» («Dinlar, adashgan firqalar va mazhabni ajratish») kabi asarlari, Shuningdek, Ibn Nadim (987-988) va Abul Hasan Omiriy kabilarning tadqiqot ishlari ko‘plab Evropa tillariga tarjima qilingan. Bu esa, islomiy va arab ilmlarini o‘rganuvchi G‘arb mutaxassislarining dinlar tarixiga oid islomiy tadqiqot ishlaridan asosiy manba sifatida foydalanishlari uchun qulay imkon yaratdi. Bunday asarlarda mualliflar tarixiy voqe’likni to‘g‘ri va xolis yoritganlar. Ular o‘zlari musulmon bo‘la turib, boshqa din va e’tiqodlar haqida ma’lumot berish yoki ularni tavsif qilishda noxolislikka olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday shaxsiy hissiyotlarni suiiste’mol qilmaganlar. Buni Shahristoniyning quyidagi so‘zlari tasdiqlaydi: *«Men har bir firqani (din yoki diniy yo‘nalishlarning hech birini) yoqlamay, kamsitmay, ularning kitoblarida qanday bo‘lsa, Shundayligicha, undagi xatolarni ajratib ko‘rsatmay bayon qilishga ahd qildim»*.

Beruniy o‘zining «Hindiston» asari haqida Shunday yozadi: *«Bu kitob bahs-munozara kitobi emas, tarix kitobidir. Hindlarning dinlarini ularning o‘zlaridan o‘rganib, fikrlarini tanqid qilmay bayon qilaman»*. Bu Beruniy asarlarining butun dunyoga mashhur bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Ibn Nadim esa: *«Dinshunoslik fani hijriy IV-V asrlarga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi.»*, deb yozadi. Bu milodiy X-XI asrlarga to‘g‘ri kelib, aynan Shu davrda Beruniy o‘zining «Hindiston» asarini yozgan.

G‘arb mamlakatlarida dinshunoslik fani ko‘pincha nemis tilidagi «RELIGIONS WISSENSCHAFT» yoki ingliz tilidagi «HISTORY OF RELIGIONS» kabi atamalar bilan yuritiladi. Bu esa «Ixvon as-safo» risolalari,

Beruniy va Shahristoniy asarlarida qo‘llanilgan «علم الاديان» (Dinlar ilmi) yoki «تاريخ الاديان» (Dinlar tarixi) atamalarining harfiy tarjimasidir.

Zamonaviy Dinshunoslik esa bir yarim asrga Yaqin davrga borib taqaladi. G‘arbda, zamonaviy ma’nodagi dinlar tadqiqotlari Maks Myuller (1823-1900) tomonidan boshlab berilgan. Olim 1856 yilda «Qiyosiy mifologiya» va 1870 yilda nashrdan chiqqan «Dinlarning asosi va shakllanishiga oid dars baholari» nomli asarlari bilan boshqa dinlarni tadqiq qilishga yo‘l ochgan va kattagina e’tibor qozongan. U Angliyadagi mashhur Oksford universitetida dinlar tarixidan ma’ruzalar o‘qigan. O‘zining «Sharqning muqaddas kitoblari tarjima silsilasi» asarida u ilk bora «religious studies» (dinshunoslik) so‘zini qo‘llagan. Myuller va uning zamondoshlari dinlarni ilmiy tadqiq qilishda filologiyani muhim deb bilishgan va dinning asl mohiyatiga faqatgina til orqali qilingan izlanishlar bilangina etishish mumkin, degan fikrni olg‘a surgan.

Biroz keyingi davrlarda Gollandiyada S.R.Tile va Shantepi de la Sosse bu borada izchil faoliyat olib borganlar. Shunday qilib davrlar o‘tishi bilan Parij, Bryussel va Rim kabi markazlarda dinshunoslik universitetlar ta’lim dasturlaridan joy olgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dinshunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar shakllangan. Bu davrda turli mintaqalarda zikr qilingan soxada bir qancha mutaxassislar etishib chiqqan. Ulardan R.Pettazoni, M.Eliade, Van der Lyu, R.Otto, G.Menshing, J.Vax, F.Xeiler, G.Dumezil, E.G.Parrinder, S.G.F.Brandon, Erik F.Sharp, Ninian Smart, M.Kitagava, R.S.Zeyxner, Ugo Bienchi, V.Kantvell Smit, Ake V.Strom, Xans J.SHoyps va Mixael Paylar nomini zikr qilishimiz mumkin.

4. **Dinlarni tasniflash**. DinShunoslar turli ilm-fan soha vakillari bo‘lib, dinlarni o‘zlari xos bo‘lgan ilm yo‘nalishi nuqtai nazaridan o‘rganib, turlicha yondashganlar. Shuning uchun ular o‘rtasida ba’zi ixtiloflar bo‘lishi tabiiydir. Masalan, din tarixi bilan Shug‘ullanuvchi olimlar dinlarning yuzaga kelish tarixiga ko‘ra davriy jihatdan yondashib tadqiq etganlar. Boshqa bir guruh olimlar dinlarni

paydo bo‘lgan va tarqalgan mintaqalariga ko‘ra tadqiq etganlar. Ayrim dinShunoslar diniy nuqtai nazardan yondashib, dinlarni o‘rganganlar.

Jumladan, Yoakim Vax (Joachim Wach), dinlarni «asoschisi bor dinlar», «an’anaviy (rasm-rusumli) dinlar»ga, Gustav Menshing esa «milliy dinlar», «jahon dinlari» ko‘rinishida ikkiga bo‘ladi. Annemari SHimmel esa dinlarni - ilk-qabilaviy, milliy, jahon dinlari, deb uchga bo‘ladi. Shu bilan birga ba’zi tadqiqotchilar quyidagi tasnifni keltiradilar:

1. Sakramental (diniy marosim va rasm-rusumlarga tayanuvchi) din,
2. Profetik (Payg‘ambarlarga tayanuvchi) din,
3. Mistik (ruhiy olamga yo‘naltirilgan) din.

Islom ulamolari dinlarni, «haq» va «botil» yoki vahiyga tayanuvchi ilohiy dinlar, vahiyga tayanmaydigan tabiiy dinlar kabi ikkiga bo‘lishgan. Ibn Hazm (vaf. 456/1064) va Shahristoniy (vaf. 548/1183) kabi musulmon tadqiqotchilari, haq dinlar uchun «**milal**», botil dinlar uchun esa «**nihal**» so‘zlarini ishlatishni ma’qul deb topishgan.

Dinlarni tasniflashda mintaqaviy yondashuvdan ham keng foydalanilib, uning o‘ziga xos jihati Shundaki, mintaqadagi aynan bir dinni ikkinchi dinga ta’siri va o‘zaro qorishuvi yoki turli mintaqa dinlarini o‘zaro o‘xshash jihatlari yoki farqli tomonlarini o‘rganishdan iborat. Dinlarni quyidagi omillar asosida tasnifga bo‘lish mumkin:

1. Qit’alarda tarqalishiga ko‘ra Afrika, Osiyo, Evropa, Amerika va Avstraliya dinlari tarzida tasniflash. Biroq bu unchalik munosib tasnif emas. Chunki, Shunday dinlar ham borki, ular bir necha qit’alarga tarqalgan. Xususan, islom va xristianlik deyarli barcha qit’alarda mavjud. Shuningdek, ba’zi qit’alarda ozchilikni tashkil etuvchi boshqa dinlar vakillari ham bo‘lishi bilan birga deyarli aksar aholi bir dinga e’tiqod qiladi. Masalan, Evropada asosan xristianlik ko‘p tarqalgan, islom dini Amerikaga nisbatan Afrikada ko‘proq tarqalgan. Osiyo qit’asida islom, hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik dinlari aralash tarqalgan. Ba’zan

bir qit’ada paydo bo‘lgan din boshqa qit’ada keng yoyilgan. Masalan, xristianlik Falastinda vujudga kelgan bo‘lsa-da, asosan Osiyo qit’asidan tashqarida tarqaldi.

2. Jo‘g‘rofiy mintaqasiga ko‘ra Sharq dinlari va G‘arb dinlari tarzida tasniflash. Bu dunyoning qutblarga bo‘linishiga monand siyosiy va madaniy tafovutni aks ettiruvchi keng jo‘g‘rofiy tasnifdir. Sharq dinlariga hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik, daolik va boshqa Uzoq Sharq dinlari kiritiladi.

G‘arb dinlariga Yahudiylik, xristianlik va islom dinlari kiritiladi. Aslida islom dinini G‘arb yoki Sharq dini deb bo‘lmaydi. U jo‘g‘rofiy jihatdan Sharqda yuzaga kelib, G‘arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Yahudiylik va xristianlik xam aslida Sharq dinlari bo‘lib, Yaqin Sharqda vujudga kelgan va G‘arb mamlakatlarida keng yoyilgan.

3. Qadimgi dinlar siyosiy mintaqalarga ko‘ra Mesopotamiya dinlari, Suriya mintaqasi dinlari, Kichik Osiyo yoki Onado‘li dinlari, Fors dinlari tarzida tasniflanadi.

4. Dinlarning mamlakatlar hududlariga ko‘ra Falastin dinlari, Arabiston yarim oroli dinlari, Meksika dinlari, hind dinlari, Xitoy dinlari, Yapon dinlari tarzida tasniflanadi.

Uzoq Sharq dinlari kabi ba’zi mintaqa dinlarini diniy mavzusiga ko‘ra aniq belgilash imkoni bo‘lmagan ko‘p hollarda jo‘g‘rofiy tasnif qulay ilmiy tasnifdir. Masalan, Yahudiylik, xristianlik va islom dinlarini tavhid (yakkaxudolik, monoteizm) asosida umumlashtirilsa, Uzoq Sharq dinlarini yagona diniy tuShuncha asosida umumlashtirib bo‘lmaydi. Bunday holatda muammoning echimi sifatida jo‘g‘rofiy tasnifga murojat qilish mumkin.

Dinlar unga e’tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o‘zining ma’lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko‘ra turli guruhlarga bo‘linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo‘lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik etuk bo‘lishidan qat’i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo‘lmaydi. Chunki har qanday tasnif

ma’lum bir jihatga e’tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi. Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

– tarixiy-geografik jihatga ko‘ra;

– etnik jihatga ko‘ra;

– e’tiqod qiluvchilarining soniga ko‘ra;

– hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o‘lik diniy tizimlar) va h.k.

Bugungi kunda, dinshunoslikka bag‘ishlangan adabiyotlarda asosan quyidagi tasnif keltiriladi:

1) primitiv diniy tasavvurlar (urug‘-qabila dinlari) - totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o‘z urug‘idan chiqqan sehrgar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig‘inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo‘lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba’zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari - ma’lum millatga xos bo‘lib, boshqa millat vakillari o‘ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga Yahudiylik (Yahudiy millatiga xos), hinduiylik (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoiylik (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari - dunyoda eng ko‘p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat’i nazar unga e’tiqod qilishlari mumkin bo‘lgan dinlar. Ular safiga odatda buddaviylik, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

**Xulosa.** Bundan tashqari dinlar ta’limotiga ko‘ra monoteistik - yakkaxudolik (Yahudiylik, islom) va politeistik - ko‘pxudolik (hinduiylik, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo‘linadi. Dinshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlarda Yahudiylik, xristianlik va islom dinlarini Ibrohimiy dinlar (Avraamicheskie religii) yoki samoviy dinlar deb atash ham kuzatilmoqda.

**Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:**

1. Dinshunoslik fanini o‘qitishdan maqsad nima?
2. Dinshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Dinshunoslik alohida fan sifatida qachon shakllangan?

4. Evropalik ilk dinShunoslardan kimlarni bilasiz?

5. Dinshunoslikning qanday sohalari mavjud?

6. Dinga qanday ta’riflar berilgan?

7. Dinni o‘rganishda qanday yondoshuv turlarini bilasiz?

8. Din jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi haqida so‘zlab bering.

2. Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari haqida so‘zlab bering.

3. Turli olimlar tomonidan dinga berilgan ta’riflar haqida ko‘rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

**Adabiyotlar**

1. Dunyo dinlari tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.

2. Dinshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.

3. Peter Anters. Religii sovremennosti. Istoriya i vera. –M. :Progress – Traditsiya, 2001.

4. John R. Hinnells. The Routledge Companion to the Study of Religion. Routledge.2005.

5. Phillip wodzinski. kant’s doctrine of religion as political philosophy. Boston college.2009.

6. William J. Wainwright. The Oxford Handbook of Philosophy of Religion. University of Wisconsin, Milwaukee.2010.

## TARQATMA MATERIALLAR

## DIN VA E'TIQOD

1-ilova

### DIN

**Din (arabcha ishonch, ishonmoq) g'ayritabiiy kuchlarning mavjudligi va ular bilan munosabat o'rnatish mumkinligiga ishonish natijasida paydo bo'lgan tafakkur va qarashlardir.**

**Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. Dinning mohiyati turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtai nazar shuki, din ishonmoq tuyg'usidir.**

### E'TIQOD

**E'tiqod odamning ma'lum bir qadriyatlar, diniy yoki dunyoviy qarashlarga hech bir shubhasiz ishonishi, uni qalban tan olib hayotiy faoliyatining dasturiga aylantirishidir.**

2-ilova

**Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlarga bo'inadi**

**Urug' – qabila dinlari** – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrgar, shomon yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, xozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan.

**Milliy dinlar** – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduiylik (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi.

Jahon dinlari – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qa'tiy nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Unga Buddaviylik, Xristianlik va Islom dini kiradi.

3-ilova

**DINLAR TA'LIMOTIGA KO'RA**

Monoteistik – yakkaxudolik
(yahudiylik, islom)

Politeistik – ko'p xudolik
(hindiuiylik, konfutsiychilik)

**4-ilova**

# DINNING TARKIBIY QISMLARI

**Diniy ong**

**Diniy munosabatlar**

**Diniy amaliyot**

Diniy g'oyalar

**Diniy tuyg'ular**

**Diniy g'oyalar deganda diniy da'vatlar, aqidalar, ilohiy adriyat va maqsadlar ifodalan-gan qarashlar majmui tushuniladi. Ular turli dinlarning amal qilish yo'lini, mavjudligini ta'min-lab beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.**

**Diniy tuyg'ular (Xudoga muhabbat, jannatdan umidvorlik, shaytondan nafratlanish va hakozo). – diniy g'oyalardan kelib chiqadi va diniy tarbiya natijasida shakllanib, insonlar-ning odatdagi kechinmalaridan faqat g'ayritabiiylikka qaratilgani bilan farqlanadi, xolos.**

**Diniy amaliyot – bu, dindorlarning e'tiqod ob'ektlariga umumqabul qilingan qoidalarga rioya qilgan holda siginishidir. Unga namoz, diniy urf-odatlar (sunnat, kreshenie), turli ibodat marosimlari (ro'za, xudoyi-ma'rakalar, diniy bayramlar, kitobxonliklar) kiradi.**

**5-ilova**

## DINSHUNOSLIK ILMLARI

### Din psixologiyasi

Din faqat ijtimoiy emas, balki psixologik hodisa hamdir. Din psixologiyasining asosiy g'oyasi shundan iboratki, u din manbasini insonni qurshab turgan olamda emas, balki insonning ichki dunyosida deb xisoblaydi va shu bilan birga, insonning aqliy muhitida emas, balki hissiy muhitida deb biladi.

Din psixologiyasini asoschilari amerikalik U.Djems (1842-1910) va avstriyalik Z.Freydlardir (1856-1939)

### Din sotsiologiyasi

Nemis mutafakkiri M. Veberning (1864-1920) mulohazasi bo'yicha, sotsiolog faylasufdan farqli o'laroq, dinning manbasini tekshir-masligi, dinning ilohiy mohiyati ustida bosh qotirib o'tirmasligi kerak.

### Din falsafasi

Dinning mazmun-mohiya-ti, ijtimoiy hayotdagi o'rnini tushuntirishga yo'nal-tirilgan falsafiy bilim sohasi. Din haqidagi falsafiy qarashlar.

## DUNYO DINLARIDA IBODAT SHAKLLARI

| | | |
|---|---|---|
|  | **Musulmon** |  |
|  | **Xristian** |  |
|  | **Buddaviylik** |  |
|  | **Qadimgi yunonlar** / **Qadimgi misrliklar** |  |

| | Mustahkamlovchi savollar: |
|---|---|
| 1. | Din ta’riflarni izohlab bering. |
| 2. | Dinning paydo bo‘lishiga oid qanday qarashlarni bilasiz? |
| 3. | Din qanday tarkibiy qism, shakl va turlardan iborat? |
| 4. | Dinshunoslik fanining predmeti va tadqiqot ob’ektini nimalar tashkil etadi? |
| 5. | Dinshunoslikdagi turli hil yondashuvlar. |
| 6. | Dinga nisbatan ilmiy nuqtai nazardan yondashish deganda nimani tushunasiz? |
| 7. | Din shaxs, jamoa o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda qanday ahamiyat kasb etadi? |

**B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar**

| № | Tushuncha | Bilaman “+”, Bilmayman “-”. | Bildim “+”, Bila olmadim “-”. |
|---|---|---|---|
| 1. | Din | | |
| 2. | E’tiqod | | |
| 3. | Ateizm | | |
| 4. | Din funksiyalari | | |
| 5. | Dinshunoslik predmet va ob’ekti | | |
| 6. | Diniy ong | | |
| 7. | Diniy g‘oya | | |
| 8. | Diniy to‘yg‘u | | |
| 9. | Diniy amaliyot | | |
| 10. | Dinshunoslik ilmlari | | |

## 1.2. DINNING MOHIYATI, TUZILISHI VA FUNKSIYALARI

**REJA:**

1. Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari.
2. Davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning tiplari.
3. O‘zbekistonda vijdon erkinligini ta’minlanishi.
4. O‘zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar.

**Tayanch tushunchalar:** *diniy tashkilotlar, diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari, konfessiya, masjid, vijdon erkinligi, e’tiqod erkinligi, dahriy – ateist, dinning davlatdan ajratilish, sekulyarizm.*

**Mavzu o‘quv maqsadi:** Talabalarda davlat va din munosabatlarining jahonda tarqalgan shakllari, O‘zbekiston Respublikasida davlat va din munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari, vijdon erkinligining mazmun-mohiyati, O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar faoliyatining qonunchilik asoslari haqida bilimlarini oshirish.

**Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari.** Dinshunoslikda dinga «dinning o‘zi nima?», «uning mohiyati nimadan iborat?» degan savol nuqtai nazaridan yondashishdan tashqari din «qay tarzda faoliyat olib boradi?» degan savol nuqtai nazaridan ham yondashuv mavjud. Bu masala bilan ko‘proq din sotsiologiyasi shug‘ullanadi.

Sotsiologik nuqtai nazardan qaralganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu degani dinni jamiyatdagi bajaradigan vazifalariga ko‘ra o‘rganish mumkin demakdir.

Dinning vazifalari deganda uning alohida shaxsga va jamiyatga ta’sir qilish yo‘li va tabiati nazarda tutiladi. Bunda har bir din unga e’tiqod qiluvchi muayyan

bir shaxsga u yoki bu jamoaga va umuman jamiyatga nima beradi? Insonlar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Shunga o‘xshash masalalar o‘rganiladi.

Din insonning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo‘ldi. SHuning uchun ham dinni o‘rganish - bu insoniyatni o‘rganish demakdir. Dinni insoniyatdan, insoniyatni dindan ajratib bo‘lmasligini tarixning o‘zi isbotladi. «Kommunistik jamiyatda din yo‘q bo‘lib ketadi» deyilgan fikrning aksicha kommunizm xayoliy narsa-yu, din doimiy ekanligi amalda isbotlandi. Demak, din insoniyat bilan birga dunyoga kelgan.

Dinlar unga e’tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o‘zining ma’lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko‘ra turli guruhlarga bo‘linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo‘lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik etuk bo‘lishidan qat’i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo‘lmaydi. CHunki har qanday tasnif ma’lum bir jihatga e’tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi. Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

- tarixiy-geografik jihatga ko‘ra;
- etnik jihatga ko‘ra;
- e’tiqod qiluvchilarining soniga ko‘ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o‘lik diniy tizimlar) va h.k.

***I. Tarixiy-geografik tasnif:***

**1) O‘rta er dengizi havzasi dinlari:**

a) grek;

b) Rim;

v) ellinistik.

**2) Qadimiy Yaqin va O‘rta Sharq dinlari:**

a) Misr;

b) Shumer;

v) Akkad;

g) G‘arbiy-somiy;

d) Islomgacha arablar dinlari.

**3) Yaqin va O‘rta Sharqning payg‘ambarli dinlari:**

a) zardushtiylik;

b) yahudiylik;

v) xristianlik;

g) manixeizm;

d) islom.

4) Hindiston dinlari:

a) vedalar dinlari;

b) hinduizm;

v) hind buddizmi (teravada, maxayana);

g) jaynizm.

**5) Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dinlari:**

a) Shri-Lanka, Tibet, Janubi-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi;

b) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiychilik, buddizm maktablari);

v) Koreya va Yaponiya dinlari.

6) Amerika hindulari dinlari:

a) toltek va atsteklar dinlari;

b) inklar dinlari;

v) mayyalar dinlari.

***II. Etnik tasnif.***

**1. Urug‘-qabila dinlari** - totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o‘z urug‘idan chiqqan sehrgar, shomon yoki qabila boshliqlariga sig‘inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo‘lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba’zi qabilalarda saqlanib qolgan;

**2. Milliy dinlar** - ma’lum millatga xos bo‘lib, boshqa millat vakillari o‘ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduiylik (hindlarga xos), Konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

**3. Jahon dinlari** - dunyoda eng ko‘p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat’inazar unga e’tiqod qilishlari mumkin bo‘lgan dinlar. Unga buddaviylik, xristianlik va islom dini kiradi.

Bundan tashqari dinlar ta’limotiga ko‘ra **monoteistik** - yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va **politeistik** - ko‘pxudolik (hinduiylik, konfutsiychilik) dinlariga bo‘linadi.

**Dinning funksiyalari.** Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi ta’limotni dinshunoslikda funksionalizm rivojlantiradi. Funksionalizm jamiyatga ijtimoiy tizim sifatida qaraydi: unda jamiyatdagi har bir element muayyan funksiyani bajaradi.

Dinning «funksiya» va «rol» tushunchasini farqlash lozim, ular bir biri bilan bog‘liq, lekin o‘xshash emas. Funksiya - bu dinning jamiyatdagi harakat usuli bo‘lsa, rol - bu funksiyani bajarish natijalarining jami yig‘indisidir. Dinning bir nechta funksiyalari mavjud: dunyoqarashni shakllantirish, kompensator, kommunikativ, regulyativ, integrallash-dezintegrallash, madaniyatni targ‘ib qilish (kulturotransliruyushaya), legitimirallashtirish-legitimiralni olib tashlash.

*Dunyoqarashni shakllantirish* funksiyasi dinda inson, jamiyat, tabiatga nisbatan aniq bir qarashlarning turlari mavjudligi tufayli amalga oshiriladi. Din hayotni (mavjudotni) ma’lum nuqtai nazardan tushunish (dunyoni to‘la va undagi ayrim hodisa va jarayonlarni alohida tushuntirish), dunyoni kuzatish (his qilish va idrok etish orqali dunyoni aks ettirish), dunyoni his qilish (hissiy qabul qilish yoki rad etish), dunyoviy munosabat (baho berish) va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Diniy dunyoqarash YAratganga nisbatan eng oliy tuyg‘u va mezonlarni belgilaydi. Bunda mavjud borliqqa tuShuncha berish dinga ishonganlar uchun turli cheklashlar doirasidan chiqish imkonini beradi, yorqin kelajak, huzur-halovatga erishish uchun umid, azob-uqubat, baxtsizlik, yolg‘izlik, tushkunlikdan ozod bo‘lishni qo‘llab-quvvatlaydi.

*Kompensator funksiya* ham odamlarning ongini qayta shakllanishini, ham turmushning ob’ektiv shart-sharoitlarini o‘zgartirishdagi cheklanish, qaram bo‘lish

va ojizlikni to‘ldiradi. Ruhiy erkinlik orqali real jabr-zulm bartaraf etiladi; ijtimoiy guruhlar gunohga botish va azob chekish borasida teng huquqlik bo‘ladi; diniy tashkilotlar tomonidan beriladigan xayr-ehsonlar, mehr-shafqat, tarbiya, daromadlarni qayta taqsimlash mazlumlarning musibatini engillashtiradi va h.z. Umuman olganda, ruhiy zarbalarni bartaraf etish, tasalli berish, katarsis va ma’naviy ozuqa olish kabi kompensatsiyaning psixologik aspektlari muhim ahamiyatga egadir.

*Kommunikativ funksiya* muloqotni ta’minlaydi. U ham diniy, ham diniy bo‘lmagan faoliyat va munosabatlarda vujudga keladi, axborot almashish, o‘zaro ta’sir ko‘rsatish, insonni inson tomonidan idrok etish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Diniy ong ikki xil muloqotni belgilaydi: dindorlarning o‘zaro bir-birlari bilan muloqoti va dindorlarning ibodat, namoz, meditatsiya, maxfiy qarashlar paytidagi mediator va vositachilari tomonidan gipostazir jonzotlar (xudo, farishta, o‘lganlarning ruhi, avliyolar va b.) bilan muloqoti.

*Regulyativ funksiya* ma’lum bir g‘oyalar, qadriyatlar, yo‘l-yo‘riqlar, stereotip qoliplar, fikrlar, an’analar, rusumlar, institutlar orqali individ, guruh va jamoalarning faoliyati, munosabatlari, ongi va axloqini boshqarishdan iborat. Ayniqsa, me’yorlar tizimi (diniy huquq, axloq va h.z.), namunalar (taqlid uchun ko‘psonli misollar), nazorat (qoidalar bajarilishini kuzatish), rag‘batlantirish va jazo berish (haqiqiy va o‘limdan keyin taqdirlanishiga va’da berish) muhim ahamiyatga ega.

*Integratsion-dezintegratsion funksiya*si individ, guruh va institutlarni bir tomondan birlashtiradi, boshqa tomondan ularni ajratadi. Integratsiya shaxslar, ayrim ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, bir butun jamiyatdagi barqarorlik va chidamlilikni saqlasa, dezintegratsiya uni zaiflashishiga olib keladi. Integratsion funksiya ma’lum bir ma’noda yagona diniy e’tiqod mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi. Agar shaxslarning diniy ongi va xulq-atvorida bir-biriga muvofiq bo‘lmagan g‘oyalar, ijtimoiy guruh va jamiyatda bir-biriga qarama-qarshi konfessiyalar paydo bo‘lsa, dinning funksiyasi dezintegratsion bo‘ladi.

*Madaniyatni targ‘ib qilish funksiya*si oldin madaniyatning ma’lum bir qatlamlari - yozuv, kitob bosish, san’atning umuman rivojlanishiga yordam bergan bo‘lsa, hozirda ba’zi madaniy fenomenlarni rag‘batlantirib, ba’zilarini inkor etgan holda diniy madaniy qadriyatlarni saqlash va ko‘paytirish, ilmiy-ma’naviy merosni nasldan naslga qoldirish vazifalarini bajaradi.

*Legitimlashtirish-delegitimlashtirish funksiya*si ba’zi jamoat tartiblari, institutlar, munosabatlar, me’yorlar, namunalarni majburiyat sifatida qonuniy qilish yoki ularning ba’zilarini qonundan chiqarish vazifalarini amalga oshiradi. Din ma’lum huquqiy talab va majburiyatlarni ilgari suradi va uning asosida ba’zi ko‘rinishlarga, ularga ma’lum munosabatni shakllantirgan holda baho beradi. Bunda majburiy va e’tiroz qilib bo‘lmaydigan xarakter muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan qisqa xulosa qilib aytganda, din insoniyat tarixida, *birinchidan,* umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulq-atvor qoidalariga aylantirgan; *ikkinchidan,* odamlarning bahamjihat yashashiga ko‘malashgan; *uchinchidan,* odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o‘tishlarida kuch bag‘ishlagan; *to‘rtinchidan*, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga etkazishga yordam bergan va shu yo‘l bilan madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

**2. Din va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning tiplari.** Rivojlangan demokratik yo‘ldan ketayotgan davlatlarning hozirgi zamonda dinga munosabati asosan vijdon erkinligini ta’minlash va diniy bag‘rikenglikka asoslangan. Shunga qaramay, bugungi kunda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar o‘z mazmuni, mohiyati, shakllari va usullariga ko‘ra turli davlatlarda o‘ziga xoslikka ega. Shu munosabat bilan din va davlat o‘rtasidagi munosabatning tiplari, modellari haqida fikr yuritish mumkin.

Hozirda davlat bilan din (diniy tashkilotlar) o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning turli shakllari mavjud bo‘lib, ular bugunga kelib quyidagi uchta asosiy turkumga ajratiladi:

1. Davlat-diniy tashkilot modeli – identifikatsion model. Bunday modelni biz, misol uchun, Daniya, Angliya, Gretsiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiyada (ya’ni Evropa ittifoqining deyarli uchdan bir qismida), Saudiya Arabistoni, Bruney qirolligi, Qatar, Eron islom respublikasida kuzatishimiz mumkin.

2. Separatsion, ya’ni davlat dindan ajratilganligiga asoslangan model. Davlat bilan din o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning bu turiga AQSH, Fransiya, Niderlandiya, Turkiya, MDH davlatlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasi kabi davlatlarni misol sifatida keltirish mumkin.

3. Kooperatsion – neytralitet modeli. Germaniya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Lyuksemburg, Avstriya kabi mamlakatlarida o‘z aksini topgan.

Identifikatsion model muayyan tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, Evropaning ayrim mamlakatlarida davlat dinini rasmiy belgilash prinsipiga amal qiladi. Jumladan, hozirgi kunda anglikan cherkovi (rasmiy nomlanishi – Angliya cherkovi) davlat maqomiga egadir. Qirolikdagi diniy tashkilotlarning o‘rni-mavqei bir qator parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar hamda davlat va diniy tashkilot o‘rtasidagi keliShuv-bitimlari bilan belgilanadi. Shunday hujjatlardan eng muhimi – 1534 yili qabul qilingan «Suprematiya (ustuvorlik) to‘g‘risidagi akt»dir. Unga binoan qirol anglikan cherkov rahbari hisoblanadi (1952 yildang buyon qirolicha). Monarx hukumat tavsiyasiga binoan episkoplarni tayinlaydi. Bunday episkoplarning aksariyat qismi lordlar palatasining a’zolaridir.

Barcha din xizmatchilaridan san (diniy unvon)ga bag‘ishlash jarayonida qirolga itoatkorlik to‘g‘risida qasamyod qilishi talab etiladi. Shuningdek, cherkovning muhim hujjatlari, Shuningdek anglikan cherkovining Bosh sinodi qarorlari, qonuniy kuchga kirishidan avval, parlament tomonidan tasdiqlanishi va qirol tomonidan ma’qullanishi lozim. Anglikan cherkovi xizmatchilari tomonidan rasmiylashtirilgan nikohlar yuridik kuchga ega. Diniy tashkilot o‘zining barcha

mablag‘larini bevosita emas, balki «Cherkov vakolatdorlari» nomli davlat moliyaviy tashkiloti orqali tasarruf etadi. Bu tashkilot qo‘lida Angliya cherkoviga rasmiy tegishli bo‘lgan barcha moliya-mablag‘lar to‘planadi.

Shvetsiya, Daniya va Norvegiyada diniy tashkilotning maqomi boshqa mamlakatlarda bo‘lgan maqomidan jiddiy farq qiladi. Skandinaviya mamlakatlarining xarakterli belgisi – protestantizmning qat’iy ustuvorligi hisoblanadi - bu mamlakatlarda aholining 90 foizidan ko‘prog‘i protestant cherkoviga mansubdir.

Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining aksariyatida davlat dini sifatida islom dini e’tirof etilgan bo‘lib, ko‘pincha, bu haqda ularning nomlarida ham ko‘rsatiladi: Pokiston Islom Respublikasi, Eron Islom Respublikasi. Shu bilan birga islom Afg‘oniston, Misr, Iroq, Jazoir, Tunis va Iordaniyada ham davlat dini sifatida e’tirof etilgan.

1979 yili 23 dekabrda tasdiqlangan Eron Islom Respublikasining Konstitutsiyasida aytilishicha, «Eronda 12 ta imomlarning mavjudligini nazarda tutuvchi ja’fariya mazhabi rasmiy din sifatida e’tirof etiladi hamda bu qoida abadiy o‘zgarmas bo‘lib qoladi» (12-modda). «Barcha fuqarolik, moliyaviy, iqtisodiy, ma’muriy, madaniy, harbiy, siyosiy va boshqa qonun-qoidalar islom normalari asosida belgilanishi lozim» (4-modda).

Qirol bir vaqtning o‘zida hukumat rahbari, oliy bosh qo‘mondon va diniy rahbar sifatida namoyon bo‘ladigan, mutlaq teokratik monarxiyaga Saudiya Arbistonini misol qilib keltirsa bo‘ladi. Bu mamlakat Konstitutsiyada Qur’oni karim va Payg‘ambar alayhis-salom sunnatlari har qanday normadan ustun ekani e’tirof etilgan. Saudiya Arabistonida mahalliy aholi to‘liq islom diniga e’tiqod qiladi. Shuningdek, Makka va Madina shaharlariga islomdan boshqa dinga e’tiqod qiluvchi shaxsning kirishi taqiqlanadi. Qirollikda sud hokimiyati asosan shariat sudlari tomonidan Qur’on ko‘rsatmalariga amal qilgan holda amalga oshiriladi.

Isroilda esa Yahudiylik davlat dini bo‘lib, bu mamlakatda din davlat mexanizmining bir qismi sifatida o‘z aksini topgan. Mamlakatda yagona

konstitutsiya mavjud bo‘lmay, uning o‘rniga Knesset tomonidan qabul qilinadigan qonunlar amal qiladi. 1952 yilgi qonunga binoan Isroil fuqaroligi Yahudiylikdan boshqa dinga e’tiqod qiluvchi yoki umuman dinsiz Yahudiylarga berilmaydi. Sinagoga va ravvinatning jamiyat turli sohalardagi aralaShuvi nihoyatda keng bo‘lib, ular o‘zlari tomonidan chiqarilgan turli ko‘rsatmalar orqali e’tiqod qiluvchi hayotining turli jabhalarini tartibga soladi.

Ayrim mamlakatlarning konstitutsiyalarida diniy tashkilotning davlatdan ajratilganligi (separatsion model) mustahkamlangan bo‘lib, bunda davlat dinni o‘z fuqarolarining shaxsiy ishi sifatida ko‘radi. Bunday holatni «erkin jamiyatda erkin e’tiqod» degan ibora bilan izohlasa bo‘ladi.

Separatsion model vakillaridan bo‘lgan AQSHda davlat va dinning bir-biri ishlariga ikki tomonlama aralashmaslik, diniy jamoalarning erkinligi, diniy konfessiyalar o‘rtasida davlatning betaraf ekanini nazarda tutuvchi diniy tashkilotning davlatdan qat’iy ajratilishi tamoyili keng yoyilgan.

Diniy tashkilotning davlatdan ajratilishi prinsipi boshqa shaklda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Evropada bunday tizim diniy tashkilotga qarshi kurash jarayonlari natijasi sifatida shakllandi. XIX asr davomida Fransiyada davlat-din munosabatlari hamkorlikdan butunlay uzilishga qadar o‘zgarib, 1905 yildan cherkov davlatdan rasmiy ravishda ajratiladi. Shunga bog‘liq ravishda 1905 yili Fransiyada qabul qilingan qonun quyidagilarni tan oladi:

1. Vijdon va e’tiqod erkinligi;

2. Davlat tomonidan diniy tashkilotlar va ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishining taqiqlanishi;

3. Barcha dinlarga, hech bir istisnosiz teng munosabatda bo‘lish.

Fransiyada qabuli qilingan dinning davlatdan ajratilishi to‘g‘risidagi qonun diniy marosim va urf-odatlarni bajo keltirish davlat hokimiyati ruxsati va nazorati bilan amalga oshirilishini belgilab qo‘ydi.

Kooperatsion, ya’ni neytralitet modeliga Germaniya federativ respublikasini misol tariqasida keltirish mumkin. GFR da davlat bilan diniy tashkilot o‘rtasidagi

munosabatlarda davlat hokimiyatining ustuvorligi e'tirof etilgan, davlat-diniy tashkilot huquqi vujudga keldi.

Veymar Konstitutsiyasi davridan boshlab Germaniyada davlat-cherkov munosabatlari sekulyarlik tamoyiliga asoslanadi. Shuningdek, davlat hokimiyati bilan diniy tashkilot muunosabatlarida muayyan masofa saqlanadi. Hozirgi kunda bunday masofani «neytralitet» termini bilan atash odat boʻlgan.

Hozirgi kunda davlat-cherkov munosabatlari GFR Asosiy qonunining 140-moddasi asosida tartibga solinadi. Oʻz navbatida konstitutsiyaning mazkur moddasi 1919 yilgi Veymar Konstitutsiyasining 136-139, 141- moddalaridan tashkil topgan. Mazkur qoidalarga binoan GFR da davlat biror dinga rasmiy davlat dini maqomini bermaydi.

GFRda diniy mashgʻulotlar davlat bilan diniy tashkilot oʻrtasidagi oʻzaro munosabatning oʻziga xos ifodasi boʻlib, diniy mashgʻulotlar davlat bilan diniy tashkilotning umumiy ishi sifatida e'tirof etiladi. GFR Konstitutsiyasining 7-moddasiga binoan, ommaviy maktablarda diniy ta'lim majburiy predmet sifatida oʻqitiladi.

Koʻrib chiqilayotgan model doirasida 1920 yilgi Avstriya konstitutsiyasida ham oʻziga xosliklar bor. Unda ham vijdon va e'tiqod erkinligi toʻliq e'tirof etiladi. Avstriyada ham, GFRda boʻlgani kabi, cherkov davlatdan ajratilmagan. Katolik cherkovi davlat maqomiga ega boʻlmasa-da, diniy sohada hukmronlik qiladi va mafkuraviy hayotning turli jabhalariga jiddiy ta'sir koʻrsatadi. E'tiqod qiluvchilarning taxminan 90% ni katoliklar tashkil etadi.

Yuqoridagi davlatlar misolidan koʻrinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarda diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini, davlatning dinga, vijdon va e'tiqod erkinligiga boʻlgan munosabatini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy va qonunchilik normalari nihoyatda turli-tumandir. Konstitutsiyalar odatda, diniy tashkilot bilan davlat oʻrtasidagi oʻzaro munosabat asoslari, jamiyatda dinning tutgan oʻrni bilan bogʻliq masalalarni tartibga soluvchi maxsus moddalarni, ayrim hollarda esa bir-butun

bo‘lim va boblarni ham o‘zida aks ettiradi. Umuman olganda esa, konstitutsiyalar konfessiyalar va e’tiqod qiluvchilar huquqlarining kafili bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekistonda tarkib topgan davlat va din o‘rtasidagi munosabat o‘z mohiyati, mazmuni va huquqiy asoslariga ko‘ra separatsion modelga, ya’ni davlatdan din, umumta’lim maktablaridan diniy ta’limning ajratilganligi va vijdon erkinligi, konfessional bag‘rikenglik ta’minlanganligiga asoslanadi.

O‘zbekiston dunyoviy davlat bo‘lib, mamlaktimizda din davlatdan alohida bo‘lib, bu haqda mamlakatimiz Konstitutsiyasining 61-moddasida Shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi».

Bu g‘oya «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasida ham mustahkamlangan bo‘lib, unda ham dinning davlatdan ajratilganligi, hech bir dinga yoki diniy e’tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan. Bu esa mamlakatimizda davlatning diniy ishlarga, dinning esa davlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno, albatta) aralashmasligini anglatadi.

Buning zamirida davlat tomonidan turli dinlarga e’tiqod qiluvchi va dinga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, Shu kabi tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashishi, ular o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshilik va keskinliklarning oldini olishi, diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlashi, diniy tashkilotlar zimmasiga davlat o‘zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamasligi, ularning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan faoliyatiga aralashmasligi kabilar yotadi.

Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplarga sodiqligini ifodasi sifatda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatda quyidagi pritsiplarga amal qilishini e’lon qildi:

- *dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;*

•*diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;*

•*diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;*

•*ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati;*

•*dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.*

Yuqoridagilarga asoslangan holda, xulosa qilish mumkinki, biz yuqorida tahlil etgan davlat va din oʻrtasidagi munosabatning uch modeli davlat va din oʻrtasidagi munosabatning turli-tuman qirralarini jihatlarini va xossalarini toʻlaligicha qamrab ololmaydi. Davlat va din oʻrtasidagi munosabatning bir modelida boshqa model elementlari ham uchrab qolishi mumkin. Shu jihatlarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, davlat va din oʻrtasidagi munosabatning qaysi modelda boʻlishi Shu davlatning taraqqiyoti, undagi aholining mentaliteti, dinning xususiyati, mamlakatdagi demokratik vaziyat, inson huquqlarining ta'minlanganligi, xalqaro ahvol, jamiyatning onggi kabi omillar ta'sir etishi Shubhasizdir.

**3. Oʻzbekistonda vijdon erkinligini ta'minlanishi.** Vijdon erkinligi tabiiy huquq va erkinliklar sirasiga kiruvchi, har bir shaxsning ajralmas huquqlaridan biridir. SHaxsning tabiiy huquqlari davlatning insonga bergan «tuhfasi» emas, balki insonning munosib turmush va hayot tarzini tanlash bilan bogʻliq real imkoniyati hisoblanadi.

Shu bilan birga, tabiiy huquqlar jumlasiga kiruvchi erkinliklarni qonun chiqaruvchi oʻzi xohlaganda qisqartirishi yoki cheklashga ham haqli emas. Chunki bu huquqlar insonlarga tabiatan (Xudo tomonidan) berilgan in'om sanaladi.

Vijdon erkinligi insonning asosiy erkinliklaridan bo‘lsa-da, qonunda o‘z ifodasini topib, muhofaza ostiga olingandagina chin ma’noda huquq darajasiga ko‘tariladi. Aks holda shaxsning qalb kechinmalarini ifodalovchi bu huquq haqiqiy ma’nosini yo‘qotadi.

Bu erkinlik deyarli barcha davlatlarning konstitutsiya va qonunlarida, Shuningdek, qator xalqaro hujjatlarda huquqiy jihatdan himoyaga olingan.

Atama sifatida «vijdon» so‘zi ko‘p ma’noni anglatadi. Bu atama turli soha va ijtimoiy qatlamga mansub insonlar tomonidan turlicha qo‘llaniladi. A.Madvaliev tahriri ostida nashr etilgan «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «vijdon» so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

«Vijdon» (*arab.* ehtiros, his-tuyg‘u, insof, diyonat) kishining o‘z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biri; diyonat, insof», deya izoh berilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, vijdon so‘zining birinchi ma’nosi insoning o‘z xatti-harakatilari uchun o‘zgalar oldidagi mas’uliyat hissi hisoblanar ekan.

Aslida olib qaraganda «vijdon» so‘zi ko‘p ma’noli bo‘lgani bois uning huquq atamaShunosligida ishlatilishi unchalik ham ijobiy hol emas. Chunki «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonun talablariga ko‘ra qonun hujjatlarida foydalaniladigan tuShuncha va atamalar turlicha izohlash imkoniyatini istisno etishi lozim. Shuningdek, qonunda eskirgan hamda ko‘p ma’noni anglatadigan so‘zlar va iboralar, majoziy taqqoslashlar, sifatlashlar, kinoyalar qo‘llanilishi mumkin emas. Lekin bu atama endi qonunchiligimizga kirib bo‘ldi. Uni foydalanishdan chiqarib, yangi so‘z ixtiro qilgandan ko‘ra, atamaning mazmun-mohiyatini keng ommaga tuShuntirish, izohlab berish maqsadga muvofiq.

Shunday ekan, vijdon erkinligining birinchi ma’nosi aynan shaxsning e’tiqodi bilan bog‘liq huquqi sifatida qabul qilgan holda Shu mazmunni yoritishga harakat qilamiz.

Huquqiy mezonda vijdon tushunchasi «vijdon erkinligi» shaklida keladi. O‘zbekistonning asosiy qomusi – Konstitutsiyada ta’kidlanishicha «Hamma uchun

vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi» (31-modda), degan qoida mustahkamlangan.

Bu qoidaga ko'ra «vijdon erkinligi» degan tushunchaning mazmun-mohiyati shaxsning xohlagan dinga e'tiqod qilishi bilan birga, hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik ixtiyorini ham qamrab oladi. Bu modda so'ngida «diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi», degan muhim qoida asosida, har bir inson haqli bo'lgan huquqning buzilmasligi uchun qonuniy zamin tayyorlangan. Buning zamirida vijdon erkinligiga nisbatan har qanday tahdidni bartaraf etish istagi yotadi.

Shunday qilib, Konstitutsiyamizdagi norma asosida vijdon erkinligi uch jihatni anglatadigan huquqiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi:

•*Muayyan shaxs Xudoga ishonishi, xohlagan diniga e'tiqod qilishi mumkin;*

•*Xudoga va dinga ishonmasligi, ularga nisbatan betaraf bo'lishi mumkin.*

•*Dahriy, ya'ni hech bir dinga e'tiqod qilmaygina qolmasdan, balki ularni inkor etishi mumkin.*

Bu vijdon erkinligi huquqi aynan Shu masalalar bilan cheklanadi degani emas. Odatda, konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, yoritiladigan normaning umumiy jihatlarini o'zida qamrab oladi. Konstitutsiya asosida qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarida norma kengroq yoritiladi va sharhlanadi. Konstitutsiyadagi 31-modda zamirida qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi birinchi va ikkinchi banlarida bu tuShuncha kengroq ochib berilgan. Unda aytilishicha, «Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi».

Demak, vijdon erkinligi faqat Xudoga ishonish yoki ishonmaslikdan tashqari, ibodat qilish, diniy rasm-rusmlar va marosimlarda ishtirok etish erkini, Shuningdek, diniy ta’lim olish yoki olmaslikni o‘z ixtiyori asosida belgilash huquqlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda maslaning ikkinchi jihatini ham e’tiborga olish zarur, ya’ni O‘zbekistonda diniy ta’lim maktab ta’limidan ajratilgan. Shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligida xususiy tartibdagi diniy ta’lim taqiqlanadi. Shunday ekan, diniy ta’lim maxsus vakolatga ega bo‘lgan diniy ta’lim muassasalarida o‘rganiladi.

Shaxs dinga nomigagina ishonishi yoki xudojo‘y bo‘lishi, but va sanamlar yoki jonivorlarga sig‘inishi, dinsiz dahriy yoki butunlay dinga qarshi inson ham bo‘lishi mumkin. Ammo shaxsning bu kabi qarashlari uni ayblash yoki tahqirlash uchun asos bo‘lmaydi. Bu vijdon erkinligi huquqi asosida kafolatlangan imtiyoz hisoblanadi. Kimning qanday e’tiqodga ega bo‘lishi yoki bo‘lmasligi uning vijdoniga havola etiladi. Lekin havola etilayotgan e’tiqod qonunga xilof bo‘lmasligi shart. Ya’ni e’tiqod qilaman deb taqiqlangan diniy tashkilotlarga e’zo bo‘lishi yoki ularning g‘oyalarini targ‘ib qilishi qonunga xilof sanaladi. Shu bilan birga, bir shaxs boshqa shaxsni e’tiqodiy qarashlaridan kelib chiqib tahqirlashi ham taqiqlanadi. O‘z navbatida, bunday xatti-harakat javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ba’zi huquqiy adabiyotlarda «vijdon erkinligi» o‘rnida «e’tiqod erkinligi» tuShunchasini ham uchratish mumkin. Aslida «e’tiqod» (arabcha «i’taqada» fe’lidan) so‘zi ham ko‘p ma’noli so‘zlar jumlasiga kirib, ishonch, imonli bo‘lish, ko‘ngilda tasdiqlash kabi bir necha ma’nolarga ega. Biz uchun kerakli bo‘lgan ma’nosiga keladigan bo‘lsak, Xudoga yoki umuman g‘ayritabiiy kuchlarga imon keltirishni anglatadi.

E’tiqod erkinligi ham vijdon erkinligi singari shaxsning biror dinni ixtiyor etib, unga e’tiqod qilishi huquqini anglatadi. Lekin bu huquq vijdon erkinligi qoidalari ruxsat beradigan dahriy bo‘lish huquqini kafolatlamaydi. Shu kabi farqlar sababli ayrim davlatlar qonunchiligida (musulmon arab davlatlarida) vijdon erkinligi emas, e’tiqod erkinligi kafolatlangan. Shunga asosan agar inson amal qilib turgan dinidan chiqadigan bo‘lsa, ayrim hollarda qonuniy jazo sanksiyalarining qo‘llanilishi ham e’tiqod erkinligining o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatadi.

Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, vijdon erkinligi e’tiqod erkinligidan kengroq tuShuncha hisoblanadi.

Vijdon erkinligi tushunchasi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham atroflicha bayon etilgan. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida shaxsning vijdon erkinligi huquqi kafolatlangan. Unda aytilishicha,

«Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zgartirish erkinligini va ta’limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o‘z dini yoki e’tiqodiga yakka o‘zi, Shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o‘z ichiga oladi».

Mazkur normaga ko‘ra vijdon erkinligi shaxsga quyidagi huquqlarni kafolatlaydi:

•*shaxsning o‘z dini yoki e’tiqodiga ega bo‘lish;*

•*shaxsning o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zgartirish;*

•*ta’limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish;*

•*o‘z dini yoki e’tiqodiga yakka o‘zi, Shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish.*

Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktning 19-moddasida ham vijdon erkinligiga ayni Shu mazmunda izoh berilgan.

Shu o‘rinda bir masalaga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Vijdon erkinligi shaxsning o‘z dini va e’tiqodini o‘zgartirish huquqini kafolatlashi aniq. Lekin bunday o‘zgartirish boshqa shaxsning ta’sirida bo‘lmasligi shart. Aks holda, bu qonunchiligimizda taqiqlangan missionerlikning bir ko‘rinishiga aylanib qolishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, vijdon erkinligi shaxsning konstitutsiyaviy tabiiy huquqi bo‘lib, davlat bu erkinlikni huquqiy kafolatlash va amalda ta’minlash tadbirlarini ro‘yobga chiqarish bilan bir qatorda, uni poymol etishga nisbatan har qanday tahdidning oldini olishga ham intiladi. Qonun ustuvorligi eng oliy mezon bo‘lgan fuqarolik jamiyatining har bir a’zosi ushbu qonuniy talabga to‘g‘ri munosabatda bo‘lib, uning hayotga tatbiq etilishiga hissa qo‘shishi lozim. Chunki eng muhim konstitutsiyaviy huquqlardan bo‘lgan vijdon erkinligi huquqining amalda ro‘yobga chiqarilishi fuqarolik jamiyatining ma’naviy-madaniy rivojlanganlik darajasining ham muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.

**4. O‘zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar.** Inson va fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishlarida diniy tashkilotlarning muhim o‘rni bor. Davlat bilan din o‘rtasidagi munosabatlarda sub’ekt sifatida bir tomondan e’tiqod qiluvchilar, ya’ni fuqarolar, ikkinchi tomondan davlat va uchinchi tomondan diniy tashkilotlar qatnashadi.

O‘zbekiston dunyoviy xarakterdagi davlat va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lishiga qaramay, ularni jamiyatdan ayri holda tasavvur etib

bo‘lmaydi. Shu sababli davlat diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyatini qo‘llab quvvatlaydi, jamiyatning ma’naviy qadriyatlarini tiklanishi va rivojlanishida diniy tashkilotlar ko‘magiga tayanadi, ya’ni O‘zbekistonda din davlatdan ajratilgan bo‘lsada, jamiyatning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

Bugungi kunda din bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi fuqarolar va davlatning o‘rni va ahamiyati birmuncha oydin bo‘lsa-da, diniy tashkilotlar haqida, ularning maqomi va vazifalari, faoliyati haqida ma’lumotga ega bo‘lish vijdon erkinligi sohasidagi bilim va ko‘nikmalarning yanada ortishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunining 8-moddasi diniy tashkilotlarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda aytilishicha, «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e’tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o‘quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e’tirof etiladi».

Diniy tashkilotga berilgan bu kabi ta’rif boshqa davlatlar qonunchiligida ham uchraydi. Jumladan, Armaniston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunida «Diniy tashkilot – bu fuqarolarning dinga e’tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko‘ngilli birlashmalari (cherkovlar, diniy jamiyatlar, eparxiyalar, monastirlar, diniy kongregatsiyalar, diniy o‘quv yurtlari, nashriyotlar) dir» deya ta’rif berilgan.

Rossiya Federatsiyasining «Vijdon erkinligi va diniy birlashmalar to‘g‘risida»gi federal Qonunining 8-moddasi 1-bandida: «Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, Rossiya Federatsiyasi hududida doimiy va qonuniy asoslarda istiqomat qiladigan boshqa shaxslarning dinga birgalikda e’tiqod qilish va tarqatish maqsadlarida tuzilgan va yuridik shaxs sifatida qonun bilan belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan ko‘ngilli birlashmalari», diniy tashkilot deb e’tirof etiladi.

Demak, diniy tashkilot tushunchasiga berilgan ta’riflar o‘rtasida mushtarak jihatlar mavjud. Umuman olib qaraganda diniy tashkilot inson va fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini amalga oshirishlariga ko‘maklaShuvchi notijorat ko‘ngilli tashkilot hisoblanadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritadigan barcha diniy tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonuniga va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlariga asosan tashkil etiladi va faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonuniga asosan diniy tashkilotlar faoliyati fuqarolarning *dinga e’tiqod qilish, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etishlariga ko‘maklashish*ni maqsad qiladi.

Qonunchilikda diniy tashkilotlarning bir necha turlari e’tirof etiladi. Unga ko‘ra, *diniy jamiyatlar, diniy o‘quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar* va boshqa tashkilotlarga diniy tashkilot maqomi beriladi.

Diniy tashkilot huquqiy jihatdan e’tirof etilishi uchun, avvalo, u qonuniy asoslarga ega bo‘lishi lozim. Respublikamizda tuziladigan diniy tashkilotlar ustav (nizom)i O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki uning joylardagi organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lib, qonunchilikda belgilangan tartibda o‘z faoliyatini olib borishi mumkin.

Respublikamizning «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risdagi» Qonuni va «O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida» Vazirlar Mahkamasi qarori asosida diniy tashkilot tuzish uchun to‘rtta muhim shartga amal qilish kerak. Unga ko‘ra diniy tashkilot tuzish uchun tashabbuskorlar:

- 18 yoshga to‘lgan bo‘lishlari lozim. Bu holat deyarli barcha davlatlarning qonunchiligida mustahkamlangan qoida bo‘lib, shaxs 18 yoshga to‘lgach o‘z xatti-harakatining mazmun-mohiyatini to‘liq anglab etadi va sudda da’vogar va javobgar bo‘lish huquqiga ega bo‘ladi.
- O‘zbekistonda muqim yashayotgan bo‘lishlari lozim. Diniy tashkilotda o‘tkaziladigan ibodat va rasm-rusmlar asosan Shu hududda muqim yashovchi insonlarga mo‘ljallanadi. Bundan tashqari xorijda yashovchi insonning boshqa mamlakatda tashkil etiladigan diniy tashkilotni tuzishdan ko‘zlangan maqsadi har doim ham ezgu bo‘lavermaydi. Bunga Yaqin o‘tmishimizda ayrim diniy ekstremistik oqimlar tomonidan sodir etilgan jinoiy xatti-harakatlar misolida ham ko‘rish mumkin.
- O‘zbekiston fuqaroligiga ega bo‘lishlari kerak.
- Bu esa, mamlakatimizdagi diniy tashkilotlar shaxsning millati, dinidan qat’i nazar faqat O‘zbekiston xalqi tomonidan tuzilishi mumkin ekanini anglatadi. Lekin diniy tashkilotga a’zo bo‘lishda shaxsning biror davlatning fuqarosi bo‘lish-bo‘lmasligining unchalik ahamiyati yo‘q. Chunki, diniy tashkilotga a’zo bo‘lish vijdon erkinligining tarkibiy qismi bo‘lib, har bir shaxs bu huquqdan foydalanishga haqlidir.
- Son jihatdan 100 nafardan kam bo‘lmasliklari shart qilinadi.

- Respublikamizning dastlabki tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risdagi» Qonunining 13-moddasida diniy tashkilot kamida o‘n kishidan iborat o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolar tashabbusi bilan tuzilishi qayd etilgan edi. Diniy tashkilotlar jamoat birlashmalaridan ayrim jihatlarda farq qiladi va mas’uliyati ham kattaroq. Shu bilan birga qonunchilikda belgilangan qoidalar jamiyat rivoji va zamon talabi bilan o‘zgarishi muqarrar.

Dunyo davlatlarining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchiligiga e’tibor qaratilsa, diniy tashkilot tuzish uchun zarur bo‘lgan tashabbuskorlarga qo‘yilgan minimal miqdor turlicha ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘istonda 10 nafar, Polsha, Litvada 15, Latviyada 25, Vengriyada 100, Armaniston va Qirg‘izistonda 200, CHexiyada 300, Turkmanistonda 500 nafardan iborat fuqarolar tashabbusi bilangina diniy tashkilot tuziladi. Bu esa, diniy tashkilot tuzish borasidagi qoidalar har bir davlatning o‘z shart-sharoitidan kelib chiqqan holda belgilanishini ko‘rsatadi.

Diniy tashkilot tuzilib, ustav (nizom)i qabul qilingach, u bir oylik muddatda Adliya vazirligi yoki uning hududiy boshqarmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim. «O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi Qaror asosida diniy tashkilotlar ro‘yxatdan o‘tish uchun tegishli hujjatlarni adliya organlariga taqdim etadilar. Taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar tuzilgan diniy tashkilotning qonuniyligini o‘rganishga xizmat qiladi.

Adliya organlari bir oylik muddatda ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha arizani ko‘rib chiqadi va tashkilot ustavini ro‘yxatdan o‘tkazish, ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish yoki arizani inobatsiz qoldirish haqidagi qarorni qabul qiladi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risdagi» Qonunga ko‘ra ro‘yxatdan o‘tgan va tegishli konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va yo‘naltirib borish uchun ularning O‘zbekiston bo‘yicha yagona *markaziy boshqaruv organlari* tuzilishi mumkin.

Markaziy boshqaruv organi Respublikaning kamida sakkizta hududiy tuzilmasida (viloyat, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) faoliyat ko‘rsatayotgan, tegishli konfessiyalarning diniy tashkilotlari vakillari ta’sis yig‘ilishi tomonidan tuziladi.

YUqorida aytib o‘tilganidek, Markaziy boshqaruv organining asosiy vazifasi o‘z konfessiyasiga tegishli bir nechta diniy tashkilotlarning faoliyatini, dinga e’tiqod qilish, ibodat qilish, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish, diniy ta’lim berish, dinni targ‘ib etish borasidagi maqsad va vazifalarini, harakat dasturlarini muvofiqlashtirish va yo‘naltirib borishdan iborat.

Respublikamizda davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish vazifasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita zimmasiga yuklangan.

Qo‘mita har bir shaxsning vijdon va diniy e’tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar tengligini ta’minlash, Shuningdek diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. U mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq diniy masalalarni hal qilishda yagona siyosatni amalga oshiradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Adliya organlaridan rasman ro‘yxatdan o‘tgan 16 ta diniy konfessiya (Islom, Rus pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Nemis-lyuteran cherkovi, Arman-apostol cherkovi, To‘liq injil xristianlari, Evangel-xristian baptistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Ettinchi kun adventistlari, «Golos bojiy», Iegovo shohidlari, Koreys protestant cherkovlari, Yahudiylik, Bahoiylik, Krishnani anglash jamiyati, Buddaviylik) faoliyat olib bormoqda. Ularning jamiyat hayotida birdek ishtirok etishlari uchun zarur imkoniyatlar yaratib berilgan.

Diniy tashkilotlarni vijdon erkinligini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatini hisobga olib davlat tomonidan ularga bir qator imtiyozlar ham belgilangan. Jumladan, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunning 16-moddasida diniy tashkilotlar muayyan miqdorda davlat mulkidan foydalanishlari mumkin ekani ko‘rsatilgan. Shunga ko‘ra, diniy tashkilotlar o‘z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnoma asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan foydalanishga haqlidir. Bu esa tegishli hokimiyat organlari ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining «Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida»gi qonunining 27-moddasiga muvofiq tarixiy va madaniy yodgorliklar ob’ektlari va buyumlar diniy tashkilotlarga tekin foydalanish shartnomasi shartlarida berib qo‘yilishi ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining «Din sohasidagi ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim ishlarini va faoliyatni takomillashtirishda ijtimoiy ko‘mak va imtiyozlar berish to‘g‘risida»gi Qarorini bir so‘z bilan diniy tashkilotlarga nisbatan belgilangan sanatsiya deb atash mumkin. Chunki, bu Qaror diniy tashkilotlarga kommunal xizmatlar uchun olinadigan to‘lovlarni yuridik shaxs

sifatida emas, balki jismoniy shaxslardan olinadigan miqdorda to‘lash huquqini berdi.

Kommunal xizmat to‘lovlaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tuShumlar va ziyoratgohlardan tushadigan xayriya mablag‘larini O‘zbekiston musulmonlari idorasi tizimidagi masjidlarni ta’mirlash, diniy ta’lim muassasalarining o‘quv va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘qituvchi-mudarris va imom-xatiblarning mehnatini rag‘batlantirish ishlariga sarflash belgilab qo‘yildi.

Diniy tashkilotlarga hukumat darajasida bu kabi ijtimoiy yordamlarning berilishini ham davlatning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy konfessiyalarni rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlarining amaliy ifodasi sifatida baholash mumkin.

Shunday qilib, O‘zbekistonda barcha shaxslarning vijdon va e’tiqod erkinligi huquqini ta’minlashga xizmat qiluvchi diniy tashkilotlarning hech bir to‘siqlarsiz, qonunda belgilangan tartib va asoslarda faoliyat olib borishlari uchun tegishli huquqiy asos va tashkiliy shakllar ta’minlangan. Bu holat davlatimizning dunyoviy demokratik davlat sifatida rivojlanayotgani hamda diniy bag‘rikenglik tamoyillariga sodiq ekanini ko‘rsatadi.

**Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:**

1. Vijdon erkinligi nima va uning e’tiqod erkinligidan qanday farqlari mavjud?
2. Diniy tashkilot nima va uning boshqa jamaot tashkilotlaridan qanday farqlari bor?
3. Davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning qanday metodlarini bilasiz?

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. O‘zbekistonda davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o‘zaro munosabatlari.
2. O‘zbekistonda din davlatdan ajratilishining o‘ziga xos jihatlari.
3. Diniy ibodat va marosimlarni ado etishning qonunchilik asoslari.
4. O‘zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi (yangi tahrirdagi) Qonunining o‘ziga xos jihatlari.
5. O‘zbekistonda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi Qonunning qabul qilish zarurati.

6. O‘zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi (yangi tahrirdagi) Qonunida davlat va din munosabatlarining tartibga solinishi.

7. Vijdon erkinligini himoya qiluvchi universal xalqaro normalar va ularning o‘ziga xos jihatlari.

8. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning maqsad va vazifalari.

**Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.

2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 99-modda)

3. Hasanboev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. T.: Tosheknt islom universiteti. 2014. –552 b.

4. Abduxoliqov S. Vijdon erkinligi: metodologiya muammolari. – –T.: Fan, 1997. –302 b.

5. Yunusova A. Religiya i zakon (Sbornik mejdunarodnix dokumentov i zakonodatelnix aktov Respubliki Uzbekistan). – T.: Toshkent islom universiteti. 2002. –240 s.

6. Ochildiev. A Diniy ekstremizm va terrorizimga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. –T.: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. –246 b.

**TARQATMA MATERIALLAR:**

**1-ilova**



**2-ilova**




**3-ilova**



**4-ilova**




**5-ilova**



DAVLAT VA DIN O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

1. Davlat-diniy tashkilot modeli – identifikatsion model. Bunday modelni biz, misol uchun, Daniya, Angliya, Gretsiya, SHvetsiya, Finlyandiya, Norvegiyada (ya'ni Evropa ittifoqining deyarli uchdan bir qismida), Saudiya Arabistoni, Bruney qirolligi, Qatar, Eron islom respublikasida kuzatishimiz mumkin.
2. Separatsion, ya'ni davlat dindan ajratilganligiga asoslangan model. Davlat bilan din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning bu turiga AQSH, Fransiya, Niderlandiya, Turkiya, MDH davlatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi kabi davlatlarni misol sifatida keltirish mumkin.
3. Kooperatsion – neytralitet modeli. Germaniya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Lyuksemburg, Avstriya kabi mamlakatlarida o'z aksini topgan.

**6-ilova**



## 1.3. URUG'-QABILA DINLARI

**REJA:**

1. Dinning ong asoslarining shakllanishi.
2. Dinning ibtidoiy shakillari: totemizm, animizm, fetishizm, Shomonlik, magiya.
3. Neolit davridagi diniy tasavvurlar.

**Tayanch tushunchalar:** *Totemizm, animism, fetishizm, Shomonlik, tangrichilik, moniylik, Umay, Jumay, Olqish, ilk diniy tasavvurlar.*

**Mavzu o'quv maqsadi:** Dinning ong asoslarining shakllanishi, dinning ibtidoiy shakillari: totemizm, animizm, fetishizm, Shomonlik, magiya hamda neolit davridagi diniy tasavvurlar haqida talabalarda keng tasavvur hosil qilish.

**Diniy ong asoslarining shakllanishi**. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, "ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqgaa sohalari o'zi xos xususiyatlarga ega edi". Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga, fe'l-atvoriga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta'sir ko'rsatdi. U ibtidoiy bo'lsa ham aqlli, fikr yurituvchi, ma'lum tahlilga qobiliyatli, konkret holatda fikr yurita oladigan, doimiy faoliyatida vujudga kelgan amaliy tajribalarga ega bo'lgan odam edi. Bunday tahlil nimaga asoslangan? Bilim miqdorining nihoyatda ozligi va uni doimiy takomillashib borishi, oldinda turgan hayotdan qo'rquv va uni engishga bo'lgan intilish, amaliy tajribani uzluksiz ko'payishi, tabiat kuchlariga mutlaq tobelik va undan qutilishga tirishish, atrof-muhit injiqliklari va ularni engish va h.k. - bularning barchasi shunga olib bordiki, uning ilk qadamidan nafaqat mantiqiy talabchanlik, balki hissiy-ijtimoiy, xayoliy-fantastik munosabatlar kelib chiqdi. Gap «ongli yovvoyi» yoki «abstrakt fikrlovchi kishi» to'g'risida borayotgani yo'q, ayni jamoaning qonun qoidalaridan chiqmagan holda, qolaversa 20-50 kishidan iborat bo'lgan kichik qabila, mehnat faoliyati jarayoni (ov, ozuqa izlash, qurol yasash, turar joyni jihozlash, olovni saqlash va h.k.) doimiy ijtimoiy munosabatlar, oilaviy urug'doshlik aloqalari va hodisalar jarayonida (nikoh aloqalari, tug'ilish va o'lim) ushbu jamoaning ruh homiylari, g'ayritabiiy kuchlar va voqeiylik o'rtasidagi g'ayrioddiy aloqalar to'g'risida ibtidoiy tasavvurlar mustahkamlanib borgan. Real hayot bilan bir qatorda o'zga dunyo mavjudligi, marhumlar tiriklar hayotiga ta'sir eta olishi to'g'risidagi g'oyalar yuzaga keldi».

**Dafn etish jarayoni**. Ibtidoiy odam o‘z qarindoshlarini ko‘mishda maxsus marosimlar, ma’lum tayyorgarlik udumlariga amal qilar edi: jasadni qizil mineral bo‘yoq bilan qoplanar, uning yoniga kundalik ehtiyoj buyumlari, zeb-ziynatlar, asbob-anjomlar va h.k. qo‘yilar edi. Bularning bari o‘z jamoa a’zolarini dafn etayotgan jamoa oxirat mavjud ekanligi haqida ibtidoiy tasavvurlarga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

**Ov qilish.** Bizga ma’lumki, arxeologik izlanishlar jarayonida er yuzining turli joylaridagi g‘orlarda ibtidoiy odam tomonidan chizilgan rasmlar topilgan. Fanga ma’lum bo‘lgan bu g‘orlardagi suratlarning ko‘pchiligi ov sahnasi, odam va hayvonlarning tasvirlari, hayvon terisini kiygan odamlar, yarim odam va yarim hayvon qiyofasidagi mavjudot suratlaridan iborat. Bu suratlar dalolat qiladiki, ibtidoiy odamlar o‘zlari va hayvonlar o‘rtasidagi tabiiy va g‘ayritabiiy aloqalar mavjudligi haqidagi tasavvurlarga ega edilar. Bu bilan birga marhum ajdodlarining ruhlari sehrli usullar bilan hayvonlar hulqiga ta’sir etish imkoniyatiga ega deb bilar edilar. Bu tasavvurlar tiriklar bilan marhumlar o‘rtasidagi vositachilar, ya’ni turli xildagi sehrgarlar va shamanlar faoliyatining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

## Ilk diniy tasavvurlar

**Animizm.** Lotin tilida anima – “ruh”, “jon” ma’nolarini anglatadi. Animizm ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o‘simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta’limotni ilgari suruvchi ilk din shaklidir.



**Ota-bobolar ruhiga sig‘inish**

Ibtidoiy odamlar tog‘lar, daryolar, adir, o‘rmonlar, daraxt, xarsang tosh jarliklar ham jonli, sezuvchi va harakat qiluvchi, Yaxshilik va yomonlik keltirishi mumkin deb tuShunganlar. Qurbonliklar qilib ularning haqqiga duo qilib, marosimlar uyushtirishgan.

Ba’zi antropologlar animizmdan oldin ham diniy qarashlar mavjud bo‘lganini da’vo qilib, ular uni “animatizm” deb nomlaydilar.

Animizm 1871 yili ingliz antropologi Edvard Taylor tomonidan diniy qarashlarning ilk shakli sifatida olg‘a surilgan. U totemizm bilan bir vaqtda shakllangan. Animizm tabiatning qudratli kuchlari – osmon va er, quyosh va oy, yomg‘ir va shamol momaqaldiroq va chaqmoqlarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi.

Animizm bir tomondan narsalarning o‘ziga xos g‘ayritabiiy kuchga ega ekanligiga, boshqa bir tomondan esa ruhlarning mavjudligiga ishonishdan iborat. Bu nazariyaga ko‘ra “ibtidoiy inson” boshqa-boshqa mavjudotlarni shaxs sifatida tanishdan avval, butun bir olamga yoyilgan hayot bag‘ishlovchi yakka “Kuch”ni tasavvuriga keltirgan bo‘lishi mumkin. Bunday bir tushuncha “mana” fikri bilan qo‘llab - quvvatlangan bo‘lishi ham ehtimol. “Mana” so‘zi g‘ayritabiiy, ko‘z bilan ko‘rinmas kuchni ifodalash uchun ishlatiluvchi so‘z bo‘lib, uni ibtidoiy diniy tasavvurga ko‘ra kuchli, ta’sirchan yoki jamiyat tomonidan e’tibor bilan qaraluvchi narsalar (hayvonlar, o‘simliklar, toshlar) yoki kishilar (qabila raisi, sehrgar, donishmand) da mavjudligiga ishonilgan maxfiy kuchni ifodalash uchun ishlatilgan. Ibtidoiy qabila a’zolari o‘zlarini ko‘z bilan ko‘rinmas kuchlar bilan o‘rab olinganliklariga ishonganlar. Bu e’tiqod har bir qabilada o‘zgacha nomlar bilan nomlangan.

Teylorning shogirdi bo‘lgan R.Marettining 1909 yilda nashr qilgan “Dinning ibtidosi” nomli kitobida birinchi marta izohlangan bu nazariyada dinning kelib chiqishini shaxsiyati mavjud bo‘lmagan umumiy dinamik kuchdan qidirish, izlanish kerakligini bildiradi.

Animizm zamonaviy dinlarning asosiy aqidaviy qismini tashkil etadi. Jahon dinlarida ham ruhlar haqidagi ta’limot mavjud.

**Totemizm.** Totem so‘zi – Shimoliy Amerikaning Ojibva qabilasi tilida “uning urug‘i” ma’nosini anglatadi. Uning mohiyati “odamlarning hayvonot yoki o‘simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor”, deb e’tiqod kilishidir. Urug‘dosh guruhlar o‘zlarining umumiy belgilari va totemlari bo‘lgan hayvon va o‘simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Totemlar va odamlar orasidagi aloqalar

uzoq o‘tmishga tegishli bo‘lib, uni qadimgi rivoyatlar tasdiqlaydi. Masalan, Avstraliya aborigenlari orasida saqlanib qolgan afsonalardagi tasavvurlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.



**Yog‘ochdan yasalgan totemlar**

Totemizm ta’sirida paydo bo‘lgan urf-odatlar, normalar asrlar davomida qat’iy ravishda qo‘llanildi. Tabu – taqiqlash, ya’ni, totemni ozuqa sifatida iste’mol qilishni taqiqlash tizimi paydo bo‘ldi. Faqatgina ba’zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoki qabila boshliqlariga totemni eyish ruxsat etilgan. Totemizm urug‘chilik jamoasi ijtimoiy urug‘ qabila jamoalarning eng birinchisi sanalib, diniy ko‘rinishlarning tarixiy asosi bo‘lib qoldi.

Totemizmning asosiy vazifalari – birlashtirish va tartibga solishdan iborat bo‘lgan. Totemizm diniy shakllarning ilk davrga tegishlisi bo‘lishiga qaramasdan, hozirda ham ba’zi xalqlarning urf-odatlarida, e’tiqodlarida uning qoldiqlari saqlanib qolgan. Masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug‘lanadi.

**Fetishizm.** Fetish so‘zi fransuzcha fetishe – but, sanam, tumor ma’nosidagi so‘zni anglatadi. U tabiatdagi jonsiz narsalarga sig‘inishdir. Fetish ham salbiy, ham ijobiy ta’sir etish kuchiga ega.



**Fetishizmda ilohiylashtirilgan turli jonsiz buyumlar**

Fetishizm yog‘och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo‘lishi bilan bir paytda shakllangan. Butlarda, tumorlarda jamoalar g‘ayri tabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko‘rdilar.





**Toshdan yasalgan fetishlar**

Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo‘lib qoldi. Dunyo haqidagi tasavvurlar vaqt o‘tishi bilan takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq vaqt mobaynida o‘z ta’sirini o‘tkazib keldi. Barcha dinlardagi haykallar, suratlar, tumor, ko‘zmunchoq va turli ramzlar hozirgi davrda ham saqlanib qolgan.

**Shomonlik (Shomonlik).** Shomonlik (“shaman”so‘zi tungus-manchjur tilidagi “sa” – bilmoq fe’li bilan bog‘liq, “saman” – biluvchi kishi). Shomonlik animizm, totemizm va fetishizm natijasida yuzaga kelib, u orqali kishilar o‘z totemlari, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog‘lanishni amalga oshirib kelganlar. O‘tmishda ko‘proq ayollar shamanlik bilan Shug‘ullanganlar. SHamanlar jazavali, asabiy kishilar bo‘lib, odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoaning umid va niyatlarini etkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga juda ishonganlar.

Shamanlar ritual harakatlari orqali – ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo‘li bilan nog‘oralar va qo‘ng‘iroqlar ovozlari ostida o‘zlarini jazavaga solib, o‘zini yo‘qotish, jazavani yuqori natijaga etkazish bilan afsungarlik qilishgan. Shaman marosim oxirida bir holatga kelib hech narsani eshitmay, ko‘rmay qolar edi. Shuning uchun uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi Shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Bu odamlarning fikr yuritishi, ongining mustahkamlanishida katta rol o‘ynadi va diniy ongning shakllanishida muhim o‘rin tutdi.



Shomonlik e’tiqod va an’analari inson ongida g‘ayritabiiylik to‘g‘risidagi tasavvurlar to‘liq shakllangan vaqtda paydo bo‘lgan. Ushbu e’tiqod oddiy insonning dahshatli va tuShunarsiz, g‘ayritabiiy va sirli holatlarini tuShunishi va aql kuchidan ustun turishi bilan bog‘liqdir. Shomonlik bu omillar orqali jamoalar hayotining tashqi va ichki ziddiyatlarini qamrab oladi. Shomonlikning turli vazifalariga (ruhlarni haydash, falokatlarning oldini olish, yomg‘ir chaqirish, afsun qilish va h.k.) kelsak, ular ushbu e’tiqodning asosiy mohiyatiga qo‘shimchadir.

Shomonlikdagi asosiy, hal qiluvchi holat Shomon tanasiga ruhlarning joylashishi to‘g‘risidagi tasavvurdir. Odamlar Shomonning o‘ziga xos trans holatini ko‘rganlarida uni o‘zi chaqirgan ruhlar egallab oldilar, deb o‘ylaydilar. Bunda Shomon ko‘pincha o‘z harakatlarida animistik obraz yoki Shu obrazlarni eslatuvchi predmetlarni qo‘llaydi. Ruhlarni chaqirish Shomonlik harakatlarini ta’sirchan jamoaga yo‘naltirib, ulardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishni taqozo etadi.

Shomonlik yovuz va yaxshi ruhlarni tan oladi. Bunda ayrim Shomon jamoalari oddiy kishilar ruhi o‘ladi, Shomon ruhi esa abadiy deb hisoblaydilar. Ruhlar tomonidan o‘g‘irlanib, Shomonlar tomonidan topilib, inson tanasiga qaytarilgan jon haqidagi g‘oya faqat Shomonlik doirasida tushuntirilishi mumkin. Bu ayniqsa, Shomonning davolaщ usullarida, kasal tanasidan yovuz ruhlarni haydashida yorqin namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo xalqlarida Shomonlik reliktlari turli ko‘rinishlarda kuzatiladi. Xalq orasida turli ko‘rinishdagi bemorlarni davolash «duoxonlik» bilan boshlanib, kasalni tol navdalari bilan «urish» orqali amalga oshiriladi. Bunda tol novdalari qirqta bo‘lishi kerak. Shu kabi marosimning yana bir turi - «kinna», ya’ni bemor tanasidan kasalni haydashning alohida usulidir.

Shomonlik elementlari sifatida kuyovnavkarlik bilan bog‘liq bo‘lgan odatni - kuyovning kelinnikiga jo‘ralari bilan jo‘raboshi boshchiligida qiyqiriqlar bilan

bazmga borish marosimini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Jo‘raboshi qo‘lida tol navdalarini ushlagan holda navkarlar boshi uzra elpiydi, bunga javoban navkarlar jo‘r bo‘lishib qiyqirishadi. Bularning barchasi kuyovdan yovuz ruhlarni haydashga qaratilgan. Shu bilan birga, ayrim xalqlarda biror kimsa uzoq vaqt kasal bo‘lsa, u нaqinlari, tanishlari yoki tabiblar maslahatiga ko‘ra, sog‘ayishning birdan bir yo‘li - bu ruhlar bilan aloqa qilish missiyasini bo‘yniga olish ekanligiga ishonadi. Bunday holat xalq orasida «odamli» deyiladi, ya’ni uning orqasida qandaydir kuchlar bor deb hisoblanadi. Bunday odamlar asta-sekin insonlarni «davolash» bilan shug‘ullana boshlaydi.

Ko‘pincha kasalliklar yovuz ruhlar makr-hiylasi tufayli kelib chiqadi deb hisoblanadi. Hali ham o‘zbek xalqi orasida ruhlar hokimiyati odamlar taqdirini, tabiat ko‘rinishlarini aytib berishiga ishonuvchi kishilar mavjud. Childirma sadosi va marosim aytimlari ba’zi kishilarni kasalliklardan forig‘ bo‘lishiga ishonishga olib kelmoqda. Folbin-baxshilarga asosan ayollar yaqinlari kasal bo‘lib yotib qolganda, oilaviy hayotlarida o‘zaro kelishmovchiliklar yuz berganda, biror buyumi yoki jonivorlari yo‘qolganda, farzandsizlik holatida, umuman, oila turmush tarzida og‘ir vaziyatlarda murojaat qiladilar.

Shomonlik, folbin-baxshichilik ( yoki azayimxonlik) amallari juda xilma-xil va keng qamrovlidir. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda shu toifadagi kishilar benihoyat ulkan g‘ayritabiiy qobiliyat sohiblari bo‘lmog‘i lozim deb hisoblashgan. Ular homiy ruhlar yordamida asosan quyidagi to‘rtta muhim vazifani bajarganlar. Birinchidan, kasallik sababi va uni davolash yo‘llarini bilish. Ikkinchidan, turli-tuman marosimlar asosida bemorlarni davolash. Uchinchidan, kelajak va inson taqdirini oldindan bashorat qilib, jumladan, uzoq masofada yashovchi kishilar taqdirini ham oldindan aytib bergan, va nihoyat to‘rtinchidan, bedarak ketgan odamlar, yo‘qolib qolgan hayvonlar va narsa-buyumlarni qidirib topish. Shuningdek, folbinlar buyumlar kim tomonidan o‘g‘irlanganligini homiy ruhlar ko‘magida aniqlashtirgan holda qidirib topish singari vazifalarni ham bajaradilar.

Folbinlik yoki azayimxonlik vazifalarini ado etish uchun kishilardan maxsus qobiliyatga ega bo‘lishlari zarur hisoblangan. Ushbu iqtidor ko‘pincha tug‘ma bo‘lmasdan, ma’lum jiddiy tayyorgarlik natijasidagina egallangan. Buning uchun tanlangan nomzod qirq kun davomida o‘z xonadonida tashqi dunyodan ajralgan holda chillada o‘tiradi. Bu davr Shomonlikning «chilla davri» hisoblanadi. Umuman, xalq tasavvurida insonlarni ins-jinslar ta’siridan eson-omon asrash ularning chilla davri (chilla - forscha «chixil» - qirq degan ma’noni bildiradi) tartib qoidalarga qanchalik rioya qilishlariga bog‘liq bo‘lgan. Chilla inson hayotidagi

xatarli, eng og‘ir va eng mas’uliyatli davrni anglatuvchi atama hisoblanadi.

Inson hayotining uch davri bilan bog‘liq holda chilla davri urf-odatlaridan, kishilar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Avvalo Shuni eslash lozimki, har uch davrdagi chilladan ko‘zlangan asosiy maqsad, chillali odam va ushbu xonadonni yovuz kuchlar, yomon ko‘zlar hamda turli ins-jinslar ta’siridan himoya qilish bo‘lgan. An’anaga ko‘ra, har uch chilla davrida, yani tug‘ilganda, nikoh to‘yi va motam marosimda ham chillali xonadonda qirq kun mobaynida ushbu uy chirog‘i o‘chirilmaydi va chillali odam yolg‘iz qoldirilmaydi. Shuningdek, har uch chillaning ham aynan bir xil kunlari (ko‘pincha uchinchi, ettinchi, yigirmanchi, qirqinchi)ga ko‘proq e’tibor qaratiladi va bu davrda chillali uyga isiriq tutatib turish doimiy shartlardan biri hisoblangan.

Baxshilarning ta’kidlashicha, folbin-baxshilar tomonidan tutiladigan chilla turlicha bo‘lib, ular orasida eng og‘iri va xavflisi baxshilar tomonidan tutiladigan «qora chilla» hisoblanadi. «Qora chilla»da o‘tiradigan kishi 40 kun mobaynida bir uydan tashqariga chiqmagan holda chimildiqning ichida o‘tirishi lozim bo‘lgan. U bu davrda boshqa odamlar bilan gaplashmasligi va faqat o‘z uyida Yaqin kishisi tomonidan pishirib berilgan pok ovqatni eyishi lozim bo‘lgan. Bu davrda bo‘lg‘usi baxshining qabristoniga borishi, o‘lik ko‘rishi, ariqda oqayotgan suvdan o‘tishi qat’iy taqiqlangan. Bu jarayonda bo‘lg‘usi baxshi doimiy ravishda eng Yaqin kishisi yoki ustoz baxshi nazoratida bo‘lgan. Agar bo‘lg‘usi baxshi nazoratsiz qolib, tashqariga chiqib ketsa, ruhiy xastalikka chalinib esdan og‘ishi ta’qidlagan.

**Sehrgarlik (Magiya).** Sehrgarlik (afsun) – odam, hayvon va tabiatga g‘ayritabiiy yo‘l bilan ta’sir o‘tkazish maqsadida bajariladigan ritual urf-odatlar majmuasidir. Afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus kishilar – shamanlar, afsungarlar shug‘ullanganlar.

Sehrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamoa bo‘lib amalga oshirilishi mumkin edi.

Sehrgarlik maqsadiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

1) “Yaxshi niyatda” amalga oshiriladigan – “oq sehrgarlik” (“belaya magiya”);

2) “Yovuz niyatda” amalga oshiriladigan – “qora sehrgarlik” (“chyornaya magiya”);

3) Harbiy sehrgarlik (qurol aslahani sehrlash);

4) Sevgi sehrgarligi (“issiq”, “sovuq” qilish);

5) Tibbiy sehrgarlik (davolash maqsadida);

6) Ob-havo sehrgarligi ( yomg‘ir chaqirish).

Sehrgarlik zamonaviy dinlarda va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

**Mifologiya.** «Mif» tushunchasi yunoncha mythos so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, afsona, rivoyat degan ma’noni anglatadi. *Mif –turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir.*

Mifda bilimlar, diniy e’tiqodlar, ma’naviy madaniyatning turli elementlari, san’at, ijtimoiy hayot kurtaklari birlashgan bo‘lib, shu tariqa ibtidoiy odamlar dunyoqarashi ma’lum darajada tartibga kelgan, ularning dunyo haqidagi qarashlari esa muayyan tizimga solingan. Mazkur tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo‘lib, miflar avvalo ular orqali ifodalanadi. SHu tariqa to‘plangan bilimlar va tajriba keyingi avlodlarga o‘tishi ham ta’minlanadi.

*Mifologik dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu oddiy rivoyat emas, balki og‘zaki «muqaddas» matnning arxaik ongdagi voqea-hodisalarga, insonga va u yashayotgan dunyoga ta’sir ko‘rsatuvchi muayyan borliq sifatidagi in’ikosidir.* Mif, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida, odamlar xulq-atvori va o‘zaro munosabatlarini tartibga solish funksiyasini bajargan, chunki unda axloqiy qarashlar, insonning borliqqa estetik munosabati o‘z ifodasini topgan. Mifologiyaga shu narsa xoski, unda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmasdir; tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, mif kimningdir uydirmasi yoki «o‘tmish sarqiti» emas, balki shunday bir o‘ziga xos tilki, inson uning yordamida qadim zamonlardanoq dunyoni tavsiflagan, o‘zining o‘sib borayotgan tarqoq bilimlarini umumlashtirgan, talqin qilgan, tasniflagan va muayyan tizimga solgan.

*Mifda ota, oqsoqol hukmi va qaror topgan an’analar muhim rol o‘ynaydi. Rivoyat va uning mazmuniga nisbatan bunday munosabat zamirida e’tiqod, borliqni bevosita, emotsional idrok etish yotadi. Mifologik dunyoqarash dunyoni yaxlit tushunish bo‘lib, unda shubhaga o‘rin yo‘qdir.*

Mifologiya (miflar majmui sifatida) qadimgi odamlar dunyoqarashi bilangina uzviy bog‘liq emas. Oddiy ongda yashaydigan din, falsafa, siyosat, san’atda aniq-ravshan yoki pardalangan ko‘rinishda mavjud bo‘lgan miflar bugungi kunda ham (kim uchundir ko‘proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol o‘ynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi jadal sur’atlarda o‘sib borayotgan sharoitda mif televidenie, radio, vaqtli matbuot, hozirgi saylov

texnologiyalari vositasida ba'zan ijtimoiy ong bilan manipulyasiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

**Diniy dunyoqarash** dunyoqarashning tarixan ikkinchi shakli dindir. (Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi.) Mif kabi, din zamirida ham e'tiqod, tuyg'ular va emotsiyalar yotadi. Garchi din kurtaklari «aqlli odam» dunyoqarashi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya'ni taxminan 40-60 ming yil muqaddam paydo bo'lgan bo'lsa-da, umuman olganda u dunyoqarashning mustaqil shakli sifatida keyinroq, jumladan mif ta'sirida insonning mavxum fikrlash qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan davrda vujudga kelgan.

**Diniy dunyoqarash odamlarning g'ayritabiiy narsalar (xudolar, «oliy aql», qandaydir absolyut va sh.k.)ga bo'lgan e'tiqodiga asoslanuvchi tegishli xulq-atvori va o'ziga xos harakatlaridir**. *Agar mifologiyada an'anaga, rivoyat qiluvchining, ya'ni oqsoqolning obro'siga e'tiqod kuchli bo'lsa, dinda g'ayritabiiy narsalarga e'tiqod birinchi o'rinda turadi, oliy kuchlar nomidan rivoyat qiluvchi ruhoniylar obro'si esa ikkinchi darajali rol o'ynaydi.*

**3. Neolit davridagi diniy tasavvurlar.** Neolit revolyusiyasi odamlarning turmushini, ularning ta'sir etadigan barcha sohalarni tubdan o'zgartirdi. Odam o'simliklarni o'stirish, ozuqa zahiralarini hosil etishni asta-sekin o'rgandi. Va bu odamni o'troq hayot kechirishga majbur etdi. qadim hayvonlarni qo'lga o'rgatgan hamda ular berayotgan mahsulotdan foydalanishni o'rgandi. Bu nafaqat go'sht, balki sut va teridir. Ovqat pishirish bilan tanishishi hamda idishlar yasash odamga yangi muhim materiallarni uzgartirishga majbur etdi. Odam, ovqat va ichimliklar saqlash uchun mo'ljallangan idishlar, uy qurish uchun foydalanadigan loyni tayyorlashga o'rgandi. Neolit davri yuqori poleolitdan keskin farq qiladi. Shu jumladan, tosh buyumlarni silliqlash va sayqal berish - bu esa muhim farq va shu farq davrga nom berdi (Neolit - yangi tosh davri, yangi tosh ishlash yangi usullar davri).

Neolit davri dehqonlarga yangi ishlab chiqarish imkonini berdi. Dehqonlar zich va ko'pchilik guruhlar bilan o'rnashardi. Dushmandan hamda yovvoyi hayvonlardan himoyalangan qishloqlar kengayib, atroflarida kichik qishloqchalar o'rnashar edi. Tinchlik va ovqat bilan ta'minlash, tug'ilish va bolalarni tirik qolishi va o'sishiga imkon berar edi. Aholining keskin ko'payishi yangi erlarni o'zlashtirishga, hayot tarzini o'zgarishi diniy tasavvurlarning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratdi.

Dehqonchilikning ehtiyojlari hosilni uzoq vaqt sabrsizlik bilan kutish kerakligi, hamda aniq vaqtni hisoblash muhimligi, er fasllarining sikllarini bilish - bularning hammasi dehqon qabilalarining osmonu erga, quyoshu oyga, yomg'iru

shamolga yangi qiziqishini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bu degani qudratli ruhlarga bog‘liqlik sezilarli va ko‘zga tashlanadigan bo‘lib qoldi. Iltijo va qurbonlik ularga atala boshlandi. Ammo tabiiy imkoniyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar keskin o‘zgardi. Natijada qadimgi ruhlar -animistik sig‘inish ob’ekti asta-sekin o‘ta qudratli xudolarga aylandilar. Ular uchun mehrob hamda cherkovlar tashkil etilardi va ularda kecha va kunduz, dehqonlar jamoasidan maxsus ajratilgan mutaxassis xizmatkorlar - kelajakdagi kohinlar xizmat qilardi. Qadimgi totemistik tasavvurlar ham o‘zgardi, dehqonlarni hayoti ov natijasiga bog‘liq bo‘lmagan holda, hayvonlarni qadrlay boshladi, ammo hayvonlar va totemistik tasavvurlar avlodlar xotirasida saqlanib qolavergan. Bu esa zoomorfik tashqi qiyofani biron-bir sig‘inilgan xudoda aks etishiga olib keldi. Aksar xudolarning ko‘rinishi hayvon, qush, baliqlarning yo boshi, yo tanasi shaklida bo‘lar edi. Bu mifologik qahramonlarning yuqorida aytib o‘tilgan xudoga qarindoshligi saqlanib qolgan.

Fetishizmning sokin xarakteri o‘zgardi, xudolarning qudratli butlari, mehroblar yoki cherkovlar yoniga o‘rnatilgan yirik haykallar shakliga aylandi.

Ba’zan butlar o‘rniga ramziy haykalchalar, turli shakldagi toshlar guruhi foydalanildi. Fetishizmning rivojlanishida bu haykal va qurilmalar ibodatxonalarning ramzi bo‘lib xizmat qildi.

Afsun ham o‘zgardi. Afsungarlarning dushmanlarga ziyon etkazish va omadli ov bilan ta’minlash, ruhlar yordamida o‘z maqsadiga etishishning ibtidoiy usullari o‘rniga yangi, puxta o‘ylangan ilohlar bilan aloqa marosimlari, boshqa diniy marosimlar, ibodat va qurbonlik qilish tartiblari yuzaga keldi. Bular asosida qadimgi afsunlar yotar edi. Ammo bir qancha yangiliklar yuzaga keldi. Bunday yangiliklardan biri - fol va bashorat edi. Bular afsunga yaqin bo‘lgan, hamda unga asoslangan afsun prinsiplari va usullari edi. Ammo uning maqsadi boshqa edi: bu istakni amalga oshirish emas, balki uni bilishdir. Folbinlikning ilk shakllari nealit davridan ilgari ham amal qilardi. Ammo tizim sifatida nealit davrida yakunlandi. Neolit davridagi dehqonlar qudratli tangridan qo‘rqqan holda uning yaxshi niyat munosabatlariga juda qiziqar edi. Buning uchun (qurbonlik) tabiat kuchlari ilohlariga yoki ilohiylashtirilgan ajdodlarga ibodat qilishar edi. Ularning hayolida keltirilgan qurbonliklar hamda ilohiylashtirishga ibodat qilishlari ularga yordam keltiradi va iltimosini rad etmaydi. Ammo buni qanday bilish mumkin? Mana shu erda barcha usul va prinsiplari bilan fol ochish yordamga kelar edi. Har bir shamanga munsub bo‘lgan ibtidoiy afsun marosimlaridan farqli o‘laroq, folbinlik yuqori saviyali madaniyatni talab etardi. Marosimlarni olib boruvchi folbin kiyim shartli belgilar tizimiga rioya qilishi shart edi. Bu shartli belgilar ilohini qoniqtirganligini hamda ularning iltijolariga aniq javob berishga tayyorligini

anglatardi. Belgilar tizimi har xil - elementar qur'a tashlashdan to murakkab chiziq, yorug' nuqta va chiziqlarni qo'shilishigacha bo'lar edi.

**Xulosa**. Insoniyatning qadimiy hayot tarzi, qiyinchiliklari, muammolari, orzu-istaklari mifologik obrazlar va afsonalarda o'z aksini topgan. Mavjud voqelik insonning ijodi bilan birga uning hayot tarzi, diniy qarashlari, urf-odatlariga ham ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Turli xalq va qabilalarning hayotida asosiy o'rin tutgan hayvon yoki buyumning ilohiylashtirilishi natijasida fetishizm, totemizm, animizm kabi din shakllari yuzaga keldi. Kosmogonik syujetlar ibtidoiy mifologiyada katta o'rin egallagan. Ya'ni yer va osmon, quyosh va oy, o'simlik va hayvonot olamining inson hayotidagi o'rni diniy tasavvurlarda namoyon bo'lgan. Hayot va o'lim, tabiat va madaniyat, ayol va erkaklar orasidagi aloqalar ibtidoiy mifologiyada tasvirlangan.

**Mavzuni Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:**

1. Dinlarning qanday turlarini bilasiz?
2. Dinning qanday ibtidoiy shakllarini bilasiz?
3. Dinning paydo bo'lishi haqida tadqiqotchilar qanday fikrlar bildirishgan?
4. Fetishizm dinning qanday ko'rinishi?
5. Animizm qanday e'tiqodga asoslanadi?
6. Shomonlik deganda nimani tushunasiz?

**Seminar uchun mavzular:**

1. Sehrgarlik faoliyati va ularning turlari.
2. Hayvonlarni muqaddaslashtirish e'tiqodi.
3. Jonsiz narsalarga sig'inish.
4. Ruh haqidagi ilk tasavvurlar.
5. Ibtidoiy dafn marosimlari.

**Adabiyotlar**

1. Dunyo dinlari tarixi. O'quv qo'llanma. –T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.
2. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. –T., Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
3. Peter Anters. Religii sovremennosti. Istoriya 67v era. –M. :Progress – Traditsiya, 2001.
4. Phillip wodzinski. Kant's doctrine of religion as political philosophy. Boston college.2009.
5. William J. Wainwright. The Oxford Handbook of Philosophy of Religion. University of Wisconsin, Milwaukee.2010.

## TARQATMA MATERIALLAR

**1-ilova**




**2-ilova**

## DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI



**3-ilova**




**4-ilova**




**5-ilova**



**6-ilova**




**7-ilova**



## II BOB. MILLIY DINLAR

**Reja:**

**2.1.Yahudiylik ta'limoti.**

Yahudiylik. Buxoro Yahudiylari jamoasi tarixi.

Yahudiylikdagi oqimlar;

Muqaddas manbalari;

Marosim va bayramlari;

Yahudiylar O'rta Osiyoda.

**2.2.Veda va veda dinlari.**

Vedalar.

Braxmanlik.

Hinduiylik.

**2.3.Xitoy dinlari: Konfutsiy ta'limoti va Daosizm.**

**2.4.Zardushtiylik dini.**

**Tayanch tushunchalar:** *Yahudiylik, Buxoro Yahudiylari, Veda, Braxmanlik, Hinduiylik, Konfutsiylik, Daosizm, Zardushtiylik.*

**1. Yahudiylik. Buxoro Yahudiylari jamoasi tarixi.** Yahudiylik dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Eng yirik Yahudiy jamoalari Isroilda 5,6 mln., AQSHda 5,6 mln., Kanadada 350 ming, Rossiyada 230 ming, G'arbiy Evropa davlatlaridan Fransiyada 310 ming, Germaniyada 230 ming, Buyuk Britaniyada 280 ming, Argentinada 200 ming, Avstraliyada 110 ming, Braziliyada 110 ming kishini tashkil qiladi.

Yahudiylik miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan dindir. Yahudiylik millat dini bo'lib, faqatgina Yahudiy xalqiga xos.

Falastin hududidan Rim imperiyasining turli tomonlariga butunlay badarg'a qilinadilar. Shu tariqa, bu davrlarda Yahudiy xalqining katta qismi asir qilib

olingan yoki bu erlardan quvg‘in qilingan. Aynan mana Shu hol Yahudiylarning keyinchalik Falastin hududidan tashqariga, jumladan, Markaziy Osiyoga tarqab ketishiga sabab bo‘ldi. Mavjud ma’lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi VII asrdayoq Yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron va boshqa yurtlarda panoh izlashgan.

Yahudiylar O‘rta Osiyoga qadim zamonlardan ko‘chib kelganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Miloddan avvalgi 722 yilda Isroil podshohligi Ossuriya tomonidan, miloddan avvalgi 586 yilda esa Bobil davlati tomonidan bosib olingach, Yahudiy xalqining bir qismi o‘lkadan haydab chiqarildi. Bu esa Yahudiylarning Osiyo o‘lkalari bo‘ylab tarqalib ketishiga sabab bo‘ldi. Hatto miloddan avvalgi VIII asrlarda ba’zi Yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o‘lkalarda boshpana topganliklari haqida ham ma’lumotlar bor. Fors davlati ma’lum muddat O‘rta Osiyoni o‘z hukmi ostida tutib turgan va xuddi Shu davrda Yahudiylarning ko‘chib kelishi boshlangan. Yahudiylar O‘rta Osiyoda So‘g‘diyona davlati davrida, ya’ni miloddan avvalgi II asrda paydo bo‘ldilar. Ular Eron orqali Marvga kelib, so‘ng u erdan Buxoro, Samarqand, SHahrisabz va boshqa shaharlarga tarqaldilar.

Yahudiylarning O‘rta Osiyoda paydo bo‘lishi tarixi juda murakkabdir. Ko‘pchilik tadqiqotchilar ularning bu erda paydo bo‘lishlarini milodning birinchi asrida vujudga kelgan «Buyuk ipak yo‘li» faoliyati bilan bog‘laydilar. Buyuk ipak yo‘li, darhaqiqat, bo‘yoqchilik bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan Yahudiylarning xom ashyo manbalariga Yaqinroq mintaqalarga tarqalishiga sabab bo‘lgan. Yahudiylarning Balx shahrida paydo bo‘lishlari esa faqatgina milodning IV asriga to‘g‘ri keladi. Milodiy IX-X asrlarda Yahudiy jamoalari ancha ko‘psonli va erkin bo‘lganlar. Ulardan faqat urushga yaroqli bo‘lgan erkaklargina soliq (jizya) to‘laganlar. Yig‘ilgan soliqlarning faqatgina yarmi davlat xazinasiga topshirilgan. Qolgan qismi esa jamoa boshlig‘i ixtiyorida qolgan.

Yahudiylarning O‘rta Osiyoda yashaganliklariga guvohlik beruvchi arxeologik topilmalar ilk bor 1954 yili olimlar tomonidan Turkmanistonning

Marv va Bayramali shaharlarida aniqlangan. Bular qadimgi sinagoga qoldiklari, Yahudiy yozuvlari va nomalari bitilgan sopol buyumlardir. Topilmalar YUnon-Baqtriya va Parfiya davlatlari hukmronlik qilgan miloddan avvalgi II - milodiy I asrlarga tegishli bo‘lgan.

1165 yilda Sharqqa sayohat qilgan Veniamin de Tudelning xabar berishicha, Sharqqa tomon qancha uzoqroq kirib borilsa, Yahudiylar soni Shuncha ko‘payib borgan. O‘sha davrda Quddus shahrida hammasi bo‘lib 4 ming Yahudiy yashagan bo‘lsa, Basrada ularning soni 2 ming, Damashqda 3 ming, Isfahonda 15 ming, Samarqandda esa 30 ming kishini tashkil qilgan. Biroq bu sayyoh Sharqda Bag‘dodgacha safar qilib, mahalliy Yahudiylarning afsonaviy ma’lumotlariga asoslangan.

Arab tarixchilarining ma’lumotlariga ko‘ra, Sharqda Yahudiylar tomonidan «Yahudiya» deb ataladigan shaharlar qurilgan. Shunday shaharlardan biri Marv shahri Yaqinida bo‘lgan.

X-XIII asrlar Buxoro Yahudiylari uchun ma’naviy-ruhiy jihatdan o‘sish davri bo‘ldi. Ular Iroq Yahudiy markazidan uzoqda, O‘rta Osiyo hududlarida Yahudiylikka oid qarashlarini rivojlantirdilar va Tavrot qonunlariga moslashtirdilar.

O‘zlarini aslzoda deb hisoblagan Bobil Yahudiylari O‘rta Osiyo Yahudiylarini kashrut qoidasi (ruxsat etilgan ovqatlarnigina eyish)ni buzish, erli aholi bilan aralashib ketish va Yahudiy dinini bid’atlar bilan buzishda ayblay boshladilar. Albatta, bu ayblovlar asossiz emas edi.

IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda *karaimlar* deb ataladigan Yahudiy sektasi paydo bo‘ladi. Bu sekta tarafdorlari faqat Tavrotni tan olar, Talmudni esa inkor qilar edilar. X asr O‘rta Osiyo karaimlarining ko‘zga ko‘ringan rahnamolaridan biri g‘aznalik Menexem Talmud tarafdorlariga qarshi o‘z fikrlarini isbotlash uchun Iskandariyaga safar qilgan. Karaimlar sektasi namoyandalaridan yana biri Xivi al-Balxiy ko‘plab asarlar yozib, ularda Talmudni tanqid qilgan va uning ishonchliligiga Shubha bilan qaragan.

XIII asr boshiga kelib, Chingizxon qo‘shinlari Movarounnahr shaharlarini birma-bir qo‘lga kiritgach, erli aholini shafqatsiz ravishda qirg‘in qildilar. Qadimgi Yahudiy jamoalari ham inqirozga uchradi. Saqlanib qolgan kam sonli Yahudiylar Buxoro va uning atroflarida yashaganlar. XIII asrda boshlangan Yahudiylar inqirozi, ba’zi istisnolardan tashqari, XVIII asrga qadar davom etdi.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounahr mintaqasiga Erondan ko‘pgina Yahudiy jamoalari ko‘chirib keltirilgan, ularning bir qismi Buxoroda yashagan. Temuriylar davrida O‘rta Osiyodagi xristian jamoalari inqirozga uchragan bo‘lsalar-da, lekin Yahudiy jamoalari saqlanib qoldi va o‘zlarining diniy markazlaridan ajralib va uzoqlashib qolganliklariga qaramay, ular mintaqada o‘z mavqelarini uzoq vaqg egallab turdilar.

XVIII asrning boshlarida O‘rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli Yahudiylar Eron, Afg‘oniston, Xiva, Qo‘qon va Buxoro jamoalariga bo‘linib ketdi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoning bir qismi bosib olinishi Yahudiylarning yana Turkiston va Buxoro jamoalariga bo‘linib ketishiga olib keldi. O‘rta Osiyo Yahudiylari Buxoro amirligi hududlarida yashaganliklari tufayli «Buxoro Yahudiylari» nomi bilan tanilgan bo‘lsalar-da, ularning asosiy qismi ko‘proq Samarqandda yashagan.

Yahudiylik yagona millatga xos din bo‘lganligi sababli Yahudiylar qaerda yashamasin, biri ikkinchisidan qancha uzoqda bo‘lmasin, ular o‘z diniga va muqaddas kitoblariga e’tiqod qilishni davom ettiraverdilar. XVIII asrda O‘rta Osiyo Yahudiylari ruhiy tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793 yili o‘zi G‘arbiy Afrikadan bo‘lib, Falastinning Sfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag‘ribiy o‘z shahri Yahudiylari uchun moddiy yordam to‘plash maqsadida Buxoroga keladi. U mahalliy Yahudiylarning o‘z dinlaridan uzoqlasha boshlaganliklarini ko‘rib, shu erda qolishga va millatdoshlariga diniy ta’lim berishga ahd qiladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko‘rganlar.

XIX asrga kelib Yahudiylar O‘rta Osiyoning Qarshi, Marv, Xatirchi, Shahrisabz, Katgaqo‘rg‘on, Karmana, Marg‘ilon, Dushanba shaharlarida yashaganlar. Ular odatda bir mavzega jam bo‘lib yashar edilar. 1843 yilda mahalliy Yahudiylarga Samarqandning Sharqiy qismidan 2,5 gektar yerni 10000 kumush tangaga sotish haqida shartnoma tuzildi. Bu shartnomani Yahudiylar jamoasining 32 a’zosi imzoladi, davlat uning haqiqiyligini to‘rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib, Yahudiylar o‘zlarining birinchi mahallalariga ega bo‘ldilar. Jamoa boshlig‘i Moshe Kalontar sotib olingan erda qurilishlar qilish uchun Yahudiylardan pul yig‘di. Ular yangi joyda birinchi bulib Bani Isroil qabilalari soniga mos 12 ta hovlida uy-joy, maktab, hammom, sinagoga qurdilar.

XIX asrning 80-yillarida buxoro Yahudiylaridan 1,5 mingga Yaqini, XX asrning 20-30-yillari esa - 4 mingga Yaqini Yahudiy tilida o‘qish uchun Falastinga ko‘chib ketgan.

O‘rta Osiyoda 1940 yilgacha Yahudiylarning ivrit tilidagi maktablari, davriy va maxsus nashrlari mavjud bo‘lgan. 1932 yilda Samarqandda Yahudiylar teatri tashkil qilingan. Keyinchalik Yahudiy tilida o‘qitish va madaniy faoliyat yuritish to‘xtatilgan. SSSR parchalanib ketguniga qadar Buxoro Yahudiylari asosan (28396 kishi) O‘zbekiston hududida istiqomat qilganlar.

Yahudiylarning turmush tarzlari, urf-odatlari qadimiy Yahudiy, fors va mahalliy madaniy an’analarning qorishmasidan iborat. Tarixning turli jarayonlarida bu uch madaniyatdan ba’zilarining ta’siri kuchayishi yoki aksincha, susayishi kuzatilgan.

Yahudiylikda ovqatlanishda qat’iy cheklovlar (kosher qoidalari) mavjud. Iste’molda foydalaniladigan mol, qo‘y, echki kabi hayvon go‘shtlarini muayyan diniy qoidalar asosida so‘yilishi lozim hisoblangan. «SHoxet»lar (qassoblar) hayvonni so‘yishdan avval uning terisi, o‘pkasi, jigari sog‘lom bo‘lishi, qorni yorib ko‘rilganda uning ichida o‘limiga sabab bo‘luvchi jismlar (tosh, temir, oynak) bo‘lmasligini tekshirib ko‘radilar. Shuningdek, so‘yilgan hayvon go‘shti tarkibidan

qoni butunlay chiqarib yuborilishi kerak bo‘ladi. Baliq go‘shtini tanovul qilganda, uning tangali va suzkichli bo‘lishiga e’tibor qaratilgan.

Buxoro Yahudiylari orasida islom dinini qabul qilganlar ham bo‘lib, bundaylar *chala* deb yuritilgan. Islomni qabul qilgan Yahudiylar musulmonlar orasida yashaganlar. Biroq ko‘p hollarda ular o‘zlarining eski urf-odatlarini yashirincha saqlab qolganlar. Buxoroda Eshoni Pir mavzeida 100 tacha, Chor karvonsaroy mavzeida esa bir nechta mana Shunday chala Yahudiy oilalari yashagan. Ularning asosiy mashg‘uloti hunarmandlik, paxta savdosi bo‘lgan. Jamoa oqsoqoli *kalontar* deb atalib, u o‘z qavmidan soliq va o‘lponlar yig‘gan. U jamoaning rasmiy vakili hisoblangan.

1991 yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha dinlarga, shu jumladan, Yahudiy diniga erkin e’tiqod qilish uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Hozirda Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida Buxoro hamda Evropa Yahudiylarining milliy madaniy markazlari, Shuningdek sinagogalari faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Hozir respublikada jami 8 ta Yahudiy jamoasi, jumladan, Toshkent shahri (3), Buxoro (2), Samarqand (2) va Farg‘ona viloyatlarida (1) faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ulardan biri (Toshkent sh.) Evropa Yahudiylari (ashkinazlar) yo‘nalishiga, qolganlari sefardlar (Sharqiy Yahudiylar)ga mansub.

**Yahudiylikning vujudga kelishi va ta’limoti.** Yahudiylik dini eramizdan avvalgi 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelib, yakkaxudolik g’oyasini targ’ib qilgan dindir. Yahudiylik millat dini bo’lib, faqatgina Yahudiy xalqiga xos. Yahudiylikning kitobiy asoslari er. av. IV-III asrlarda shakllandi. Bu dinning ta’limotiga ko’ra olamlarni yaratuvchi yagona xudo Yahve mavjud. U Tavrotni Yahudiylarga berish bilan ular bilan ahd tuzgan. Go’yoki Yahudiylar Yahvening er yuzidagi xalqlarning «eng mumtozi» va keyingi dunyoda berilajak in’omlarning eng haqlisi, Muso Yahvening elchisi, Tora (Tavrot) Yahve tomonidan Musoga Tur tog’ida berilgan muqaddas kitob. Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va

Yahudiylarga ham Shu kuni dam olishni buyurdi. Shuning uchun Yahudiylik diniga ko'ra shanba kuni ulug' kun hisoblanib, hech qanday mehnatga qo'l urilmaydi.

Bundan tashqari Yahudiylikda *messiya* - *xaloskor*ning kelishi haqidagi ta'limot ham keng o'rin olgan. Unga ko'ra oxirzamonda Yahve Yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyoni qaytadan, isloh qilgan holda qurish; 2) butun Yahudiylarni Sinion (Quddus Yaqinidagi tepalik) atrofida to'plash; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolash.

Muso Tur tog'ida Yahve bilan uchrashganda unga 10 ta lavhani tushirdi. Ularda ushbu din asosini tashkil qilgan 10 ta nasihat bor edi:

1. Yahvedan boshqani iloh deb ushlamaslik;
2. But, sanam va rasmlarga sig'inmaslik;
3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag'ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o'ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g'irlik qilmaslik;
9. Yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik.

**Yahudiylikdagi oqimlar.** Yahudiylikdagi oqimlar haqida gapirganda ularni qadimiy oqimlar va zamonaviy oqimlarga bo'lishimiz mumkin. Qadimiy oqimlarga: *Saduqiylar*, *Farziylar*, *Esseylar* kiradi.

Saduqiy nomi podshoh Dovud payg'ambar davrida yashagan ruhoniy Saduq nomi bilan bog'liq. Ko'plab mansabdor ruhoniylar saduqiy bo'lganlar. Ular diniy ishlarda faqat Qonun (Musoning besh kitobi)ni tan olganlar. Qonunda ruhoniylar, qurbonliklar, ibodatlar haqida so'z boradi, lekin oxirat va qiyomat haqida hech narsa deyilmagan. Shuning uchun saduqiylar qiyomatda o'lganlarning qayta tirilishini tan olmaganlar.

Farziy nomi qadimiy Yahudiy tilidagi «tuShuntirish», «ajratib ko'rsatish» so'zidan olingan bo'lib, ular Musoning qonunini sharhlaganlar va oddiy odamlarga o'rgatganlar. Farziylar Musoning zamonidan beri og'zaki an'ana davom etib kelyapti deb hisoblaydilar. Ular har bir avlod o'z ehtiyojlarini qondirish uchun Qonunni sharhlay oladi deb bilganlar.

Ular muqaddas manba sifatida nafaqat Musoning qonunini, balki boshqa payg'ambarlarning ham muqaddas yozuvlarini, hatto o'zlarining urf-odatlarini ham qabul qilganlar va bularning hammasiga sinchkovlik bilan amal qilganlar. Shuning uchun ular ovqatga, kiyimga va boshqa narsalarga juda ehtiyot bo'lganlar. Qo'llari va badanlarining ozodaligiga katta e'tibor berganlar. Farziylar juda ko'p payg'ambarlar ta'kidlagan qiyomatga, o'lganlarning qayta tirilishiga ishonganlar.

Esseylar. Quddusdagi ko'pgina ruhoniylar Xudo ulardan talab qilganidek yashamas edilar. Undan tashqari rimliklar ba'zi diniy mansablarga Musoning Qonuniga muvofiq munosib bo'lmagan shaxslarni tayinlagan edilar. Buni ko'rgan bir guruh ruhoniylar Quddusda ibodat qilish va qurbonlik qilish Qonunga to'g'ri kelmay qoldi, deb hisobladilar. Ular Quddusni tashlab, Yahudiy sahrolariga chiqib ketdilar va o'sha erda o'z jamoalarini tashkil qildilar. Ularni *esseylar* deb atashdi. Esseylar Xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor - Messiyaning kelishi va Quddusni tozalashini kutib, ibodat qilib yashar edilar.

Massonizmning ma'nosi «ozod quruvchilar» bo'lib, Yahudiylikdagi yashirin tashkilotdir. U milodiy 44 yili Rim imperatorlaridan Irod Akriba tomonidan o'zining ikki Yahudiy maslahatchisi: rais o'rinbosari Heron Abyud va birinchi sekretar Muob Lomiy yordamida tashkil etilgan. Maqsadi – dunyoda Yahudiylar hukmronligini o'rnatishga erishish. U tashkil topgan davrda «maxfiy qudrat» deb atalardi. Keyinchalik massonizm deb ataldi.

Sionizm nomi Quddusdagi Sion tog'i bilan bog'liq. Bu oqim avstraliyalik Yahudiy jurnalist T. Gerlьtsning «Yahudiylar davlati» risolasi asosida tuzilgan. Bu oqimning o'z oldiga qo'ygan maqsadi – Yahudiylar o'zlari yashab turgan turli o'lkalardan chiqib, Falastinda «milliy birlashish»ga erishish. Sionizm «jahon

Yahudiy millati» - «oliy millat» kabi g'oyalarni ilgari suradi. O'z g'oyasiga ko'ra sionizm siyosiy oqim bo'lib, maqsadiga erishish yo'lida Yahudiy dinidan foydalanadi.

**Yahudiylik manbalari.** Yahudiy dini boshqa dinlar kabi o'zining muqaddas yozuvlariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo'lib, biri er. av. XIII asrda yashagan va Isroil xalqini Misrdan olib chiqib ketishga boshchilik qilgan Muso payg'ambarga Tur tog'ida berilgan Tavrot. Bu manba xristianlar uchun ham muqaddas hisoblanganligi uchun u haqida xristianlik mavzusida kengroq to'xtalamiz.

**Tavrot.** Tavrot Musoga tegishli bo'lgan besh kitobni o'z ichiga oladi: 1. "Borliq" yoki "Ibtido". 2. Sonlar". 3. "Levit". 4. "Chiqish". 5. "Ikkinchi qonun".

**Talmud.** Talmud (qad. yahud. tilida *lameyd - o'rganish*) miloddan avvalgi IV asrlarda vujudga kelgan va yozma Toradan farqli o'laroq, avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib borgan. Shuning uchun Torani yozma qonun, Talmudni esa og'zaki qonun deb yuritilgan. Talmud Mishna va Gemara kitoblari majmuasi bo'lib, Mishna ravvinlar tomonidan Tavrotga yozilgan sharhlar, Gemara esa Mishnaga yozilgan sharhlardan iborat. Talmudning Falastin (O'rshalim) va Vavilьon (Bavliy) nusxalari mavjud. O'rshalim Talmudi eramizning III asrlarida Bavliy talmudi eramizning V asrida tahrir qilingan.

Unda ilgari Yahudiylar uchun noma'lum bo'lgan o'ziga xos esxatologik (ya'ni oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi, u dunyodagi ajr va jazo) tasavvurlar o'z aksini topgan. Talmudda Yahudiylikning marosimlari, urf-odatlari aniq bayon etilgan bo'lib, ular 248 ta vasiyat va 365 ta taqiqni o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda qadimiy Yahudiylar orasida din, partiya, guruhlar (saduqiylar, farziylar, esseylar)ning kelib chiqishi haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Unda bayon etilgan diniy qonun-qoidalar, aqidalar, ko'rsatmalar Yahudiy dinining asosini tashkil etadi.

**Yahudiy marosimlari va bayramlari.** Yahudiylar o'zlarining Yahvega nisbatan sodiq ekanliklarini isbotlash uchun bir necha rasm-rusumlarni ijro

etadilar. Ular yillik va kunlik ibodatlardan, bayramlardan, marosimlardan iborat. Ibodat uyda ham sinagogada ham birday olib boriladi. Yahudiylar sinagogasining sharqiy tomonida Toraning nusxalari saqlanadigan sandiq va Ravvin uchun minbar qo'yilgan. Ayollar erkaklardan alohida ibodat qilishadi. Sinagogada ibodat *xor* shaklida olib boriladi.

Yangi tug'ilgan o'g'il bolalar sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Yahudiylikda bir necha tur oziq-ovqatlar, asosan cho'chqa, quyon, qo'shoyoq, tuya, yaxlit tuyoqlilar, o'laksaxo'r qushlar kabi ba'zi hayvon go'shtlarini eyish taqiqlanadi.

Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e'tiborlisi Peysax (Pasxa) bayramidir. Bu bayram xristianlarning pasxasidan farqli o'laroq, Yahudiylarning Misrdagi qullikdan qutulib chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. Qadimiy Yahudiylarda Pasxa deb qo'zichoq go'shti va vinodan iborat kechki ovqatga aytilgan. Xudo Misrdagi Yahudiy bo'lmagan go'daklarni qirib tashlashga qaror qilganda ular o'z uylarining peshtoqini o'sha qoni bilan bo'yab o'zlarini Yahudiy ekanliklarini bildirganlar.

Yahudiylar pasxa bayramidan keyingi etti kun davomida tuzsiz, xamirturushsiz patir – *matsa* eydilar. Matsani eyish bilan har bir Yahudiy Muso boshchiligidagi o'z ota-bobolarining chekkan mashaqqatlarini his etadi. Bu bayram Yahudiylarning quyosh-oy kalendarining *Nison* oyining 14 kuni (aprel oyining o'rtalariga to'g'ri keladi) nishonlanadi.

Pasxadan keyingi 50-kuni Yahudiylar *Shabuot (Shevuot)* bayramini nishonlaydilar. Bu bayram dastlab dehqonchilik bayrami bo'lgan, keyinchalik Sinay tog'ida Musoga Xudo tomonidan Toraning berilishini nishonlab o'tkaziladigan bayramga aylangan. U Yahudiylarning kalendari bo'yicha *Sivona* oyining 6-,7-kunlari nishonlanadi.

Kuzda Yahudiy kalendaridagi *Tishri* oyining 1-2-kunlari (sentyabr oxiri, oktyabr boshlari) yangi yil bayrami - *Rosh-Ashona* nishonlanadi. Bu bayram Yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanib, ular qurbonlik qilingan qo'chqor

shoxidan yasalgan surnaylarni chaladilar, gunohlari qolmasligi uchun cho'ntaklarini to'ntarib yaxshilab qoqadilar.

Tishri oyining 9-kuni gunohlardan poklanish bayrami - *Yom-Kipur* nishonlanadi. *Rosh-Ashona* va *Yom-Kipur* bayramlari o'rtasida Yahudiylar ro'za tutadilar. Ro'za kunlari ular yuvinmaydilar, yalangoyoq, eski-tuski kiyimlarga o'ranib yuradilar. Sinagogada nadomatlar bilan yig'lab tavba qiladilar.

*Purim* (qur'a) bayrami Yahudiy bayramlarining ichida eng quvnoq hisoblanadi. Bu bayram Yahudiylarning ularni qirib tashlamoqchi bo'lgan Fors podshohi Homon zulmidan qutilganliklari sharafiga bahorda nishonlanadi. Ularni Homondan o'z amakisi Mordexay qo'lida tarbiyalangan Esfir ismli qizcha qutqargan. Shuning uchun bu kuni Yahudiylar «Homonga la'natlar bo'lsin», «Mordexayga Xudoning rahmatlari yog'ilsin», deb qichqiradilar.

**Yahudiylar O'rta Osiyoda.** Ma'lumki, Yahudiylar O'rta Osiyoga qadim zamonlardan ko'chib kelganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Ularning ichida umum e'tirof etilganlaridan biri Shuki, Yahudiylar bu mintaqaga Eron orqali kirib kelganlar. Bu xalqning O'rta Osiyoga hijrati ko'p asrlar mobaynida davom etdi. Taxminlarga ko'ra, ular Assuriya quvg'inlari paytida – er. av. VII-VI asrlarda Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Hatto e.r. av. VIII asrlarda ba'zi Yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o'lkalarda boshpana topganliklari haqida ham xabarlar bor. Fors davlati ma'lum muddat O'rta Osiyoni o'z hukmlari ostida tutib turgan va xuddi Shu davrda Yahudiylarning ko'chib kelishi amalga oshgan. Bu fikrni mahalliy Yahudiylarning fors lahjalaridan birida gaplashishlari ham quvvatlaydi. Ularning hayot tarzlari, urf-odatlari qadimiy Yahudiy, fors va mahalliy - O'rta Osiyo madaniyatlarining qorishmasidan iborat. Tarixning turli jarayonlarida bu uch madaniyatdan ba'zilarining ta'siri kuchayishi yoki aksincha susayishi kuzatilgan. XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli Yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketdi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan O'rta Osiyoning ma'lum bir qismining bosib olinishi yana

Yahudiylarning Turkiston Muxtoriyati va Buxoro Amirligi jamoalariga bo'linib ketishiga olib keldi. Yahudiylik millat dini bo'lganligi uchun Yahudiylar qaerda bo'lmasin, biri-ikkinchisidan qancha uzoq bo'lmasin, o'qiydigan kitobi – Tavrot, e'tiqod qiladigan dini yagona bo'lib qolaverdi. XVIII asrda O'rta Osiyo Yahudiylari tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793 yili o'zi Farbiy Afrikadan bo'lib, Falastinning Tsfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag'ribiy o'z shahri Yahudiylar uchun moddiy yordam to'plash maqsadida Buxoroga keladi. U bu erlik Yahudiylarning o'z dinlaridan uzoqlasha boshlaganliklarini ko'rib, Shu erda qolishga va millatdoshlariga diniy ta'lim berishga ahd qiladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko'rganlar. Agarchi O'rta Osiyolik Yahudiylarni *Buxoro Yahudiylari* deyilsa ham, ular ko'proq Samarqandda yashaganlar. XVIII asrning o'rtalarida Nodir-shoh Samarqandni bosib olganida uning lashkarlari orasida turklar, lazginlar, afg'onlar, eroniylar, Shuningdek, Yahudiylar bo'lganlar. Ular Samarqandning SHoh-Kash, CHor-Raga, Novadon, Qo'shhovuz kabi guzarlarida yashab qolganlar. Buxoro hukumati Nodir-shoh davrida Yahudiylarga nisbatan yumshoq muomalada bo'lgan.

Son jihatdan ko'paygan Yahudiylarning barchalari bir mavzega jam bo'lib yashashni xohlashardi. Biroq, Buxoroda ham, uning SHahrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana kabi viloyatlarida ham Yahudiylarni musulmonlardan ajralgan holda alohida yashashga majbur edilar. 1843 yilning bahorida mahalliy Yahudiylarga Samarqandning sharqiy qismidan 2,5 gektar joyni 10000 kumush tangaga sotish haqidagi shartnoma tuzildi. Bu shartnomani yahudilardan 32 kishi imzoladi, davlat uning haqiqiyligini to'rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib, Yahudiylar o'zlarining birinchi mahallalariga ega bo'ldilar.

## 2.2. VEDALAR VA VEDA DINLARI

**Vedalar.** Eramizdan avvalgi 2-ming yilliklar o'rtalarida Hindistonga SHimoldan erlik aholidan tillari va ranglari farq qilgan xalqlar kirib kela boshladilar. Ular Evropa tillariga o'xshash bo'lgan *sanskrit* tilida gaplashar edilar, o'zlarini esa *oriylar* (aslzodalar) deb atar edilar. Ular o'zlari bilan muqaddas

yozuvlarini ham olib keldilar. Ular *Vedalar* (sanskr. tilida - Bashorat) edi. Uning tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirgan bo'lib, ular ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy axborotlarni o'z ichiga olgan edi. Vedalarning boshqa muqaddas (mas. Bibliya) yozuvlardan farqli tomoni Shunda ediki, ular nihoyasiga etkazilmagan va oxiri ochiq edi. Unga keyingi ruhoniylar tomonidan ham qo'shimchalar qo'shish imkoni bor edi. Shuning uchun keyinchalik bu yozuvlar juda ham kengayib ketdi. Vedalarda 33 ta, ba'zi manbalarga ko'ra 333 yoki 3339 ta afsonaviy xudolar haqida madhiyalar bitilgan. Bu xudolarning eng mashhurlari - Indra, Varuna, Mitra, Dyaus, Adita, Agnyu, Vishnu, Krishna.

**Braxmanlik**. Eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarga kelib oriylar Hindistonda o'zlarining knyazliklariga ega bo'ldilar. Vedalarning marosimlar haqidagi ko'rsatmalari ancha murakkablashdi. Shu davrga kelib aholi o'rtasida braxmanlarning nufuzi oshib ketdi. Ular oldingi ta'limotlarni isloh qilib, yangicha liniy qonun-qoidalarni ishlab chiqdilar va *braxmanlik* diniga asos soldilar.

Braxmanlik ta'limoti *kastalar* (ijt.tabaqalar)ga asoslangan, ya'ni jamiyatdagi insonlar o'zlarining kelib chiqishlari, mansablari va hunarlariga ko'ra turli tabaqalarga bo'linadilar. Braxmanlikda eng yuqori kasta braxmanlar. Ular xudoning tilidan yaratilgan bo'lib, xudolar nomidan gapirish huquqiga ega edilar. Ikkinchi kasta *kshatriylar*. Ular xudoning qo'lidan yaratilgan insonlar hisoblanib, podshohlar, knyazlar, jangchilar Shular jumlasiga kiradi. Kastalarning yana biri *vayshlar*. Ular xudoning sonidan yaratilgan insonlar hisoblanib, savdogarlar va hunarmandlar Shu kastaga mansubdirlar. Kastalarning eng quyi tabaqasi *Shudra*lardir. Ular xudoning oyog'idan yaratilgan hisoblanib, oddiy xalq, dehqonlar Shular jumlasiga mansub.

Braxmanlikning kastachilik asoslari er. av. V asrlarda yashagan Hindistonning yarim afsonaviy hukmdori Manu qonunlarida mustahkamlangan.

***Braxmanlarning hayoti to'rt bosqichdan iborat:***

**Birinchi bosqichda** braxmanning diniy hayoti balog'at yoshiga yetib, muqaddas bosqichning qabul qilish va baxshida qilish "marosimidan"keyin

boshlanadi. Brahmanning yoshligi birorta donishmand brahman xuzurida vedalarni yodlash, uning uyida muqaddas olovning doimo tutib turish, ustozning xizmatini bajarish, uning uchun sadaqa yig‘ish bilan o‘tadi. Brahman bu bosqichda *“braxmacharin”* deb atalgan.

**Ikkinchi – *“grihasta”* nomli bosqichda** uy xo‘jayini vazifasini bajarib, uylanishi, oilani boqishi, farzandlar tarbiyasi, amaliy hayot ilmi (qachon va nimani yeyish, nimani echish, ibodat qilish, marhumlarni dafn etish, mehmonlarni qanday kutish, ovqatni qanday tayyorlash, qariyalarga, ayollarga, yosh bolalarga munosabat)ni qonun asosida fuqarolik burchlarini bajarib borishi lozim.

**Uchinchi bosqich “vanaprastha” (o‘rmon zohidi)** davri bo‘lib, unda oilasi yoki yolg‘iz holda o‘rmonga ketishi kerak. Braxman u yerda “o‘z nafsini jilovlab” ildizlar, mevalarni eb, diniy amallarni “jon-jahdi” bilan bajarishi lozim. Bu davrda bir qator mashaqqatlarni o‘z boshidan kechiradi.

**To‘rtinchi bosqichda tarkidunyochilik** yoki diniy qashshoqlik – “saniyasi” davrini boshdan kechiradi. Uning maqsadi “Oliy Brahmaga yetishish, u bilan qo‘shilib ketish, bu dunyo va o‘lgandan keyingi abadiy baxtga erishish”ga intiladi. U tarkidunyochilik bosqichida faqat sadaqadan tushgan narsalar hisobiga kuniga bir marta ovqatlanib kun kechiradi**.**

Braxmanlikdagi ruhning ko’chib o’tish ta’limoti Hindistonning deyarli barcha din va falsafalariga ta’sir etgan.

**Hinduiylik.** Eramizdan avvalgi VI asrda Hindistonda keyinchalik jahon dinlaridan biriga aylangan Buddaviylik vujudga keldi. U braxmanlikdagi bir necha elementlarni qabul qilgan bo’lsa-da, kasta ta’limotini inkor etdi. O’sha davrda Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolishga, braxmanlik dinini isloh qilib, qayta tiklashga harakat boshlandi. Bu harakat braxmanlik bilan buddaviylik o’rtasidagi kurashni ifodalovchi hinduiylik edi. Hinduiylik ko’pxudolik dini bo’lib, unda braxmanlikning asosan uchta xudosi tan olinadi; 1) koinotning yaratuvchisi bo’lgan Braxma; 2) dunyo nizomini ushlab turuvchi Vishnu; 3) koinotni halok qilish qudratiga ega Shiva.

Hinduiylik ta'limotiga ko'ra olam, hayotning barcha shaklini Braxma yaratgan. Biroq Braxma bu dinda uch xudoning nomigagina boshlig'i. Hozir Braxmaga sig'inish deyarli yo'q. Hinduiylar asosan Vishnu va SHivaga sig'inadilar, ularga atab qurbonliklar keltiradilar.

Hinduiylikda jannat va do'zax haqidagi tuShunchalar ham mavjud. Ular marhumlarni Gang daryosi sohillarida kuydirib, kulini suvga oqizadilar.

Bu din asosan Hindistonda tarqalgan bo'lib, mamlakat aholisining 83% Shu dinga e'tiqod qiladi. Hinduiylikning uni qabul qilmoqchi bo'lganlarga qo'yadigan birinchi va asosiy sharti Hindistondagi kasta tuzumini qabul qilishidir.

## 2.3.XITOY DINLARI: KONFUTSIY TA'LIMOTI VA DAOSIZM

Qadimgi Xitoyda Lao-Tszi falsafiy ta'limoti bilan deyarli bir davrda Kun-Tszi (Konfutsiy - miloddan avvalgi 551-479)ning falsafiy ta'limoti ham paydo bo'ldi. Konfutsiy - Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, Konfutsiychilikning asoschisi. Konfutsiy, garchi, samoni oliy ruhiy qudrat, ajdodlarga qurbonlik keltirishni ularni e'zozlashning asosiy ifodasi deb bilsa ham, o'z ta'limotida osmon sirlari muammolarini deyarli tilga olmagan hamda ruhlar va narigi dunyo kabi tuShunchalarga kam e'tibor bergan. Konfutsiyning falsafiy va axloqiy g'oyalari markazida inson, uning aqliy va ma'naviy qiyofasi, olamdagi hamda jamiyatdagi o'rni, vazifasi muammolari turadi.

Konfutsiy fikricha olamdagi barcha mavjudot singari insonning taqdiri ham samoviy qudratga bog'liq. Shuning uchun odamlarning oliyjanobligi yoki tubanligi, oliy yoki past tabaqaga mansubligini o'zgartirib bo'lmaydi.

Binobarin, podshoh - podshohligicha, fuqaro - fuqaroligicha, ota - otaligicha, farzand - farzandligicha qolishi kerak. Bunday g'oya, ko'ramizki, mavjud tuzumni saqlab qolishni nazarda tutar edi. Shu bilan birga, Konfutsiy ideal, oliy inson, asl, mard kishi kontseptsiyasini ishlab chiqqan. Bu kotseptsiyaga ko'ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqei orqali emas, balki odamiylik,

adolatgo'ylik, haqgo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlarga erishish tufayli yuksak kamolotga etiShuvi mumkin.

Konfutsiyning falsafiy ta'limoti keyinchalik Xitoyda hukmron dinlarning biriga aylangan va Konfutsiychilik deb nom olgan dinning asosi bo'ldi. (milodning boshlarida). Konfutsiychilik manbai - Konfutsiy izdoshlari yozgan «Lung-Yuy» (Suhbatlar va mulohazalar, miloddan oldingi VI asr) kitobidir. Konfutsiychilik Lao-Tszi ta'limotidan tubdan farq qiladi. U jamiyatni ijtimoiy larzalardan asrab qolishga intilgan feodal amaldorlarning qarashlari va manfaatlarini himoya qilgan. Konfutsiychilikning maqsadi - xalqni mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashdir. Bu din aqidasiga ko'ra, jamiyatda osmondan yuborilgan «Jeng» (Insonparvarlik) qonuni amal qiladi. Bu qonunni o'rganib olish uchun inson «Li»ga, ya'ni ijtimoiy axloq normalariga, qoidalariga, an'anaviy marosimlarga amal qilishi, o'zining jamiyatdagi darajasiga qarab ish tutishi zarur.

Konfutsiychilik belgilangan diniy tartiblarga qattiq amal qilishni talab etadi. Konfutsiyning o'zi hayotligida diniy tartiblarni sidqidildan bajargan.

Endilikda, har bir oilaning o'z ibodatxonasi bo'lishi zarur bo'ldi. har bir oila o'z ibodatxonasiga ajdodlarning timsoli bo'lgan «Chju» tasvirini joylashtiradi. Uning yoniga qurbonliklarni qo'yadi va diniy marosimlarni ijro etadi.

Konfutsiychilikda ijtimoiy-axloqiy masala alohida o'rin egallaydi. Shu ma'noda Konfutsiy ta'limotini inson xatti-harakati hayoti me'yorlari haqidagi ta'limot deyishi ham mumkin edi. Insonlar o'rtasidagi hayot tarzi an'anaviy besh munosabatdan iboratligi qayd etilgan:

- davlat boshlig'i bilan amaldorlar o'rtasidagi munosabat;
- ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi munosabat;
- er bilan xotin o'rtasidagi munosabat;
- katta va kichik aka-ukalar o'rtasidagi munosabat;
- do'st-birodarlar o'rtasidagi munosabat.

Bu ta'limotda Shunday qadriyatlar ham borki, unga qoyil qolmay iloj yo'q. Birgina misol keltiramiz:

O’g’il ota-onasi oldida quyidagi beshta vazifani bajarish shart edi:

1. Har doim ota-onani to’la hurmat qilish;

2. Ularga eng suyukli taomni keltirish;

3. Ular betob bo’lib qolganlarida chuqur qayg’urish;

4. Ular vafot etganlarida yurak-yurakdan achinish;

5. Ular xotirasiga tantanali ravishda qurbonliklar qilish.

Konfutsiychilikda diniy marosimlarning asosiy mazmuni - Konfutsiychilikka qadar mavjud bo’lgan an’analarni, urug’-qabilaviy marosimlarni mustahkamlash, qonunlashtirishni tashkil etardi. Chunki konfutsiy o’zining hech qanday yangi ta’limot yaratmaganligini faqat eski marosimlarga, tartib-qoidalarga qattiq rioya etishni talab qilardi. Bu o’rinda uning quyidagi so’zlarini keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik: «Qadimdan joriy etilgan marosimlar saqlanmas yoki ular bekor qilinar edi, unda hamma narsa aralashib ketadi, izdan chiqadi. Nikoh marosimini yo’q qiling-chi, unda er-xotinlik bo’lmaydi, bu bilan bog’liq katta-katta jinoyatlarga yo’l ochiladi yoki dafn etish va qurbonlik qilish marosimini yo’q qilingchi, unda bolalar vafot etgan ota-onalari xotirasi to’g’risida o’ylamay, tiriklarga esa xizmat qilmay qo’yadilar; Pin-Tszin marosimini yo’q qilingchi - unda podshoh bilan amaldor o’rtasidagi farq yo’q bo’lib ketadi, kichik-kichik knyazchalar o’z boshimchalik qila boshlaydilar, natijada ta’qib etish va zo’ravonlik boshlanadi».

Xitoy xalqi tarixida qadimgi marosimlar katta o’rin tutganligini Konfutsiy yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham Xitoy xalq an’analarini, marosimlarini o’zining ta’limotida asosiy mazmunga aylantirgan. Xitoyliklar uchun eng yomon fojea - erkak tomonidan avlodning qolmasligidir. Ular avlodlari qolmasa, biz o’lganimizdan so’ng kim bizlarni yod etadi deb qattiq qayg’uga tushadilar.

Konfutsiychilikning bosh xudosi - osmon Xudosi edi. Keyinchalik Konfutsiyning o’zi ham ilohiylashtirilgan. Uning sharafiga, hatto imperatorning o’zi ham diniy marosimlarni bajo keltirar edi. Bu bejiz emas edi, albatta. Chunki, Konfutsiychilik oddiy xalq ustidan «aslzodalar»ning hukmronligini oqlardi. Bu

dinga ko’ra ayni paytda imperatorning o’zi oliy Xudoning erdagi vakili edi. Konfutsiychilikda imperatorga qarata yozilgan quyidagi maslahat ham bor edi: «Agar imperator biror katta maqsadni amalga oshirmoqchi bo’lsa, u albatta ajdodlari ibodatxonasiga borishi lozim. Qilmoqchi bo’lgan ishidan, o’zining maqsadidan avlodlarini xabardor etmog’i kerak. Shu paytda u osmonda yulduzlarning holatiga qaramog’i, ular qulay joylashganligiga ishonch hosil qilganidan so’ng o’zining maqsadini amalga oshirmog’i mumkin».

## DAOSIZM

Daosizm - aslida falsafiy ta’limot bo’lib, u miloddan avvalgi IV-III asrlarda Xitoyda paydo bo’lgan. Uning asosida miloddan avvalgi II asrda daosizm dini shakllandi.

Daosizmning falsafiy printsiplari «Dao-Detszin» kitobida bayon etilgan. Bu asar o’tmishdagi Xitoy donishmandi Lao-Tszi qalamiga mansubdir. Lao-Tszining tarixiyligi xususidagi masalaga sinologlar Shubha bilan qaraydilar.

Asarning asosiy tushunchasi «dao» (yo’l) bo’lib, u olamning mohiyati va bosh sababi, dunyoning turli-tumanligi manbai, barcha narsalarning onasi deb tuShunilgan. Bu, go’yo qandaydir yo’l bo’lib, atrofni o’rab olgan olam va barcha kishilar shu yo’l bilan borishi lozim. «Dao» diniy mazmun kasb etgan yo’lgina bo’lib qolmay, ayni paytda u hayot tarzi, usuli, printsiplari ham edi.

Daosizm dinining asosiy ramzi Dao bo’lib, u osmon xudosi ramziga Yaqin edi. Unga ko’ra, har bir baxtiyor bo’lishni istagan odam Daoni taniy olishi va u bilan birlashib ketishi zarur. Chunki, odam *mikrokosm (kichik dunyo)* bo’lib, u ham mikrokosmdek abadiydir. Insonning vafoti bilan ruh tanadan ajralib chiqib, mikrokosm bilan birlashib ketadi. Insonning vazifasi u o’lmay turib, ruhi Daoga qo’shilib ketishiga intilishdir. Bu narsaga qanday erishish mumkin degan savolga Dao ta’limotida javob berilgan.

Lao-Tszining ta’limotiga ko’ra, Dao yo’li «De» kuchiga mosdir. Faqatgina Shu kuchda Dao shaxsi namoyon bo’ladi. «De»ning ma’nosi *faoliyatsizlik* bo’lib, to’laqonli faoliyatni inkor etishdir. Demak, ilohiy mukofotga Daoning maqomiga

yaxshi ishlar bilan erishishga tirishgan odam emas, balki meditatsiya va o’zining ichki dunyosiga g’arq bo’lish jarayonida o’zini tinglashga harakat qilgan va o’zi orqali dunyo tuzilishi maromini tinglash va unga erishishga harakat qilgan odam etishadi.

Shunday qilib Daosizmda hayot mohiyati abadiylikka, o’z ildizlariga qaytish deb tushuniladi.

### 2.4. Zardushtiylik dini.

**Zardushtiylik dini.** Spitama qabilasidan bo‘lgan Pourushaspa o‘g‘li Ashoga Zaratushtra (yunoncha – Zoroastr, pahlaviycha – Zaraxustra «boqiy yulduz» va «chiroyli tuyalarga ega bo‘lgan») ushbu dinning asoschisi hisoblanadi. Zardushtiylar e’tiqodiga ko‘ra, bu nom unga Axura-Mazda (yunoncha, Ormuzd – »Donishmandlik sohibi») tomonidan berilgan. Zardushtning yashagan davri va joyi haqida turli taxminlar mavjud. Tadqiqotchi M.Boysning ta’kidlashicha, u mil. avv. 1500-1200 yillar orasida yashagan. Uning fikricha, Zardusht o‘z da’vatini Gushtasb Luxrasb ismli kayoniylar podshohi davrida boshlagan. Bunga u zamonaviy zardushtiylarning hozirgacha mil.avv. 1738 yil shoh Vishtasp tomonidan qabul qilingan «fasli» kalendaridan foydalanib kelayotganlarini dalil qilib ko‘rsatadi.

Zardushtiylikning vatani masalasida ikki xil qarash mavjud. Jumladan, ayrim olimlar zardushtiylik Qadimgi Eron hududida keng tarqalgani, «Avesto»ning sharhlari pahlaviy tilida yozilganidan kelib chiqib, uning vatani Midiya (hozirgi Eron hududi) deb hisoblasalar, ko‘pchilik tarixchilar esa «Avesto»da Xorazm Zardushtning vatani, Axura-Mazda bilan aloqa bog‘langan va ozarxurra (muqaddas olov) birinchi bor yoqilgan joy ekani qayd qilinganiga asoslanib, Xorazmni e’tirof etadilar.

Zardushtiylikning muqaddas manbasi «Avesto» («Apastak», «Ovisto», «Ovusto», «Abisto», «Avasto» - «joriy qilingan qat’iy qoidalar») sanskrit tiliga Yaqin o‘ziga xos (avesto tili) tilida yozilgan. Uning «Gat»lar nomli qismi Zardusht

qalamiga mansub deb hisoblanadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, Xorazm, Gava (So‘g‘d), Marg‘iyona (Marv), Baqtriya (Balx), Orol dengizi (Vorukasha yoki Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) kabi nomlarning tilga olingani «Avesto» O‘rta Osiyoda mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida vujudga kelganini tasdiqlaydi. Dastlab «Avesto» matnlari og‘zaki ravishda saqlanib kelgan. Uning eng qadimiy qismlari II ming yillik oxiri I ming yillik boshlariga oid bo‘lib, keyingi asrlarda uning tarkibi turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar bilan to‘ldirilib borilgan. Milodiy uchinchi asrda qonunlardan iborat Avestoning sharhi «Zend» (parfiyoncha, «sharhlangan matn») yozilgan. Zamonaviy zardushtiylarning fikriga ko‘ra, «Avesto»ning to‘liq qismi etib kelmagan bo‘lsa-da, uning dastlabki yozma nusxasi 12 ming qora mol terisiga bitilgan edi. Abu Rayhon Beruniy «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistoning) o‘n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar (Aleksandr Makedonlik) otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o‘sha vaqtda Abistoning beshdan uchi yo‘qolib ketdi», deb aytgan so‘zlari yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

«Avesto» mil. avv. I asrda Arshakiylar sulolasi davrida ilk marta oromiy alifbosida ko‘chirilgan. SHopur II (243-273) va Xusrav I (531-579) zamonlarida uning nusxalari yaratilgan. IX asrda yozilgan «Denkart» («Imon faoliyati», Sosoniylar hukmronligi davrida yozilgan qomusiy lug‘at bo‘lib, u o‘z ichiga badiiy va tarixiy ma’lumotlarni olgan. Dastavval 9 bo‘limdan iborat bo‘lgan, keyinchalik uning 2 qismi yo‘qotilgan. Abbosiy xalifa al-Ma’mun ibn Horun Rashid davri (813-833)da Aturfarnbag (Aturfat ibn Hamat) tomonidan to‘plangan) asari «Avesto»ning 21 qismdan iborat bo‘lganini qayd etadi. Dindorlar kundalik faoliyati uchun uning ixchamlashtirilgan shakli - «Kichik Avesto» («Xurdak Avesto») yaratilgan.

VII asrda Eronga islomning kirib kelishi zardushtiylarni Hindistonga ko‘chib o‘tishga majbur qildi. Ularning avlodlari (forsiylar) Mumbay shahrida o‘z jamoalarida hozirgacha «Avesto»ning bir nusxasini saqlab keladilar.

«Avesto» - «Videvdat», «YAsna», «Visparad» va «YAsht» nomi bilan yuritiladigan bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. 22 bobdan tashkil topgan «Videvdat» - «Avesto»ning saqlanib qolgan bo‘limlari orasida eng mukammali bo‘lib, unda odamlar yashaydigan barcha yurtlar Axura-Mazda tomonidan yaratilgani, kasallik, o‘lim, azob-uqubatlar bo‘lmagan zamon, ya’ni insoniyatning farovon hayoti, Zardusht bilan Axura-Mazdaning savol-javoblari, qasam ichish, va’dada turish, ahdni buzish, tozalik, yuvinish asoslari kabi masalalar yoritilgan. «YAsna» - diniy marosimlarda o‘qiladigan duolar bo‘lib, 72 bobdan tashkil topgan. Zardushtning so‘zlari hisoblanadigan 17 fasl, 338 qit’a, 896 misra va 5560 so‘zdan iborat «Gat»lari ham Shu bo‘limdan joy olgan. «Gat»ning har bir she’ri pahlaviy tilida «Gas» deyiladi. Umuman olganda, bu bo‘limda olovning muqaddasligi, zardushtiylik marosimlari orasida olovga e’tiqod qilish, Axura-Mazda nurining Quyoshda namoyonligi va uning Erdagi zarrasi deb bilinishi, olovning haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg‘onni rostdan ajratib berishi, yolg‘onning chin e’tiqodga xiyonat, deb qoralanishi kabi e’tiqodiy tushunchalar o‘z aksini topadi. «Visparad» - 24 bobdan tashkil topgan bo‘lib, ma’budlar sha’niga o‘qiladigan duo va pand-nasihatlardan iborat. 22 bobdan tashkil topgan «Yasht» esa har bir bobi Axura-Mazdadan boshlanib, u tomonidan yaratilgan va uning ma’lum vazifalarini bajaruvchi ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalardan iborat.

Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, Zardusht o‘ttiz yoshga etganida unga payg‘ambarlik vazifasi berilgan. U o‘z tarafdorlari bilan birga Aivitak suvi qirg‘oqlarida xilvat (yolg‘izlik, chilla)ga chiqib ketgan. Xilvatning 45-kechasi samoga ko‘tarilib, Vohumanah (Bahman) deb nomlangan farishta bir necha farishtalar bilan birga uning ko‘kragini yorib, ruhini poklaganlar. Vohumanah uni jannat, ya’ni Axura-Mazdaning huzuriga olib borgan. O‘sha erda u dinning

hukmlari bilan birga yulduzlar, sayyoralar, jannat, jahannam va boshqa narsalarning ilmini o‘rgangan. Shundan so‘ng Axura-Mazda unga muqaddas kitob «Avesto»ni in’om etdi. Zardusht ta’limoti ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashning azaliy ekaniga asoslangan axloqiy xarakterdagi din bo‘lib, unda adolatli bo‘lish, oqillik, yaratuvchanlik va mehnatsevarlik bilan yagona xudoga sig‘inish targ‘ib qilingan. Bu kurashda ezgulik tarafdori Axura-Mazda oxir-oqibat yovuzlik tarafdori bo‘lmish Anxra-Maynyu (yunoncha, Axriman - yomonlik, buzg‘unchilik ibtidosi) ustidan g‘alaba qozonadi. Shuning uchun ko‘pchilik dinshunoslar zardushtiylikni assimmetrik dualizmga mansubligini qayd qilishgan.

Ta’limotga ko‘ra, birinchi inson Govmard (forscha - ho‘kiz-odam) bo‘lgan. Birinchi shoh Yima (Jamshid) hukmronligi oltin davr hisoblangan. Uning davrida kishilar bekamu-ko‘st, baxtiyor yashaganlar. 900 yil o‘tgach, shoh Yima g‘ururga berilib, man etilgan sigir go‘shtini eydi va yovuzlik ramzi Axriman hukmidagi kuchlar bosh ko‘taradi. Oqibatda olamni muzlik qoplaydi. Yima Axura-Mazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo‘rg‘on qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtiradi. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, Yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash davri bo‘lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Axura-Mazda g‘alaba qilib, ezgulik saltanati qaror topadi, o‘lganlar qayta tiriladi.

Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, dunyo sinovlardan emas, balki yovuzlikka qarshi kurashdan iborat, xolos. Ta’limotda insoniyat yashayotgan dunyo muhim hisoblanadi. Shuning uchun unda dunyoviy lazzatlardan oxirat uchun voz kechish masalalari ilgari surilmaydi. Ezgu amallar qilish orqali yovuzlikni engish mumkin. Har bir zardushtiy hayotini ezgu fikr - xumata, ezgu so‘z - xuxta, ezgu amal - xvartsha asosiga qurishi hamda yovuz fikr - dujvartshta, yovuz so‘z - dujuxta, yovuz amal - dujmatadan saqlanishi zarur.

Har bir inson vijdon amriga binoan ezgulik va yovuzlik orasidagi farqni topa olishi lozim. Har kim Anxra-Maynyu va uning tarafdorlariga qarshi kurashishi

zarur. Jumladan, Anxra-Maynyu yaratgan chayon, ilon va boshqa turli yirtqich hayvonlar xrafstra (jirkanchli) deb atalib, ularni o‘ldirish mumkin.

Zardushtiy uchun har doim pok holda bo‘lish ahamiyatli hisoblanadi. Inson o‘zini pok saqlashi uchun yomon o‘y-xayollar, kasallik, o‘liklarga Yaqinlashmasligi hatto ularga qaramasligi ham zarur. Istisno tariqasida nopok bo‘lib qolgan kishi yangidan poklanishi kerak. Inson jasadini olovda yoqish, muqaddas olovni o‘chirish va ruhoniylarni o‘ldirish eng og‘ir gunohlardan sanaladi. Zardushtiylar reinkarnatsiyani rad etadilar.

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyligi.

Zardushtiylik bir yilda har biri besh kundan davom etadigan oltita bayramni belgilaydi. Bu bayramlar orasida goxanvar – har biri o‘ttiz kundan iborat bo‘lgan 12 oydan keyingi besh kunlik bayrami asosiy o‘rinni egallaydi. Yilning 360 kunidan qolgan kunlari xursandchilik, diniy marosimlar bilan o‘tkaziladi. Shunday qilib yangi yilning – Navro‘zning Yaxshi kirib kelishiga umid bildiriladi.

Zardushtiylikda bir kecha-kunduz besh qismga bo‘linadi: ratu (belgilangan ilohiy tartib), xavani (sahardan tushgacha), rapitvina (tushdan soat 3-4 gacha), uzayyarina (oqShomgacha), avistrutrima (yarim tungacha), ushaxina (tun yarmidan sahargacha). Sutkaning bu nomlari ham xudoga o‘xshatilib, har biriga ibodat qilinadi – bir kunda besh marta namoz o‘qiladi.

Ko‘pchilik dinshunoslar zardushtiylikni dualizmga oid deb hisoblasalar-da, lekin unda Axura-Mazdadan keyingi darajalarda turuvchi o‘ziga xos xudolar panteoni mavjud ekanini ta’kidlash lozim. Ularning eng buyuklari Amesha Spenta (Abadiy muqaddas) – Axura Mazda yaratgan 7 maxluqdan biri. Boshqa fikrga ko‘ra, Amesha Spenta – Axura Mazdaning timsoli, YAzatlar - Axura Mazda yaratgan quyi ruhlar bo‘lib, ular Erdagi turli hodisa va holatlarga mas’uldirlar. Eng mashhur yazatlar Sraosha, Mitra, Rashnu va Veretragna hisoblanadi. Fravashi Osmonlarda yashovchi va Zardushtga vahiy olib tuShuvchi maxluqotlar. Shu bilan birga Spenta-Manyu (yorug‘lik, yaralish ibtidosi), Asha Vaxishta (adolat, haqiqat),

Voxu Mana (aql, ezgu fikr, tuShunish), Xshatra Vairya (qudrat, qat'iylik, hukmronlik), Spenta Armaiti (muhabbat, ishonch, rahm, fidoyilik), Xaurvatat (salomatlik, mukammalllik), Ameretat (baxt, abadiylik) ezgulik tarafdorlari hisoblanadi. Anxra-Maynyu, Drudj (yolg‘on), Indra (zo‘rlik, zulm), Akem Mana (yomon fikr, adashtirish), Shaurva (qo‘rqoqlik, pastkashlik), Taramaiti (takabburlik), Taurvi (kasallik, nuqsonlik), Zaurvi (qarilik, o‘lim) esa yovuzlik tarafdorlari hisoblanadi.

Zardushtiylikda har bir dindor Shubhasiz tasdiqlashi zarur bo‘lgan muhim aqidalar ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, oliy mehribon xudo Axura Mazdaning yagona va mavjud, Gegig (Er) va Menog (Ruh) olamlari mavjud, Zardusht insoniyat tarixida Axura Mazdaning ilk payg‘ambari, «Avesto»ning barcha qismi ilohiy haqiqat, muqaddas olov Xudoning Erdagi timsoli, Mubodlar Zardushtning birinchi shogirdlari va vahiylarning muhofazachilari, poklanish marosimlarini bajaruvchi, muqaddas olovni saqlovchi va ta'limotning sharhlovchilari, barcha Yaxshiliklarning barhayot fravashilari mavjud bo‘lib, odamlarning fravashilari Erda yovuzlikka qarshi kurashish yo‘lini tanlaganlar, yakunda ezgulik va yovuzlik kuchlarining uyg‘unlashishi, kelajakda Saoshyanta (xaloskor) kelishi va uning yovuz Frasho Kereti ustidan g‘alaba qozonishi, oxiri zamonning sodir bo‘lishi, o‘limdan so‘ng hisob-kitobning bo‘lishi, adolatning qaror topishi, yovuzlikka qarshi kurash va poklikni saqlab qolish maqsadida zardushtiylik an'analari va marosimlarga amal qilishning zarurligiga e'tiqod qilish shart qilingan.

Zardushtiylikka ko‘ra, inson vafotidan uch kundan so‘ng uning ruhi jasadidan ajralib, Osmon (Qo‘shiqlar uyi)ga olib boruvchi Chinvat ko‘prigi (Ajratish ko‘prigi)ga boradi. Chinvadda inson ruhini ezgulik yazatlari Sraosha, Mitra va Rashnu himoya qiladi. Agar inson ruhining ezgu amallari bir tola soch vaznida ham yovuz amallardan og‘ir kelsa, qo‘shiqlar uyiga boradi. Aks holda uning ruhini dev Vizaresh do‘zaxga tashlaydi. Chinvadda inson o‘z Daen (imon)ini uchratadi. Ezgu amal sohibiga imon go‘zal qiz qiyofasida ko‘rinib, uni ko‘prikdan olib

o‘tishga yordam beradi. Yovuz amal egasini esa, jodugar ayol ko‘prikdan do‘zaxga yiqitib yuboradi.

Zardushtiylikka ko‘ra, dunyoga 3 nafar saoshyanta kelishi lozim. Ular Zardusht ta’limotini qayta tiklaydi, qiyomatga Yaqin ularning oxirgisi Anxra-Maynyu bilan jang qilib, barcha yovuzlik kuchlarini mag‘lub etadi. Barcha o‘lganlar qayta tiriladi va olov orqali hisob-kitob qilinadi. Odamlar erigan metall oqimida barcha gunoh va nuqsonlardan tozalanadi. Yaxshi odamlar uchun olov sut bug‘idek tuyuladi, yomon odamlar esa yonib ketadilar. Shundan so‘ng olam o‘zining asl holatiga abadiy qaytadi.

Zardushtiylikda marosimlar qat’iy belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Har kim amal qilishi lozim bo‘lgan shart amallar bo‘lib, ularga ko‘ra, barcha marosimlarni diniy malakaga ega erkak kishigina amalga oshirishi mumkin, ishtirokchilar pok holda, Sadre (oq rangli maxsus zardushtiylik ko‘ylagi), Kushti (maxsus kamar) va bosh kiyimda bo‘lishi, ayollar esa sochlarini ro‘mol bilan berkitishi, ishtirokchilar tik turgan holda olovga yuzlanib, ibodatlar avesta yoki pahlaviy tilida olib borilishi ta’minlanadi. Marosimda dinsiz yoki boshqa din vakilining ishtiroki xosiyatsiz hisoblanadi.

Zardushtiylar kunlik Gohi - kunning goh, deb nomlanuvchi vaqtlarida besh mahal - Xavan goh (tongdan peshingacha), Rapitvin goh (peshindan so‘ng), Uzarin goh (kun botishdan oldin), Aivisrutrim goh (kun botgandan so‘ng), Ushaxin goh (yarim kechadan tongacha) ibodatni amalga oshirganlar.

Zardushtiylik marosimlari zamirida har qanday nopoklikka qarshi kurash ta’limoti yotadi. Bunda poklanish muqaddas olov yordamida amalga oshadi. Zardushtiylar ibodatxonasida (otashkade) uzluksiz ravishda muqaddas olovning yonib turishi ta’minlanadi. Ba’zi ibodatxonalarda bir necha yuz yillardan beri muqaddas olovlar o‘chmasdan kelmoqda. Muqaddas olovlarni o‘chib qolmasligini Mubod (diniy marosimlarni avloddan avlodga saqlab qolish mas’uliyatini olgan, kohinlar oilasi)lar ta’minlaydi. Mobadlar olovni har qanday holatda ham asrashi zarur bo‘lgan. Yangi olovni yoqish faqatgina istisno vaziyatlarda amalga oshiriladi.

Muqaddas olovlarning SHoh otash Varaxram (oliy darajadagi SHoh Bahrom olovi) maxsus shohona marosimlar, yirik g‘alabalarga bag‘ishlanib yoqilgan. Uni yoqishda 16 xil olov jamlanib, birlashtirilgan. Ushbu olov bilan bog‘liq marosimlarni yuqori martabadagi ruhoniylar amalga oshirishgan. Otash Aduran (o‘rta darajadagi aslzodalar olovi) 1000 kishidan kam bo‘lmagan aholi turar joylarida Mobadlar tomonidan yoqiladi. Buning uchun jamiyatning ruhoniy, harbiy, dehqon va hunarmandlardan bo‘lgan tabaqalari ishtirok etishi lozim bo‘ladi. Olov oldida Nozudi (kohin, amaldor va hukmdorlar sharafiga o‘tkaziladigan marosim), Gavaxgiran (to‘y marosimi), Sadre pushi (Zardushtiy shaxsning maxsus ko‘ylak kiyish va kamar taqish marosimi), Gaxanbar (YAzatlar sharafiga o‘tkaziladigan yil davomidagi bayramlar) kabi marosimlar o‘tkaziladi. Otash Dodgoh (quyi darajadagi olov) mahalliy jamoalarning kundalik diniy ehtiyojlari uchun ishlatilgan. Forslarda bu kabi joylar Dar ba mehr (adolat egasi Mitraning hovlisi) deb atalgan.

Zardushtiylikni qabul qilayotgan shaxs dinning arkonlarini tan olib, Fravan duosini o‘qishi, Sadre va Kushtini taqishi lozim. Dinni qabul qilish odatda o‘smirlik vaqtidan boshlanadi. Zardushtiylikni qabul qilayotgan vaqtda kishi hushyor va og‘ir gunohlarni qilmagan holda bo‘lishi lozim. Bu dinni qabul qilmoqchi bo‘lgan kishining ba’zi marosimlarni bajarishi kifoya hisoblansa-da, hind zardushtiylarning dasturiga ko‘ra, kelib chiqishi eroniy bo‘lmagan boshqa din vakillari ehtiromga loyiq emas.

Shunday bo‘lsa-da, zardushtiylikka ko‘ra, inson vafotidan so‘ng uning hukmi diniy mansublikka emas, balki fikri, so‘zi va amallariga muvofiq bo‘ladi. Boshqa dindan voz kechgan shaxs esa zardushtiy bilan kamida bir yil aloqada bo‘lgan va bu vaqt davomida Mobad yoki Behdin (ruhoniylar oilasiga mansub bo‘lmagan, ammo diniy malakasi yuqori bo‘lgan shaxs)lardan ta’lim olgan bo‘lishi lozim.

Mobad tomonidan dam solingan insonni ichki va tashqi yovuzlikdan saqlovchi va xudo bilan aloqaga kirishda Sadre va Kushtidan foydalaniladi. Sadre kiyish zardushtiy uchun farz amallardan hisoblanadi. Kushtini muhim marosimlar

va har ibodatdan oldin echib va taqib turish lozim. Ular doimo toza holda saqlanib, yilda ikki marta Navro‘z (Ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasiga bag‘ishlangan yangi yil bayrami bo‘lib, yilning kun va tuni teng 21 martda nishonlanadi) va Mehrjon (Hosil bayrami 23 sentyabr kuni nishonlanadi) bayramlarida almashtiriladi.

It yordamida odamdan devlarni quvish va poklash uchun Sog‘did marosimi o‘tkaziladi. Marosim xushsiz odamlarni tirik yoki o‘lik ekanini aniqlashda ham o‘tkazilgan.

Zardushtiylikda dafn marosimi va undan keyingi tadbirlar murakkab bo‘lishiga qaramay o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Dastlab kishi jasadi podyob (o‘likni to‘liq yuvish) marosimi olib boriladi. Jasadni ko‘targan va yuvgan kishilar barashnum (o‘likka tegib ketgan va og‘ir gunohlar qilgan kishilarni poklash) uzoq vaqt davom etadigan marosim bo‘lib, u itlar yordamida amalga oshiriladi. Marosimning o‘limdan keyingi hayot uchun foydali ekani uqtirilgan holda, har bir dindorga umri davomida bir marta bo‘lsa-da, tavsiya qilinadi. Undan tashqari Yasna (Yasnaning 27 bo‘limi o‘qilishi) marosimi muqaddas olov oldida Mobadlar tomonidan amalga oshirilib, unda dron (maxsus tayyorlangan non) va xum (xaoma, maxsus tayyorlanadigan muqaddas ichimlik) ishtirokchilarga tarqatiladi.

An’anaviy dafn marosimi bo‘yicha jasadni daxma (erdan 4-5 metr balandlikda silindr shaklida bo‘lgan maxsus joy) ga qo‘yilib, unga o‘liklar ustma-ust tartib bilan yotqiziladi. Ta’limotga ko‘ra, o‘lik Axrimanninng vaqtinchalik g‘alabasi oqibati bo‘lgani bois u nopok hisoblanadi. Shuning uchun yirtqich qush va hayvonlar ixtiyoriga topshirilgan jasaddan qolgan suyaklar terib olinib, novus (maxsus quticha)larga solingandan so‘ng daxmaga qo‘yiladi. Ammo, 1970-yillar boshlarida Eronda jasadni beton qabrlarga ko‘mish amaliyoti boshlangan. Dafn marosimida nasusa (qutiga ko‘muvchilar)lar nomli ijtimoiy tabaqa vakillaridan kamida ikki kishi ishtirok etishi lozim. Dafnning bir kishi tomonidan amalga

oshirilishi katta gunoh hisoblanadi. Noiloj vaqtda esa itning ko‘magidan foydalanish mumkin.

Zardushtiylik diniy tizimida Eron Mobadlari kengashi (Anjumani mug‘one Iron) faoliyat ko‘rsatib, ruhoniylar rutbasidan tashkil topgan. Zardushtiylikning diniy ierarxiyasi Ratu (zardushtiylikning himoyachisi, mas’um mobad), Mobadan Mobad (mobadlarning mobadi), Sar-Mobad (yoki pahlaviycha, Bozorg dastur, mobadlarning sardori, katta mobad), Dastur (ko‘rsatma beruvchi, etakchi mobad), Mobad (o‘rta maqomli mobad), Xirbad (quyi maqomdagi mobad) va Mobadyor (mobad oilasidan bo‘lmagan ruhoniy).

Hozirgi vaqtda zardushtiylarning gebr (Eron) va fors (Hindiston) jamoalari saqlanib qolgan. Jumladan, Hindistonda zardushtiylikka e’tiqod qiluvchi kam sonli parslar bo‘lib, ular VII asrda Eronga islomning kirib kelishi oqibatida Hindistonga qochib kelgan fors zardushtiylarining avlodlari hisoblanadi. Forsiylar dastlab Kathiavardagi Diu va Gujarotdagi Senjenda yashaganlar. Keyinchalik Mumbay (Bombey)ga ko‘chib o‘tgan zardushtiylar soni 100000 kishi atrofida bo‘lib, hozirgi kunda Hindiston aholisining 0,007 foizini tashkil qilmoqda. Undan tashqari Avstraliya, Evropa, Shimoliy va Lotin Amerikasi, Rossiya Federatsiyasi va MDH mamlakatlarida zardushtiy jamoalari mavjud.

**Xulosa**. O’zbekistonda barcha fuqarolarimiz uchun diniy e’tiqod erkinligi O’zbekiston Respublkasi Konstitutsiyasi va Vijdon erkinligi to’g’risidagi qonun bilan kafolatlangan. Jumladan, milliy dinlarni o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuni Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:**

1. Buxoro Yahudiylari O‘rta Osiyoning asosan qaysi shaharlarida yashaganlar?

2. Yahudiylarning birinchi alohida mahallasi qachon va qaerda vujudga kelgan?

3. Yahudiylik dini qaysi vaqtda vujudga kelgan?

4. Yahudiylik dinining muqaddas kitobi qaysi?

5. Yahudiylik dinining asosiy ta'limoti nimalardan iborat?

6. Vedalarning boshqa muqaddas kitoblardan qanday farqi bor?

7. Braxmanlik jamiyatni qanday tabaqalarga bo'ladi?

8. Hinduiylik qanday dinlar qatoriga kiradi?

9. Hinduiylik ta'limoti nimalardan iborat?

10. Konfutsiychilik nima asosida vujudga kelgan?

11. Konfutsiychilik Xitoyda qanday mavqega ega edi?

12. Daosizm asoschisi kim?

13. Zardushtiylik dinining asoschisi haqida qanday qarashlar mavjud?

14. Zardushtiylikning teologik tizimi haqida gapirib bering.

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Zardushtiylikning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarni atroflicha o'rganib, shu haqda kursdoshlaringizga ma'lumot bering.

2. Yahudiyikda muqaddas sanalgan bayramlar va ularni e'zozlash amallari haqida referat tayyorlang.

3. Veda va veda dinlarining bugungi kundagi qoldiqlari haqida gapirib bering.

4. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

**Adabiyotlar**

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. - T., 1968.

2. Bartold V.V. O xristianstve v Turkestane v domongolskiy period (po povodu Semirechenskix nadpisey) // Soch., t.2. ch.2. - M, 1964.

3. Evrei v Sredney Azii. Proshloe i nastoyashee. - Sankt-Peterburg, 1995.

4. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas'ul muharrir - Sh.Yovqochev. – T.: Toshkent Davlat Sharqshunoslik insti tuti, 2006.

5. Suxareva O.A. Perejitki demonologii i shamanstva u ravninnix tadjikov //Domusulmanskie verovaniya i obryadi v Sredney Azii. – M.: Nauka, 1975. – 340 s.

6. Yurtimiz allomalari. – T.: Nihol, 2014.

7. Movarounnahr allomalarining hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissalari. Monografiya. / Mualliflar jamoasi. – T.: Movarounnahr, 2011. - 280 b.

8. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. – 270 b.

9. Karomatov H. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. Monografiya. – T.: JIDU, 2008. – 664 b.

10.William J. Wainwright. The Oxford Handbook of Philosophy of Religion. University of Wisconsin, Milwaukee.2010.

11.Phillip wodzinski. kant’s doctrine of religion as political philosophy. Boston college.2009.

12.John R. Hinnells. The Routledge Companion to the Study of Religion. Routledge.2005.

## TARQATMA MATERIALLAR:

**1-ilova**



**2-ilova**




**3-ilova**




**4-ilova**



**5-ilova**




**6-ilova**




**7-ilova**



**8-ilova**




**9-ilova**




**10-ilova**



# III BOB. JAHON DINLARI

## 3.1. BUDDAVIYLIK

**REJA:**

1. **Buddaviylik (Buddizm)ning kelib chiqishi.**
2. **Buddaviylik ta'limoti.**
3. **Buddaviylikning Markaziy Osiyoga kirib kelishi.**

**Tayanch so'zlar:** *Buddaviylik, Siddxartxa Gautama, Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djipa, Bxagavan, to'rtta haqiqat, meditatsiya, tripitaka, tipitaka,*

**1.Buddaviylik (Buddizm)ning kelib chiqishi.** Buddaviylik (Buddizm) – uchta dunyo dinlari ichida eng qadimiysi hisoblanib, miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan.

Bu dinga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodja, Birma, Tayland, Laosda va qisman Evropa va Amerika qit'alarida, Rossiyaning shimoliy davlatlaridan tashqari, Buryatiya, Qalmiqiyada istiqomat qiladilar. Hozirgi kunda dunyoda buddaviylar soni 900 mln.ga yaqin bo'lib, ulardan 1 mln.ga Yaqini monaxlardir.

Buddaviylikni din yoki falsafa, mafkura yoki madaniyat qonunlari to'plami yoki hayot tarzi deb baholash mumkin.

Buddaviylik asoschisi haqida xabar beruvchi folklor va badiiy adabiyotlar uni Siddxartxa Gautama, Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djipa, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etadilar. Bu ismlarning ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa - shaxsiy ismi, Gautama - urug' ismi, Shakyamuni - shaklar yoki shakiya qabilasidan chiqqan donishmand, Budda - nurlangan, Tadxagata - Shunday qilib, Shunday ketgan, Djina - g'olib, Bxagavan - tantana qiluvchi. Bu ismlar ichida eng mashhuri Budda ismi bo'lib, uning ismidan dinga buddaviylik nomi berilgan.

Hozirgi kunda Buddaning beshta biografiyasi ma'lumdir: “Maxavostu” – milodning II asrida yozilgan, “Lalitavistara” - milodning II-III asrlarida yuzaga kelgan, “Buddaxacharita” - Budda faylasuflaridan biri Ashvagxoshey tomonidan milodning I-II asrlarida yaratilgan, “Nidanakatxa” – milodning I asrida yozilgan va “Abnixishkramansutra”.

Budda mil. avv. 563 yilda tug‘ilib, 483 yilda vafot etgan. Siddxartxa SHakya qabilasining podshosi Shuddxodananing o‘g‘li edi. Uning saroyi Himolay tog‘lari etagida Kapilavasti degan qishloqda bo‘lgan (hozirda Nepal hududida). Onasi - malika Mayya. Podshoh o‘g‘lini orzu-havaslar og‘ushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi.

Siddxartxa ulg‘ayib qo‘shni podshohlardan birining qizi YAshadxaraga uylanadi va o‘g‘il ko‘rib, unga Raxula deb ism qo‘yadi. Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko‘rmay o‘sgan Siddxartxa bir kuni keksa chol, bemor hamda og‘ir mehnatli rohibni uchratadi, va nihoyat, bir kishining vafotiga guvoh bo‘ladi.



**Xurde – ibodat doiralari**

Bundan qattiq ta'sirlangan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo‘llarini axtarib saroyni tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U

besh rohib bilan qishloqma - qishloq kezib yuradi. Ko‘p vaqt bu rohiblarga hamrohlik qilib, ularning yo‘llarida ma’lum maqsad yo‘qligini, bu yo‘l o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi – insoniyatni azob uqubatdan qutqarishga olib bormasligini anglaydi va rohiblar jamoasidan ajraladi.

U chakalakzor o‘rmonlarda kezib, charchab bir daraxtning tagida dam olish uchun o‘tiradi va o‘zicha, to haqiqatni topmaguncha Shu erdan turmaslikka qaror qiladi.

Bu o‘tirishning 49-kuni uning qalbidan “Sen haqiqatni topding” degan sado keladi. Shu paytda uning ko‘z oldida butun borliq namoyon bo‘ladi. U hamma joyda shoshilinch qayoqqadir intilishni ko‘radi. hech bir joyda osudalik yo‘q edi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko‘zlab o‘tib ketayotgan edi. Inson aqli etmas bir kuch. Trishna - yashash, mavjud bo‘lish umidi barchani tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratardi. Mana endi Budda kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. Shu ondan u Budda – “nurlangan” deb ataldi. U tagida o‘tirgan daraxt esa – “nurlangan daraxt” - Botxa deb atala boshladi.

Budda o‘zining birinchi da’vatini Varanasi Yaqinidagi Rishipatana bog‘ida, o‘zining besh rohib do‘stlariga qildi va ular uning birinchi shogirdlari bo‘ldilar.

Shu kundan boshlab Budda o‘z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib o‘z ta’limotni tarqatib, o‘ziga yangi izdoshlar orttiradi. Budda 40 yil davomida o‘z ta’limotini Hindistonning turli joylariga etkazadi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o‘tdi. Uning jasadi, hind udumiga ko‘ra, u erda kuydirilib, uning xoki 8 ta budda jamoalariga bo‘lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona barpo etishgan.

Buddaning hayoti haqida turli afsonalar ham to‘qilgan. Bu afsonalarda aytilishicha, Budda ko‘p yillar davomida Er yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug‘ilgan: 84 marta ruhoniy, 58 marta podshoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g‘oz, 6 marta fil, Shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon kabi qiyofalarda qayta tug‘ilgan.

Jami 550 marta qayta tug‘ilgan. U doimo qaerda, qay qiyofada tug‘ilishini o‘ziga o‘zi belgilagan.



**Buddaning ramziy timsoli**

So‘nggi marta uni xudolar insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba’zilariga ko‘ra, Er yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o‘tgan. Shuning uchun buddaviylikning ba’zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Botxa daraxti o‘tkazilgan. Ba’zi afsonalar 24 ta Budda avlodi o‘tgan desa, ayrimlari minglab Buddalar o‘tgan deb da’vo qiladi.

**Buddaviylik ta’limoti.** Buddaviylik qadimiy hind diniy-falsafiy ta’limotlari asosida vujudga kelgan, amaliyot va nazariyotdan iborat diniy tizimdir. Budda yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan. Balki har bir inson tug‘ilish va o‘lim mashaqqatlaridan qutilishi uchun amal qilishi lozim bo‘lgan bir necha ko‘rsatmalarni ishlab chiqdi, xolos. Uning ta’limoti insoning hayolida, ishlarida va o‘zini tutishida samimiy olijanoblik g‘oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta’limotini inkor qildi, hayvonlarni qonli suratda qurbonlik qilishni qoraladi, varna (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.

Budda oliy yaratuvchi kuchning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu hayot kechirishidir.

Budda ta’limotining asosi “hayot – bu azob-uqubat” va “najot yo‘li mavjud” degan g‘oyadir. Buddaviylik qonuniyatlariga ko‘ra, inson o‘ziga moslashgan

mavjudot bo‘lib, o‘zida tug‘iladi, o‘zini-o‘zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddaning ilk da’vatida mujassamlashgan 4 haqiqatda o‘z ifodasini topgan.

**Birinchi haqiqat** - “Azob-uqubat mavjuddir” har bir tirik jon boshidan kechiradi, Shuning uchun har qanday hayot – qiynoq, azob-uqubatdir.

Tug‘ilish – qiynoq, kasallik – qiynoq, o‘lim – qiynoq, yomon narsaga duch kelish –- qiynoq, Yaxshi narsadan ayrilish – qiynoq, yomon narsadan ayrilish – qiynoq, o‘zi xohlagan narsaga ega bo‘lmaslik – qiynoq. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog‘liqlik. Hech bir narsa ma’lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddaviylik dunyoni Shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, har qanday narsa yoki hodisa u hoh moddiy, xoh ma’naviy bo‘lsin, *dxarma* (element)lardan tuzilgan. Bu elementlar esa o‘z xususiyatiga ko‘ra, harakatsiz bo‘lib, ularni harakatlantiruvchi kuch insonning xayol va so‘zlaridir. Ob’ektiv haqiqat bu doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi dxarmalar oqimidir. Harakatdagi dxarmalar mavjudligining 5 formasi – tana, sezgi, his-tuyg‘u, harakat, anglashni yaratadi. Bu besh forma insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi va borliq bilan aloqa qiladi, Yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Bu narsa insonning o‘limi bilan tugallanadi. Insonni tashkil qiluvchi besh forma (skandx) o‘z navbatida qayta tug‘iladi. YAngi tananing xususiyatlari asos bo‘luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va norma. Bu jarayon “hayot g‘ildiragi”ni tashkil qiladi. “Hayot g‘ildiragi”da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo‘ladi.

**Ikkinchi haqiqat** - “qiynoqlarning sabablari mavjuddir”.

Inson moddiy narsalar yoki ma’naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo‘lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug‘ilish, yangitdan qiynoqlarga duchor bo‘lish davom etadi. Buddaviylar fikricha, Buddadan keyin hech kim Nirvana holatiga erisha olmagan.

**<u>Uchinchi haqiqat</u>** - "qiynoqlarni tugatish mumkin". Yaxshi yoki yomon niyatlar, intilishlardan butunlay uzilish Nirvana holatiga to'g'ri keladi. Bu holatda inson qayta tug'ilishdan to'xtaydi. Nirvana holati, buddaviylar fikricha, "hayot g'ildiragidan" tashqariga chiqish, "men" degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg'ullarini to'la tugatishdir.



**<u>To'rtinchi haqiqat</u>** - qiynoqlardan qutilish yo'li mavjuddir. Bu yo'l - "Sakkizta narsaga amal qilish, to'g'ri tuShunish, to'g'ri harakat qilish, to'g'ri muomalada bo'lish, fikrni to'g'ri jamlash". Bu yo'ldan borgan inson Budda yo'lini tutadi.

Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi. Buddaviylik ta'limoti asosan uch qismdan iborat: meditatsiya, axloq normalari, donishmandlik.

**1. <u>Meditatsiya</u>** deganda quyidagilar tuShuniladi:

– To'g'ri tushunish (e'tiqod qilish) – Buddaning birinchi da'vatida yuritilgan so'z to'rt haqiqatni bilish va unga ishonish;

– To'g'ri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos bo'lishga, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar etkazib qo'yishdan saqlanishga intilish;

To'g'ri o'zini tutish – o'zingniki bo'lmagan narsani olmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;

– To'g'ri anglash – o'z tanasi va ruhiga o'zini yo'qotib qo'ymaydigan darajada nazoratda bo'lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo'yish;

– To'g'ri harakat qilish – o'zidagi yomon tuyg'ularni jilovlash hamda ezgu tuyg'ular va harakatlarni rivojlantirish;

– To'g'ri hayot kechirish – noma'qul hayot tarzidan saqlanish;

– To'g'ri fikr yuritish – kamolotning to'rt bosqichini ketma-ket bosib o'tish;

– To‘g‘ri gapirish – yolg‘ondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

2. Axloq normalari – bu Budda “Pancha Shila” besh nasihati:

– Qotillikdan saqlanish;
– O‘g‘rilikdan saqlanish;
– Gumrohlikdan saqlanish;
– YOlg‘on, qalbaki narsalardan saqlanish;
– Mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

3. Donishmandlik – bu buddaviylikning asosiy maqsadi bo‘lib, narsalar tabiatini to‘g‘ri tuShunishdan iborat.

Yuqorida ko‘rsatilgan uch amaliyot bosqichini o‘tagan inson oxir oqibatda oliy saodatga, ya’ni nirvana holatiga erishadi. Nirvana so‘zma-so‘z “o‘chish, so‘nish” ma’nolarini anglatadi. Unda hayotning har qanday ko‘rinishiga intilish yo‘qoladi.

Buddaviylikning yoyilishida Sangxa - buddaviylik jamoalarining roli katta bo‘lgan. Ular yilning ob-havosi Yaxshi bo‘lgan 9 oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, ular aholisini buddaviylikka da’vat qilib, ularga Budda ta’limotini o‘rgatib yurishgan. Faqatgina Musson yomg‘irlari tinmay quygan 3 oydagina o‘z ibodatxonalarida muqim bo‘lib ibodat bilan shug‘ullanganlar.

Miloddan avvalgi 273-232 yillarda hukmronlik qilgan Imperator Ashoka davri buddaviylikning keng hududga yoyilishiga katta imkoniyatlar yaratdi. Ashoka o‘zining ilk hukmronlik paytidanoq buddaviylikka e’tiqod qila boshladi. U buddaviylikka, monaxlariga, ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixohlik qildi. Ular o‘z da’vatlari asosida biron-bir erlik aholi yoki ruhoniylar tomonidan qarshilikka uchrasalar ham hech qanday qarshi harakat qilmay, o‘z yo‘llarida davom etganlar. Agar mahalliy aholi tomonidan o‘zlariga nisbatan xayrixohlik sezsalar, o‘sha erga ko‘proq ahamiyat berib, ularni ko‘proq da’vat qilishgan.

Buddaviylik jamoalari har qanday boshqa din, madaniyat va urf-odatlar qamrovida yoki aralaShuvda bir necha yuz yillab o‘zlarini saqlab qolish hamda fursat kelganda ularga o‘z ta’sirlarini o‘tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularning bu xususiyatlari Hindistonda musulmon hukmdorlar davrida, Shri-Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va YAponiya konfutsiychilari davrida, Janubi-Sharqiy Osiyoga buddaviylikning yoyilishida yaqqol namoyon bo‘lgan.

Buddaviylikning maxayana yo‘nalishi Xitoyga milodning birinchi asrida kirib kelgan. III-VI asrlarda buddaviylik Xitoy hududida keng tarqaldi. Bu vaqtda poytaxt yaqinidagi Loyana hamda Chanani kabi shaharlarda 180 ga Yaqin budda ibodatxonalari hamda diniy markazlar faoliyat yuritgan.

Maxayananing shakllanishida Kushon davlatining roli katta bo‘lgan. Mana Shu erdan, Kushon davlatidan, ayniqsa, Kanishkaning hukmronlik davridan so‘ng buddaviylikning maxayana yo‘nalishi Sharqda, Markaziy Osiyoning davlat va shaharlariga tarqala boshladi. Buyuk Ipak yo‘li orqali birinchi buddaviylik targ‘ibotchilari Xitoyga kelgan edilar. Keyingi buddaviylar buddaviylikning Xitoyda paydo bo‘lishi haqida ko‘plab rivoyatlar va afsonalar to‘qiganlar. Biroq Xitoy manbalarida ham, buddaviylar rivoyatlarida ham Xitoydagi birinchi buddaviy haqida biror aniq ma’lumot mavjud emas. Mazkur eslatmalar ichida mashhurrog‘i imperator Min-Dining tushi haqidagi xabar hisoblanadi. Aytilishicha, u tushida oltindan yasalgan bir but ko‘rgan, uning Budda ekanligini maslahatchisi Fuidan so‘rab bilgach, milodning 60-yillarida Budda haqida ma’lumotlar hamda diniy matnlar keltirish uchun Hindistonga elchilar yuborgan. Shundan so‘ng Xitoyga Hindistondan bir necha buddaviylik targ‘ibotchilari kelib, ular uchun maxsus qurilgan “Baymasi” (oq ot ibodatxonasi)ga joylashgan. Biroq tadqiqotchilarning aniqlashlaricha, bu kabi rivoyatlar ilmiy asosga ega emas. Xitoy hududiga kirib kelgan birinchi buddaviy kim ekanligi, qachon kirib kelganligi aniq emas.

Buddaviylikning xitoylashuvi va keng tarqalish jarayoni qiyin va murakkab kechgan. Buddaviylikning ilk g‘oyalari va targ‘ibotchilari Xitoyda paydo bo‘lgandan boshlab bir necha asrgacha uning tarqalish jarayoni davom etdi. Buddaviylik Xitoy hududida keng yoyilishi bilan alohida yangi shakl ham kasb etdi. IV-V asrlarda buddaviylik katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ushbu ta’limot o‘lkaning janubiy viloyatlariga yanada chuqurroq kirib bordi. IV asrning oxirida Sharqiy Szin davlatining o‘zida 1786 ta buddaviylik ibodatxonasi, 24 ming monax mavjud bo‘lgan. IV asrning o‘rtalariga kelib Xitoyda ayollar ibodatxonalari, ayol monaxlar va tinglovchilar paydo bo‘lgan. Sal o‘tmay, IV asrning oxiriga borib, podshohlar buddaviylik ibodatxonalariga tez-tez katta miqdordagi xayriyalar beradigan bo‘lganlar. Xususan, imperator Siyaou-di 381 yil birinchi bo‘lib o‘zini buddaviy deb e’lon qildi va o‘z saroyida ibodatxona barpo qildirib, unga monax keltirishni buyurdi. Lyao sulolasidan bo‘lgan U-di hokimligi davrida (502-549) buddaviylik mamlakat janubida rasmiy din etib e’lon qilingan edi.

Shunday qilib, buddaviylik miloddan avvalgi 1 ming yillik oxirlarida SHri-Lanka, Markaziy Osiyo hamda Old Osiyoni o‘z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorimizda olib borilgan arxeologik qazilmalar asnosida O‘ratepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzelaridan topilgan Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari va ramziy g‘ildiraklar guvohlik berishicha, Kushon imperiyasida buddaviylikka katta ahamiyat berilgan.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoy, IV asrda Koreya,VI asrda Yaponiya,VII asrda Tibet, XIII asrdan XVI asrgacha Mongoliya, XVII asrdan XVIII asrgacha Buryatiya va Tuva, XIX-XX asrlarda Amerika va Evropa qit’alariga kirib borgan.



**Buryatiyadagi buddaviylik ibodatxonasi**

Buddaviylik o‘z ta’limotida hech qachon boshqa xudolarga sig‘inishni taqiqlamagan. Budda ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berishi mumkin, biroq ular nirvana holatiga olib bormaydi deb aytgan. Shu sababli, buddaviylik ta’limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan xudolari yoki ulug‘langan shaxslari timsollari ibodatxonalarni egallagan.

Masalan, Hindistonning buddaviylikka mansub xudolari “dunyoni yaratuvchi Braxma”, “chaqmoq va momaqaldiroq xudosi Indra”, “hunarmandchilik ishlari xudosi Xatimanu”, Tibetda “Tibet eposi qahramoni Baser” timsoli, Mo‘g‘ulistonda Chingizxon kabi milliy panteon buddaviylik ilohlari sifatiga aylandi. Biroq bu panteonlar Nirvana holatiga olib bormaydi. Faqatgina Budda nirvanaga olib boradi va insonni qiynoqdan qutqaradi.

Buddaviylik ta’limoti bir qator devon shakliga keltirilgan to‘plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka) – uch savat ma’nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo‘lganligi uchun Shunday nom bilan atalgan. Buddaviylikning bu yozma manbasi hozirgi davrda SHri-Lankada saqlanib qolgan. Ular – budda targ‘ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari – Sutra-pitaka, rohiblik axloqi va xonaqohlar nizomlariga bag‘ishlangan vinaya matnlari –

Vinaya-pitaka, buddaviylikning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag‘ishlangan abxidxarma matnlari – Abxidxarma-pitakadan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikka oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning tarixiy qiymati kamroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning barchasi Tripitakada jamlangan.

**Buddaviylikning Markaziy Osiyoga kirib kelishi**

Buddaviylik O‘zbekistonning janubiy hududlarida yangi eraning boshlarida o‘rnashdi. Buddaviylikning Hindistondan Markaziy Osiyoga kirib kelishini odatda kushonlarning hukmronligi bilan bog‘laydilar. Imperator Kanishkaning hukmronligi davrida Kushon podshohligi ushbu dinning markazlaridan biriga aylangan. Milodning birinchi asrida Amudaryo havzasi bo‘ylarida buddaviylik hukmron din sanalgan va bu erda arablar kelishiga qadar boshqa joylardagiga nisbatan uzoqroq vaqt saqlanib turgan.

Kushon podshohi Kanishka buddaviylik diniga e’tiqod qilgan. U zarb qildirgan tangalarda boshqa ilohiyatlar bilan bir qatorda Budda tasviri ham uchraydi. Xitoylik Syuan-Szyan bergan xabariga ko‘ra, VII asrning boshlarida Termizda 10 ta buddaviylik monastirlari (sangarama) va mingta rohib bo‘lgan.

V-VIII asrlarda Eftalitlardan keyin buddaviylik Markaziy Osiyoda tanazzulga yuz tuta boshladi.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, baktriyaliklar san’atga o‘z madaniy an’analarini olib kirdilar.

Buddaviylikda Budda ta’limoti va hayotining botiniy mohiyatini ifodalovchi ramz-timsollarning butun boshli bir tizimi shakllantirilgan. Ko‘proq tarqalgani Budda va uning ta’limotini anglatuvchi g‘ildirak yoki yarqirab turuvchi aylana tasviridir.

Buddaning hayotiy aylanishlari bosqichlarini ifodalovchi ho‘kiz, sher, fil, ot ramzlari keng tarqalgan (masalan, fil – Yer uzra ko‘tarilgan Budda ramzi).

Shuningdek, Budda tagida o‘zining ilk va’zlarini aytgan muqaddas Bodxa daraxti tasviri ham buddaviylikning badiiy-diniy ramzi hisoblanadi. Arxitektura majmuasi tashkiloti buddaviylikda qat’iy qonunlar asosida amalga oshirilgan va bo‘rttirib ishlangan rasmlar, haykal, tasvirlar joyi va xarakterini belgilagan.

XX asrning boshlaridayoq Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida buddaviylikka oid ko‘p sonli tangalar, haykaltaroshlikka oid mayda tasvirlar va boshqa yodgorliklarni topganlar; ko‘pincha ular qimmatbaho metallar – oltin yoki kumushdan yasalgan (odamlar va hayvonlarning haykalchalari).

1927 yilda Sharq madaniyatlari muzeyi ekspeditsiyasi qadimiy Termizni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot o‘tkazib, u erda qator grek-buddaviylik yodgorliklari mavjudligini aniqladi. Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasining (TAKE) ishlari natijasida Qoratepa va CHingiztepa balandliklarida ikkita yirik buddaviylik monastiri bo‘lganligi aniqlandi va buddaviylik me’morchiligi va haykallarining parchalari topilgan o‘nlab joylar qayd etildi.

Ular orasida Ayritom shaharchasi alohida o‘rin egallaydi. U Termizdan 17 km. masofada, Termizdan Pomiroldi o‘lkalariga ketaverishda, Amudaryoning qadimiy kechuvi Yaqinida, tik qirg‘oqning o‘ng tomonida joylashgan. Mazkur joyning o‘rta asrga qadar davri haqidagi batafsil ma’lumotlar VII asrda yashab o‘tgan Xitoy ziyoratchisi Syuan-Szyan tomonidan qoldirilgan. Ko‘hna shahar uch tomoni devor bilan o‘ralgan tepalik mavjud va tepalik tevaragidagi qishloq qoldiqlaridan iborat. Ko‘hna shaharning Sharq tarafida aftidan buddaviylik stupasiga o‘xshash minora shaklidagi xom g‘ishtdan qurilgan bino joylashgan. Arxeologlar bu binoni buddaviylik monastiri deb hisoblaydilar. Bu monastir o‘z ichiga ibodatxonalardan tashqari rohiblar uchun yotoqxona va qator xizmat xonalari, ya’ni oshxona, omborxonalarni oladi.

Ayritom monastirlar qishlog‘iga hindistonlik qandaydir buddaviylik jamoasi a’zolari tomonidan asos solingan bo‘lishi ehtimol. Ayritom monastir qishlog‘i hududida mavjud ishlab chiqarish hunarmandchiligidan kulolchilik, metall

buyumlar ishlash, idish-tovoqlar ishlab chiqarish, mergel ohaktoshdan me’moriy detallar ishlash kasblari aniqlandi.

Ayritomdagi ibodatxona buyumlaridan quyidagilar topildi: ostida Budda nurlangan daraxt ramzidagi besh qavatli loydan yasalgan chaytya, u odatda diniy marosimning idishi – relikvariy ustida bo‘lgan yoki stupaning sirtqi qismi bo‘lib xizmat qilgan; yana ustida palmetta tasvirli gardish ushlagan o‘smir ifodalangan tosh topilgan bo‘lib, aftidan, u yigit donator-ibodatxona xizmatchisi bo‘lgan; bodxisatvaning bolalikdagi o‘yinlari haqidagi xotiralar bilan bog‘liq bo‘lgan, buddaviylarning sevimli tasviri – loydan yasalgan qo‘y kallasi; loydan yasalgan stolchalar – diniy marosim buyumlari uchun poya hisoblanib, ularga Buddaning o‘tirgan holdagi haykal-namunalari qo‘yilgan.

Qoratepa nomi bilan mashhur tepalik buddaviylikning eng yirik ruhoniylar markazi hisoblangan. Kushonlar davrida Qoratepa Termizning tashqi devori himoyasi ostida shahar tashqarisida joylashgan.

Buddaviylik tarqalgan davrda qadimiy e’tiqodlar ta’sirining barqarorligi haqida qo‘sh alanga qurshovida o‘tirgan Budda tasviri guvohlik beradi. Uning yonida IV-V asrlarga tegishli bo‘lgan va tirnab yozilgan baktriya yozuvida “buddamazda” so‘zi ifodalangan.

1963 yilda Qoratepa Sharqidan sakson metr narida Fayoztepa ibodatxona-monastiri majmui ochildi. Fayoztepa bino rejasi to‘g‘ri turtburchakdan iborat alohida turgan stupa shakliga ega. Bino uchta teng qismlarga bo‘lingan bo‘lib, ularning har biri ichki hovliga ega bo‘lgan. Bir qismi, aslida yashash xonasini o‘z ichiga olgan monastir bo‘lgan. Unda buddaviy rohiblar yashaganlar. Bundan tashqari bu erda yordamchi xonalar bo‘lgan. Ikkinchi qismi – ovqatlanadigan xona, oshxona, non yopadigan xona. Uchinchisi, ibodatxonaga o‘xshagan markaziy xona. Devorlari xom g‘isht va paxsadan qurilgan bo‘lib, somonli loy bilan suvalgan va oqlangan.

Ibodatxona to‘rtburchakli hovliga ega bo‘lib, uning atrofiga Shu xovliga chiquvchi 19 ta bino joylashgan. Hovlini barcha to‘rt devori bo‘ylab supa qilingan

bo‘lib, ular muqaddas ohak toshlari asosida qurilgan ustunlarga suyanib turgan ayvon bilan yopilgan. Hovli devorlari naqshlar bilan qoplangan. Xususan, markazida ibodatxona tasvirlangan janubi-g‘arbiy devorda rohib kiyimidagi Budda chizilgan bo‘lib, uning atrofini kichik Budda haykalchalari o‘rab turibdi. Mehrob devorlari ham yozuvlar bilan qoplangan. Devorlardan birida ikkita tik turgan Budda suratlari tasvirlangan bo‘lib, ularning har ikki tarafiga ikkita ayol ko‘rinishlari tasvirlangan. Qarama-qarshi devorda sovg‘a ulaShuvchi erkaklar tasvirlangan, bundan tashqari boshqa mazmundagi suratlar ham mavjud. CHizmalarning o‘ta qimmatbaholigidan tashqari, Buddalarning bu jonli tasviri dunyodagi eng qadimgi sanaladi. Ular milodiy I-II asrlarga tegishlidir.

1962 yilda Surxondaryo viloyati, SHo‘rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa degan joyda buddaviylik ibodatxonasi, vino tayyorlash qurilmalari, dafn qilish joyi – naus topilgan. Shahar hududida kulol, hunarmand va boy zodagon uylarining qoldiqlari, Shuningdek, mashhur oltin dafina va fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan.

Markaziy Osiyo hududlarida birinchi marta loydan yasalib Yaxshi saqlangan Budda tasviri, ko‘plab haykalchalar, bezaklar, diniy marosim buyumlari va tangalar topilgan, ular II asr oxiri III asr boshidagi buddaviylik ibodatxonasining markaziy binolari ichida saqlangan.

Boshqa binolarda katta miqdorda haykalchalar bo‘laklari, taqinchoqlar topilib, ularning ko‘pchiligiga oltin suvi yuritilgan. Budda tasvirlangan rasm parchalari, ko‘plab sopol idishlar, jumladan:  devorlarida qadimgi yunon, hind yozuvidagi braxma bitiklari saqlangan ko‘za qoldiqlari,chiroqlari topilgan.

1957 yilda Farg‘ona vodiysidagi Quva shahri vayronalarida arxitektura va haykaltaroshlikning ajoyib namunasi bo‘lgan buddaviylik ibodatxonasi qoldiqlari topilgan. Ushbu ashyoviy dalillar Farg‘ona viloyatida VII asrda buddaviylik dini keng tarqalganini tasdiqlaydi. Holbuki, bu davrda Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida zardushtiylik dini hukmron bo‘lgan.

1974 yilda Zartepada O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining qazish ishlari olib borilishi natijasida buddaviylik ibodatxonasi topilgan. Bu erda Buddaning oltin suvi yuritilgan haykali va ikkita bronza shamdon topilgan.

Umuminsoniy g‘oyalarning targ‘ib etilishi hamda har bir millatning Budda ta’limotini o‘z tilida o‘qib-o‘rganishi mumkinligi buddaviylikning turli hududlarga tarqalishiga zamin yaratgan. Buddaviylik O‘zbekistonning janubiy hududlarida yangi eraning boshlarida paydo bo‘ldi. Buddaviylikning Hindistondan Markaziy Osiyoga kirib kelishini odatda kushonlarning hukmronligi bilan bog‘laydilar. Imperator Kanishkaning hukmronligi davrida Kushon podshohligi ushbu dinning markazlaridan biriga aylangan. Kanishka buddaviylikka e’tiqod qilgan. U zarb qildirgan ayrim tangalarda Budda tasviri ham uchraydi. Milodning birinchi asrlarida Budda ilohiylashtirilib, xudo darajasiga ko‘tariladi va unga sig‘iniladi.

Budda bilim orqali azob-uqubatlardan qutulish mumkinligini uqtirgan. Buddaviy donishmandlar fikricha, har bir inson juda ko‘p ezgu va Yaxshi ishlar qilish orqali Buddaga aylanishi mumkin.

Xitoylik Syuan-Szyan bergan xabarga ko‘ra, VII asrning boshlarida Termizda 10 ta budda ibodatxonasi (sangarama) va mingta rohib bo‘lgan.

V-VIII asrlarda eftalitlardan keyin buddaviylik Markaziy Osiyoda tanazzulga yuz tuta boshlagan.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, baqtriyaliklar san’atga o‘z madaniy an’analarini olib kirdilar. Buddaviylikda Budda ta’limoti va hayotining botiniy mohiyatini ifodalovchi ramz-timsollarning butun boshli bir tizimi shakllantirilgan. Ko‘proq tarqalgani Budda va uning ta’limotini anglatuvchi g‘ildirak yoki yarqirab turuvchi aylana tasviridir.

Buddaning hayotiy aylanishlari bosqichlarini ifodalovchi ho‘kiz, sher, fil, ot ramzlari keng tarqalgan. Shuningdek, Budda tagida o‘zining ilk va’zlarini aytgan muqaddas Bodxi daraxti tasviri ham buddaviylikning badiiy-diniy ramzi hisoblanadi.

XX asrning boshlaridayoq Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida buddaviylikka oid ko‘p sonli tangalar, haykaltaroshlikka oid mayda tasvirlar va boshqa yodgorliklarni topganlar; ular ko‘pincha qimmatbaho metallar - oltin yoki kumushdan yasalgan.

1927 yilda arxeloglar qadimiy Termizni o‘rganib, u erda qator yunon-buddaviylik yodgorliklari mavjudligini aniqladi. Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasining (TAKE) ishlari natijasida Qoratepa va Chingiztepada ikkita yirik budda ibodatxonasi bo‘lganligi aniqlandi, yunon-buddaviylik me’morchiligi va haykallarining parchalari topilgan o‘nlab joylar qayd etildi.

Termizdan 17 km masofada joylashgan Ayritom shaharchasining Sharq tarafida aftidan buddaviylik stupasiga o‘xshash minora shaklidagi xom g‘ishtdan qurilgan bino vayronalari joylashgan. 1933 yilda arxeolog M.E.Masson tomonidan xom g‘ishtdan qurilgan bino qoldiqlari, uning ichida esa haykal, tosh karnizlar, me’moriy buyumlar, toshdan yasalgan muqaddas yodgorliklar borligi aniqlangan. Musiqachilar va mutafakkirlar, ehson keltiruvchilarning shakllari tushirilgan haykallarning hoshiyali tosh plitalari topilgan. Bu ibodatxona majmuasiga ibodat joylaridan tashqari rohiblar uchun yotoqxona va qator xizmat xonalari, ya’ni oshxona, omborxonalarni ham o‘z ichiga olgan.

Surxondaryodagi Qoratepa nomi bilan mashhur bo‘lgan tepalik buddaviylikning eng katta ruhoniylar markazi hisoblangan va u Kushon davridagi Termizning tashqi devori himoyasi ostida shahar tashqarisida joylashgan. Qoratepa binolarining uch qavati qumliklardan topilgan. Stupa maxsus hovliga o‘rnatilgan. Qoratepaning g‘orlik binolari oqilona tarzda, issiq iqlimni hisobga olgan holda joylashtirilgan. Bunday binolar yozda salqin, qishda esa yopiq eshiklar ortida iliq bo‘lgan. Qo‘sh alanga qurshovida o‘tirgan Budda tasviri buddaviylik tarqalgan davrda qadimiy e’tiqodlar ta’sirining barqarorligidan guvohlik beradi.

Toshkentlik san’atShunos-arxeolog L.I. Albaum Qoratepa Sharqidan sakson metr narida Fayoztepa ibodatxonasi majmuini ochdi. Markazida ibodatxona

tasvirlangan janubi-g‘arbiy devorda nimba kiyimidagi Budda chizilgan bo‘lib, uning atrofini kichik Budda haykalchalari o‘rab turibdi. Mehrob devorlari ham yozuvlar bilan qoplangan. Devorlardan birida ikkita tik turgan Budda surati tasvirlangan bo‘lib, ularning har ikki tarafida ikki ayol qiyofasi tasvirlangan. Qarama-qarshi devorda sovg‘a ulashuvchi erkaklar tasvirlangan. Bundan tashqari boshqa mazmundagi suratlar ham mavjud. Chizmalarning o‘ta qimmatbaholigidan tashqari buddalarning bu jonli tasvirlari dunyodagi eng qadimgi yodgorlik hisoblanadi. Ular milodiy I–II asrlarga tegishli. Tadqiqotchilarning fikricha, Qoratepa faqat rohiblar jamoasi uchun emas, balki Termiz va uning atrofida yashayotgan va boshqa shaharlardan kelgan buddaviylar uchun ham ibodatxonasi sifatida xizmat qilgan.

Qoratepa va Fayoztepa ibodatxonalari odatda er osti va er usti qismlaridan iborat bo‘lgan. Budda haykalchalari bilan bezatilgan «Zo‘rmala» stupasi mahobati bilan ajralib turgan. Stupalar bir necha balandlikda to‘rtburchak shaklda bunyod etilgan. Stupa usti gumbazsimon qilib ishlanib, unga yog‘och yoki toshdan yasalgan langar o‘rnatilgan. Bu langarlarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo‘lib, buddaviylar uni «chatra» deb atashgan. «CHatra» muqaddas daraxt timsolidir. Stupa koinot ramzi hisoblangan. Uylarda Budda haykali qo‘yilgan maxsus ibodat qiladigan xonalar bo‘lgan. Keyinchalik Budda haykallari yoniga boddhisattvalarning loydan pishirilgan kichkina haykalchalari qo‘shilgan. Ushbu holat ham shahar aholisi hayotida buddaviylik alohida ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi.

Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (qalinligi 10 metrgacha bo‘lgan qudratli mudofaa devori bilan o‘rab olingan qal’a shahar) o‘rnida bo‘lgan. Kushonlar hukmdori Kanishka davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllanib, savdo-sotiq markazlaridan biriga aylangan. Bu erda O‘rta Osiyo hududlarida birinchi marta Buddaning loydan yasalgan, Yaxshi saqlangan tasviri, ko‘plab haykalchalar, bezaklar, diniy marosim buyumlari va tangalar topilgan, ular II asr oxiri III asr boshidagi budda ibodatxonasining markaziy

binolari ichida saqlangan. Ibodatxonani tadqiq qilish 1983 yildan boshlangan. Dalvarzintepa majmuasidagi Budda ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan dahma, Shuningdek, oltin xazina toʻldirilgan ikki yarim metrli sopol koʻza buddaviylikning oʻsha davr xalqlari ijtimoiy-maʼnaviy hayotidagi mavqei va boshqa mahalliy dinlar oʻrtasida egallagan oʻrnini koʻrsatadi.

Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyo hududlarining Kushonlar saltanati hukmronligi ostida birlashtirilishi natijasida buddaviylik Uzoq Sharqqa ham kirib bordi. Keyinchalik Sharqiy Turkiston, Xitoyga yoyildi. Kanishka, Vima Kadfiz va ulardan keyingi Kushon imperatorlari buddaviylik dini an'analarini amalda rivojlantirish, boshqa xalqlar oʻrtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, Oʻsh, Bolosogʻun, Koshgʻar va boshqa shaharlarda ibodatxonalar qurib, uning muqaddas kitoblari, sutra (sanskritcha - ip, toʻplam, bayon, diniy-falsafiy ibora)larni oʻrganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratdilar.

Gʻarbda Orol va Kaspiy dengizi boʻylari, Janubda Hind daryosining quyi oqimi, Sharqda Xoʻtan (Xitoy)dan Banoras (Gang daryosi boʻyidagi shahar)gacha choʻzilgan Kushonlar imperiyasining boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining Yaxshilanishi, savdo-sotiqning rivoji yangi shaharlarning paydo boʻlishiga olib keldi. Kushonlar davrida buddaviylikka katta ahamiyat berilgani, diniy rasm-rusumlarni bajarishga alohida eʼtibor bilan qaralgani bois maxsus ibodatxonalar bunyod etilib, buddaviylik xalq turmush tarzining muhim tarkibiy qismiga aylanib bordi, madaniyat rivojiga kuchli taʼsir koʻrsatdi.

**Xulosa.** Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi va madaniyati rivojida buddaviylik muayyan oʻrin egallaydi. Bunga Markaziy Osiyo hududida joylashgan Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzelaridan topilgan arxeologik qazilmalar, jumladan, Shakyamuni sanamlari, haykalchalar, ramziy gʻildiraklar va stupa qoldiqlari, Shuningdek, marmardan yasalgan va juda Yaxshi saqlangan Budda haykali aniq dalolat beradi. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan yodgorliklar buddaviylikning oʻsha davrdagi mavqei haqida xabar beradi.

Shuningdek, ajdodlarimizning yuksak moddiy madaniyati, dini, urf-odati, tafakkur tarzi haqidagi tasavvurimizni boyitishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda buddaviylik Janubiy, Janubiy-Sharqiy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari Shri Lanka, Hindiston, Tailand, Laos, Mo‘g‘uliston, Kambodja, V’etnam, Xitoy, Singapur, Butan, Nepal, Malayziya, Koreya, Yaponiya, qisman Evropa va Amerika qit’asi, Rossiyaning Tuva, Buryatiya va boshqa hududlarda keng tarqalgan. 700 milliondan ortiq kishi buddaviylikning turli yo‘nalishlariga e’tiqod qiladi.

**Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:**

1. Buddaviylik qanday tarixiy jarayonda kelib chiqdi?
2. Buddaviylik qanday ta’limotni ilgari suradi?
3. Bu din qachon va qanday yo‘l bilan Markaziy Osiyoga kirib keldi?
4. O‘lkamizning qaysi mintaqalarida buddaviylik yodgorliklari saqlangan?

**Mushtaqil ish topshiriqlari:**

1.O‘lkamizning qaysi mintaqalarida buddaviylik yodgorliklarini aniqlash.

2. Buddaviylikning Markaziy Osiyoga kirib kelishi haqida referat tayyorlash.

**Adabiyotlar:**


1. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1968.
2. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas’ul muharrir – Sh.Yovqochev. – T.: Toshkent Davlat SharqShunoslik instituti, 2006.
3. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – T.: Mehnat, 2004.

4. Ochildiev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo‘llari (Yuz savolga yuz javob). – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.

5. Kon-Sherbok D., Kon-Sherbok L. Iudaizm i xristianstvo. Slovar. – M., 1995.

6. Myuller M., Vundt V. Ot slova k vere. Mif i religiya (Istoriya religii). – M.: Izd-vo Eksmo; Sankt-Peterburg: Terra Fantastica, 2002.

**TARQATMA MATERIALLAR:**

**1-ilova**




**2-ilova**




**3-ilova**




**4-ilova**




## 3.2. XRISTIANLIK DINI

**Reja:**

1. **Xristianlikning vujudga kelishi.**
2. **Xristianlik ta'limoti.**
3. **Xristianlik marosimlari.**
4. **Xristianlikda ilk bo'linishlarning yuzaga kelishi**
5. **Katoliklik (Katolitsizm) va uning o'ziga xos jihatlari.**
6. **Pravoslavlik (Pravoslavie) ta'limoti**
7. **Protestantlik (Protestantizm)ning yuzaga kelishi va sektalari.**
8. **O'zbekistonda xristianlik tarixiga oid ma'lumotlar**

***Tayanch so'zlar:***

*1. Bibliya; 2. Muqaddas Ruh; 3. Pasxa; 4. Cho'qintirish; 5. Xoch; 6. Ikona; 7. Patriarx; 8. Episkop; 9. Diakon; 10. Papa; 11. Mitropolit; 12. Altar'; 13. Indul'gentsiya; 14. Post, xaloskor, Mariyam, Falastin, nazaret, Rim papasi,*

*Vizantiya patriarxi, monofizit, Nestorian, katolik, provoslav, protestant, sekta.pasxa, rojdestvo.*

**Xristianlikning vujudga kelishi.** Milodiy yil hisobining boshlanishi xristianlik tarixi bilan bog‘liq. Chunki ushbu hisob xristianlik manbalarida Iso Masih (Isus Xristos) ning tug‘ilishidan boshlangan deb hisoblanadi. Iso Masih haqidagi birlamchi xabarlar asosan diniy manbalarda keladi.Hozirgi kunda xristianlik jahon dinlaridan biri hisoblanadi. U e’tiqod qiluvchilarining soniga ko‘ra boshqa jahon dinlari (buddaviylik va islom) orasida eng yirigi hisoblanadi. Xristianlikka e’tiqod qiluvchilarning soni 1 mlrd. 600 mln. bo‘lib, bu son dunyo aholisining deyarli uchdan biriga to‘g‘ri keladi. Xristianlik hozirgi kunda ko‘proq Evropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit’alarida hamda qisman Afrika va Osiyo qit’alarida tarqalgan. Rim imperiyasining Sharqiy qismida Falastin erlarida vujudga keldi.

Xuddi shu davrda Yahudiylar o‘rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi Yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo‘ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masih Yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g‘oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg‘in qildilar. Iso Masihni 33 yoshida fitnachilikda ayblab qatl etishga hukm qildilar.

Diniy bo‘lmagan manbalarda Isoning nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxsdir deguvchilar ham bor.



**Iso (a.s.) siymosi**

Bibliyaning xabar berishiga ko‘ra, Iso Masih Rim imperiyasi tashkil topganining **747 yili** Falastinning **Nazaret qishlog‘ida** bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi.YAngi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog‘liq.

Iso nomiga qo‘shiluvchi Masih so‘zi qadimiy Yahudiy tili - ivritdagi “moshiax” so‘zidan olingan bo‘lib, “silangan” yoki “siylangan” ma’nolarini beradi. Grekchada bu so‘z “xristos” (“christos”) shakliga ega. Bu dinning “xristianlik” yoki “masihiylik” deb atalishi ham Shu so‘zlar bilan bog‘liq.

Manbalarning xabar berishicha, xristianlik Yahudiy muhitida yuzaga kelgan. Bu esa xristianlikning Yahudiylikdan ko‘p jihatdan ta’sirlanishiga sabab bo‘ldi. Xristianlikning asosiy g‘oyasi – Iso odamzodning xaloskori “messiya” ekani Yahudiylikda mavjud bo‘lib, oxirzamonga Yaqin qolganda qaytib kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta’limotdan kelib chiqqan.

Keyinchalik bu ta'limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki xil – odam va xudo mohiyati haqida "gunohni yuvish", ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi haqidagi ta'limot bilan mustahkamlanadi. Xristianlik Ota-Xudo, O'g'il-Xudo va Muqaddas Ruh – Uch qiyofali Xudo (Troitsa – Trinity) to'g'risidagi ta'limotni, jannat va do'zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi.

Bibliya (biblia) so'zi grek tilida "kitob", "o'ram" ma'nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida 72 ta kitobdan, protestant nashrlarida esa 66 kitobdan iborat. Yahudiylarning yana bir diniy manbasi Talmudning xabar berishicha, Qadimiy ahdda 24 ta kitob bo'lishi kerak. Qadimiy Yahudiy tarixchisi Iosif Flaviyning aytishicha, 22 ta kitob bo'lishi kerak. Protestantlar va Yahudiylar, Trident Soboridan keyin (1545-1563), katoliklar ham qadimiy ahd tarkibiga 45 ta kitob kirgizadilar. Masalan, "Musoning besh kitobi" avval bir butun bo'lib, keyinchalik beshta mustaqil kitobga ajratib yuborilgan, "kichik payg'ambarlar kitobi" 12 kitobga ajratib yuborilgan.

Bibliya Yahudiylik va xristianlik dinlari ta'limotiga ko'ra, u Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o'zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir.

**"Injil" so'zi yunoncha** "evangelion" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, **xushxabar** ma'nosini anglatadi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona Najotkor hisoblanmish Iso Masihning YEr yuziga yuborilganligi haqida hikoya qilinadi.




**Nasroniylikning muqaddas manbasi**

Injil milodning birinchi asrida yozilgan, 27 bo‘limdan iborat. Injil Iso Masihni ko‘rib, uni Yaqindan bilgan, uning ta’limotini sinchiklab o‘rgangan mualliflar tomonidan yozilgan.

**Xristianlik ta’limoti**

Xristianlik ota-xudo, o‘g‘il-xudo va muqaddas ruh – uch ko‘rinishga ega xudo to‘g‘risidagi ta’limotni, jannat va do‘zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o‘z ichiga oladi.



**Ota-xudo, o‘g‘il-xudo va muqaddas ruh siymolari tasvirlangan ikona**

Xristian jamoasining shakllanishi, uning aqidalarini tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi milodning IV asri boshlarida 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e’lon qilinganidan so‘ng amalga oshdi.

325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya Nikeya shahrida I Butun Olam Xristian Soborini chaqirdi. Unda pasxani bayram qilish vaqti belgilangan, 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo‘lib o‘tdi. II Jahon sobori “troitsa” haqidagi qoidani ishlab chiqqan va “e’tiqod timsoli”ni qonunlashtirgan. Konstantinopol patriarxi Rim patriarxi kabi barcha boshqa episkoplarga nisbatan imtiyozlarga ega degan qoidani kiritgan. Bu soborda qabul qilingan “e’tiqod timsoli” 12 qismda ifodalandi:

– Birinchi qismda olamni yaratgan Xudo haqida;

– Ikkinchi qismda xristianlikda Xudoning o‘g‘li hisoblangan Iisus Xristosga imon keltirish haqida;

– Uchinchi qismda ilohiy mujassamlaShuv haqida so‘z yuritilib, unga ko‘ra, Iso Xudo bo‘la turib, bokira Bibi Maryamdan tug‘ilgan va inson qiyofasiga kirganligi haqida;

– To‘rtinchi qismda Isoning azob-uqubatlari va o‘limi haqida so‘z ketadi. Bu gunohlarning kechirilishi haqidagi aqidadir. Bunda Isoning tortgan azoblari va o‘limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechiriladi deb e’tiqod qilinishi haqida;

– Beshinchi qismda Isoning xochga mixlanganidan so‘ng uch kun o‘tib qayta tirilganligi haqida;

– Oltinchi qismda Isoning meroji haqida;

– Ettinchi qismda Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba erga qaytishi) haqida;

– Sakkizinchi qism Muqaddas Ruhga imon keltirish haqida;

– To‘qqizinchi qism cherkovga munosabat haqida;

– O‘ninchi qismda Cho‘qintirishning gunohlardan forig‘ qilishi haqida;

– O‘n birinchi qism o‘lganlarning ommaviy tirilishi haqida;

– O‘n ikkinchi qismda abadiy hayot haqida so‘z yuritiladi.

Xristianlikning bundan keyingi falsafiy va nazariy rivojida **avliyo Avgustinning ta’limoti** katta ahamiyat kasb etdi. V asr bo‘sag‘asida u dinning bilimdan afzal ekanligini targ‘ib qila boshladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, borliq inson aqli bilishga ojizlik qiladigan hodisadir, Chunki uning ortida ulug‘ va qudratli YAratuvchining irodasi yashiringan.

Avliyo Avgustinning taqdir haqidagi ta’limotida aytilishicha, Xudoga imon keltirgan har bir kishi najot topganlar safidan o‘rin egallashi mumkin, Chunki imon taqdir taqozosidir.

Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istanbul Patriarxining xristian olamida etakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim iperiyasining g‘arbiy va Sharqiy tafovutlari o‘sib chuqurlashib borayotgan jarayonlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida Papa Nikolay va Istambul patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro‘y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi.

XVI asr boshlarida katoliklikdan bir necha Evropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakatlari vujudga keldi. Buning doirasida lyuteranlik, baptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllandi.

**Xristianlik marosimlari**

Xristianlikda sirli marosimlar (tainstva) katta o‘rin egallaydi. CHerkov ta’limotiga ko‘ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo‘ladi. Ularning “sirli marosim” deb atalishiga sabab xristianlik aqidasiga ko‘ra bu amallar bajarilayotgan vaqtda Muqaddas Ruh ham qatnashadi. Bu marosim va bayramlar barcha xristian yo‘nalishlarida mavjud, faqat ularni amalga oshirish shakli va o‘tkazilish vaqti turlicha.

**Cho‘qintirish (kreshenie –** suvga botirish). Xristianlik ta’limotiga ko‘ra, Cho‘qintirish orqali kishi dinga qabul qilinadi, ya’ni cherkov a’zosiga aylanadi.

Bu marosim insonni uch marotaba suvga botirish yoki boshidan suv quyish bilan birga, ruhoniy tomonidan maxsus so‘zlarni aytish orqali amalga oshiriladi. Injilga ko‘ra, Cho‘qintirish va Muqaddas ruhning kelishi osmondan tug‘ilishning maxsus shartlaridan biridir. Uning asosi sifatida Injildan misollar keltiriladi: “Iso javob berdi: “Senga to‘g‘risini aytay, agar kim suvdan va Ruhdan tug‘ilmas ekan, Xudo saltanatiga kirmaydi” (Ioanndan, 3:5).




**Cho‘qintirish sirli marosimi bajarishda zarur jihozlar**

Suvga botirish marosimi birinchi bo‘lib Ioann tomonidan amaliyotda qo‘llangan. Shu kabi amaliyot Tavrotda aytib o‘tilgan “prozema”, ya’ni “butparastlarni dinga kiritish marosimi”ga o‘xshab ketadi. Unda erkaklar dinga kirishi uchun xatna qilinishi kerak bo‘lsa, ayollar uchun esa faqat diniy ritualni bajarish marosimi shart qilingan.




**Suvga to‘liq botirilgan shakli** **Boshidan suv quyilgan shakli**

Xristianlikning har bir yo‘nalishida Cho‘qintirish marosimi turlicha talqin etiladi. Pravoslav va katolik cherkovlarida Cho‘qintirish sirli marosim sifatida e’tirof etiladi. Bu hodisa Ioann cho‘qintiruvchining faoliyati ya’ni Iordan daryosida uning oldiga keluvchi insonlarni suvda tozalanishi, yomon illatlarni qayta qilmasliklari, Masihni toza qalb bilan kutib olish maqsadida amalga oshirilgan. Masih kelishini Ioann targ‘ib qilgan, cherkov nuqtai nazaridan Cho‘qintirish paytida inson hayotda shahvoniy jihatdan o‘lib, Muqaddas Ruh tomonidan ma’naviy hayotga qayta tiriltiriladi degan aqida mavjud. Marosim vaqtida inson nafaqat barcha qilgan gunohlaridan poklanadi, Shu jumladan, gunohlaridan ma’naviy forig‘ bo‘ladi.

Suv yordamida “o‘ldirish, jonsizlantirish” – mavjud bo‘lgan qusurlardan tozalanish hisoblanadi. Albatta u mutlaq poklanish bo‘lmasada, to‘xtovsiz yovuzlikni, yomonlikni to‘xtatadi, deb ta’kidlanadi. Rim nomalarida bu haqda Shunday yoziladi: “CHo‘qintirilayotgan Iso bilan birga o‘lib, u bilan birga abadiy hayotda tiriladi. Shunday qilib biz cho‘qintirilib u bilan birgalikda o‘limga dafn qilindik, zeroki Ota nomi bilan Iso o‘liklardan tirilgani kabi, biz ham yangilangan hayotda yashaymiz” (Rim, 6:4).

Cho‘qinishdan so‘ng inson gunoh ishlarni qilsa u Xudoning marhamatidan voz kechgan bo‘ladi: “Agar Xudoni anglab, bizning xaloskorimiz Isoni tan olib turib, eski yillariga, eski xolatiga qaytsalar, buning oxiri avvalgidan ham og‘irroqdir” (2 Petr, 2:20).

Cho‘qintirish marosimi xristian dinining eng muhim va asosiy marosimlaridan biridir. Bu marosim asosan cherkovda o‘tkaziladi. Xristianlar e’tiqodiga ko‘ra, inson tug‘ma gunohkor bo‘lib tug‘iladi va undan forig‘ bo‘lish uchun muqaddas suv yordamida poklanadi. Shundan so‘ng poklangan bola cherkov a’zoligiga qabul qilinadi.



Cho‘qintirishga o‘xshagan marosim qadimgi Hindiston, Rim, Misr, Kichik Osiyo va boshqa davlatlar hududlarida yashagan xalqlar orasida ham mavjud bo‘lgan. Xristianlikda Cho‘qintirish marosimi milodning I asri oxirlarida paydo bo‘lgan. IV asrda birinchi xristian jahon soborining qaroriga muvofiq, bu marosim har bir xristian uchun majburiy deb e’tirof etilgan va “e’tiqod ramzi” sifatida qabul qilingan. Shu vaqtdan boshlab “cho‘qintirilgan” so‘zi “xristian” degan so‘z bilan teng ma’no kasb eta boshlagan.

Katoliklardagi Cho‘qintirish marosimi

Xristianlar boshqa dindagi hamma kishilarni “cho‘qinmaganlar” (“Isoni tanimaganlar”) deb atay boshlaganlar. Cho‘qintirish marosimini tartibga solish maqsadida Qadimgi Karfagen cherkovi ishlab chiqqan 124 qoidadan birida ushbu normalar belgilangan: “Go‘daklar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni cho‘qintirmaganlarga la’nat bo‘lsin”.

Pravoslov yo‘nalishida Cho‘qintirish marosimi asosan yangi tug‘ilgan chaqaloqqa o‘tkaziladi. Ota-ona o‘z farzandlarining diniy bilimiga mas’ul bo‘lib, cho‘qintirilayotgan bola e’tiqodiga kafil hisoblanadilar. CHo‘qintirilayotgan bola o‘g‘il bo‘lsa, uni erkak kishi ko‘taradi, agarda qiz bo‘lsa, ayol kishi tomonidan amalga oshiriladi. Bu holatda rohib ota-ona vazifasini bajara

olmaydi. Qadimda Cho‘qintirish marosimini voyaga etganlar qalban his qilgandagina o‘tkazilgan.

Xristianlikning ilk davrida ba’zilar go‘daklarni gunohsiz deb bilib, agar olamdan o‘tsa jannatga tushadi, Shu sababli ularni go‘daklikda Cho‘qintirish shart emas deb hisoblaganlar. Boshqalar esa bolani Cho‘qintirish lozimligini takidlaganlar. Ko‘p insonlar Cho‘qintirish marosimini juda ham ortga surganlar. Ba’zilar o‘limi oldidan bu marosimni o‘tkazganlar. Toki ular umr mobaynida qilib o‘tgan gunohlaridan Shu yo‘l bilan poklanib ketmoqchi bo‘lar edilar. Shuning uchun cherkov bu an’anaga qarshi chiqib, go‘dak tug‘ilgan kundan boshlab sakkiz kun ichida bu marosimni bajarish lozimligini talab darajasiga ko‘targan.

**Evxaristiya (***yun.* non va sharob totish marosimi**)** xristianlikdagi eng muhim marosimlardan ikkinchisidir. Rus tilida bu marosim “Prichastie” deb nomlanadi. YUnon tilida “Evxaristiya” deb ataladigan mazkur marosim, xochga mixlanishdan oldin Isoning havoriylar bilan birga tanovul qilgan eng oxiri kechki ovqat xotirasi, sifatida e’tiqod qilinadi. Bu kecha tanovul kechasi ham deb ataladi.



**Sirli marosimni bajarish buyumlari**

Xristianlar non bilan sharobni tanovul qilar ekanlar, bu bilan ular Isoning tanasi va qonini tatib ko‘rdik, endi xudoga Yaqinroq bo‘ldik, deb hisoblaydilar. Bu marosim ertalab yoki tushki ibodatda asosiy o‘rinni egallaydi.

Bugungi kunda evxaristiya cherkovda yakshanba kuni amalga oshriladi. Bu marosim borasida yo‘nalishlar orasida, mintaqa va madaniyatlardan kelib chiqib farqli ba’zi bir jihatlar mavjud. Jumladan, katoliklarda mazkur marosimda Yaqin-Yaqinlargacha faqat ruhoniylargina ham non ham vino iste’mol qilishgan. Oddiy insonlar (“miryane”) faqatgina non bilan poklanishgan. Pravoslav va protestant yo‘nalishlarida esa bu borada ruhoniylar va oddiy insonlar farqlanmaydi. Shuningdek, yo‘nalishlar orasida non va vinoning tarkibi borasida ham farqlar kuzatiladi. Masalan, katolik va protestantlarda muqaddas non xamirturushsiz hamda vino suv qo‘shilmagan holda bo‘ladi. Pravoslavlarda esa, aksincha, non xamirturushli va vinoga suv qo‘shilgan bo‘ladi.



**Evxaristiya marosimidan bir lavha**

**Konfirmatsiya (***yun.* miro moyi surtish marosimi**;** ruschada – miropomazanie). Zaytun yog‘idan tayyorlangan muqaddas moy surtish sirli marosimlardan biri bo‘lib havoriylar davrida yo‘lga qo‘yilgan.

Miro moyi – (*yun.* – xushbo‘y moy) cherkov episkopi tomonidan oliy navli zaytun yog‘iga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari,

muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi mahsulotlarni qo‘shib qaynatish orqali tayyorlanadi.

Cho‘qintirilgan bolaning, muqaddaslashtirilgan yog‘ (xushbo‘y miro moyi) bilan, vujudining turli joylariga surtish marosimi. U Sharq cherkovlarida cho‘qintirilgandan darhol keyin, G‘arb cherkovlarida esa keyinroq qilinadi. Pravoslavlarda Cho‘qintirish bilan konfirmatsiya orasida Yaqin bir bog‘liqlik bo‘lganligi uchun ularning ketma-ket qilinishi afzal, deb bilinadi. Katoliklarda esa, mazkur marosim bola sakkiz yoshga to‘lgachgina amalga oshiriladi. Bunda, miro surtilayotgan kishining peshona, yonoq, og‘iz qismi, elkalari va qorniga xoch shaklida suriladi. Protestant yo‘nalishlari esa mazkur marosimni yo umuman rad etadilar, yo bo‘lmasa uni “sirli” deb tan olmaydilar.

Miro moyi tayyorlash cherkovning maxsus ichki marosimlaridan hisoblanib, uni tayyorlash huquqiga faqat episkoplar ega. Pravoslavlikda, miro tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘lgan cherkovlargina avtokefallik maqomini olishi mumkin.

Miro surtilgan bola, cherkovning bu ish uchun ajratilgan joyiga olib boriladi. U erda unga konfirmatsiya noni ediriladi. Eya olmas darajada kichik bo‘lsa, lablariga tekkiziladi. Shunday qilib u, cherkovning bir a’zosiga aylanadi.

**Tavba-tazarru qilish marosimi.** Bunda inson o‘zi qilgan gunohlariga iqror bo‘lishi, keyinchalik Shu gunohlarni qilmaslik uchun mag‘firat so‘rashi lozim. Bu xristianlikda keng yoyilgan gunohlarni e’tirof qilish marosimi hisoblanadi. Bu marosim, asosan gunoh qilish orqali yo‘qolgan Cho‘qintirish inoyatini qayta qo‘lga kiritish uchun qilinadi. Buning asosi sifatida Bibliyada keltirilgan quyidagi matnlar olingandir: “Xoh ayol bo‘lsin, xoh erkak bo‘lsin qandaydir gunoh sodir etgan bo‘lsa, istig‘for aytib, gunohlariga tavba qilsin” (Sonlar, 5:5,6).

Bu marosimning asosiy mohiyati dindor cherkovga kelib, qilgan gunohlari uchun tavba qiladi, ya’ni ruhoniyga o‘zining hamma gunohlarini batafsil so‘zlab beradi, xattoki, qalbi tubidagi yashirin sirlarini ham ruhoniy “ota”ga so‘zlab beradi. CHerkov nomidan gunohlarni kechirish huquqiga ega bo‘lgan ruhoniy uning

gunohlaridan o‘tadi va unga nasihat qilib, uni to‘g‘ri yo‘lga soladi va Muqaddas Ruhning kuchi bilan uni gunohlaridan pok qiladi.

**Eley surtish marosimi (*rus.* soborovanie).** Muqaddaslashtirilgan zaytun yog‘ining ham shifo, ham gunohlarning kechirilishi hamda bemalol o‘lish uchun kasallarga surtish marosimidir. Bu bemorning peshona, yonoq, lab va qo‘llariga muqaddas deb bilingan zaytun moyi surtish ko‘rinishida kechadi. Mazkur marosim, cherkov ta’limotiga ko‘ra, insonning jismoniy va ruhiy kasalliklarini davolaydi. “...qo‘llariga ilon olib ko‘tarsalar yoki zahri qotil biror narsa ichsalar ham ularga zarar etmaydi. Bemorlarga qo‘llarini qo‘ysalar ular sog‘ayib ketarlar” (Mark 16:18).



**Sirli Eley surtish marosimi**

Bu marosim ayni paytda tavbasiga tayanib ulgurmagan bandalarning gunohlardan xalos etib, osongina jon topshirishlariga yordam beradi, deb hisoblanadi.

**Ruhoniy unvonini berish marosimi.** Bu ruhoniylik martabasiga ko‘tarilish bilan bog‘liq marosimdir. U “Xirotoniya” (yun. “xir” – qo‘l va “tefimi” – qo‘yaman) deb nomlanadi. Diniy ta’limotga ko‘ra, ruhoniy bo‘ladigan shaxsning boshiga episkop qo‘l tekkizganidan keyin, u “Muqaddas Ruh” ning alohida marhamati bilan odamlar o‘rtasidagi vositachilik qilish xususiyatiga ega bo‘ladi. Shundan so‘ng mazkur inson xuddi Isoga uning havoriylari xizmat qilganidek o‘z zimmasiga Xudo va odamlar orasida vositachi bo‘lib xizmat qilish majburiyatini

oladi. Ma’lumki, xristianlik dinida ruhoniylik unvonlari – dyakon, presviter, episkop kabi uch turli darajaga ega.

*Dyakon* (*yunon.* xizmatchi) – xristian cherkovidagi eng quyi ruhoniylik darajasi. U marosimlarda episkop va presviterlarga yordamchilik qilish bilan Shug‘ullanadi.

*Presviter* (*lot.* oqsoqol) – xristian ruhoniylar ierarxiyasida yuqori darajaga ega ruhoniy. Qadimda episkoplar ham Shunday nom bilan atalgan. Jamoa tarafidan saylab qo‘yiluvchi ruhoniy bo‘lib, dastavval, u pastor bilan birgalikda diniy marosimlarga rahbarlik qilgan.

*Episkop* (*yunon.* nazoratchi) – xristianlikdagi oliy darajadagi ruhoniylik unvoni. Katolik e’tiqodiga ko‘ra episkoplar havoriy Pavelning izdoshlari xisoblanadi. Shuningdek, episkop o‘zi miro moyini tayyorlash, ruhoniylik darajasini berish, hamda diniy marosimlarni boshqarish huquqiga ega.

**Nikoh marosimi**. Xristianlikda kelin va kuyovlarning o‘zaro xohishlari asosida kelgusi hayotlarida er-xotin bo‘lib birga yashashlarini ta’minlash uchun amalga oshiriladigan sirli marosim. Nikohda ham sirlilik bor, erkin tarzda ruhoniy va cherkov huzurida er va ayol tarafidan oilaga sadoqatli bo‘lishga va’da beriladi. Ularning oilalariga Isoning ruhi birlashib ketishiga oq fotiha beriladi va ulardan sof e’tiqodli xristian bolalar tug‘ilishi va tarbiyalanishi Xudodan so‘raladi.

Ushbu marosim XVI asrda paydo bo‘lgan. Katolik yo‘nalishiga ko‘ra, nikoh Iso va cherkov orasidagi uzviy bog‘liq ruhiy munosabatning bir ko‘rinishidir va Shuning uchun ham muqaddas marosim sanaladi. Bir marosim sifatida nikoh, ikki kishi orasidagi ahdlaShuvning cherkov tomonidan muqaddas deb bilinishi va bu juftlikning cherkovda muqaddas bir bog‘ich bilan bog‘lanishidir. Nikoh Xudo tomonidan yuzaga keltirilgan bir jamlanish bo‘lgani uchun, qadim-qadimdan muqaddas deb bilingan. Xudoning o‘zi odamlarning nikoh ittifoqini himoya qiladi.

Cherkovning ta’kidlashicha, nikohda asosiy narsa huquqiy yoki iqtisodiy emas, balki axloqiy jihatdir. Ayni paytda, bu axloqiy jihat, diniy jihat bilan aynan bir narsadir. Shuning uchun ham nikoh marosimini o‘tkazmay turib, chinakam

axloqiy, oilaviy munosabatlarning bo‘lishi mumkin emas. CHerkovda o‘tkazilgan nikoh xristian oilasining qonuniy asosi hisoblanadi. Shu bois, uni buzishlik mumkin emas deb uqtiriladi.



**Nasroniylikdagi nikoh sirli marosimi**

Yuqorida qayd etilganidek, bu marosim xristianlikning turli yo‘nalishlarida turlicha shaklda amalga oshiriladi. U pravoslavlikning ham asosini tashkil etadi. Faqat ularning bajarilishida katoliklar bilan pravoslavlar orasida ba’zi farqlar bor.

**Rojdestvo –** Isoning tug‘ilishi munosabati bilan o‘tkaziluvchi, xristianlik dinidagi eng muhim bayramlardan biridir. Katolik, protestant va pravoslav yo‘nalishlariga ko‘ra, yangi taqvim hisobi bo‘yicha (Grigoryan yil hisobi bo‘yicha) 25 dekabrda nishonlanadi. Rus pravoslav cherkovlarida esa, eski taqvim (YUlian) yil hisobi bo‘yicha 7 yanvarda nishonlanadi.

Dastlabki davrda “Rojdestvo” va “Xudoning zohir bo‘lishi” bayramlari bir-biriga mos kelgan. Bayram kunlarini tanlash cherkov an’analari bo‘yicha “Ilohiy xushxabar” bayrami (YUlian taqvimi hisobida 25 mart kuni) bilan aloqadorlik asosida va undan keyingi to‘qqiz oy ichidan tanlab olingan. Ma’lumki, Yahudiylik bo‘yicha “Xanukka”, rimliklar hisobida esa “Saturnali”, Rim imperiyasida Mitra xudosining tug‘ilgan kuni nishonlanadi. Xristianlikkacha bo‘lgan normalar Xaloskorning g‘orda tavallud topishi, uning bolaligi, o‘zga narsalar bilan munosabati, Sulaymon (Salomon) haqidagi, Vifleem yulduzlari haqidagi apokriflar hikoyalarida va xalq og‘zaki ijodida namoyon bo‘ladi. Qadimgi davrga oid qabr toshlaridan birida Shunga tegishli surat saqlanib qolgan.

Pravoslav yo‘nalishida Rojdestvo Pasxadan keyingi o‘rinda turuvchi muhim bayram hisoblanadi, katolik yo‘nalishida esa yillik eng asosiy bayram sifatida nishonlanadi. Pravoslavlikda Rojdestvo bayrami qirq kunlik Postdan avval o‘tkaziladi. Maxsus va qat’iy tartib asosida, bu marosim osmonda birinchi yulduz paydo bo‘lguncha bajariladi. Bu qoida “sochelnik” deb nomlanadi. V asrda Anatoliy Konstantinopolskiy, VII asrda Andrey Ierusalimskiy, VIII asrda Ioann Damaskiylar tarafidan bu bayramda ijro etiladigan Rojdestvo kuyi ham yaratilgan.

Agar Rojdestvo shanba yoki yakshanba kuniga to‘g‘ri kelsa Ioann Zlotoust yoki Buyuk Vasiliy liturgiyalari bajariladi. Rojdestvodan Cho‘qintirishga qadar bo‘lgan vaqt rus xalqi an’analariga ko‘ra “svyatka” deb ataladi. Ular bu vaqtda yovuz kuchlar kezib yuradi deb hisoblaydilar.

Oddiy xalq e’tiqodiga ko‘ra, agar Rojdestvo kuni qor yog‘sa, yoki kun issiq bo‘lsa, qirov bo‘lsa don mo‘l bo‘ladi. Osmon yulduzli bo‘lsa no‘xot mo‘l bo‘ladi. Bo‘ron asal mo‘l bo‘lishini anglatadi. Rojdestvo agar 31 kunlik oylarga to‘g‘ri kelsa, hosildorlik Yaxshi bo‘lmaydi, deb hisoblanadi. Bundan tashqari Rojdestvo kuni bichish-tikish ishlarini bajarish mumkin emas. Bu ish bajarilsa bolalar ko‘zi ojiz tug‘ilishi mumkin, degan e’tiqod mavjud. Bukri bolalar tug‘ilmasligi uchun Shu kuni to‘quvchilik qilinmaydi. Ertalabki nonushtada suv ichilmaydi. Rojdestvo kuni nikoh tuzilmaydi.

Xristian ta’limotiga ko‘ra, rojdestvo kuni uch mahal (quyosh chiqayotganda, ertalab va kunduzi) ibodat qilinadi. Rojdestvo belgisi yashirin bo‘lib e’tiqodli insonning qalbida bo‘ladi. XII asrdan boshlab katolik ibodatxonalarida Isoning chaqaloq qiyofasidagi bolalar ibodati namoyish qilina boshlagan. Uning tug‘ilgan kuni (ya’ni Rojdestvoda) insonlar uchun qutqaruvchi va abadiy hayot eshiklari ochiladi, deb e’tiqod qilinadi.

**Katoliklarda rojdestvo posti “advent” deb ataladi. U avliyo Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanbada – 30 noyabrda boshlanadi. Bayram yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi uch ibodat bilan nishonlanadi va Iso Masihning Ota-Xudoning ko‘ksidan, Bibi Maryamning qornidan, dindorning**

**ko‘nglida ramziy ma’noda tug‘ilishini anglatadi. O‘sha kuni ta’zim qilish uchun ehromlarda go‘dak Isoning haykalchasi qo‘yilgan belanchaklar o‘rnatiladi.**

Rojdestvo oilaviy bayram bo‘lib, bu kunda faqat maxsus taomlargina dasturxonga tortiladi. Bular baliq, meva, sabzavotlar va shirinliklar. Osmonda birinchi o‘nta yulduz paydo bo‘lganda ibodatxonalarda marosimlarni bajarishga kirishadilar. Katoliklar uchun bajarishi shart bo‘lgan amallar: rojdestvoning birinchi kuni dasturxonga go‘shtli mahsulotlar, cho‘chqa, kurka, baliq go‘shti tortiladi. Dasturxon bu kunda qanchalik mo‘l bo‘lsa, kelgusi hayot Shunchalik farovon bo‘ladi, deb biladilar. Shuningdek, ushbu kunda hamma joyda sovg‘alar ulashiladi.

Cherkov tomonidan Isoning tug‘ilishini bayram qilish IV asrdan boshlangan. Cherkov ta’limotiga ko‘ra, bu bayramni Xudo tomonidan Iso sharafiga bag‘ishlab bayram qilish tavsiya etilgan.

**Italiyada rojdestvo kuni uylaridan eski kiyimlarni, narsalarni, buyumlarni ko‘chaga irg‘itib yuboradilar, Shu bayramda hattoki urushlar to‘xtatilgan. Ayrim arazlashib yurgan kishilar yarashganlar, bemorlar holidan xabar olib, ularga sovg‘alar berganlar. Iso insoniyatni gunohidan ozod qilish uchun o‘z jonini fido qilish, Er yuzida adolat o‘rnatish uchun tug‘ilgan deb tasavvur qilinadi va uning tug‘ilgan kuni bayram qilinadi.**

**Pasxa.** Yahudiylik va xristianlik dinlarida bir xil nomlanuvchi Pasxa – xristianlarda, ayniqsa, katta tantana bilan o‘tadigan bayramdir. Pasxa (qad. Yahudiycha “Peysax” – o‘tmoq) – Yahudiylar va xristianlarning bahor bayrami.

Qadimda ko‘chmanchi somiy qabilalari Pasxani chorva mollarining bahorgi bolalash vaqtida bayram qilganlar. Bu qabilalarning o‘troqlashishi va dehqonchilik bilan Shug‘ullanishi natijasida Pasxa yig‘im-terim bayramiga aylangan.

Pasxa Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e’tiborlisidir. Bu bayram xristianlarning Pasxasidan farqli o‘laroq, Yahudiylarning Misrdagi Fir’avn qulligidan ozodlikka chiqqanlari (taxminan mil. av. 8-asr) munosabati bilan

nishonlanadi. Yahudiylar Pasxasida keyinchalik messiyani kutish g‘oyasi ham o‘z ifodasini topadi.

Tadqiqotchi A.Ranovich o‘zining “Qadimiy Yahudiy dini tarixi qissalari” (“Ocherki istorii drevneevreyskoy religii”) nomli kitobida bu bayramning kelib chiqishi, uning nishonlanish sabablari haqida alohida to‘xtalib o‘tgan. Uning fikricha, dastlab bu bayram chorvador-dehqonlar tomonidan, keyinchalik esa Bibliyaga ko‘ra, misrliklar qo‘lidagi qullikdan ozod bo‘lish sharafiga nishonlangan.

Mazkur bayram Rus Pravoslav cherkovida yana “Voskreshenie Iisusa Xrista” deb ham nomlanadi. Katoliklar (G‘arbiy xristianlik)da pasxa 22 mart – 25 aprel oralig‘ida, pravoslavlar (Sharqiy xristianlik)da 4 aprel – 8 may oralig‘ida nishonlanadi. Bu bayramni nishonlanishining ham o‘z sababi bor. Yahudiylar Pasxani Misrdagi qullikdan ozod bo‘lganliklari sharafiga bayram qilsalar, xristianlar Iso Masihning qayta tirilganini nishonlaydilar.

Xristianlik ta’limotiga ko‘ra, bu Iso Masih o‘limining uchinchi kuni sodir bo‘lgan. Ma’lumki, shanba Yahudiylar uchun muqaddas kun hisoblanadi. SHanba kuni hech qanday ish qilmaydilar, hatto, o‘lik ham ko‘milmaydi. Xristianlik ta’limotiga ko‘ra, Iso Masih juma kuni kechqurun vafot etgan. Uni yakshanba kuni dafn etmoqchi bo‘lishadi. Bir qancha ayollar Iso Masihning qabri oldiga ibodat qilish uchun keladilar. Ular orasida Mariya Magdalena ismli ayol ham bor edi. U tosh ustida ko‘rinishi chaqmoqdek yorqin, kiyimi qordek oq farishtani ko‘radi. Farishta ayollarga Iso Masihni qayta tirilgani haqida xabar beradi. Natijada bu xabar tez orada hamma joyga tarqaydi. Mariya Magdalena Rim imperatori huzuriga borganida unga qizil rangga bo‘yalgan tuxumni ko‘rsatadi va “Iso qayta tirildi”, deydi. Shuning uchun xristianlar tuxumni barcha tug‘ilishlarning avvali, deb hisoblaydilar. Shundan beri “Pasxa” bayramida tuxumni bo‘yab, bir-biriga taqdim qilish odat tusiga kirgan.

Bu bayramning asosiy g‘oyasi Shundaki, Iso Masih o‘limga rozi bo‘lish bilan o‘z qavmini gunohlardan saqlab qolgan, deb e’tiqod qiladilar. Bu bayram etti kun

davom etadi. Yahudiy va xristianlarda Pasxa bayramini nishonlash vaqti bir haftaga farq qiladi. Yahudiylar uni xristianlardan avval nishonlaydilar. Bu xristianlarning xohishiga ko‘ra, Mazkur sana milodiy 325 yili Nikeya shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi butun olam saborida belgilangan.

Xristianlikda asosiy ibodatlar majmuasi *liturgiya* deb nomlanadi. Liturgiya (yunon. – ibodat) – pravoslavlikda ertalabki yoki tushki ibodat (obednya), katoliklarda liturgiya messa deb ham ataladi. Unda non va vino totish marosimi o‘tkaziladi. Liturgiya uch qismdan iborat. Birinchi qism – *proskomidiya* deb ataladi. Unda cherkov xizmatchisi non va vino totish marosimi uchun dindorlarga non va vino tayyorlaydi. Ikkinchi qism – oshkor e’lon qilish (*oglashenie*) deb nomlanadi. Bunda Cho‘qintirish oldidan xristian ta’limoti tanishtiriladi va xohlagan kishilar ishtirok etishi mumkin. Uchinchi qism – *e’tiqodlilar liturgiyasi* deb ataladi va u faqat cho‘qintirilganlarga taalluqlidir. Liturgiya vaqtida turli marosimlar bajariladi xudoga iltijolar qilinadi, diniy qo‘shiqlar kuylanadi, va’zlar aytiladi v a h.k. CHerkov liturgiyani “sir-asrorlar siri” deb atab uni faqat Iso Masihning o‘zi sirli kechada belgilagan, deb hisoblaydi.

**Xristianlikda ilk bo‘linishlarning yuzaga kelishi**

Milodiy 395 yilga kelib o‘z vaqtida qudrati olamni larzaga solgan Rim imperiyasi g‘arbiy (Rim) va Sharqiy (Vizantiya) qismlarga bo‘linib ketdi. Ushbu bo‘linish mazkur hududdagi nafaqat siyosiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy jabhalarga, balki diniy hayotga ham ta’sir o‘tkazdi. Chunki, barcha xristianlarning rahnamosi bo‘lgan Garbiy hududda Rim Papasi maqomidan unga qarshi qurol sifatida foydalanishi mumkin edi. Shu sababli ham Sharqiy Rim Papaning obro‘sini tushirish maqsadida turli sxizmalar (*yunon.* bo‘linish, parchalanish) yuzaga kelishiga keng yo‘l

ochib berdi. Bunday ilk guruhlarning eng mashhurlari monofizitlar va nestorianlar edi. Monofizitlik (*yunon*. “bir”, “yagona”, “tabiat”,“tabiiylik”) V asrda paydo boʻlgan xristianlikdagi xristologik doktrina.



**Xristianlikda Iso siymosi**



U Iso Masihning faqat xudolik tabiatini yoqlab, uning insonlik mohiyatini rad etadi.

**Arman apostol cherkovi**

Ya’ni pravoslav ta’limotiga zid ravishda monofizitlik Masih-Xudo inson emas, ya’ni uning inson sifatida koʻrinishi mavhum. Ammo “monofizitlik” terminining oʻzi adabiyotlarda VII asr oxirlaridagina paydo boʻlgan.

Monofizitlik asoschisi deb Konstantinopol ibodatxonasining igumeni (erkaklar monastirining boshligʻi) arximandrit (monastir boshligʻi) Evtixiy (tax. 378-454 y.) tan olingan. Shu sababli Evtixiylik deb ham yuritiladi. 448 yildagi Konstantinopol sobori Evtixiyning ta’limoti tadqiqotlariga bagʻishlangan.

Unda Evtixiy oʻz ta’limotining asoslarini Shunday ta’riflaydi: “Men Xudoimizning qoʻshilishidan oldin ikki tabiatdan iborat boʻlgan, birlashganidan keyin esa yagona tabiat egasi boʻlganiga e’tiqod qilaman”.

Hozirgi kunda monofizitlikning umumiy tarafdorlari 45 mln. kishini tashkil etadi. Asosiy monofizitlik cherkovi tashkilotlari – Arman-apostol cherkovi, Kopt pravoslav cherkovi (unga Yaqin boʻlgan Nubiya va Efiopiya cherkovlarini ham oʻz ichiga oladi), Suriya pravoslav (yakovit) cherkovi (Suriya cherkovining Malankar provinsiyasi va Malabar Suriya cherkovini oʻz ichiga oladi.

Arman-apostol cherkovining diniy ta’limoti pravoslavlik ta’limotiga juda Yaqin. Faqat Arman-apostol cherkovida pravoslavlikdan farqli ravishda Isoning jismida xudolik va insonlik xislati alohida-alohida mavjud bo‘lmay, ular o‘zaro qo‘shilib ketgan, deb hisoblanadi. Cherkov ta’limotida xristianlikning barcha sirli marosimlari tan olinadi. Shu bilan birga, Arman-grigorian cherkovida boshqa xristian yo‘nalishlarida uchramaydigan “matax” deb nomlanadigan qurbonlik keltirish marosimi mavjud. Bu marosim katta bayramlar munosabati bilan amalga oshirilib, buqa, qo‘y yoki parranda so‘yilib, uning go‘shti maxsus duo bilan muqaddas tuzli suvda pishiriladi. Pishgan go‘shtning hammasi Shu kunning o‘zida Yaqin kishilarga tarqatilishi lozim.

Ushbu cherkov vakillari Iso tug‘ilgan kuni (Rojdestvo, 6 yanvar), Isoning xatna qilinishi (14 yanvar) kabi bayram va marosimlarni nishonlaydilar. O‘zbekistonda ham Arman-grigorian cherkovlari mavjud bo‘lib, ulardan biri Samarqand shahrida 1903 yildan faoliyat ko‘rsata boshlagan. 2011 yilning 1 iyuliga qadar ularga tegishli 2 ta diniy tashkilot ro‘yxatga olingan.

Nestorianlik xristianlikdagi yo‘nalishlarning eng kam sonlisidir. U V asr boshlarida paydo bo‘lgan. Bu yo‘nalish asoschisi 428-431yillarda Konstantinopol patriarxi lavozimidagi monax Nestoriy hisoblanadi. Xristianlikning boshqa yo‘nalishlari namoyondalaridan farqli ravishda nestorianlar “Iso Masih Xudoning o‘g‘li bo‘lmagan, balki Xudo mujassam bo‘lgan inson bo‘lgan, Shu sababli Iso Masihning xudolik va insonlik tabiati bir-biridan farqlidir”, deb e’tiqod qiladilar. Shunga bog‘liq ravishda ularda Bibi Maryam Xudoni emas balki Isoni dunyoga keltirgan deb hisoblanadi va unga alohida e’tiqod qilinmaydi. 431 yilda Uchinchi Butun Jahon Efes soborida nestorianlik e’tiqodi va oqimi “eres” (bid’at) sifatida qoralangan va ta’qib ostiga olingan.

Bugungi kunda mazkur cherkov tarafdorlarining soni taxminan 200 ming kishi. Ular Iroq (82 ming), Suriya (50 ming), Hindiston, Eron, AQSH, Rossiya, Gruziya, Armaniston va boshqa mamlakatlarda joylashgan.

589 yili Toledo shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon soborida Nikeya-Konstantinopol e’tiqod timsoliga “filiokve” tuShunchasining kiritilishi, xristianlikning aqidaviy jihatdan ham amalda ikkiga bo‘linib ketishiga sabab bo‘ldi. “Filiokve” so‘zi lotinchadan “o‘g‘ildan ham” degan ma’noni anglatib, unga ko‘ra ilohiy uchlik – troitsaning atributlardan bo‘lgan Muqaddas Ruh bir vaqtning o‘zida ham Ota Xudodan ham O‘g‘il Xudodan tajalliy etadi, ya’ni ulardan kelib chiqadi. Holbuki, Birinchi va Ikkinchi soborlarda qabul qilingan e’tiqod timsoliga ko‘ra “Muqaddas Ruh faqat Ota Xudodan kelib chiqadi” deb mustahkamlab qo‘yilgan edi. Katta shov-Shuv va kelishmovchiliklarga sabab bo‘lgan mazkur qoida oxir-oqibat 1013 yili Papa Benedikt VIII davrida rasman diniy amaliyotga kiritildi. Kelishmovchiliklar asosan Papa va Konstantinopol patriarxi orasida avj olib, 1054 yili xristianlikning rasmiy ravishda katoliklik va pravoslavlikka bo‘linishiga olib keldi. Katoliklik (*yunon*. butun jahon) ham 1054 yilda xristianlikning ikkita – g‘arbiy va Sharqiy cherkovga bo‘linishi natijasida tashkil topgan.

## Katoliklik (Katolitsizm) va uning o‘ziga xos jihatlari

Katoliklik Evropa, Amerika qit’asi davlatlarida keng tarqalgan. Afrikadagi qator mamlakatlarda ham katoliklik asosiy diniy e’tiqod hisoblanadi. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Belgiya, Avstriya va Lotin Amerikasi davlatlarida asosiy e’tiqod qilinadigan din bo‘lsa, Vatikan davlatida esa rasmiy din hisoblanadi. Dunyoda xristianlikning ushbu yo‘nalishiga taxminan 1,076 milliard kishi e’tiqod qiladi. Bugungi kunda katolik cherkovi o‘ziga itoat etuvchi o‘ta intizomli ruhoniylarning juda keng safiga, ko‘psonli monaxlik ordenlari, missionerlik, xayriya va boshqa turdagi ko‘plab diniy tashkilot va muassasalarga ega. Umuman olganda, katoliklikda uchta asosiy cherkov rutbasi mavjud bo‘lib, bular: diakon, presviter va episkoplardir.

Rim Papasi – katolik cherkovining boshlig‘i, Isoning noibi va apostol Petrning o‘rinbosari hisoblanadi. Diniy hayotda gunohsiz deb hisoblanadigan, yashirin ovoz berish yo‘li bilan kardinallar kollegiyasi saylaydigan Papaning hokimiyati jahon soborlari hokimiyatidan ustun turadi. Katolik cherkovi soborlari (episkoplar yig‘ini) cherkovga oid murakkab masalalarni hal etish uchun Papa tomonidan chaqiriladi. Papa cherkov davlati – Vatikanning cheksiz vakolatlarga ega rahbaridir. Katolik cherkovi qat’iy markazlashgan tashkilot hisoblanadi.



**Rim papasi Benedixt XVII**



**Toshkent shahrida joylashgan katolik Cherkovi**

Katoliklikning markazi Vatikanda joylashgan. 1929 yildan boshlab Vatikan mustaqil davlat maqomiga ega bo‘ldi. U hozirda 120 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Katoliklikda “Injil” va “Muqaddas rivoyatlar” bilan bir qatorda Butun jahon soborlari va Rim Papasining qarorlari ham diniy ta’limot manbai deb qaraladi.

Pravoslavlardan farqli ravishda katolikliklikda:

- “Muqaddas Ruh” nafaqat Ota-xudodan balki O‘g‘il-xudodan ham kelib chiqqan, deb hisoblanadi;

- Iso va uning havoriylari, Bibi Maryam hamda avliyolar amallarini qamrab olgan “xayrli va savobli ishlar xazinasi” mavjud va ushbu xazina hisobidan cherkov gunohkorlarning gunohidan o‘tish imkoniga ega, deb hisoblandi. Mana

Shu ta’limotga, ya’ni gunohlardan pok bo‘lish va uning savobini o‘tganlarga bag‘ishlash mumkin, degan aqidaga asoslanib katolik cherkovi XII asrdan boshlab gunohlarni kechirish haqidagi yorliqlar (indulgensiya – *lot.* rahm-shafqat) bilan savdo qilishni yo‘lga qo‘ygan. Ruhoniylar vafot etganlarning Yaqinlariga indulgensiya sotish orqali ularning a’rofda bo‘lish muddatini qisqartirishlari mumkin;

- A’rof (do‘zax va jannat oralig‘idagi mavze) haqidagi aqida mavjud. Unga ko‘ra, gunohi katta bo‘lmagan gunohkorlarning ruhi u erda o‘tda kuyadi, keyin jannatga yo‘l topadi. Ruhning a’rofda bo‘lish muddati o‘lganlar xotirasiga Yaqinlari tomonidan qilinadigan xayrli ishlar (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish) evaziga qisqartirilishi mumkin;

- Bibi Maryam ham Iso kabi Annaning (Maryamning onasi) iffati saqlangan holda Muqaddas ruhdan homilador bo‘lishi orqali dunyoga kelgan, deb hisoblanadi;

Katoliklikning o‘ziga xos xususiyatlari qatorida:

- nikoh qat’iy hisoblanishini (katoliklik aqidasiga binoan nikoh aqdi osmonda tuziladi va erdagilar uni buzish huquqiga ega emaslar);

- Bibi Maryamning xudodan gunohlarni so‘rab beruvchi sifatlari ko‘proq e’zozlanishini;

- marosimlar teatrlashtirilgan tarzda, dabdabali, kishilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir etadigan darajada o‘tkazilishi, aShula bilan birga organ musiqasidan ham foydalanilishini;

- ibodatxonalar rasm va haykallar bilan bezatilishi, avliyolar, jafokashlar ibodatlarini ifoda etuvchi turli muqaddas yodgorliklarni e’zozlash keng tarqalganini alohida qayd etish lozim.



**Katoliklarda muqaddas bitiklarni o‘qish marosimi**

Xristianlikning etti asrorini talqin qilish va ularga rioya qilishda ham pravoslavlikdan muayyan farqlar kuzatiladi. Xususan, katoliklikda:

- Cho‘qintirish amali cho‘qintirilayotgan odamning ustidan suv quyish orqali bajariladi;

- cho‘qintirilgandan keyin surtiladigan xushbo‘y moy Cho‘qintirish bilan bir vaqtda emas, balki sakkiz yoshdan kichik bo‘lmagan bolalarga episkop tomonidan surtiladi;

- nonni Isoning tanasi, vinoni uning qoni misolida iste’mol qilishga asoslangan marosimda ruhoniylar xamirturushsiz non va vino, oddiy insonlar esa faqat xamirturushsiz non bilan (hozir ba’zan vino bilan ham) prichaщenie qiladilar;

- barcha ruhoniylar uylanmaydi. Diniy martabadan chiqish esa man etiladi;

Katoliklikda quyidagi **“Majburiy” bayramlar** nishonlanadi:

1. Iso tug‘ilgan kun (Rojdestvo Xristovo - 25 dekabr);

2. Xudoning zohir bo‘lishi (Bogoyavlenie - 6 yanvar);

3. Me’roj, ya’ni Isoning osmonga ko‘tarilishi (Voznesenie Gospodne - Pasxaning 40-kuni);

4. Isoning tana va qoni bayrami (Prazdnik Tela i Krovi Xristovix - Pasxa bayramidan 60 kun o‘tgach nishonlanadi);

5. Bibi Maryam kuni (Den Presvyatoy Devi Marii, Materi Bojiey - 1 yanvar);

6. Bibi Maryamning pokdomon holida homilador bo‘lishi (Neporochnoe Zachatie Presvyatoy Devi Marii - 8 dekabr);

7. Bibi Maryamning osmonga ko‘tarilishi yoki vafot etishi (Uspenie Presvyatoy Devi Marii - 15 avgust);

8. Bibi Maryamning qallig‘i Avliyo Iosif kuni (Den Svyatogo Iosifa, Obruchnika Marii - 19 mart);

9. Havoriylar Petr va Pavellar bayrami (Den svyatix apostolov Petra i Pavla - 29 iyun);

10. Barcha avliyolar kuni (Den vsex svyatix -1 noyabr).

**Pravoslavlik (Pravoslavie) ta’limoti**

**Pravoslavlik (Pravoslavie)** (*rus.* chin e’tiqod) – xristianlikning 1054 yilda bo‘linib ketishi natijasida shakllangan Shu dindagi uch asosiy yo‘nalishidan biri. Mazkur yo‘nalish tarixan xristianlikning Sharqiy shahobchasi sifatida ro‘yobga chiqdi va shakllandi. U asosan, Sharqiy Evropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. “Pravoslav” atamasi yunoncha “ortodoksiya” so‘zidan olingan bo‘lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslavlikning manbaviy asoslari Vizantiyada shakllandi, Chunki bu yo‘nalish u erdagi hukmron din edi.

Dunyo bo‘yicha pravoslavlikka e’tiqod qiluvchilar soni 217 million atrofida hisoblanadi. Unda katolikliklarda bo‘lganidek yagona markaz hozirga qadar yo‘q. Bugungi kunda dunyoda 15 ta avtokefal (mustaqil) Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, CHexiya, Slovakiya, Rus, Amerika va 4 ta avtonom maqomga ega pravoslav cherkovlari mavjud. Ular umumcherkov ahamiyatiga molik masalalarni hal etishda bir-birlari bilan aloqada bo‘lib turadilar.



**Pravoslavie yo'nalishining xochi**

Pravoslavlik diniy ta'limoti "Muqaddas yozuv" ("Injil") va "Muqaddas rivoyatlar"ga asoslangan. Bu aqidalarni pravoslav cherkovlari ilohiy xarakterga ega, abadiy va o'zgarmas deb biladi. "Muqaddas uchlik" - xudoning bir vaqtning o'zida ham yagona, ham uch xil ko'rinish (Ota-xudo, O'g'il-xudo-Iso va Muqaddas Ruh) da namoyon bo'ladi, ishonish, insonni tug'ma gunohkor deb bilish, Isoning inson qiyofasiga kirib, o'z ummatlarini gunohdan xalos etish uchun o'zini qurbon qilganini tan olish, oxiratga va unda qayta tirilishga e'tiqod qilish, cherkovning xudo va odamlar o'rtasidagi vositachi ekaniga ishonish pravoslavlik diniy ta'limotining asosini tashkil etadi.





**Toshkent va O'zbekiston Rus pravoslav eparxiyasi cherkovi**

Pravoslavlikda diakon, episkop, mitropolit, patriarx kabi diniy rutbalar mavjud. Poytaxt shaharlarning episkoplari mitropolit deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng oliy mansabi *patriarx*dir.

Xristianlikning 7 sirli marosimi pravoslavlikning ham asosini tashkil etadi. Faqat ularning bajarilishida katoliklar bilan pravoslavlar orasida ba'zi farqlar bor.

Pravoslavlikda:

- yangi tug'ilgan bola cho'qintirilayotganda suvga botirib olinadi;

- muqaddas moy surtish Cho'qintirishdan so'ng ketma-ket mahalliy ruhoniy tomonidan bajariladi;

- oddiy insonlar va ruhoniylar bir xil – kvasli non va vinodan totinadilar;

- nikoh marosimi cherkovda, ruhoniy tomonidan amalga oshiriladi. Er-xotin faqatgina xiyonat sababli ajrashishlari mumkin. Nikohni faqat cherkov bekor qila oladi;

- xristianlikning boshqa konfessiyalaridan farqli ravishda "qora" va "oq" ruhoniylar farqlanadi. Jumladan, "qora" ruhoniylarda "selibat", ya'ni uylanmaslik amaliyoti mavjud;

- tavba marosimida katoliklikdan farqli ravishda tavba qiluvchi va ruhoniy yuzma-yuz o'tiradilar.

Qolgan marosimlarda sezilarli farq kuzatilmaydi.

Pravoslavlikda ibodat asosan mahalliy tilda olib boriladi. Rojdestvo, Pasxa kabi umumxristian bayramlari pravoslavlikning ham asosiy marosimlari hisoblanadi.

Cherkovlar bo'linganidan so'ng katoliklar tomonidan qabul qilingan aqidalarni pravoslavlar xato, "Muqaddas yozuv" va "Muqaddas rivoyatlar"ga zid, deb hisoblaydilar. Shuningdek, cherkovlar bo'linishidan so'ng katoliklar tomonidan qabul qilingan bayramlarni ham pravoslavlar nishonlamaydilar.

**Pravoslavlar asosan quyidagi bayramlarni** nishonlaydilar:

1. Iso tug'ilgan kun (Rojdestvo Xristovo – dunyo pravoslavlarida 25 dekabr, Rus pravoslav cherkovida 7 yanvar);

2. Isoning xatna qilinishi (Obrezanie Gospodne – 14 yanvar);

3. Isoning cho‘qintirilishi (Крещenie Gospodne. Bogoyavlenie – 19 yanvar);

4. “Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd”lar birlashgan kun (Sretenie Gospodne – 15 fevral);

5. Ilohiy xushxabar (Blagoveshenie Presvyatoy Bogoroditsi – 7 aprel);

6. Isoning Quddusga kirishi (Vxod Gospoden v Ierusalim – 24 aprel);

7. Pasxa (Pasxa Gospodnya. Svetloe Xristovo Voskresene – 1 may);

8. Isoning osmonga ko‘tarilib ketishi (Voznesenie Gospodne – 9 iyun);

9. Muqaddas uchlik yoki Pyatidesyatnitsa bayrami (Den Svyatoy Troitsi ili Pyatidesyatnitsa - 19 iyun);

10. Yahyo payg‘ambarning tug‘ilgan kuni (Rojdestvo Ioanna Predtechi – 7 iyul);

11. Havoriylar Petr va Pavellar kuni (Den svyatix pervoverxovnix apostolov Petra i Pavla – 12 iyul);

12. Iso Masihning Ermon tog‘ida nurlanishi bayrami (Preobrajenie Gospodne – 19 avgusta);

13. Bibi Maryamning vafoti (Uspenie Presvyatoy Bogoroditsi – 28 avgust);

14. Yahyo payg‘ambar qatl etilgan kun (Useknovenie glavi Ioanna Predtechi – 11 sentyabr);

15. Bibi Maryamning tug‘ilgan kuni (Rojdestvo Presvyatoy Bogoroditsi – 21 sentyabr);

16. Iso mixlangan xochni tiklash bayrami (Vozdvijenie Kresta Gospodnya – 27 sentyabr);

17. Bibi Maryamning 910 yilda Konstantinopol shahri qamali paytida mo‘‘jizaviy paydo bo‘lishi bayrami (Pokrov Presvyatoy Bogoroditsi – 14 oktyabr);

18. Bibi Maryamning ota-onasi tomonidan ibodatxonada xizmat qilish uchun topshirilishi bayrami (Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogoroditsi – 4 dekabr).

**Protestantlik (Protestantizm)ning yuzaga kelishi va sektalari**

**Protestantlik (Protestantizm)** (*lot*. norozi bo‘lish, kelishmaslik) – XVI asrda katoliklik yo‘nalishidan ajralib chiqqan xristianlikdagi uch asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. U XVI asrda Evropada katoliklarga qarshi qaratilgan Reformatsiya harakati bilan bog‘liq ko‘plab mustaqil cherkovlar va sektalarni o‘z ichiga oladi.



**Protestantizm ramzi**

Protestantlik AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Kanada, SHveysariya, Skandinaviya mamlakatlari, Latviya, Estoniyada keng tarqalgan. Bugungi kunda protestantlar soni taxminan 647 millionni tashkil etadi. Katolik cherkovi tomonidan XV-XVI asrlarda indulgensiya savdolarining avj oldirilishi oqibatida cherkovning xalq tushib bordi. Shunday bir orasida obro‘si vaziyatda, 1517 yil 31 oktyabrda Vittenberglik ruhoniy Martin Lyuter xristianlik aqidalari hammaga to‘liq tuShunarli bo‘lishi uchun Bibliyaning zamonaviy tillarga tarjima qilinishi, cherkovdagi diniy xizmatlar ona tilida olib borilishi tarafdori edi. Ba’zi knyazlar va shahar vakillari lyuteranlikning tarqalishini cheklashga qaratilgan ayrim harakatlarga qarshi ekanliklarini bildirib “Protestatsiya”ga imzo chekdilar. Protestantlik degan nom mana Shundan kelib chiqqan.

Protestantlik xudoning mavjudligi, uning uch qiyofada namoyon bo‘lishi, ruhning abadiyligi, jannat va do‘zax, vahiy va ilohiy taqdir to‘g‘risidagi umumxristian aqidalarini tan oladi.

Shu bilan birga, protestantlik:

- cherkov va ruhoniylarning e’tiqod qiluvchilar bilan xudo orasidagi vositachi ekanini inkor etadi;

- cherkov ierarxiyasi, ruhoniylar va oddiy kishilar orasidagi tabaqalanishni rad qiladi;

- monaxlik, avliyolar, xoch va ikonalarga sig‘inishni noto‘g‘ri deb hisoblaydi;

- ko‘p mablag‘ talab qiladigan tadbirlarni asossiz deb biladi;

- selibat (ruhoniylarning uylanmasligi)ni inkor etadi.

Protestant yo‘nalishlari bir-biridan u yoki bu jihatlariga ko‘ra farqlansada M.Lyuter tomonidan katolik cherkovi ta’limotiga qarshi keskin tarzda bayon etilgan:

- o‘z e’tiqodi bilan najot topish;

- e’tiqod qiluvchilarning barchasi ruhoniy bo‘lishi, ya’ni har bir cho‘qintirilgan inson cherkov yordamisiz o‘zi xudo bilan muloqotda bo‘lishi, toat-ibodat qilishi, va’z o‘qishi mumkinligi;

- “Bibliya”ning oliy nufuzi, uni o‘qish, o‘rganish va tafsir qilish e’tiqod qiluvchining birinchi majburiyati ekani haqidagi 3 tamoyil ularning barchasi tomonidan birday tan olinadi va ular protestantlikning asosiy qoidalari hisoblanadi.

Protestantlikning ilk shakllari: lyuteranlik, svinglichilik, kalvinizm, unitarizm va sotsinchilik, anabaptizm, mennonitlik va anglikanlik edi. Hozirgi vaqtda protestantlik dunyoning barcha qit’alarida keng tarqalgan. Uning jahon markazi AQSHda, bu erda baptist, adventist, Iegova shohidlari va boshqalarning qarorgohlari joylashgan.

***Lyuteranlik*** – ilk protestantlik yo‘nalishi. YUqorida qayd etilganidek rohib Martin Lyuter (1483-1546) tomonidan asos solingan.

“Bibliya” bilan bir qatorda M.Lyuter qarashlarini o‘zida mujassam etgan “KeliShuv kitobi” ham lyuteranlik diniy ta’limotining manbai sanaladi.

Lyuteranlikda protestantlikning boshqa yo‘nalishlari kabi ibodat marosimlari soddalashtirilgani bilan ham ajralib turadi. Shu bilan birga, xristianlikning etti sirli

marosimlaridan Cho‘qintirish hamda “non va vino totish” tan olingan holda qolganlariga oddiy marosimlar sifatida qaraladi.

Germaniyadan keyin lyuteranlik Evropaning Avstriya, Vengriya, Fransiya kabi bir qator davlatlari hamda SHimoliy Amerikada tarqaldi.

Bosh sinod – lyuteranlikning oliy huquqiy organi episkop tomonidan nazorat qilinadigan Konsistoriya (cherkov ishlari bo‘yicha tashkilot) asosiy ijroiya hokimiyati hisoblanadi.

***Kalvinizm.*** Diniy islohotning boshqa bir yirik arbobi Jan Kalvin (1509-1564) edi. Uning 1536 yilda nashr etilgan “Xristian dinidagi ko‘rsatmalar” degan bosh asari, protestanizm ta’limot sifatida shakllanganidan keyin yangi bir diniy yo‘nalish - kalvinizmning asosi bo‘lib qoldi.

Dastlabki islohot arboblaridan farqli o‘laroq, Kalvin uchun asosiy manba Injil emas, balki Tavrot bo‘lib qoladi. Kalvin absolyut taqdir haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi. “Iso ham bizning gunohlarimiz uchun azobu uqubatlarga giriftor qilingan”, der edi u.

Protestant cherkovining kalvinistik yo‘nalishdagi davomchilari (kalvinistlar yoki reformatorlar) SHotlandiya, Gollandiya, SHimoliy Germaniya, Fransiya, Angliyada keng nufuzga va ta’sirga ega edilar.

***Presviterianlar*** kalvinistik cherkovdan kelib chiqqan bo‘lib, mo‘‘tadil puritanlardir. 1592 yili SHotlandiya parlamenti bu ta’limotni asosiy mafkura deb hisoblash haqida qaror qabul qilgan. Bu jamoa boshida jamoa a’zolari tomonidan saylangan presviter turadi.

Presviterianlar diniy ta’limotining asosiy aqidalari “Vestminster” kitobida bayon qilingan. Bu aqidalar ortodoksal kalvinizm ruhida bo‘lib, olamdagi barcha odamlarning gunohkorligi va qismatning mutlaqligiga ishonchdan iborat.

Presviter jamoasi qavmlar saylagan presviterlar va pastorlardan iborat konsistoriya tomonidan boshqariladi. Presveterianlarning oliy organi – bosh assambleya. Bosh assambleya presviteriyanlar vakil qilib yuborgan presviter va pastorlardan iborat. Presveterianlarning ko‘pchiligi o‘zlarining xalqaro tashkiloti –

“Presveterianlarning tashkiliy tuzilishiga amal qiluvchi jahon reformatsiya cherkovlari alyansi”ga a’zodir. Mazkur alyans 1875 yilda tashkil etilgan.

Hozirgi paytda SHotlandiya, Angliya, Irlandiya, AQSH, Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda presveterianlar mavjud.

***Anglikan cherkovi*** Angliyaning davlat cherkovi 1534 yilda mahalliy katolik cherkovi Buyuk Britaniya qiroli Genrix VIII ni cherkov boshlig‘i deb e’lon qildi, ya’ni cherkov qirol hokimiyatiga bo‘ysundirildi. XVI asr o‘rtalariga kelib ibodatni ingliz tilida olib borish joriy etildi. Anglikan diniy ta’limoti “Umumiy ibodatlar kitobi”da aks ettirilgan.

Anglikan cherkovida katolitsizmdagi marosimlar Shundayligicha qabul qilinib, undagi Ierarxiya tuzumiga o‘xshash tartib joriy etilgan. Anglikan cherkovi tarkibiga 3 cherkov kiradi. Ular katolitsizmga Yaqin turadigan oliy cherkov, puritanizmga va pietizmga Yaqin quyi cherkov, xristian oqimlarining barchasini birlashtirishga intiluvchi hukmron oqim – keng cherkov. Anglikan cherkovidan rasman ajralgan cherkovlar SHotlandiya, Uels, Irlandiya, AQSH, Kanada, Avstraliya kabi jami 16 mamlakatda tarqalgan. 1867 yildan Anglikan cherkovi o‘z mustaqilligini saqlagan holda Anglikan cherkovlar ittifoqiga birlashgan. Lambet konferensiyalari Anglikan cherkovida konsultativ organ hisoblanadi.

***Baptistlik (Baptizm).*** Protestant ta’limotining eng ko‘p sonli davomchilari baptistlardir. Baptizm (*yunon*. suvga bo‘ktirish) XVII asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi kunda dunyoning 130 mamlakatida o‘z tarafdorlariga ega. Bu ta’limot tarafdorlari faqat o‘spirinlarnigina Cho‘qintirishga olib boradilar. “Hech kim, jumladan, ota-onalar ham kishi uchun biror dinni tanlay olmaydi. Kishi dinni ongli ravishda o‘zi ixtiyor qilmog‘i zarur” degan tamoyil baptistlarning asosiy qoidasidir. Ularda ibodat o‘ta soddalashtirilgan bo‘lib, diniy qo‘shiq, ibodat va mav’izadan iborat. Ular to‘rtta sirli marosimni saqlab qolishgan: Cho‘qintirish (o‘spirinlar uchun), non va vino eyish, nikoh, ruhoniylikka qabul qilish.

***Adventistlar*** (*lot*. kelish, voqe bo‘lish) protestantlikdagi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, unga XIX asrning birinchi yarmida AQSHda Uilyam Miller (1772-1849) asos solgan.

“Bibliya”ni o‘rganib, “oxirzamon”ning Yaqinlashayotgani hamda Iso Masihning ming yillik hukmronlik davri boshlanishi haqidagi fikrga kelgan U.Miller 1831 yilda Isoning 1843 yilda qaytishi haqida katta va’z qildi. Bu va’z hatto Evropada ham aks-sado berdi. 1843 yil kirib kelganida esa U.Miller o‘z xulosasini biroz o‘zgartirib Isoning qaytish muddatini 1844 yilga ko‘chirdi. Masih tushishi kerak bo‘lgan oy va kunni, hatto joyini – Nyu-York shtatidagi tog‘ni ham aniq ko‘rsatdi. Belgilangan kunda Miller izdoshlari oq kiyimlarga o‘ranib “qiyomat tog‘i”da joylashdilar. Uzoq kutishdan so‘ng “payg‘ambar” izdoshlarining soni kamaya boshladi, lekin ko‘plar unga sodiq qoldilar. Isoning 1843 yili kelmaganining sababi esa o‘sha yili Iso erga emas, balki “osmondagi poklanish joyi” (chistilище) ni tozalash uchun kelgan, deb talqin qilindi.

1845 yilda U.Miller va uning izdoshlari baptistlar safidan chetlashtirilganlaridan so‘ng o‘zlarining “adventistlar” deb atalgan tashkilotini tuzdilar.

Adventistlar ta’limoti Iso Masihning ikkinchi marotaba qaytishi g‘oyasiga asoslanadi. Unga ko‘ra ikkinchi qaytish davrida faqatgina taqvodorlar (birinchi tirilish) tiriladilar va Xudo bilan osmonda 1000 yil bo‘ladilar. Bu davr mobaynida erda insonlar bo‘lmaydi, ular tomonidan yaratilgan jamiki narsa vayron bo‘lib, yo‘q bo‘lib ketadi. SHayton kishanlanadi va uning jazosi vayronaga aylangan erda bo‘ladi. 1000 yildan so‘ng Iso uchinchi bor erga qaytadi, Shunda jin, alvasti va Shu kabilar tiriladilar (ikkinchi tirilish). SHayton esa xalqlarni yo‘ldan ozdirib, ularni Isoga qarshi oxirgi jangga to‘plash uchun vaqtincha ozodlikka chiqadi. Lekin osmon olovi ularni kulga aylantiradi. SHayton va insu-jinslar abadiy yo‘q qilinadilar - bu ular uchun ikkinchi o‘limdir. Olov bilan tozalangan Er yangilanadi va uni taqvodorlar egallaydilar. Quddus qayta tiklanadi va odamlar abadiy rohatda baxtli hayot kechiradilar.

***Ettinchi kun adventistlari*** adventistlik zamirida paydo bo‘lgan eng yirik yo‘nalish hisoblanadi. 1844 yilda AQSHda yuzaga kelgan ushbu yo‘nalishning asoschisi Elena Uayt (1827-1915) hisoblanadi.

“Ettinchi kun adventistlari” yo‘nalishi tarafdorlarining soni taxminan 16 million kishini tashkil etadi. Uning 206 davlatda 46 mingdan ortiq cherkov (jamoa)lari bor. Umumjahon Ettinchi kun adventistlari cherkovining Markazi – Bosh Konferensiyasi AQSHning Vashington shahrida joylashgan.

“Ettinchi kun adventistlari” ta’limotiga ko‘ra, Xudo o‘z irodasini xalqqa etkazish uchun go‘yoki, Elena Uaytni tanlagan va unga 2000 ga Yaqin “ko‘rinishlar” (videnie) bo‘lgan. Uning bu “ko‘rinishlar” asosida yozgan kitob va xatlari “Bibliya” bilan bir qatorda “Ettinchi kun adventistlari” diniy ta’limotining asosiy manbai hisoblanadi.

Iso Masihning Yaqin orada qaytishiga ishonish “Ettinchi kun adventistlari”ning asosiy aqidasi hisoblanadi.

Ettinchi kun adventistligida:

- “Bibliya” buyruqlariga bo‘ysunish qat’iy talab qilinadi;

- boshqa xristianlardan farqli ravishda, yakshanba kuni emas, haftaning ettinchi kuni – shanba ulug‘lanadi. Shuning uchun ham, ularni “Ettinchi kun adventistlari” deb ataydilar. SHanba kuni ishlash, hatto, ovqat tayyorlash ham mumkin emas. Butun kun ibodatga bag‘ishlanadi. Ular Isoning tirilishi va “oxirzamonni” kutib yashaydilar.

Ayni paytda, Ettinchi kun adventistligida:

- ruhning abadiyligi, jannat va do‘zax tushunchalari inkor qilinadi;

- Cho‘qintirish butun tanani suvga botirish orqali o‘tkaziladi;

- “nopok hayvonlar” go‘shti, xususan, cho‘chqa go‘shtini eyish, kofe, choy, vino ichish, tamaki chekish taqiqlanadi;

- turli xil ko‘ngil ochar tadbirlar, badiiy kitob o‘qish esa qoralanadi.

***Pyatidesyatniklar*** yoki “To‘liq injil xristianlari” protestantlikdagi eng yirik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirda pyatidesyatniklarning soni dunyo bo‘yicha taxminan 120 millionni tashkil etadi.

Pyatidesyatniklik tarixi rasman 1901 yilning 1 yanvariga borib taqaladi. Aynan Shu kuni AQSHning Kanzas shtati Topeke shahrida CHarlz Parxem ismli ruhoniy boshqarayotgan “Bibliya” maktabining talabalardan biri Agnessa Ozman “uchinchi rahmat”ga erishib (ya’ni, Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirilib), xitoy tilida gapira boshlaydi. Uning ketidan “xudo bilan notanish tilda gaplashish” “epidemiya”si butun maktabni qamrab oladi. Shundan so‘ng, CH.Parxem o‘z o‘quvchilari bilan janubiy shtatlarda pyatidesyatniklikni targ‘ib qila boshlagan.

Xudo bilan notanish tilda gaplashishni boshidan o‘tkazgan ko‘pchilik keyinchalik o‘zlarining pyatidesyatniklik cherkoviga asos soldilar. Bunday cherkovlar Skandinaviya, Angliya, Hindiston, CHili, Germaniya kabi davlatlarda ham paydo bo‘ldi.

Pyatidesyatniklik diniy hayotda “Muqaddas Ruh in’omlari” degan tuShunchaga tayanadi. Ta’limotga ko‘ra, bu in’omlar faqatgina Muqaddas Ruh bilan Cho‘qintirish orqali Iso Masihning asl izdoshlariga, unga xizmat qilish vositasi sifatida beriladi. Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirilganlikning tashqi belgisi deb pyatidesyatniklar “glossaliya”, ya’ni “xudo bilan notanish tilda gaplashish”ni tuShunadilar.

Ularning bir-biridan asosiy farqi xudoning rahmatlari soni va suv bilan Cho‘qintirishning uslublaridadir. Xususan, ba’zi pyatidesyatniklar 3 ta rahmatga – dinga kirgizish, nurlantirish ya’ni, xristian ta’limoti bilan chuqurroq tanishtirish va Muqaddas Ruh bilan Cho‘qintirishga ishonishsa, ayrimlari faqat 2 ta rahmat – dinga kirgizish va Muqaddas Ruh bilan Cho‘qintirishni tan oladilar. Shuning uchun ham, ularni “Ikki rahmat cherkovlari” deb atashadi.

Pyatidesyatniklikning diniy ta’limot manbai “Bibliya”dir. Unga ko‘ra, Muqaddas Ruh doimo cherkovda namoyon bo‘lib turadi. Pyatidesyatniklikda Isoning ikkinchi marta qaytishi, oxirzamon va mingyillik hukmronligi

o‘rnatilishining Yaqinligi targ‘ib qilinadi. Shuningdek, Xudoning “O‘ldirma” degan buyrug‘iga amal qilinishi sababli urush va harbiy xizmat qat’iyan rad etiladi.

***Novoapostol cherkovi*** XIX asrning o‘rtalarida Angliyada vujudga kelgan protestantlik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda “Novoapostol cherkovi” dunyoning 180 ta davlatida 50 ga Yaqin jamoa, 9 millionga Yaqin a’zolariga ega.

“Novoapostol cherkovi” diniy ta’limotida 7 sirli marosimning uchtasi e’tirof etiladi:

- suv bilan Cho‘qintirish (yoshning farqi yo‘q);
- prichaщenie – non va vino bilan totinish;
- eley moyini surtish – Muqaddas Ruh bilan (zapechatlenie) insonning ichki olamini butunlay yangilash.

CHerkov ta’limotiga ko‘ra, Xudo ruhoniylarning duo va fotihalari sababli bandalariga o‘zining mehru muruvvatini ato qiladi.

Marhumlar ruhiga bag‘ishlab bir yilda uch marotaba (mart, iyul va noyabr oylarining birinchi yakshanba kunlarida) o‘tkaziladigan diniy marosimlar ham “Novoapostol cherkovi”ning o‘ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Bu marosimlarda marhumlarning qarindoshlari va ruhoniylar ishtirok etib, xudodan ularning bu dunyoda qilgan gunohlarini avf etishini so‘rab, ibodat qiladilar.

Cherkovni birinchi apostol va apostollar boshqaradilar. O‘z navbatida ular xristianlikdagi mashhur 12 apostolning o‘rinbosarlari hisoblanadilar. “Novoapostol cherkovi” nomi Shundan kelib chiqqan. Birinchi apostol, diniy qoidalarga asosan, Xudoning erdagi vakili hisoblanadi. CHerkov xodimlari o‘z vazifalarini bepul va o‘zlarining asosiy kasblaridan tashqari bajaradilar

Har bir jamoa 150-170 kishilik katta oila kabi tashkil etiladi. Pastorlar kamida ikki oyda bir marotaba har bir uyni ziyorat qiladilar. Asosiy e’tibor bolalar va o‘smirlar tarbiyasiga, nogiron va kambag‘allarga yordam qilishga qaratiladi.

## O‘zbekistonda xristianlik tarixiga oid ma’lumotlar

Hozirgi kunda mamlakatimizda bir necha xristianlik oqimlari faoliyat olib boradi. Xristianlikning ham zardushtiylik, buddaviylik kabi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o‘ziga xos o‘rni bor. Bu din Markaziy Osiyoga, xususan, O‘zbekistonga ikki yo‘l bilan kirib kelgan. Bu jarayon, birinchidan, xristianlikni targ‘ib etuvchi missionerlarning targ‘ibotchilik harakati orqali, ikkinchidan, Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e’tiqod qiluvchi aholining ushbu mintaqaga ko‘plab ko‘chib kelishi orqali amalga oshdi. Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Markaziy Osiyoning turli viloyatlariga milodning III asrlarida kirib kelganlar. Masalan, 280 yilda Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo‘lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida episkoplik, missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotda (658 yillar) episkoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo‘lgan. Xurosonliklar va sug‘diyonaliklar zardushtiylar, Moniylar, buddaviylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo‘lganlar. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qarashli erlarda yashaganlar.

Markaziy Osiyo hududida islomning tarqalishi davrlarida islom bilan xristianlik o‘rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar keskinlasha boshladi. Biroq X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo‘lgan. Hatto, Beruniy yashagan davrda ham (973-1056) manbalarda Marvda pravoslav mitropoliyasi bo‘lgani haqida ma’lumotlar keladi.

Pravoslav yo‘nalishi O‘zbekiston hududiga Rossiya orqali kirib kelgan. 1871 yil 4 mayda Rossiya imperatori tomonidan Toshkentda Turkiston eparxiyasini ochishga qaror qilindi. 1880 yillarga kelib Rus pravoslav cherkovi (RPCH, rus: Russkaya Pravoslavnaya Serkov) o‘zining yangi ibodatxonalari sonini ko‘paytirishga harakat qildi. Bulardan eng ko‘pi Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarida qurildi.

1916 yil 16 dekabrda imperator buyrug‘i bilan Turkiston kafedral sobori Almatidan Toshkent shahriga ko‘chirildi. Ikkinchi jahon urushi va undan so‘ng O‘zbekistonga Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Moldova va Boltiqbo‘yi mamlakatlaridan evakuatsiya qilingan millatlar xilma-xilligi ortib, pravoslavlikka e’tiqod qiluvchi aholining soni taxminan 1 millionga etdi.

2011 yil 27 iyul kunidan e’tiboran sobiq Toshkent va Markaziy Osiyo eparxiyasi o‘rniga to‘rt mustaqil eparxiya tashkil etildi. Mazkur to‘rt eparxiyaning faxriy rahbari sifatida Toshkent va O‘zbekiston eparxiyasiga rahbar etib tayinlangan mitropolit Vikentiy tasdiqlandi.



2011 yilning 1 iyuliga qadar O‘zbekiston hududida 1 ta markaz, 1 ta seminariya, 3 monastir va 33 ta cherkov - jami 38 ta pravoslavlikka mansub diniy tashkilot ro‘yxatga olingan.

Xristianlikning O‘zbekistonda tarqalgan oqimlaridan biri katolitsizmdir. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yilda qurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy va ahamiyatga molik obida sifatida qayta ta’mirlanmoqda.

1925 yilda Adventistlarning Janubi-Sharqiy ittifoqi tarkibida O‘zbekistonda adventistlarning Markaziy Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926 yilda o‘tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinchi ittifoqi sifatida qayd etildi. 30-yillar oxiriga kelib dindorlar va ular katorida

adventistlar jamoalari tarqatib yuborildi hamda ta’qib ostiga olindi. Barcha yo‘nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o‘tib ketdi.

1976 yil 26 avgust kuni Toshkentdagi adventistlar jamoasi ilk bor davlat ro‘yxatidan o‘tdi. Shundan keyin, adventistlarning Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalari tuzila boshladi.

Turkiston o‘lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891 yillarda paydo bo‘ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909 yil 2 iyulda 60 kishilik baptist jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911 yil oktyabr oyida Samarqand jamoasi tuzildi.

1921 yildan e’tiboran Turkiston baptistlari orasida birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922 yilda Toshkent baptistlar quriltoyida Markaziy Osiyo baptistlar ittifoqi, so‘ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo‘limi tuzildi. 30-yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasman qayd etildi.

1946 yildan O‘zbekiston hududida Evangel xristian-baptistlar (EXB) jamoasi faoliyati qayd etildi. 1948 yil oktyabr oyidan esa Butunittifoq EXB kengashining O‘zbekistondagi vakili etib T.Penkov tayinlandi. 1958 yilga kelib O‘zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. Shu davr ichida norasmiy 32 ta jamoa faoliyat ko‘rsatgan.

1964 yilda bu jamoalar norasmiy “Markaziy Osiyo Evangel xristian baptistlar cherkovlari kengashi markazi”ni tuzdilar. U keyinchalik “Osiyo janubi bo‘yicha baptist birodarlar kengashi” deb nomlandi. 1992 yil noyabr oyida Moskvada baptistlarning bo‘lib o‘tgan 1-qurultoyida “Evangel xristian baptistlar ittifoqi federatsiyasi” – “Evro-Osiyo EXB ittifoqi” nomiga o‘zgartirildi.

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan Pyatidesyatniklar (To‘liq Injil xristianlari) XX asrning 20-yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalarni tuzishdi.

Protestantlikdagi eng yirik yo‘nalishlardan biri hisoblangan lyuteranlik tarafdorlari taxminan 75 million kishini tashkil etadi. 1989 yildan e’tiboran Rossiya, Ukraina, Qozog‘icton va Markaziy Osiyodagi Evangel lyuteran cherkovi tarkibiga birlashtirilib qayd etildi. Lyuteranlarning oliy huquqiy organi Bosh sinoddir.

Mazkur cherkov MDH mamlakatlarida 5 eparxiyaga bo‘lingan bo‘lib, uning markazlari Moskva, Omsk, Odessa, Almati hamda Toshkentda joylashgan.

Lyuteranlar jamoasi O‘zbekistonda ilk marta Toshkent shahrida 1885 yildan rasmiy faoliyat ko‘rsata boshlagan. 1896-99 yillarda lyuteranlar ibodatxonasi (kirxa) qurilgan.

1992 yil 8 sentyabrda Nemis evangel-lyuteranlar cherkovi rasmiy ro‘yxatdan o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 maydagi qarori bilan kirxa lyuteranlarga qaytarib berildi.

Respublikamizda 2011 yilning 1 iyuliga qadar evangel-lyuteranlar cherkovining 2 ta diniy tashkiloti ro‘yxatga olingan.

O‘zbekistonda yana bir cherkov Novoapostollik cherkovi bo‘lib, u xristian dinining protestantlik yo‘nalishiga mansub oqimdir. Novoapostol cherkovi O‘zbekistondagi faoliyatini 1992 yildan boshlagan bo‘lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Navoiy shaharlarida ro‘yxatdan o‘tgan. O‘zbekistondagi Novoapostol cherkovlari Berlin-Brandenburg shahri okrugi tasarrufidadir.

O‘zbekistonda protestant yo‘nalishidagi diniy tashkilot deb hisoblangan “Iegovo shohidlari” ham faoliyat yuritmoqda. 1870 yilda amerikalik ishbilarmon Rassel tomonidan asos solingan mazkur diniy sektaning markazi Bruklin shahrida joylashgan. Ular 15 a’zodan iborat bo‘lgan “Rahbar korporatsiyaga” bo‘ysunadilar.

Ayrim manbalar Markaziy Osiyoda Iegovo shohidlarining XX asrning 40-yillapida paydo bo‘lganligini bildiradi. O‘sha davrda ular o‘zlarini “kanalistlar” deb atab kelganlar.

**Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:**

1.Xristianlik dinidagi ilk bo‘linishlarning ijtimoiy-tarixiy omillari nimada edi?

2.Nima uchun monofizit va nestorian cherkovlari “eres” deb e’lon qilindi?

3.Katoliklikning mohiyati nimada?

4.Pravoslavlikning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

5.Protestantlik yo‘nalishining ajralib chiqishiga nima sabab bo‘ldi?

6.Xristianlikning ilk tarixi qachondan boshlanadi?

7.Xristianlikning muqaddas kitoblari qaysilar?

8.Xristianlik qanday ta’limotni ilgari suradi?

9.Xristianlikda qanday bayram va marosimlar bor?

**Mushtaqil ish topshiriqlari:**

1.O‘lkamizning qaysi mintaqalarida buddaviylik yodgorliklarini aniqlash.

2.Xristianlik dinidagi ilk bo‘linishlarning ijtimoiy-tarixiy omillari haqida referat tayyorlash.

3.Xristianlikdagi bayram va marosimlarni o’rgnish.

**Adabiyotlar**

1. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1968.

2. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / Mas’ul muharrir – Sh.Yovqochev. – T.: Toshkent Davlat SharqShunoslik instituti, 2006.

3. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – T.: Mehnat, 2004.

4. Ochildiev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo‘llari (Yuz savolga yuz javob). – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.

5. Kon-Sherbok D., Kon-Sherbok L. Iudaizm i xristianstvo. Slovar. – M., 1995.

6. Myuller M., Vundt V. Ot slova k vere. Mif i religiya (Istoriya religii). – M.: Izd-vo Eksmo; Sankt-Peterburg: Terra Fantastica, 2002.

## TARQATMA MATERIALLAR:

**1-ilova**




**2-ilova**




**3-ilova**




**4-ilova**




**5-ilova**




**6-ilova**




## 3.3.ISLOM DINI

**REJA:**

1. **Islomgacha Arabistondagi ijtimoiy-siyosiy holat.**
2. **Islom dinining vujudga kelishi.**
3. **Islom ta'limoti.**
4. **Qur'on va hadis – islom dinining manbalari.**

***Tayanch so'zlar:*** *Johiliya, Butparastlik, Mushaf, al Vasaniya, Makka va Madina, Hiro g'ori, Vahiy, Ansor, Hijrat, Rasul, Nabiy.*

**Islomgacha Arabistondagi ijtimoiy-siyosiy holat**

**"Johiliya"** so'zi arab tilida bilimsizlik, nodonlik ma'nolarini beradi. Islomdan avval arablar orasida "al-Vasaniya" – ko'pxudolik hukm surib, ular yakkaxudolik e'tiqodidan bexabar bo'lganligi sababli bu davr "johiliya" deb atalgan. Bundan tashqari xalq orasida norasida qizlarni tiriklayin ko'mish, mayxo'rlik va boshqa axloqiy buzuqliklar keng yoyilgan edi. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri yuz ellik-ikki yuz yil davom etgan degan fikrni bildiradilar. Biroq ushbu davrning muddati manbalarda aniq belgilanmagan.

Arabistonda har xil xudolarning timsollari – sanamlar qachon paydo bo‘lgani haqida muayyan tarixiy ma’lumotlar yo‘q. Ba’zi tarixchilarning xabar berishicha, Arabistonga birinchi bo‘lib sanam keltirib va unga ibodat qilishni boshlab bergan Amr ibn Luhay ismli shaxs bo‘lgan. U Shomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turardi. Shomda esa butparastlik, turli sanamlarga sig‘inish odatlari ancha avval shakllangan edi. Arabistonning turli erlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo‘lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma’lum edi. Makka Arabistonning diniy markaziga aylangach, u erdagi Ka’ba sanamlar to‘plangan joyga aylanib qoldi. Islom arafasida arablar orasida butparastlik shunchalik avjida ediki, hatto har bir xonadonning o‘z sanami bo‘lgan.

Ibn al-Kalbiyning arab ko‘pxudoligiga bag‘ishlangan “Kitob al-asnom” (“Butlar kitobi”) asarida tilga olingan datlabki besh sanam (ayol xudo timsoli) Vadd, Suvo’, Yog‘us, Yo’uq, Nasr bo‘lib, Qur’onda ham zikr qilingan (“Nuh” surasi, 22-23-oyatlar). Qur’onda zikr qilingan eng qadimgi sanamlar jumlasiga Lot, Manot va Uzzo ham kiradi. Johiliya arablarining tasavvurida bu uchala sanam ham ayol xudolar bo‘lgan.

Islomdan oldin Arabistonning ko‘p joylarida Yahudiy jamoalari mavjud bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. Yahudiylar bilan birga Arabiston yarim oroliga Yahudiy dini ham kirib keldi. Arabiston Yahudiylari haqida, asosan, Qur’on, hadis, tafsir, siyra va tarix kitoblari xabar beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi YAngi Bobil podshohi Nabonidga (mil. av. 555-539 y.) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, miloddan avvalgi 552-542 yillar SHimoliy Arabistondagi Teyma shahrini o‘ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu erdagi shaharlarni o‘zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko‘chirgan. Ular orasida ko‘pchilikni Yahudiylar tashkil qilgan. Ma’lumki, bundan oldinroq (mil. av. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabt qilganida salkam 30 ming Yahudiyni asir qilib, Bobilga keltirgan va “Bobil asirligi” 50 yil davom etgan. Shundan so‘ng ham ba’zi Yahudiylar Falastinga qaytmay Bobilda qolib ketganlar.

Arabiston yarim orolida Yahudiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqalgan. Xristianlar bu erda keng targ‘ibotchilik ishlarini olib borganlar. Ular Arabistonga qachon kirib kelganligi noma’lum. Tarixiy manbalarda xabar berilishicha, qul savdosi bu erga xristianlarning kirib kelishida asosiy omillardan biri bo‘lgan. Vizantiya viloyatlari va O‘rta er dengizi orollaridan keltiriladigan oq tanli erkak-ayol qullar odatda uy ishlari va hunarmandchilik ishlariga jalb qilinar edi. SHahar boylari chiroyli xristian qizlarni o‘zlariga joriyalikka olar, ular ona bo‘lganlaridan keyin ozod qilardilar. Masalan, Makkadagi Banu Maxzum urug‘ining boylari qo‘l ostida yunonistonlik joriyalar ko‘p bo‘lgan.

Johiliya jamiyatida o‘zlarining katta bobolari Ibrohim alayhis-salom dinini saqlab qolgan bir jamoa kishilar “haniflar” deb atalgan. Ular sanamlarga sig‘inmas, balki yagona xudoga ibodat qilganlar. Haniflar ochiqdan-ochiq butparastlarni tanqid qilardilar. Bu tanqidlar, tabiiyki, zodagonlarga yoqmas edi. Shuning uchun ham ular bir erda muqim turmay, o‘lka bo‘ylab ko‘chib yurishga va qalandarona hayot kechirishga majbur bo‘ldilar. Ushbu toifa kishilardan Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh, Usmon ibn Huvayris, Quss ibn Sayidolarni keltirish mumkin.

## Islom dinining vujudga kelishi

“Islom” – (*arab.* bo‘ysunish, itoat etish) – Allohga til bilan imon keltirib, dil bilan tasdiqlash, uning ko‘rsatmalariga bo‘ysunishni anglatadi.

**Muhammad payg‘ambar hayoti.** Muhammad ibn Abdulloh ibn Abd al-Muttalib Arabiston tarixida “Fil voqeasi” nomi bilan mashhur jangdan 50 kun keyin tavallud topgani haqida ilk islom manbalarida xabar beriladi. Payg‘ambarning tavallud sanasi milodiy 570 yilga to‘g‘ri keladi. Otalari **Abdulloh** o‘z o‘g‘li Muhammad tug‘ilmasidan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib YAsribda (hozirgi Madina shahrida) vafot etgan. Onalarining ismi **Omina bint Vahb** bo‘lib, Banu Zuhra urug‘idan edi.

Manbalarda payg‘ambarning tavallud kunlarida turli mo‘‘jizalar ro‘y bergani haqida xabar beriladi. Ushbu hodisalar haqida ko‘plab tarixchilar o‘z asarlarida

rivoyatlar qoldirganlar. U kishining onalari homilador bo‘lganida tushida “Sen butun insonlarning ulug‘iga homilador bo‘lding, u dunyoga kelgach, ismini Muhammad qo‘ygin” degan ovoz eshitdi. Shunga ko‘ra tug‘ilgan paytlarida bobolari **“Muhammad”,** ya’ni **“g‘oyat maqtovli”** degan ismni qo‘ydilar. Islom ta’limotiga ko‘ra, Muhammad payg‘ambar nomlari zikr etilganda “sallallohu alayhi vasallam” (qisqacha: s.a.v.: “unga Allohning rahmat va salomi bo‘lsin”) yoki “alayhis-salom” (qisqacha: a.s.: “unga salom bo‘lsin”) iborasi aytiladi.

Arablarda bola sog‘lom va ziyrak bo‘lib o‘sishi uchun sahroyi ayollardan sut-ona topib emizish odati bor edi. Ana Shu odatga ko‘ra, Muhammad alayhis-salomga Bakriy qabilasidan bo‘lgan Halima ismli ayol sut-ona bo‘ldi. Rasulullohni to‘rt yildan ortiq vaqt ichida emizgan Halimaning oilasiga baraka yog‘ilib turgan.

Besh yoshli Muhammad o‘z onasi Omina bilan birgalikda YAsribga ota qabrini ziyorat qilish uchun boradilar. Bu safardan qaytib kelayotganlarida Abvo degan joyda onalari Omina vafot etadi. Makkaga otalarining cho‘risi Ummu Ayman bilan birga etib keladilar. Shundan so‘ng ularni sakkiz yoshgacha bobolari Abdulmuttalib o‘z qo‘lida tarbiyaladi. Abdulmuttalib o‘z nevarasini juda Yaxshi ko‘rardi. Shuning uchun o‘zi hastalanib, o‘lim to‘shagida yotgan paytda o‘g‘illari orasida eng saxovatli va mehribon bo‘lgan Abu Tolibni chaqirib, Muhammad alayhis-salomni o‘z qaramog‘iga olishni buyuradi. Otasi vafotidan so‘ng amakilari Abu Tolib o‘z otasining vasiyatiga binoan ularni o‘z qaramog‘iga oldi.

Payg‘ambar yoshlik chog‘larida ikki marta Shomga, bir marta Yamanga karvon bilan birga safarga chiqdilar. Shomga birinchi marta 12 yoshga to‘lganda, ikkinchi marta 25 yoshga, YAmanga 17 yoshga to‘lganda safar qildilar. 12 yoshga etganda amakilari Abu Tolib Shomga safarga otlandi. Eng Yaqin kishisidan ayrilib qolish bo‘lg‘usi payg‘ambarga qattiq ta’sir qilib, ma’yus qolganini ko‘rgan Abu Tolib bolani birga olib ketishga jazm qildi.

Ularning karvoni Shom yo‘lidagi Busra nomli mavzeda to‘xtadi. Yahudiylarning olimlaridan Buhayro ismli bir rohib uzoqdan karvonning kelishini kuzatib turar edi. Ko‘rdiki, karvon bilan birga bir bulut ham kelayapti. Karvon bir

daraxt ostiga to‘xtadi. Bulut ham o‘sha daraxt tepasiga qo‘ndi. Buhayro darhol bir ziyofat tayyorladi. Abu Tolibni sheriklari bilan ibodatxonaga taklif qildi. Bo‘lajak payg‘ambar haqidagi ma’lumotlarni bilib olish uchun bir necha savollar berdi. Olgan javoblaridan hayratlangan Buhayro o‘spirinning ikki kuraklari o‘rtasidagi payg‘ambarlik muhrini ochib ko‘rdi. Shundan so‘ng Abu Tolibga jiyanining porloq kelajak egasi ekanini bashorat qildi va uni ehtiyot qilishni uqtirdi.

25 yoshga to‘lganlarida Banu Asad urug‘idan bo‘lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylid u kishidan o‘zining savdo karvoni bilan birga Shomga safar qilishni so‘radi. Bu savdodan katta foyda tushdi. Muhammadning to‘g‘riso‘z, halol, sadoqatli ekanini ko‘rgan Xadicha yoshi ancha katta bo‘lishiga qaramay, taomilga zid ravishda unga sovchi qo‘ydi. Bir tomondan amakilari Abu Tolib, ikkinchi tomondan Xadichaning amakivachchasi Varaqa rozilik berib nikoh o‘qildi.

Aynan mana Shu ayol Rasulullohning etti farzandlaridan oltitasi, ya’ni Zaynab, Ummu Kulsum, Ruqiya, Fotima, Qosim, Abdulloni dunyoga keltirgan. Faqat bitta o‘g‘il – Ibrohim Moriyadan tug‘ilgan edi.

605 yilda makkaliklar Ka’bani ta’mir etadilar. Uni qayta qurish jarayonida muqaddas sanalgan “Hajar al-asvad” (“Qora tosh”)ni kim ko‘tarib o‘rniga qo‘yadi, degan masalada tortishib qoladilar. Shunda ulardan biri: “Ertalab Safo eshigidan kim birinchi kirib kelsa, o‘sha bizga hakamlik qilsin” deydi. Ertalab Safo tarafidan Muhammad alayhis-salom kirib keladilar. Uni ko‘rgan olamon “Muhammad al-Amin (ishonchli Muhammad) keldi” deb xursand bo‘ladilar. U kishi choponlarini echib, uning ustiga “qora tosh”ni qo‘yib, barcha qabila boshliqlarini choponni baravariga ko‘tarishga buyuradilar va o‘zlari keltirilgan Qora toshni joyiga olib qo‘yadilar. Muhammad alayhis-salom o‘z zukkoliklari bilan qabilalar o‘rtasida chiqishi mumkin bo‘lgan nizoning oldini olgandilar.

**Vahiyning nozil bo‘lishi. Makka davri.** Milodning 610 yilda, ya’ni Muhammad alayhis-salom 40 yoshga etganda ko‘proq yolg‘izlikni qumsaydigan bo‘lib qoladilar. Ko‘pincha Makkadan uch mil yuqoridagi Nur tog‘ida joylashgan Hiro g‘origa ketar va Ramazon oyini u erda kechirib, ibod at qilardilar. G‘amlagan

ozuqalari tugagach, Xadicha oldiga qaytar, bu erda biroz qolib, yana o‘sha g‘orga ketardilar. Manb alarda aytilishicha, payg‘ambarlikning ilk belgisi sifatida u kishining quloqlariga g‘oyibdan **“**Sen Allohning elchisisan**”** degan tovushlar eshitilardi, tushlarida ko‘rgan narsalari to‘g‘ri chiqardi.




**Hiro g‘ori**

Shu yilning Ramazon oyida Muhammad alayhis-salom odatga ko‘ra, Hiro g‘orida avvalgi o‘tgan payg‘ambarlardan Ibrohim, Muso, Iso kabi “tahannus” ibodati bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Imom al-Buxoriy tomonidan bu ibodatga Shunday sharh berilgan: “Payg‘ambarimizning qaysi shaklda ibodat qilgani haqida so‘raladigan bo‘lsa, buning tafakkur va ibratdan iborat bo‘lganligini aytamiz”.

Payg‘ambarlikning boshlanishi tushda ko‘rilgan narsalarning o‘ngda oydin bir subh kabi yuz berishi bilan boshlangan. Kunlarning birida Hiro g‘orida farishta Jabroil ko‘rindi va:

“O‘qi”, – dedi.

Payg‘ambar:

“Men o‘qishni bilmayman”, – dedilar.

Farishta yana amrini takrorladi. Payg‘ambar yana:

“Men o‘qishni bilmayman”, – javobini berdilar. So‘ngra malak ularni boshdan oyoqqa qadar kuchlari qolmaguncha siqdi.

U zamon farishta ilohiy oyatlarni o‘qiy boshladi:

“(Ey, Muhammad, butun borliqni) yaratgan zot bo‘lmish Rabbingiz ismi bilan o‘qing! U insonni lahta qondan yaratdi. O‘qing! Rabbingiz esa Karamlidir. U

insonga qalam bilan (yozishni) oʻrgatgan zotdir. U insonga bilmagan narsalarini oʻrgatdi” **(“Alaq” surasi, 1-5-oyatlar).**

“Alaq” surasining boshidagi ushbu oyatlar ilk kelgan vahiy hisoblanadi. Rasululloh bu oyatlarni oʻz qalblariga joyladilar. Shundan soʻng boʻlib oʻtgan voqead an nihoyatda hayrat va qoʻrquvga tushib, darhol Xadichaning huzuriga qaytdilar va “Meni oʻrab qoʻying, oʻrab qoʻying” dedilar. Uzoq uyqudan soʻng boʻlgan voqeani ayollariga soʻzlab berdilar. Xadicha buni Yaxshilikka yoʻyib, Varaqa ibn Navfal nomli avvalgi samoviy kitoblardan boxabar boʻlgan qarindoshining huzuriga borib, bu voqeaning tafsilotini soʻradilar. Varaqa bu koʻringan farishta Muso va Iso paygʻambarlarga vahiy olib tushgan Jabroil farishta ekanini aytadi. U yana kelajakda Muhammad oʻz ummatiga paygʻambar boʻlishi, bu yoʻlda koʻp aziyat chekishi, oʻz yurtidan chiqarilishi haqidagi xabarlarni bildiradi.

Shu voqeadan soʻng ilk islomdagi “yashirin da’vat davri” boshlangan. Birinchi boʻlib Rasululloh chaqiriqlarini qabul qilgan, ya’ni “ilk imon keltirganlar” – ayollari Xadicha bint Xuvaylid va Ali ibn Abi Tolib edilar. Ulardan soʻng qullari Zayd ibn Horisa va boʻlgʻusi qaynotalari Abu Bakr Siddiq boʻldilar. Ular jamiyatning turli tabaqalaridan ekanliklari islom dinining barcha uchun ochiq din ekanini koʻrsatardi. Vaqt oʻtishi bilan jami musulmonlarning soni 30 kishiga etdi. Ular qurayshliklarning yangi dinga qarshi ekanliklarini bilganliklari uchun oʻz e’tiqodlarini yashirin saqladilar. Bu holat uch yil davom etdi.

Shundan soʻng “oshkora da’vat” davri boshlanadi. Rasululloh Shu sababli Abdulmuttalib oilasini, amakilari Abu Tolib, Abbos, Hamza, Abu Lahablarning barchasini uylariga taklif etdilar. Ziyofatdan soʻng Allohdan yangi din vahiy qilinganini bildirib, unga barchani chaqirish Alloh tomonidan oʻz vazifalari etib belgilanganini aytdilar. Abu Lahab bu soʻzlarni qat’iy inkor etib, yigʻilganlarni tarqatishga tushdi.

Islom dinini qabul qilmagan makkaliklar ham Muhammad paygʻambarning yuksak axloq egasi ekanini tan olar edilar. Musulmonlar safi kengayib paygʻambar

amakilari Hamza, undan so‘ng Umar ibn Xattobning imon keltirishlaridan makkaliklar sarosimaga tushib qoldilar. Ular musulmonlarga tazyiq o‘tkazishni yanada kuchaytirib yubordilar.

Makkaliklar Abdumanof urug‘ini Abu Tolib darasiga qamal qildilar. Shundan so‘ng ikki marta Habashistonga hijrat qilindi. Qamaldan so‘ng Xadicha vafot etdi. Makkada “Isro va Me’roj” voqeasi yuz berdi. Dushmanlar Payg‘ambarni o‘ldirish harakatiga tushdilar.

**Madina davri.** Madinaliklar Makkaga Rasululloh huzuriga kelib islomni qabul qildilar. Ular bilan makkalik musulmonlar o‘rtasida do‘stlik aloqalari o‘rnatildi. Makka mushriklarining musulmonlar ustidan tazyiqlari kuchaygach, Payg‘ambar ko‘rsatmasiga binoan avval musulmonlar undan so‘ng o‘zlari YAsribga hijrat qildilar.

Madinalik “ansor” (“yordamchi”)lar makkalik muhojirlarni do‘stona va samimiy kutib oldilar. Payg‘ambarning hijrati Rabi’ ul-avvalning 8-kuni – milodiy 622 yil 20 sentyabrda bo‘ldi. Shu yildan boshlab hijriy yil hisobi boshlandi. Ushbu yili birinchi musulmonlar masjidi qurildi.

Avs va Xazraj arab qabilalari hamda Banu Qurayza, Banu Qaynuqo, Banu Nadir qabilalari bilan o‘zaro sulh tuzildi. Har tomondan Madinaga qarshi hujumlar uyushtirildi. “Badr” jangida musulmonlar ularni muvaffaqiyat bilan qaytardilar.

Hijratning oltinchi yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Hudaybiya shartnomasi eng muhim tarixiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Bu sulh bitimi tuzilishi arafasida musulmonlardan 1500 jangchi o‘q-yoy va nayzalar olmasdan, faqat qilich taqib, Baytu-l-haram ziyorati vaqtida qurbonlikka so‘yiladigan 70 tuyani haydab, Makka shahriga Yaqin keldi. Bu kichik qo‘shin Makka mushriklariga ko‘p ko‘rinib, ular musulmonlarni jang qilishga, urushga kelgan deb gumon qilib, shaharga kiritmadilar. Har ikki taraf bir necha bor elchilar almashib, vaziyatni tuShuntirdilar. Musulmonlarning tinch maqsadda kelganiga ishonmasdan, Makka mushriklari urushga tayyorlanib turdilar. Ammo johiliya zamonlarida ham Baytu-l-haramda, ya’ni Ka’ba va uning atrofida jang qilish, qon to‘kish man qilingan edi.

Shuning uchun ham bu qoidaga amal qilgan holda musulmonlardan Usmon ibn Affon etakchiligida navbatdagi elchilar yuborildi. Makka mushriklari bularni garovga, asir olganday qaytarib jo‘natmadilar. Musulmonlar ham Makka vakillarini vaqtincha ushlab turdilar.

Oradagi keskin vaziyatni yumshatish uchun Makka raislari Hudaybiya degan joyda 10 yillik sulh shartnomasi tuzishni taklif etdilar. Hudaybiya shartnomasi musulmonlar uchun murakkab vaziyatda tuzildi. Unda asosan quyidagi shartlar belgilangan edi:

1. O‘rtamizda dushmanlik tugatiladi, talonchilik va makr-hiylalarga yo‘l qo‘yilmaydi.

2. Istagan odamlar Muhammad bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo‘shilishni xohlasa qo‘shilaveradi, istagan odamlar qurayshiylar bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo‘shilishni xohlasa qo‘shilaveradi.

3. Sen (Muhammad) bu yil Makkaga kirmay qaytib ketasan, kelasi yili biz Makkadan chiqib turamiz va musulmonlar uch kun Makkada turishlari ixtiyoriydir. O‘sha vaqtda musulmonlarning qilichlari qinida bo‘lib, boshqa hech qanday qurol bilan kelmaydilar.

SHartnomaga musulmonlar jamoasi tarafidan Rasulullohdan so‘ng Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Abdurrahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Suhayl, Sa’d ibn Abil Vaqqos, Muhammad ibn Maslama imzo chekdilar. Qurayshiylar tarafidan Suhayl ibn Amr, Miqroz ibn Hafs, Xuvaylid ibn Abdul Uzzo imzo chekdilar.

Hijratning sakkizinchi yili Makka fath etildi. Havozin, Saqif qabilalari bilan Hunayn janggi bo‘ldi. Mushriklarning Lot, Manot, Uzzo nomli butlari yo‘q qilindi.

632 yili Muhammad alayhis-salom hajga borishga qaror qildilar. Bu oxirgi haj bo‘lgani tufayli islom tarixida “Hajjat ul-vido” (“Vidolashuv haji”) deb nomlandi. Bu safarga 90 ming musulmon otlandi. Zulhijja oyining to‘qqizinchi kuni Arafot tog‘ida Rasululloh tomonidan islom dinining asosiy shartlarini bayon etgan “VidolaShuv xutbasi” o‘qildi. Shundan so‘ng, deyarli barcha arab qabilalari islomni tan olib, elchi va maktublar yo‘llay boshladilar.

Hajdan Madinaga qaytgan Rasululloh biroz muddatdan so‘ng kasallikka chalinib, hijratning o‘n birinchi yili – 632 yilda vafot etdilar.

**Islom dini ta’limoti**

Islomning asosiy manbasi bo‘lmish Qur’oni karim VII asrda nozil bo‘lgan. Islom ta’limotiga ko‘ra, “Muhammad alayhis-salom avvalgi payg‘ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg‘ambar – Nabiy va Rasul”, deb tan olinadi.

**Nabiy** – arab tilidan tarjimasi “xabarchi”, “xabar etkazuvchi” ma’nolarini beradi. Payg‘ambarlar orasida ularga Alloh tomonidan alohida kitob va shariat nozil qilinmagan va avvalgi payg‘ambarning kitob va shariatini insonlarga o‘rgatib, targ‘ib qilganlarni (Ismoil, Ishoq, YA’qub, Zakariyo kabi) nabiylar deb ataladi.

**Rasul** – arab tilida elchi ma’nosini anglatadi. Allohdan alohida kitob va shariat olgan Ibrohim, Muso, Iso kabi payg‘ambarlar “rasul” darajasiga erishgan hisoblanadi. Zero, Ibrohimga yuzta sahifa, Musoga Tavrot va Isoga Injil nomli kitoblar nozil qilingan bo‘lib, Shu bilan birga o‘zlariga xos shariat ham berilgan. Muhammad alayhis-salom ham alohida kitob va shariat olgan “rasul”lardan hisoblanadi.

Musulmon bo‘lishning asosiy sharti imon keltirish hisoblanadi. **“Imon”** so‘zining lug‘aviy ma’nosi **“ishonmoq”,** “tasdiqlamoq bo‘lib”, istilohda esa “La ilaha illallohu, Muhammadur rasululloh” (“Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad uning rasuli”) kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlashdan iborat. Imonning etti sharti quyidagilar hisoblanadi:

1. Allohning borligi va birligiga imon keltirish, ya’ni Allohning Qur’oni karimda va Muhammad alayhis-salom hadislarida bayon qilingan barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish;

2. Farishtalar – Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so‘zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalari deb ishonish;

3. Ilohiy kitoblarga imon keltirish: Alloh taolo Muhammad alayhis-salomga Qur'onni yuborganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitoblar yuborgan. Ulardan bizga ma'lum bo'lganlari: Ibrohim alayhis-salom "Sahifalari", Muso payg'ambarga berilgan "Tavrot", Dovud payg'ambarga berilgan "Zabur" va Iso payg'ambarga berilgan "Injil" kitoblaridir;

4. Payg'ambarlar – Alloh taolo tomonidan insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun yuborilgan elchilari, deb imon keltirish. Barcha payg'ambarlar bir-birining ishlarini davom ettirgan bir zanjirning bo'g'inlari hisoblanadi. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekani bayon qilingan;

5. Oxirat kuniga ishonish: dunyoning ibtidosi bo'lgani kabi uning intihosi ham bor, bu dunyo – insonlar uchun sinov maydoni, bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud deb ishonish;

6. Taqdirga – insonga etadigan Yaxshilik va yomonlik Allohdan deb e'tiqod qilish;

7. O'lgandan keyin qayta tirilishga ishonish. Islom ta'limotiga ko'ra, qiyomat kuni bo'lganda barcha insonlar qabrlaridan turadilar va mahshargoh maydoniga yig'iladilar. U erda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do'zax)ga mahkum etiladilar.

Islom dinining besh asosiy rukni bor: 1. Imon, ya'ni shahodat (*arab.* – guvohlik berish); 2. Namoz o'qish; 3. Zakot (*arab.* – poklash, o'sish, ortib borish); 4. Ro'za tutish; 5. Haj – qodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o'z ichiga oladigan arkonlarni ado etish.

**Qur'on va hadis – islom dinining manbalari**

Qur'oni karim – **Alloh taolo tarafidan 23 yil mobaynida Muhammad payg'ambarga**

**oyat-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob hisoblanadi.**



Manbalarda berilishicha, **“Qur’on”** so‘zi arabcha **“qaraa”** – “o‘qimoq” o‘zagidan olingan bo‘lib, **“O‘qiladigan (kitob)”** ma’nosini beradi deb talqin etiladi. Qur’on **114 sura** (*arab*. – “bo‘lak”, “devor”, “to‘siq”) va **6236 ta oyatdan** tashkil topgan. Uning “mo‘‘jiza”, “belgi”, “alomat” kabi ma’nolari ham bor.

Makkada nozil bo‘lgan Qur’on suralarining xronologik tartibi quyidagicha:

**1. Makka davri (610-615 yillar).** Bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo‘lgan “saj’” janriga Yaqin shakldagi suralar nozil bo‘lgan. Yevropa olimlari ularga ***“Nazmiy suralar”*** deb nom berganlar.

**2. Makka davri (616-619 yillar),** musulmonlar doimiy ta’qib ostida yashagan va ko‘pchilik Habashistonga ko‘chib ketgan vaziyatda nozil bo‘lgan. Bu suralarda Allohning nomi “Rahmon” sifatida ko‘p tilga olingani sababli Yevropa olimlari ularni ***“Rahmon suralari”*** deb ataganlar.

**3. Makka davri (620 yil boshlaridan 622 yil sentyabrigacha).** Bu davrda ham musulmonlar ta’qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko‘pincha shahardan tashqarida ibodatga to‘planganlar. Bu davr suralarida islomning aqida va ta’limotiga keng o‘rin berilgani sababli, Yevropalik tadqiqotchilar ularga ***“Payg‘ambarlik suralari”*** deb nom berganlar.

**Madinada tushirilgan 24 ta suraning** nozil bo‘lish davrini tarixiy voqealarni aniqroq ko‘zda tutgan holda **besh** bosqichga ajratish mumkin:

**Birinchi davr** (622 yil oktyabrdan 624 yilgacha). Musulmonlar Madinaga ko‘chib kelganlaridan makkaliklar bilan birinchi yirik to‘qnaShuv – Badr jangigacha o‘qilgan to‘rt sura bu davrga kiradi.

**Ikkinchi davr** (624 yil martidan 625 yil martigacha). Badr jangidan keyin Uhud jangigacha o‘tgan bir yil ichida o‘qilgan uch surani o‘z ichiga oladi.

**Uchinchi davr** (625 yil martidan 627 yil martigacha). Uhud jangidagi mag‘lubiyatidan keyin Xandaq jangigacha o‘tgan ikki yil ichida beshta sura o‘qilgan.

**To‘rtinchi davr** (627 yil aprelidan 630 yil yanvarigacha). Xandaq jangidan so‘ng Makkaning olinishigacha o‘tgan salkam uch yil ichida o‘qilgan sakkizta sura Shu davrga kiradi.

**Beshinchi davr** (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka fathidan keyin Rasululloh vafotigacha o‘tgan ikki yildan ortiqroq muddat ichida o‘qilgan to‘rtta sura Shu davrga kiradi.

Payg‘ambar hayotlik chog‘larida yana vahiy tushib qolishi mumkinligi nazarda tutilib, Qur’on jamlanib, kitob holiga keltirilmagan edi. Muhammad alayhis-salom vafotlaridan keyin Qur’on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida saqlanib qoldi. Payg‘ambardan so‘ng musulmonlarga Abu Bakr Siddiq xalifa etib saylandi. Uning xalifalik davrida (632-634) “murtadlik (dindan qaytish) harakatlari” yuzaga keldi. Abu Bakr Siddiq bu isyonchilarga qarshi shiddatli janglar olib bordi. Ushbu janglarda ko‘plab Qur’onni to‘liq yod olgan qorilar halok bo‘ldilar.

Umar ibn Xattob taklifiga binoan Abu Bakr Siddiq sahobalardan Zayd ibn Sobitni chaqirib, unga Qur’onni jamlash va yozma holga keltirish vazifasini topshirdi. Shunday qilib, Zayd ibn Sobit va Umar ibn Xattob mashaqqatli urinishlardan keyin Qur’onning ilk yozma nusxasini jamlashga erishdilar. Bu to‘plam “suhuf”, ya’ni “sahifalar” deb nomlandi. Abu Bakr Siddiq vafot etganidan so‘ng sahifalar Umar ibn Xattob (634-644) uyida, u vafotidan keyin esa uning qizi – Payg‘ambar alayhis-salom ayollari Hafsada qoldi.

Vaqt o‘tishi bilan islom olamining hududlari kengayishi natijasida musulmonlarning soni ko‘paya bordi. Turli tillar va shevalar o‘rtasida mavjud farqlarga ko‘ra Qur’onni qanday o‘qish kerakligi borasida ixtiloflar chiqa boshladi. Bu holatni ko‘rgan xalifa Usmon ibn Affon sahoba Zayd ibn Sobitga barcha suralarini yig‘ib, taqqoslab chiqib, qaytadan Qur’on matnini jamlashni buyurdi. Qur’onning birinchi rasmiy nusxasi 651 yilda taqdim etildi. U asl nusxa hisoblanib yana uchta, ba’zi manbalarga ko‘ra ettita nusxa ko‘chirtirilib, yirik shaharlar – Basra, Damashq, Kufaga jo‘natiladi. “Imon” deb nomlangan asl nusxa esa Madinada, xalifa Usmon huzurida qoldi. Ko‘chirilgan nusxalar “Mushafi Usmon” deb ataldi.

**Usmon mushafi.** Arab tarixchilarining xabar berishicha, 656 yilda xalifa Usmon Qur’onni mutolaa qilib o‘tirganlarida o‘ldirilgan. U kishining qoni Qur’onga to‘kilgan. Shu tufayli ham Usmon Qur’oni asl nusxaligi va xalifa qoni to‘kilgani bilan musulmon dunyosida alohida e’tibor bilan qaraladi. Toshkent shahridagi Usmon Qur’onida ham qon izlari bo‘lib, Shu nusxa xalifa Usmonga tegishli degan fikrlar mavjud.

Usmon Qur’oni Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xoja Ahror madrasasida saqlanar edi. Qur’onning Samarqandga keltirilishi haqida ham xalq o‘rtasida har xil rivoyatlar mavjud.

Ko‘pchilik olimlarning fikricha mazkur musxaf sohibqiron Amir Temur tomonidan Basradan ko‘plab qo‘lyozma kitoblar va boshqa o‘ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va mashhur Temur kutubxonasiga qo‘yilgan. 400 yil davomida bu muqaddas kitob Samarqandda saqlanadi.

1868 yilda Rossiya askarlarining Samarqandga bostirib kirishi bilan xalqimizning moddiy, ma’naviy boyliklariga tajovuz boshlandi. Bu tajovuzdan qabr toshlari, maqbara ichidagi yodgorliklar ham, musulmonlar diniy e’tiqodining shohona mulki Usmon Mushafi ham chetda qolmadi. Musulmonlar Qur’onini tezlikda bekitib Buxoroga jo‘natmoqchi bo‘ladilar. Biroq bu xabar Zarafshon o‘lkasining boshlig‘i general Abramovga etib, “fan uchun bunday nodir, bebaho,

qadimiy yodgorlikni qo‘ldan chiqarmaslik uchun hamma chora ko‘rilsin” deb polkovnik Serovga buyruq beradi. Serov Qur’onni general Abramovga keltiradi. Abramov esa uni zudlik bilan Turkiston general-gubernatori K.N.Kaufmanga etkazadi. U o‘z navbatida zudlik bilan 1869 yil 24 oktyabrda Peterburgga – Imperator kutubxonasiga alohida kuzatuvchilar bilan yuboradi.

1917 yil Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan RSFSR Xalq Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Qur’oni o‘z egalariga, ya’ni musulmonlarga topshirilishini talab qiladi. RSFSR (XKS – Xalq komissarlari soveti) tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur’on musulmonlar ixtiyoriga beriladi. 1917 yil 29 dekabr kuni Peterburgdagi podsho kutubxonasining “nodir qo‘lyozmalar” bo‘limidan olinib, Ufa shahriga jo‘natiladi. Qur’on 1923 yilgacha Ufada saqlanadi.

1923 yil 23 iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo‘mi Usmon Qur’onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlikni Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvida olib kelinadi. Usmon Mushafi Toshkentdagi Eski shahar muzeyiga keltiriladi va maxsus po‘lat sandiqda saqlana boshlanadi. 1926 yilning 1 yanvaridan Eski shahar muzeyi O‘zbekiston davlat muzeyiga aylantirildi. Muzey ochilgandan so‘ng 1926 yilning faqat bir oyi ichida bu erni 4000 kishi ziyorat qilgan. 2000 yilda YUNESKO tashkiloti tomonidan maxsus sertifikat bilan “eng bebaho yodgorlik” deb e’tirof etilgan Usmon Mushafi bugungi kunda O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi.

**Hadis.** Hadis so‘zining arab tilidagi lug‘aviy ma’nosi “so‘z”, “yangi”, “suhbat”, “hikoya”, “rivoyat” ma’nolarini anglatadi. Uning istilohiy ma’nosi Muhammad payg‘ambarning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari va taqrirlari, ya’ni ko‘rib qaytarmagan va qo‘llab-quvvatlagan ishlaridir. Hadislar ikki qismdan: aynan xabar beruvchi matn va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – sanaddan iborat.

**Hadis ikki** xildir:

- al-hadis al-qudsiy (bu kabi hadisda, ma’no Allohdan, lafz esa Payg‘ambardan bo‘ladi);

- al-hadis an-nabaviy (bunda esa, ma’no ham lafz ham Payg‘ambarnikidir).

Hadislar ilk davrda faqat og‘zaki ravishda avloddan-avlodga uzatilgan. YOzma ravishda hadislarni to‘plamaslik haqidagi Payg‘ambarning ko‘rsatmalari asosan ilk islom davriga taalluqli edi. Rasululloh o‘z so‘zlarini yozib olishdan sahobalarni qaytarishlariga sabab hadislarning Qur’on oyatlariga aralashib ketmasligi uchun edi. Chunki vahiy nozil bo‘lib turgan paytda ba’zi kishilar Qur’on oyatlarini yozib borar edilar. Boshqa hadisda esa Rasululloh: “Bu og‘izdan – deya o‘z og‘izlariga ishora qildilar – faqatgina haq so‘z chiqadi” – deb, o‘z so‘zlarini yozib olishga buyurganliklari haqida rivoyat qilingan. Abu Dovud o‘zining “Sunan” asarida ikki hadisni ketma-ket keltiradi. Ulardan birida Payg‘ambar o‘z so‘zlarini yozib olishdan qaytargan bo‘lsalar, ikkinchisida unga buyuradilar.

Keyinchalik esa bu yozuvlar katta to‘plamlarga asos bo‘ldi. Shunday ilk to‘plamlardan biri Madinadagi Urva ibn Zubayrga (vaf. 94/712 yoki 99/717 y.) va ikkinchisi Suriyaga ko‘chib ketgan Muhammad ibn Muslim Zuhriyga (vaf. 124/741 y.) tegishli.

***Hadis*** ko‘pincha ***sunna*** so‘zi bilan ham yonma-yon keladi. Sunna so‘zining lug‘aviy ma’nosi – “odat”, “tariqa – yo‘l” bo‘lib, istilohiy ma’nosi – payg‘ambar odatlari, tutgan yo‘llari, taqrir (ko‘rib qaytarmagan) va buyurgan ishlariga nisbatan ishlatiladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, hadislarning zamirida sunna yotadi. Islom ta’limotida e’tiqod mezonlarini belgilash va fiqhiy masalalarni hal etishda Qur’ondan keyin sunnaga asoslaniladi.

IX asr asosan mavjud hadis to‘plamlari qayta ishlagan holda ularni boblar bo‘yicha tasnif qilib, *musannaflar* yozish davri bo‘ldi. Bu esa hadislardan foydalanish uchun qulaylik tug‘dirdi. Islom olamida Shunday musannaflardan oltitasi alohida e’tiborga molik sanaladi. Ular – eng katta obro‘ga ega bo‘lgan Imom Buxoriy (810-870) va Imom Muslimning (vaf. 875 y.) “Al-Jomi’ as-sahih” to‘plamlari, undan keyingi eng muhim asarlar – Abu Dovud, Termiziy (vaf. 892 y.), Nasoiy (vaf. 915 y.) va Ibn Mojaning (vaf. 886 y.) “as-Sunan” asarlaridir.

**“Al-Jomi’ as-sahih”** kitoblari o‘z ichiga biografik ma’lumotlar, Qur’on oyatlariga tafsirlar, diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq mezonlarini ham qamrab oldi. “Al-Jomi’ as-sahih”ning ishonchlilik darajasi boshqa to‘plamlardan ko‘ra ancha yuqori hisoblanadi.

**Xulosa.** Islom ta’limoti va qoidalarining asosiy manbalari – Qur’on va hadislardan tashqari ikkinchi darajali manbalari ham mavjud. Ulardan biri ***ijmo*** bo‘lib, u Qur’on va hadis matnlarida aniq ko‘zda tutilmagan masalalar yuzasidan mashhur islom ulamolarining mazkur mo‘‘tabar manbalarga zid bo‘lmagan bir fikrga ittifoq qilishlarini bildiradi. VII asrning ikkinchi yarmidan yo‘lga qo‘yilgan ijmoning islom ahkomlarini bir me’yorda bo‘lishi hamda musulmonlar orasida turli ixtiloflar kelib chiqishining oldini olishdagi ahamiyati beqiyosdir.

Shuningdek, yana bir manba sifatida ***qiyos*** qabul qilingan bo‘lib, u ilk islomdan keyingi davrlarda vujudga kelgan, Qur’on yoki hadisda hukmi aytilmagan muammolarni avvalgi hukmlarga qiyoslab hukm chiqarish uslubidir. Bunda olimlar tarafidan mo‘‘tabar manbalar matnida o‘rganilayotgan muammoga o‘xshash masalalar tadqiq qilinadi. Shu asosda mantiqiy javob topilib, hukm qilinadi. Qiyos jamiyatda vujudga keluvchi turli muammolarni mantiqiy jihatdan oson hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:

1. Islom dini qachon va qaerda yuzaga kelgan?
2. “Johiliya” deb qaysi davrga aytiladi?
3. Muhammad payg‘ambarga qachon va qaerda ilk vahiy nozil bo‘ldi?
4. Makkadan Madinaga hijratning sabablari nimada edi?
5. Qur’oni karim nechta sura va oyatlardan iborat?
6. “Hadis” so‘zining mazmun-mohiyati nimada?

## Mushtaqil ish topshiriqlari:

1. Xasri Imomga sayohatga borish.
2. Imom al-Buxoriyninh “Jome’as-sahih” asarini o’qib kelish.

## Adabiyotlar


1.Dinshunoslik asoslari. O‘quv qo’llanma / Ochildiev A. va boshqalar. - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2013.-320 b.

2.Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. – Toshkent, O’zMU, 2004, - 208 b.

3.Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – T.: O‘zbekiston, 1990.

4.At-Termiziy. Sahih at-Termiziy / A. Abdullo tarjimasi. – T.: G‘. G‘ulom nomli “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1993.

5.Yo’ldoshev X., Raximjonov D., Komilov M. Dinshunoslik (Ma’ruzalar matni) – Toshkent: ToshDSHInashriyoti, 2000.

6.Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Mansurov A. - Toshkent: Sharq, 2016.

7.Rahimjonov D., Muratov D., Obidov R., M.Alimova Hadisshunoslik (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. - 268 b.

8.Nizomiddinov H. Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta’limotlari va Islom / Nizomiddinov H.F., Hasanov A. Toshkent: O‘zR FA davlat Adabiyot muzeyi. 2006. 152 6.

9.Hasanboev O’. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. - 552 b.

10.Hasanov A., Komilov N., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q. Islom tarixi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

11.Hasanov A.A. Qadimgi Arabiston va ilk islom. Johiliya asri. – T.: Toshkent islom universiteti, 2001.

12.Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi (Qadimgi Arabiston tarixidan lavhalar). – T.: Mehnat, 1992.

13.W.MontgomeryWatt. Islamicphilosophyandtheology. Edinburg.1985.

14.Robert Audy. The Cambridge dictionary of philosophy, second edition. Cambridge university press. 1999.

15.William J. Wainwright. The Oxford Handbook of Philosophy of Religion. University of Wisconsin, Milwaukee.2010.

16.Phillip wodzinski. kant's doctrine of religion as political philosophy. Boston college.2009.

17.John R. Hinnells. The Routledge Companion to the Study of Religion. Routledge.2005.

18.Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of Religion. Routledge, USA, 2009. - 177 p.

## TARQATMA MATERIALLAR:

**1-ilova**


Muhammad Payg'ambarga (alayhis-salom) Qur'on nozil qilinganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitob tushirilgan.
Ibrohim payg'ambarga
«Sahifalar»
Muso payg'ambarga
«Tavrot»
Dovud payg'ambarga
«Zabur»
Iso payg'ambarga
«Injil»
Muhammad payg'ambarga (alayhis-salom)
«Qur'on»

**2-ilova**


Islom so'zi arabcha "ollohga o'zini topshirish", "Itoat etish", "Bo'ysunish" ma'nolarini bildiradi.
Islom aqidasi asosan 7 narsaga:
Ollohga
Uning farishtalariga,
Muqaddas kitoblariga,
Payg'ambarlariga,
Oxirat kuniga,
Taqdiri azalga,
O'lgandan so'ng qayta tirilishga.

**3-ilova**




## 3.3. ISLOM TA’LIMOTI

**REJA:**

1. Kalom ilmi.
2. Moturidiylik va ash’ariylik.
3. Moturidiylik kalom maktabi vakillari.
4. Islomda imon masalasi.

**Tayanch tushunchalar:** *Aqida, kalom, moturidiylik, ash’ariylik, imon, Alloh, farishta, payg‘ambar, taqdir, qiyomat, jannat, do‘zax.*

**Mavzu o‘quv maqsadi:** Talabalarda islom kalom (aqida) ilmi, mavzusi, mohiyati, imon va uning shartlari, ba’zi tushunchalar, kalom ilmi maktabi vakillari haqida ma’lumot berish.

**1. Kalom ilmi.** «Kalom» so‘zi arab tilida gap, suhbat, til, so‘zlaShuv, nutq va bayon ma’nolarini anglatadi. Istilohiy ma’noda esa, musulmon kishining e’tiqodi, aqidasi va dunyoqarashini belgilab beradigan ta’limotga aytiladi. Boshqacha aytganda, balog‘atga etgan kishining e’tiqodi, imon keltirishi, islom dinining talablari shaklida tasdiqlashi shar’iy e’tiqodiy hukmlarga aytiladi. Islom ta’limoti bo‘yicha barcha payg‘ambarlarning Allohga imon keltirishga da’vatlari eng asosiy vazifalari deb qaralgan. Shunday bo‘lsa-da, ularning tutgan shariat yo‘llari turlicha bo‘lganini alohida ta’kidlash kerak.

Islom ta’limotini Muhammad (alayhis-salom)dan bevosita sahobiylar o‘rganib, o‘zlaridan keyingi tobeiylarga etkazishgan. O‘z navbatida ular ham o‘zlaridan keyingilarga etkazgan. Shu tariqa islom ta’limoti sof holda hozirgi kungacha etib kelgan. Biroq tarix mobaynida odamlar mavjud diniy matnlarni turlicha talqin qilishlari natijasida turli oqimlar va toifalar paydo bo‘lganini ko‘ramiz. Ayni din masalasida yuzaga kelgan noto‘g‘ri tasavvur va tushunchalar xato ekanini ko‘rsatib beradigan olimlar ham paydo bo‘lib, ular islom ta’limotini to‘g‘ri tuShuntirib beradigan fanga asos soldilar. Mazkur fanni turli davrlarda «al-fiqh al-akbar», «tavhid», «aqida», «kalom», «usul ad-din» kabi bir qancha nomlar bilan ataldi. Shundan ma’lum bo‘ladiki, nomlar turlicha bo‘lsa-da, ularning hammasi bir mavzuni, ya’ni aqida ilmini o‘rganish va tadqiq etishga qaratilgan.

«Al-Fiqh al-akbar» atamasini birinchi bo‘lib imom Abu Hanifa qo‘llab, ayni Shu mavzuga bag‘ishlab bir risola yozadi. Chunonchi, «fiqh» so‘zi biror narsani har tomonlama o‘rganib, uning daqiq qirralarigacha fahmlab etish ma’nosini bildiradi. Shuningdek, namoz, ro‘za, haj, nikoh va boshqa amaliy hukmlarni o‘rganuvchi ilmni ham fiqh deb ataladi. Shuning uchun aqidaviy masalalarni o‘rganuvchi ilmni «Al-Fiqh al-akbar», ya’ni «katta fiqh», amaliy fiqh ni esa kichik

fiqh deb yuritiladigan bo‘lgan. Yana bir «usul ad-din»da shariat va dindan olingan e’tiqodiy hukmlarni o‘rganilib, dindagi asl hukmlarni tadqiq etiladi. Bir qator olimlar Shu nom ostida o‘z kitoblarni ta’lif etganlar. «Tavhid» ilmida Allohning yagonaligini va Uning sifatlarini o‘rganishga e’tibor beriladi. Bu ilm asosida Alloh taoloni yakkayu yagona deb bilib, Uning sifatlarini sharhlab tuShuntirishga ko‘proq ahamiyat beriladi. Zero, musulmon kishi aqida borasida o‘ziga zarur bo‘lgan dastlabki bilimga ega bo‘lishi kerak. Bu dastlabki ilm Alloh taoloning vahdoniyati, ya’ni yakkayu yagonaligiga imon keltirish va uni o‘rganishdan iborat. YAna bu atama «kalom ilmi» deb yuritiladi. Islom diniga oid manbalarda uni aqida ilmining eng mashhur nomlaridan biri sifatida keltiriladi.

Islom ta’limotini o‘rganishda eng ko‘p qo‘llangan atama «aqida» (ko‘p. aqoid) bo‘lib, bu nom boshqalaridan keyinroq, X asrda paydo bo‘lgan. «Aqida» so‘zi bir narsani ikkinchisiga «mahkam bog‘lash» ma’nosini beradi. Islom aqidasi musulmon kishini muayyan tushunchalar bilan mustahkam bog‘lab turadigan aqidalar yig‘indisi hisoblanadi. Ya’ni, biror narsaga e’tiqod qilish uchun uni hech qanday Shubha qoldirmaydigan darajada juda Yaxshi bilish kerak. Muayyan bir fikrni inson fikriga aylanib, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini boshqaradigan holga etgandagina aqidaga aylangan, deb tan olinadi. Aqida ilmi to‘g‘ri, sog‘lom va sof e’tiqodda bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan. Dindagi ayrim shar’iy hukmlar makon va zamon taqozosiga ko‘ra, muayyan darajada o‘zgarishga uchrashi mumkin. Ammo musulmon olimlar o‘z asarlarida sof va mustahkam e’tiqod hech qachon o‘zgarishga uchramasligini ta’kidlab o‘tganlar. CHunonchi, Alloh taoloning yakkayu yagonaligi, farishtalar, jannat va do‘zaxga imon keltirish kabi e’tiqodga oid qarashlar zamon va makonga qarab hech qachon o‘zgarmaydi. Inson aqidasi to‘g‘ri bo‘lmasa uning insoniy fazilatlari ham to‘g‘ri hisoblanmaydi. Shu nuqtai nazardan aytish kerakki, musulmon kishining tutgan aqidasi pok bo‘lsa, uning tutgan yo‘li ham to‘g‘ri bo‘ladi, qilgan barcha amallari ijobat bo‘ladi va bandalik tufayli sodir etgan ba’zi gunohlari afv etiladi. Biroq kishining aqidasi sof bo‘lmasa, unda biron xatolik bo‘lsa, tutgan yo‘li ham noto‘g‘ri bo‘ladi, hayot

davomida qilgan amallari behuda ketadi. Aqida ilmi islom dinining asosini tashkil etadi. Shu bois ham So‘fi Allohyor:

*Aqida bilmagan shaytona eldur,*

*Agar ming yil amal deb qilsa, eldur!* -deb, bu ilmning ahamiyatiga alohida ishora qilgan edi.

Ushbu hikmatli bayt bugungi kungacha o‘z qadrini saqlab kelmoqda. E’tiqodi buzuq kishilar tarixda ham, hozirda ham shaytonga el bo‘lib, unga ergashib, uning izmida yurishda davom etmoqda. Ular o‘zlarining adashgani etmaganidek, boshqalarning e’tiqodlarini izdan chiqarishi o‘ta xatarlidir.

Aqida mavzusi o‘ta hassos bo‘lganidan er yuzidagi eng birinchi payg‘ambardan boshlab, oxirgi Muhammad payg‘ambar (alayhis-salom)gacha Alloh toloning O‘zi e’tiqodiy masalalar bo‘yicha ko‘rsatmalarini bergan. Shuning uchun aqidaviy qarashlarning asosi Qur’oni karim va hadisi shariflarda keltirilgan va muayyan tartibga solingan. Sahobiylarning tiriklik paytidayoq odamlar o‘rtasida aqidaviy qarama-qarshilik va kelishmovchiliklar yuzaga kelganini ko‘rish qiyin emas. Islom dinida aqidaviy ixtiloflar to‘rtinchi xulafoi roshidin Alining qo‘shinidan ajrab chiqqan, aqida masalasida bir necha Shubhali savollarni o‘rtaga tashlagan xorijiylar tufayli boshlandi. Ular Hazrati Ali va Abdulloh ibn Abbos (r.a.) bilan aqida masalasida ixtilofga borishdi.

Sahobiylar davri tugaganidan keyin tobeiylar davriga kelib vaziyat yanada keskin tus oldi. Chunki bu davrda din ilmlarini, ayniqsa, aqidani biluvchi kishilar oldingiga nisbatan ancha kamayib, sof aqidaviy qarashlarga qarshi turli botil g‘oyalarni ilgari surgan firqa va toifalarning tarqalishi avj oldi. Ular o‘zlarining islomga yot bo‘lgan fikr va qarashlari, e’tiqodlarini ommaga tarqatib, to‘g‘ri aqidani noto‘g‘ri talqin qilish yo‘lidan bordilar. Shuningdek, yangi egallangan yurtlardagi xalqlarning islomdan oldingi diniy qarashlari va falsafalari, o‘z tushunchalari va tafakkur yo‘llari mavjud bo‘lgan. Shu sababdan ularning islom ta’limotini tuShunib olishlari juda qiyin kechganiga tarixiy dalillar guvohlik beradi. Binobarin, Qur’on oyatlari va hadislarni ba’zi vaqtlarda o‘zlarining

islomdan oldingi ta'limotlari andozasiga solish holatlari uchraydi. Islom diniga yot bo'lgan turli guruh va jamoalarning uni buzib talqin qilish natijasida ularga raddiya sifatida olimlar kalom, ya'ni aqida ilmiga asos soldilar. Shu tariqa bu ilm turi musulmonlar uchun zarur sohaga aylandi. Zero, har bir musulmon to'g'ri aqidani bilishi shart deb hisoblanadigan bo'ldi. Mashhur mutakallim olim Sa'duddin Taftazoniy «Maqosid at-tolibin» asarida: «Kalom ilmi diniy aqoid usullarini ishonchli dalillar asosida anglashni o'rgatadigan ilmdir. Shu ilm tufayli shar'iy, nazariy, aqidaviy masalalar hal qilinadi. Uning natijasi imonga komil ishonch bilan ziynat berish, foydasi esa bu dunyoda tartibli hayot kechirish va oxiratda azob-uqubatdan xalos bo'lishdir. Shunday ekan, kalom ilmi eng sharafli ilmdir», deb keltiradi. Hujjatul islom Abu Homid G'azzoliy o'zining «Ihyo ulum ad-din» nomli asarida: «...Chuqur bilimga ega bo'lmagan oddiy musulmonlarning diniy e'tiqodlarini turli bid'at va noto'g'ri g'oyalardan saqlash uchun kalom ilmini o'rganish vojibdir», deb keltiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, aqoid yoki kalom ilmining vazifasi: a) diniy e'tiqodlarni qat'iy dalillar bilan isbotlash va ular haqidagi Shubha hamda gumonlarni rad qilish; b) insonni aqidada oddiy taqlidchi bo'lishdan har bir e'tiqodga hujjat keltira olish darajasiga ko'tarish; v) islomning sof e'tiqodlarini adashgan zalolat ahlining Shubha va gumonlaridan himoya qilish.

**2.Moturidiylik va ash'ariylik.** Mutakallimlar Qur'on oyatlari, hadislar va sahobiylarning tutgan yo'li asosida aqida masalalarini mufassal bayon etib berganlar. Aqida borasida faoliyat olib borgan olimlar orasida Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash'ariy alohida o'rin egallaydi. Bu olimlar Ahli sunna val jamoa aqidasi bo'yicha Imom deb tan olindilar. «Ahli sunna val jamoa» to'rt fiqhiy mazhabdan biriga amal qilib kelayotgan bo'lsalar, aqidaviy masalada moturidiylik va ash'ariylikning aqidaviy ta'limiga asoslanadi. Bunga ko'ra, hanafiy mazhabi moturidiylik, molikiy, Shofeiy va hanbaliy mazhabi ash'ariylik ta'limotida deb qaraladi. Shu o'rinda bu ikki maktab vakillari haqida biroz

ma'lumot berib o'tish o'rinlidir. Moturidiylik aqidaviy maktab asoschisi buyuk kalom imomi va fakih Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarqandiy (853-944) bo'lib, u asli Samarqandning Moturid qishlog'ida (hozirgi Jomboy tumanida joylashgan) dunyoga kelgan va taxallusi Shu qishloqqa nisbatan olingan. Abu Mansur Moturidiy dastlabki ta'limni o'z qishlog'ida olib, keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandda davom ettiradi. Moturidiy Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad Iyodiy, Imom A'zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo Balxiy, Muhammad ibn Fadl kabilarni o'zining ustozi deb bilgan. Moturidiy fiqh va kalom masalalariga qiziqib, o'z zamonasining taniqli hanafiy mazhabi olimlaridan saboq oladi. Shu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda bo'lib, bahs-munozaralari bilan taniladi va Shu sohaga oid asarlar yozib qoldiradi. Bunday asarlar qatoriga «Kitab at-Tavhid», «Kitab al-maqomat», «Kitab rad avoil al-adilla li-l-Ka'biy», «Kitab al-usul», «ar-Radd ala usul al-Qaromita», «Kitab ta'vilot ahli sunna» va boshqalarni keltirish mumkin.

Bugungi kunga qadar Abu Mansur Moturidiyning ko'plab asarlari saqlanib qolmagan, ulardan etib kelganlari esa asosan xorijiy mamlakatlarning kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi.

Imom Moturidiyning «Kitab ta'vilot ahli sunna» (boshqa bir nomi «Ta'vilot al-Qur'on») asarida sunniy aqidaga zid qarashlarni rad etish yo'lidan boradi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda sof aqida yo'lini tutadi. Moturidiyning Shu birgina asari keyingi davrlarda yashagan ko'p allomalarning asarlariga xamirturush vazifasini bajardi.

Musulmon olimlar aqida masalasida asosan ikki manbaga tayanganlar: birinchisi naqliy dalillar, ya'ni Qur'on oyatlari, hadislar va ularga qo'shimcha tarzda sahobiy va tobeiylar ijmosi (mujtahid olimlarning biror fikrga ittifoq qilishi) hamda ijtihod (olimning biror masaladan shariy hukm olish uchun qilgan urinishi)laridir. Ikkinchisi esa, aqliy dalillar. Imom Moturidiy ham naqliy, ham

aqliy dalillarni uyg‘unlashtirgan holda ilmiy xulosalar chiqarganiga duch kelamiz. Chunonchi, ko‘pchilik odamlarning aql-tafakkuri ko‘p hollarda naqliy dalillarni qabul qila olmaganidan imom Moturidiy o‘z o‘rnida aqliy dalillardan ham foydalangan. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, moturidiylik (ash’ariylik ham)da ham aqliy dalillar naqliy dalillardan keyingi o‘ringa qo‘yiladi. O‘sha davrda mo‘‘taziliylar naqliy dalillardan oldinga aqliy dalillarni qo‘yib, agar aqliy dalil naqliy dalilga, ya’ni oyat va hadislarga qarshi chiqsa, ularni inobatga olmaganlar.

Imom Moturidiyning asosiy xizmatlari shundan iboratki, o‘sha davrdagi aqidada adashgan oqimlarning salbiy ta’sirining oldini olish, ularning qarashlariga qarshi asosli va kuchli dalillar keltirib raddiya berish, haqiqiy islom aqidasini himoya qilish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan javob berish, Shu bilan birga musulmonlar uchun aqida borasida asosli qo‘llanmalar yaratish va tarqatishdan iborat bo‘lgan deyish mumkin.

Imom Moturidiy ko‘plab shogirdlar etishtirdi, ular o‘z ustozlarining ta’limotini davom ettirishgani tufayli hanafiy mazhabida kalom ilm bo‘yicha maktab vujudga kelganini ko‘rish mumkin.

Moturidiy «Imom al-huda» (hidoyat yo‘li imomi) va «Imom al-mutakallimin» (mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan dovruq qozongan.

Ash’ariy ta’limotining asoschisi Abul Hasan Ali ibn Ismoil ibn Ishoq ibn Solim ibn Abdulloh ibn Muso Abu Muso Ash’ariydir (873-941). U boshlang‘ich saboqlarni o‘z otasidan oladi, keyinchalik o‘z zamonasining taniqli olimlari Abu Ishoq Marvaziy va Ibn Surayjdan fiqh ilmini o‘zlashtiradi, Zakariyo ibn YAhyo Sojiydan hadis ilmini o‘rganadi. U taxminan qirq yoshlaridan keyin Bog‘dodga ko‘chib kelib, umrining oxirigacha Shu shaharda yashab qoladi. U umri davomida yuzga Yaqin asarlar yozgan bo‘lib, ulardan «al-Fusul fi-r-radd ala-l-mulhidin», «ar-Radd ala-l-mujassima», «Izoh al-burhon fi-r-rad ala ahl az-zayg‘ va-t-tug‘yon», «an-Naqs ala-l-Jubboiy», «Maqolot al-mulhidin», «Tafsir Abu-l-Hasan», «Imomat Abu Bakr Siddiq» kitoblari ilm ahlining nazariga tushgan. Imom

Ash’ariy aqiydaviy dalil-isbot keltirishda naqldan va aqldan foydalanib, aqliy va mantiqiy dalillardan hujjat sifatida foydalanadi. Shuningdek, falsafiy masalalardan ham o‘z o‘rnida iste’foda etganiga duch kelish mumkin. Chunki Ash’ariy mo‘‘taziliy, faylasuf, qarmatiy, botiniy, rofiziy va boshqalarga raddiyalar bergani bilan aqida ilmi sohasida tanilgan allomalardan biridir.

Abul Hasan Ash’ariy ahli sunnat va jamoaning ash’ariya e’tiqodiy ta’limotini tarqatayotgan vaqtda Samarqandda Abu Mansur Moturidiy ham moturidiya ta’limotiga asos solgan edi. Bu ikki imom bir vaqtda yashab, bir-birlari bilan uchrashmagan bo‘lsa-da, ularning aqidaviy qarashlari deyarli bir xil. Bu ikki alloma qarashlarida ayrim masalalarda lafziy ixtiloflar ko‘zga tashlansa-da, ularning asl maqsadi bir-biridan farq qilmaydi. Boshqacha aytganda, ikki ta’limot orasidagi ba’zi ixtiloflar lafziy bo‘lib, mohiyatan bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, bu ikki alloma o‘zaro bir-birini adashganlikda yoki bid’atchilikda ayblamaydi hamda o‘zaro bir-birlarini «ahli sunna val jamoa» deb e’tirof etadilar.

Ash’ariy va moturidiylik orasidagi asosiy farq imon masalasiga borib taqaladi. Moturidiy ta’limotiga ko‘ra, imon til bilan iqror bo‘lib, dil bilan tasdiqlashdan iborat, ammo amal imon tarkibiga kiritilmaydi. Ash’ariylikda esa, imonga amalni ham qo‘shiladi. Shu sababdan moturidiylik tarqalgan yurtlarda imon keltirgan kishi musulmon hisoblanadi, ammo amal qilmagani uchun gunohkor bo‘ladi, deb yuritiladi.

O‘rni kelganda aytib o‘tish lozimki, manbalarda «moturidiya mazhabi», «ash’ariya mazhabi» degan atamalar uchrab turadi. Bundan imom Moturidiy imom Abu Hanifaning aqidaga doir ta’limotini rivojlantirgan bo‘lsa, Imom Ash’ariy imom Shofeiyning e’tiqodiy qarashlarini takomillashtirdi, degan fikrga kelish mumkin. Hozirgi kunda moturidiylikka hanafiy mazhabi yo‘lini tutganlar ergashsa, ash’ariylikka molikiy, hanbaliy, Shofeiy mazhabidagilar amal qiladilar.

Mazkur ikki allomaning ta’limotlari islom olamida keng tarqaldi va asrlar davomida musulmonlarni sof e’tiqodda bardavom bo‘lishiga, oyat va hadislarning

ma’nolarini to‘g‘ri anglab, hayotga tadbiq etib kelishlariga, e’tiqodi noto‘g‘ri turli oqimlar ta’siriga tushib qolmaslikka sababchi bo‘ldi. Abu Mansur Moturidiy va Abul Hasan Ash’ariylarning sof aqidani musulmonlarga etkazishdagi xizmatlari beqiyos bo‘lib, ularning aqidaviy ta’limotiga hozirgacha musulmonlar tomonidan alohida e’tibor bilan amal qilib kelinmoqda. Ular o‘z asarlarida islom aqidasini yoritish barobarida adashgan oqimlarga raddiyalar ham berganlar. Shu bois Imom Moturidiy «hidoyat imomi» deb yuritilsa, imom Ash’ariy «ahli sunna homiysi» degan nomga sazovor bo‘lganlar.

**3.Moturidiylik kalom maktabi vakillari.** Moturidiya ta’limoti vakillariga Movarounnahrda faoliyat olib borgan bir qancha olimlarni misol keltirish mumkin. Ularning orasida Abul Muin Nasafiyning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Abul Muin Maymun ibn Muhammad Makhuliy Nasafiy 1046 yili Nasaf vohasida ziyoli oilada tavallud topgan. Dastlabki ta’limni otasidan olgan. Nasafiyning bobosi Abul Muti’ Makhul ibn Fazl Nasafiy (vaf. 930 y.) o‘z davrining mashhur mutakallimi va mutasavvif olimi hisoblangan. Abul Muin Nasafiyning fiqh ilmiga oid asarlari ham mavjud. U 1114 yilda vafot etgan. Allomaning qabri Qarshi tumanidagi Qovchin qishlog‘ida joylashgan. U umri davomida o‘ndan ortiq asarlar yozib qoldirgan. Olimning asarlari orasida «Tabsirat al-adilla», «at-Tamhid li qavoid at-tavhid» («Tavhid qoidalariga muqaddima») va «Bahr al-kalom» («Kalom ilmi ummoni») kabi asarlari bizgacha etib kelgan.

Abul Muin Nasafiy asarlari orasida «Tabsirat al-adilla» eng muhim va asosiysi hisoblanadi. Asarning to‘liq nomi «Tabsirat al-adilla fi usul ad-din ala tariqati Abi Mansur al-Moturidiy» («Abu Mansur Moturidiy tariqatiga binoan din usullarini aniq dalillar bilan sharhlash») deb nomlanadi. Abul Muin Nasafiyning ushbu asarini yozishiga o‘sha davrda moturidiya ta’limoti bo‘yicha «Kitob at-tavhid» dan keyin bironta ham yirik asar bo‘lmagani sabab qilib ko‘rsatilgan. U «Tabsirat al-adilla» asarini yozib tugatgach, unga xotima va fihrist sifatida «Tamhid» va «Bahr al-kalom» asarlarini yozgan.

YAna bir olim Abu Hafs Nasafiy nomi bilan tanilgan Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil Nasafiy (1068–1142) bo‘lib, ba’zi manbalarda unga «Moturidiy» nisbasi berilgani qayd etilgan. Bu esa uning Imom Moturidiyning ma’naviy shogirdi va moturidiya ta’limotining davomchisi ekanidan darak beradi. Zero, Abu Hafs Nasafiy o‘zining «Kitob al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» («Samarqand olimlarini zikr etish bo‘yicha qanddek (shirin) kitob») asarining bir qancha o‘rinlarida Imom Moturidiy nomini o‘zining ma’naviy ustozi sifatida hurmat bilan tilga oladi. Shuningdek, Abu Hafs Nasafiy o‘zining «Aqoid an-Nasafiy» («Nasafiy aqidalari») asarida moturidiya ta’limoti qarashlarini aks ettirgan.

Abu Hafs Nasafiyga «Moturidiy» nisbasi berilishiga uning Imom Moturidiy yurti Samarqandda umrining asosiy qismini o‘tkazganini ham sabab qilib ko‘rsatiladi. Jumladan, o‘rta asr alloma va mashhur kishilarining nisbalarini yoritib beruvchi «Kitob al-ansob» («Nasablar kitobi») nomli qomusiy asar muallifi Abu Sa’d Sam’oniy (vaf. 1167 y.) bu allomani Abu Hafs Umar ibn Muhammad Nasafiy Moturidiy, deb atagan.

Najmuddin Nasafiy o‘rta asr Sharq olimlariga xos qomusiy bilim sohibi bo‘lib, zamonasining mashhur tarixchisi, faqihi, mufassiri, tilShunosi, geografi, faylasufi hamda shoiri bo‘lgan. Uning yozgan asarlari mundarijasi nihoyatda keng va rang-barang bo‘lib, bir qismigina bizgacha etib kelgan. Najmuddin Nasafiy tilShunoslik, tarix, fiqh kabi ilmlarga bag‘ishlab yuzdan ortiq asarlar yaratgan. Abu Sa’d Sam’oniy Abu Hafs Nasafiy bilan maktublar orqali ilmiy muloqotda bo‘lib turgan. Hozirgi ma’lumotlarga ko‘ra, uning bizgacha o‘ntacha kitobi etib kelgan. Ayniqsa, moturidiya kalom maktabiga oid «Aqoid an-Nasafiy» asari katta Shuhrat qozongan. U moturidiya ta’limotida Abul Muin Nasafiyning «Tabsirat al-adilla» asaridan keyingi o‘rinda turadi. Najmuddin Nasafiyning falsafa va aqoidga doir ko‘plab asarlari mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, uning «Manzumot an-Nasafiy fi-l-xilofiyot» («Ixtiloflar haqida Nasafiy manzumasi») nomli she’riy asari mashhur bo‘lgan.

Keyingi olim Sadr al-islom Abul YUsr Muhammad ibn Muhammad ibn Abdilkarim Pazdaviy 1030 yilda tug‘ilgan. Dastlabki ta’limni otasi Abul Hasan Muhammad Pazdaviydan olgan. Bobosi Abdulkarim ibn Muso, Imom Moturidiy shogirdlaridan biri bo‘lib, unga ustozlik ham qilgan. Bundan tashqari, Pazdaviy bir qancha hanafiy olimlardan ham tahsil olgani manbalarda aytilgan. Pazdaviyning ustozlari orasida Abu YA’qub Yusuf ibn Muhammad Nishopuriy va Abul Xattob kabi olimlarning xizmati katta bo‘lgan. Abu Hafs Najmuddin Umar Nasafiy va Abul Muin Nasafiy Pazdaviyning eng mashhur shogirdlari hisoblangan. Manbalarda qayd etilishicha, u 1099 yilda Buxoroda vafot etgan.

Pazdaviyning asarlari orasida «Usul ad-din» («Din asoslari») asari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar 96 masaladan tashkil topgan va mazmun-mohiyatidan ahli sunna val jamoa yo‘nalishi va moturidiya maktabi qarashlarining mohiyatini ochib berish va Movarounnahrda tarqalgan bid’at va xurofotlar jamoasi (ahl az-zayg‘ val bida’) ta’sirini kamaytirish maqsadida yozilgan. Shuningdek, Pazdaviy Imom Muhammad SHayboniyning «al-Jomi’ as-sag‘ir» («Kichik to‘plam») asariga sharh sifatida «Ta’liqot» («SHarhlar») hamda fiqhga oid «al-Voqiot» («Voqealar») va «al-Mabsut» («Keng ma’nolar») asarlarini yozib qoldiradi. Pazdaviy Movarounnahrda, ayniqsa, Buxoroda hanafiy mazhabi hamda moturidiya kalom maktabi rivojida ulkan xizmat ko‘rsatgan olim hisoblangan.

Alloma Alouddin Samarqandiy ham moturidiya ta’limotining yirik namoyandasi Abul Muin Nasafiyning eng Yaqin shogirdlaridan bo‘lib, fiqh sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan olimdir. Uning to‘liq ismi Muhammad ibn Abi Ahmad Abu Bakr Alouddin Samarqandiy bo‘lib, tug‘ilgan yili haqida manbalarda ma’lumotlar uchramaydi. Shunday bo‘lsada, olimning vafoti ko‘p manbalarda 1143 yil deb ko‘rsatilgan.

Alouddin Samarqandiy Abul Muin Nasafiydan fiqh va kalom ilmlarini o‘rgangan va Shu asosda o‘zining fiqhga oid «Tuhfat al-fuqaho» («Faqihlar tuhfasi») nomli mashhur asarini yozib qoldiradi. U nafaqat fiqh, balki kalom hamda tafsir ilmlari borasida ham samarali ijod qilib, moturidiya kalom maktabini

qo‘llab-quvvatlagan. Natijada Abu Mansur Moturidiyning «Ta’vilot ahli sunna» («Ahli sunna ta’villari (tafsiri)») nomli tafsiriga «SHarh ta’vilot ahli sunna» («Ta’vilot ahli sunna tafsiri») nomli sharhini bitadi.

Allomaning ushbu sharhni yozishida Abul Muin Nasafiyning xizmati nihoyatda katta. Chunki Alouddin Samarqandiyning o‘zi Nasafiy bilan Moturidiyning «Ta’vilot» asarini birga mutolaa qilganini va Nasafiy joiz, deb topgan o‘rinlarga sharh yozib ilova qilib borgani va keyinchalik ushbu sharhlarni alohida kitob holiga keltirgani haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, Alouddin Samarqandiy Abul YUsr Pazdaviydan ham ilm o‘rgangan. Uning eng Yaqin shogirdi o‘z qizi Fotima bint Alouddin bo‘lgan. Fotima bint Alouddin mashhur faqiha olima darajasiga etib borgan. Alouddin Samarqandiy qizini o‘zining Yaqin shogirdi Alouddin Abu Bakr ibn Mas’ud ibn Ahmad Kosoniyga nikohlab bergan. Kosoniy ustozining «Tuhfat al-fuqaho» asariga sharh tarzida «Badoi’ as-sanoi’ fi tartib ash-sharoi’» («SHariat tartibida ajoyib san’atlar») nomli kitobini yozgan. Kosoniy Abul Muin Nasafiyning shogirdlaridan biridir.

Ibrohim ibn Ishoq Saffor Buxoriy (vaf. 1139 y.) Abul Muin Nasafiydan Buxoroda kalom ilmidan ta’lim olgan moturidiya kalom maktabi vakilidir. Dastlab u o‘zining «Risola fiha masoil suila anha ash-SHayx as-Saffor fa ajaba anxa» («SHayx as-Saffor javob bergan masalalar haqida risola») nomli risolasini yozgan. Ushbu risolada Abu Mansur Moturidiyning qarashlariga kng to‘xtalgan. Olim buxoroliklar uchun kalom ilmi bo‘yicha «Kitob talxis al-adilla li qavoid at-tavhid» («Tavhid qoidalariga oid dalillarning qisqacha bayoni») nomli o‘quv qo‘llanmasini yaratadi. Nuriddin Ahmad ibn Mahmud ibn Abi Bakr Sobuniy (vaf. 1184 y.) ham Ibrohim Saffor bilan Buxoroda moturidiya kalom maktabining keng tarqalishida jonbozlik ko‘rsatgan olimlardan biridir. U Abul Muin Nasafiydan kalom ilmini o‘rgangan. Nuriddin Sobuniy Buxoroda ash’ariya maktabi vakili Faxruddin Roziy bilan muloqotda bo‘ladi. Olimning «al-Bidoya fi usul ad-din» («Boshlang‘ich din asoslari») nomli o‘quv qo‘llanmasi hozirga kelib qadr-qimmatini yo‘qotmagani bois ko‘p marotaba nashr etildi.

YAna bir olim Abul Fath Alouddin Muhammad ibn Abdilhamid ibn Umar ibn Hasan ibn Husayn Samarqandiy Asmandiy bo‘lib, u 1095 yili Samarqand atrofidagi Asmand shahrida dunyoga kelgan. Bu shahar Usmand yoki Samand deb ham atalgan. U «Tuhfat al-fuqaho» asari muallifi Alouddin Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy bilan chalkashtirilgani bois, manbalarda unga Asmandiy nisbasi ham qo‘shib ataladi. Asmandiy Ashraf ibn Muhammad Alaviydan fiqh ilmini o‘rgangan, «as-Sadr ash-shahid» nomi bilan mashhur Burhon al-aimma Umar ibn Abdulaziz ibn Moza Buxoriydan (vaf. 1142 y.) hadis rivoyat qilgan, Ali ibn Umar Harrotdan hadis ilmini o‘rgangan. Asmandiy Abul Muin Nasafiyning ilmiy merosidan kalom ilmiga oid asarlarini yozishda foydalangan. U Abul Muin Nasafiy asarlarini zamondoshi Alouddin Samarqandiydan o‘rgangan. Asmandiyning kalom ilmiga oid birgina asari haqida ma’lumotlar bor. Ba’zi manbalarda uning nomini «Lubob al-kalom» («Daqiq kalom ilmi») deb atalgan bo‘lsa, ba’zi manbalarda «al-Hidoya fi usul al-e’tiqod» («E’tiqod asoslarida hidoyatga erishish») yoki «al-Hidoya va-l-kalom» («Hidoyat va kalom ilmi») deb keltirilgan. Ushbu asar kalom borasida yosh tadqiqotchilarga yo‘llanma berish uchun yozilgan. Hanafiy faqihlari orasida o‘ziga xos obro‘ga ega alloma XII asrda Movarounnahrda kalom ilmi rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan va 1157 yil Buxoroda vafot etgan.

**4.Islomda imon masalasi.** Imom Moturidiy, imom Tahoviy, Abul Muin Nasafiy va boshqa olimlar tomonidan yozilgan asarlarda «imon» masalasi alohida o‘rganilgan, Chunki u kalom ilmining eng nozik va asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Chunki imon islomning birinchi sharti hisoblanadi. Imonga berilgan ta’rif orqali bandaning xatti-harakati xususida hukm chiqarilgan. Islomda adashgan ekstremistik, terroristik va aqidaviy oqimlarning aksariyati imon masalasida xatoga yo‘l qo‘yib, o‘z Shubhalarini keng xalq ommasi orasida yoyishga harakat qiladilar.

YUqorida keltirilgan olimlar aqida mavzusini to‘rt qismga ajratib o‘rganganlar: ilohiyot, nubuvvat, kavniyot va sam’iyot. «Ilohiyot» iloh va Unga

oid masalalar haqida bahs yuritadi. «Nubuvvat»da vahiy, payg‘ambarlik va ularga tegishli masalalar, kavniyotda esa, borliqdagi mavjudotlar – inson, farishta, jin va sababiyat qonunlari haqida bahs yuritiladi. Sam’iyot eshitish bilangina sobit bo‘ladigan aqidalar haqida bahs yuritadi. Bular asosan g‘ayb olamiga tegishli masalalar bo‘lgani uchun bu turni «g‘aybiyot» ham deyiladi. Islom besh asosga qurilgan. Ular: imon, namoz, zakot, ro‘za va haj. Bular islomning rukni (farz) hisoblanadi. «Imon» so‘zi ishonmoq, tasdiqlamoq ma’nolarini bildirib, istilohda, kalimai shahodatni aytish, ya’ni «La ilaha illalohu Muhammadun Rasululloh» («Allohdan boshqa iloh yo‘q, Muhammad uning rasuli»)ni til bilan aytish va dil bilan tasdiqlashdir. Buni chin dildan aytgan kishi musulmon hisoblanadi.

Abu Mansur Moturidiyning fikricha, insonning qalbida imon xuddi osmonda oy yagona bo‘lgani kabi yagona bo‘ladi. Agarda u kamaysa, yarimta, ko‘paysa bir yarim yoki ikkita bo‘lishi kerak. Bu esa haqiqatga ziddir. Imonning faqat qalbdagi nuri Yaxshi amallar sababli yorug‘lashishi va imonning nuri xiralashishiga olib keladi.

Hadislarda imonning etti sharti mavjudligi qayd etilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Allohning borligi va birligi, Qur’on va hadislarda bayon qilingan barcha ism va sifatlariga ishonish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytariqlaridan tiyilish.

Tarixda ulamolar Allohning borligi haqida alohida to‘xtalib, dalil keltirmaganlar. Zero, u davrlarda Xudoning borligiga Shubha bo‘lmagan va unga barcha ishongan (ya’ni, xudo yo‘q degan tasavvur bo‘lmagan). Ammo keyingi davrlarga kelib Xudoning borligiga ishonmaydiganlar chiqqandan keyin olimlar bu mavzuni ham aqida kitoblariga kiritganlar va u aqidaning bosh mavzusiga aylangan. CHunonchi Allohning borligiga imon keltirmagan kishiga aqida mavzusini tuShuntirishning foydasi yo‘q.

Qur’onda: **«Yoki ular hech narsadan** (ya’ni, Yaratuvchisiz) **yaralib qolganmilar?! Yoki ular o‘zlari yaratuvchimilar?! Yoki osmonlar va Erni**

**ham ular yaratganmi?! Yo‘q! Ular** (baribir) **imon keltirmaslar»** (Tur, 35-36), deyilgan va Xudoning borligiga ishonmaydiganlarga dunyo o‘zidan-o‘zi yaralib qolishi mumkin emasligi aytilgan. Aqida ilmida Allohning yagonaligi masalasi alohida ahamiyatga molik mavzulardan biridir. Buni «tavhid» deyiladi. Tavhid lug‘atda biror narsaga birlik va yagonalikni nisbat berishdir. Istilohiy ma’noda Allohga shirk keltirishning turli shakllaridan voz kechish, Allohning zotida, sifatida, ishlarida, ismlarida, hukmlarida ham sherigi yo‘q deb, e’tiqod qilishga aytiladi. Allohning sherigi yo‘qligi borasida Qur’on oyatlari va hadislarda ko‘plab misollar mavjud. Bu oyatlarda Allohning sherigi bo‘lganida koinotdagi tartib buzilib ketishi ko‘rsatilgan. Jumladan: **«Agar ikkisi (Er va osmon)da Allohdan o‘zga ilohlar bo‘lganida, har ikkisi buzilib ketgan bo‘lur edi. Bas, Arsh egasi bo‘lmish Alloh ular sifatlayotgan (sheriklardan) pokdir»** (Anbiyo, 22), **«Alloh farzand tutgan emas va U bilan birga biror iloh ham bo‘lgan emasdir. Aks holda, har bir iloh o‘zi yaratgan narsa bilan (kibrga) ketib, bir-biridan ustun bo‘lib olur edi (natijada Eru osmon buzilib ketgan bo‘lur edi). Alloh ular vasf etayotgan narsadan pokdir»** (Mu’minun, 91) oyatlarini keltirish mumkin.

Islom dinida Allohga ishongan kishi uning ismi va sifatlariga ham imon keltirish shart qilib qo‘yiladi. Qur’onda: **«Allohning chiroyli ismlari bordir. Uni o‘sha (ism)lar bilan atangiz!»** (A’rof, 180), **«Uning go‘zal ismlari bordir»** (Hashr, 24) deyilgan. Bu ism va sifatlar orqali Alloh haqida bilimlarga ega bo‘linadi. Barcha ulamolarning fikriga ko‘ra, Alloh ismlarini o‘rganishdan maqsad Unga loyiq bo‘lmagan sifatlarni bermaslikdir. Shuningdek, «Allohning to‘qson to‘qqizta ismi bor»ligi haqidagi hadisni muhaddislar rivoyat qilganlar. Imom Abu Hanifa o‘zining «al-Fiqh al-akbar» asarida Alloh haqida Shunday degan: «U o‘zi yaratgan narsalardan birortasiga o‘xshamas. Unga ham biror narsa o‘xshash emas. O‘zining zotiy va fe’liy sifatlari bilan azaldan bor bo‘lgan va abadiy bor bo‘lur. Zotiy sifatlari – hayot, qudrat, ilm, kalom, eshitish, ko‘rish, iroda. Fe’liy sifatlari – xalq etish, yasash va boshqa Shu mazmunga dalolat qiluvchi sifatlar. U o‘zining

barcha ism va sifatlari bilan birgalikda doim bo‘lgan va abadiy bo‘lajak. Unga biror ism yoki sifat keyin qo‘shilib qolgan emas».

Boshqa bir o‘rinda: «Qur’onda O‘zi zikr etganidek, Allohning qo‘li, yuzi, nafsi (O‘zi) bor deb bilamiz. Bular Uning sifatlaridan, lekin qanday, qanaqa deyilmas. Hatto, qo‘li-qudrati yoki ne’mati ham deb ta’vil etilmas. Aks holda uning bir sifatini yo‘qqa chiqarilgan bo‘lur. Bu esa qadariylar va mo‘‘taziliylar so‘zidir. Biz aytamizki, qo‘li o‘ziga xos, kayfiyatsiz sifatdir. Shuningdek, Uning g‘azabi va rizosi ham o‘ziga xos kayfiyatsiz sifatlaridandir», deyilgan.

Islom ta’limotiga ko‘ra, Allohning ismi va sifatlarini boshqa biror maxluqotga o‘xshatish mumkin emas. Uning holati, kayfiyati, surati haqida bahs qilinmaydi, ya’ni Alloh ko‘radi, eshitadi, biroq biz insonlar va boshqa maxluqotlar kabi emas, balki u haqda bahs yuritish bid’at hisoblanadi.

2. Musulmon kishi farishtalarga ham ishonishi lozim. Farishta arab tilida «malak», ko‘pligi «maloika» deyiladi. Ularga ishonmagan musulmon hisoblanmaydi. Qur’onda: **«(Ularning) har biri Allohga, farishtalariga, kitoblariga va payg‘ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi»** (Baqara, 285) deyilganidan farishtalarga ishonish imonning asoslaridan biri deb qaraladi.

Farishtalar nurdan yaratilgan, nurning tezligi juda kuchli bo‘lganidan farishtalar ko‘zga ko‘rinmaydi. Farishtalar sonini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi, ular Allohning buyrug‘idan chiqmay doimo o‘zlariga buyurilganini bajaradigan xos bandalar hisoblanadi. Ular Allohning barcha maxluqotlaridagi elchilar deyish mumkin. Xudoning huzuridan ishni olamga olib tushib, o‘shaning tadbirini qiladilar. Ularning jinsi yo‘q. Xohlagan qiyofaga kira oladilar. Oyatda: **«Biz unga ruhimiz (ya’ni Jabroil)ni yubordik. Bas, u (Maryamga) chin odam bo‘lib ko‘rindi»** (Maryam, 17).

Qur’on va sunnatda farishtalarning muayyan vazifalari borligi haqida ma’lumot berilgan. Masalan, tog‘larga, yomg‘irga, bulutga, quyoshga, oyga, ekinga va hatto ona qornidagi bachadonga vakil qilingan farishtalar toifasi bor. Shu

bilan birga insonga vakil qilingan farishtalar har bir bandaning qilgan ishlarini yozib boradilar. Oxirat ishlariga ham vakil qilingan farishtalar mavjud: o‘limga, qabrdagi savol-javobga, jannatga, do‘zaxga va hokazo. Masalan: **«Birortalaringizga o‘lim kelgan paytda, uni elchi (farishta)larimiz erinmay (o‘z vaqtida) vafot ettirurlar»** (An’om, 61), «**Biz faqat farishtalarni do‘zax egalari (qo‘riqchilari) qildik va Biz faqat kufrga ketgan kimsalarni sinash uchun ularning sanog‘ini (o‘n to‘qqizta) qildik... Parvardigoringizning qo‘shinlarini (farishtalarning adadi va sifatlarini) Uning o‘zigina bilur»** (Muddassir, 31), **«Farishtalar esa (osmon) atrofida (Allohning amriga muntazir bo‘lib) tururlar. Ularning ustida Rabbingiz Arshini u kunda sakkiz (farishta) ko‘tarib turur»** (Hoqqa, 17).

Farishtalarning aniq ko‘rinishlari haqida ma’lumotlar manbalarda berilmagan. Faqat ba’zi jihatlari aytilgan, jumladan: **«...farishtalarni ikki, uch, to‘rt qanotli elchilar qiluvchi...»** (Fotir, 1). Farishtalardan to‘rttasi: Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroil bosh farishtalar hisoblanadi.

3. Ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh tarafidan payg‘ambarlariga kitoblar tushirilganiga imon keltirish. Buni **«... kitoblariga va payg‘ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi»** (Baqara, 285) oyatidan bilish mumkin.

Shu bilan birga bu kitoblarga umumiy imon keltiriladi. Ammo ularning adadi va ismlari haqida aniq ma’lumot mavjud emas. Muhammad payg‘ambarga (alayhis-salom) Qur’on nozil qilinganidek, boshqa payg‘ambarlarga ham kitob tushirilgan. Ulardan manbalarda zikr qilib o‘tilganlari quyidagilardir: Ibrohim payg‘ambarga «Sahifalar», bu haqda Qur’onda **«Ibrohim va Muso sahifalarida (ham) bordir»** (A’lo, 19) deyilgan. Bir hadisda «Abu Zarr: Ey Allohning Rasuli, Ibrohimning sahifalarida nima bo‘lgan?» deb savol berganda, Payg‘ambar (alayhis-salom): «Barchasi zarbulmasal bo‘lgan...» dedilar. Bu hadisdan uning mavzusi qanday bo‘lganini bilish mumkin. Olimlar uni ma’lum varaqlardan iborat ekani va kitob holiga etmaganini aytganlar. Keyingisi «Tavrot» bo‘lib, u Muso

payg‘ambarga, «Zabur» Dovud payg‘ambarga berilgan. Iso payg‘ambarga «Injil» nozil qilingan. Islom ta’limotiga ko‘ra Muhammad payg‘ambarga (alayhis-salom) «Qur’on» nozil qilingan. Shuningdek, biror payg‘ambarga kitob nozil qilinsa, u o‘zidan avvalgi shariatni o‘zgartirgan yoki butunlay yangi qarashlarni olib kelgan deb hisoblangan.

4. Payg‘ambarlarga imon keltirish. Islom dini ta’limotiga ko‘ra Allohning insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun yuborgan payg‘ambarlariga imon keltirish vojib hisoblanadi. «...**Payg‘ambarlariga birortasini ajratmasdan (hammasiga) imon keltirdi»** (Baqara, 285). Shuning uchun ularning barchasiga birdek ishonish shart qilib qo‘yilgan. Ulardan birini inkor qilish barchasini inkor qilish bilan barobar. Alloh taolo Odam (alayhis-salom)dan boshlab. Muhammad payg‘ambar (alayhis-salom) gacha bo‘lgan oraliqda payg‘ambarlar yuborgan. Ularning soni, hadis asosida bir yuz yigirma to‘rt ming nafar deyiladi. Faqat yigirma besh nafar payg‘ambarning nomi Qur’onda zikr qilingan. Payg‘ambarlar nabiy va rasul degan ikki qismga bo‘linadi.

Nabiy va rasul orasidagi farq: 1. Alloh kimga vahiy yuborib, Shu xabarni boshqalarga etkazishni buyursa, o‘sha odam nabiy va rasuldir. Ammo uni boshqalarga etkazish shart qilib qo‘yilmasa, nabiy hisoblanadi, rasul emas; 2. Rasul yangi shariatni olib keladi. Nabiy esa, yangi shariat bilan kelmaydi. Balki, o‘zi oldingi shariatga amal qiladi va boshqalarni Shunga amal qilishga da’vat qiladi; 3. Rasul umumiy bo‘lib, farishtalarga ham, insonga ham qo‘llanadi. Qur’onda: **«Albatta, u (Qur’on) bir ulug‘ rasul (Jabroil Alloh huzuridan keltirgan vahiy) so‘zidir»** (Takvir, 19). Bu oyatda farishta Jabroil nazarda tutilgan.

Umuman olganda, payg‘ambarlar ham inson bo‘lib, ular boshqalarni Allohning ko‘rsatmasiga amal qilishga chaqirish uchun kelganlar. Ular orasida rasullar 313 nafarni tashkil etadi. Payg‘ambarlar Allohning buyruq va qaytariqlarini bajarib, boshqa odamlarga namuna bo‘lganlar. Ular taom eb, suv ichib, tirikchilik qilib bozorlarda yurganlar.

Payg‘ambarlarni oddiy kishilardan ajratib turadigan birgina sifatlari ma’siyat qilish, shahvatlarga berilish, insoniylikka zarar etkazadigan va insoniy qadrni ketkazadigan yomon illatlardan saqlanganlaridir. Ular turlicha mo‘‘jiza ko‘rsatib, payg‘ambarliklarini tasdiqlaganlar. Iso payg‘ambar bemorni davolagan, Muso payg‘ambar dengizni ikkiga bo‘lgan, Muhammad payg‘ambar (alayhis-salom) qo‘l ishorasi bilan oyni ikkiga bo‘lganlari va boshqa mo‘‘jizalarini misol qilib keltirish mumkin. Payg‘ambarlarning ko‘rsatgani mo‘‘jiza bo‘lsa, avliyolarning ko‘rsatgani karomat bo‘ladi.

5. Oxirat kuniga ishonish ham imonning bir qismi hisoblanadi. Islom ta’limoti bo‘yicha bu dunyo sinov-imtihon maydonidir. Alloh qiyomatda barcha yaratgan maxluqlari jonini oladi va qayta tiriltiradi insonlar qilgan ishlariga javob beradilar. Agar u Yaxshi amallarni qilgan bo‘lsa mukofotini, yomon amallarni qilgan bo‘lsa jazosini oladilar va ularning bu dunyoda qilib o‘tgan barcha amallari o‘zlariga ko‘rsatiladi va tarozuda tortiladi.

6. Inson boshiga tushadigan Yaxshilik yoki yomonlik Alloh tarafidan bo‘lishiga – taqdirga imon keltirish. Batafsil qilib aytganda, taqdir – insonga keladigan barcha Yaxshilik va yomonlik, borliqdagi har bir hodisa va voqealar yoki oxiratda bo‘ladigan hamma ish Allohning taqdiri, ilmi, irodasi va belgilab qo‘ygani bo‘yicha sodir bo‘lishiga imon keltirish hisoblanadi. Xursandchilik va xafalik, hayot va o‘lim, boylik va kambag‘allik, kasallik va sog‘lomlik va boshqalar Allohdan deb bilish shart. Taqdirni Allohdan boshqa hech kim bilmaydi, hatto payg‘ambarlar ham va farishtalar ham bu sirdan xabardor emas. Manbalarda qadar masalasida chuqur ketib bahs-munozara yuritishdan qaytarilgan. Oqimlarning aksari bu masalada adashgan. Taqdirda baxtli deb yozib qo‘yilgan kishi baxtlidir. Shuningdek, taqdirda baxtsiz yoki badbaxt deb yozib qo‘yilgan kishi baxtsizdir. Bir oyatda: **«U (Alloh) o‘zi qiladigan biror narsa haqida javobgar emas, balki ular (Allohning oldida bandalar) javobgardirlar»** (Anbiyo, 23), deyiladi.

Shuningdek, aqidaga oid asarlarda Alloh qiyomatgacha nima bo‘lishini bilishi, agar ularni bilmasa, Uning komil sifati nuqsonli bo‘lib qolishi va mazkur ilohiy ilm «qazoi-qadar» deb atalishi keltirilgan. Allohning hamma ishlarning kelajakda qandoq bo‘lishini azaldan bilishi qazo deb nomlangan. Qadar deb ana Shu ishlar Allohning azaliy ilmiga muvofiq vujudga kelishiga aytiladi. Qazo va qadarning ma’nosi bandalarning kelajakda bo‘ladigan ishlarini Alloh tomonidan oldindan bilib turilishidir. Qazo va qadarni noto‘g‘ri tuShunish oqibatida qadariy, jabariy va boshqa oqimlar paydo bo‘lgan.

7. O‘lgandan keyin qayta tirilishga ishonish ham imon shartlaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra qiyomat kuni bo‘lganda, barcha insonlar qayta tirilib, mahshargohga yig‘iladi. Yaxshi amal qilib o‘tganlarning mukofoti (jannat), yomon amal qilganlarning jazosi (do‘zax) mavjud. Bandaning barcha ishlari hisob-kitob qilinib Allohning huzurida ko‘riladi. Har bir kishining qilgan ishlari kitobi – nomai a’moli o‘qiladi. Yaxshi amallar va yomon ishlar hammasi o‘lchanadi. Bu borada Qur’on oyatlari va hadislarda misollar ko‘p. Masalan: **«Ular: «Holimizga voy! Kim bizlarni uxlayotgan joyimizdan uyg‘otdi?» – deganlarida, (ularga aytilur): «Mana Shu Rahmon va’da qilgan va payg‘ambarlar so‘zlagan rost narsa (qiyomat)dir»** (YOsin, 52).

**Xulosa.** Insonlar hisob-kitob qilinadigan kunni «qiyomat» deb ataladi va u «tik turish» ma’nosini bildiradi. Barcha qabridan tik turib tirilishiga Shu nom berilgan. Qiyomat – hisob kuni, oxirat kuni, mahshar kuni kabi bir qancha nomlar bilan yuritiladi. Manbalarda qiyomatning qachon bo‘lishi masalasi aniq aytilmagan. Islom ta’limoti bo‘yicha uning qachon sodir bo‘lishini Allohdan boshqa hech kim, hatto payg‘ambar va farishtalar ham bilmaydi. Faqat kitoblarda uning ba’zi bir alomatlari haqida ma’lumotlar mavjud. Islom ta’limotiga ko‘ra qiyomatda insonlar savol-javobdan o‘tadigan joy – mahsharga yig‘iladilar. Mahsharda savol-javobdan keyin insonlarga do‘zax ustidagi sirot degan ko‘prikdan o‘tishlari kitoblarda aytilgan. Qiyomatdan o‘tgan inson jannat (bog‘, bo‘ston) yoki do‘zaxdagi joyiga etib boradi. Alloh jannatni ham, do‘zaxni ham yaratib qo‘ygan.

Ular inson etib boradigan so'ngi manzil hisoblanadi. Diniy aqida bo'yicha, jannat imon keltirgan, taqvodor, Yaxshi insonlar uchun tayyorlab qo'yilgan. Ular u erda rohat va farog'atda yashaydilar. Qiyinchilik, kasal, qarilik va o'lim yo'q. Istagan narsalari muhayyo bo'ladi. Bularning barchasi bu dunyoda qilib o'tgan amallari tufayli beriladi. U erdagi noz-ne'matlar tugamaydi, insonlardan to'silmaydi. Jannatdagi eng oliy ne'mat, bu Allohning diydorini ko'rishlik hisoblanadi. Do'zax esa, jannatning aksi kofir, munofiq va gunohkor – diniy majburiyatlarni bajarmaganlar uchun tayyorlab qo'yilgan va ularga turli azoblar, qiynoqlar beriladigan jazolash joyi. U erda azob uchun olov, qaynab turgan buloq mavjud. Eb-ichadigan narsalari ham ularni azoblash uchun hozirlab qo'yilgan. U bir necha tabaqa chuqurlikdan iborat, odamlar gunohlari darajasiga qarab jazolanadilar. Jannatdagi rohatlar va do'zaxdagi azob-uqubatlar ham jasad va ham ruh uchun bo'ladi. Qiyomat, jannat va do'zaxning vasfi haqida Qur'onning ko'p oyatlarida ma'lumotlar berilgan.

**Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:**

1. Kalom, aqida, tavhid ilmlari nimani o'rganadi?
2. Moturidiylik va ash'ariylik yo'nalishlari qanday paydo bo'lgan?
3. Imon qanday ma'noni bildiradi?
4. Islom ta'limotida necha narsaga imon keltirish shart hisoblanadi?

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Imom Moturidiy va uning qarashlari.
2. Kalom ilmi adabiyoti.
3. Qur'onda oxirat haqidagi oyatlar tahlili.
4. Hadislarda ilm olishga bo'lgan targ'ibot.

**Adabiyotlar:**

1. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr. Mas’ul muharrir SHayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.

2. Oqilov S. Kalom ilmi. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – 160 b.

3. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya sharhining talxiysi. – Toshkent: 2015. – 448 b.

4. Ochildiev O., Rahimjonov D., Muhamedov N. va boshq. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.

5. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., va boshq. Dinshunoslik. – Toshkent: Mehnat, 2004. – 296 b.

6. Abdullaev A., Hakimova N., Jo‘raev Sh., Karimov J. Ilmdan boshqa najot yo‘q. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 156 b.

7. W.MontgomeryWatt. Islamic philosophy and theology. Edinburg.1985.

8. Robert Audy. The Cambridge dictionary of philosophy, second edition. Cambridge university press. 1999.

9. William J. Wainwright. The Oxford Handbook of Philosophy of Religion. University of Wisconsin, Milwaukee.2010.

10. Phillip wodzinski. kant’s doctrine of religion as political philosophy. Boston college.2009.

11. John R. Hinnells. The Routledge Companion to the Study of Religion. Routledge.2005.

## TARQATMA MATERIALLAR:

**1-ilova**




**2-ilova**




**3-ilova**




**4-ilova**




**5-ilova**




**6-ilova**




**7-ilova**




**8-ilova**




**9-ilova**



# IV BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

## 4.1.XALQIMIZ MA'NAVIY YUKSALISHIDA DINLARNING O'RNI

**REJA:**

**1. Avesto – xalqimiz ahloqiy, diniy, adabiy, ilmiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho manba.**

**2. Musulman "Renessansi" – Sharq uyg'onish davri ma'naviyati xususiyatlari.**

**3. Islomda yo'nalishlarning vujudga kelishi.**

**4. Fiqhiy mazhablarning paydo bo'lishi.**

**5. Imom Abu Hanifa va hanafiylik mazhabi.**

**6. Mazhabsizlik va uning oqibatlari.**

**Tayanch tushunchalar:** *mazhab, oqim, firqa, hanafiylik, Shofeiylik, molikiylik, hanbaliylik, fiqh, fatvo, mujtahid, sunniylik.*

**Mavzu o'quv maqsadi:** Islomda oqim va yo'nalishlarning paydo bo'lishi, fiqhiy mazhablar: hanafiylik, molikiylik, Shofeiylik va hanbaliylikning vujudga kelishi, islom ummatining birligiga raxna soluvchi qarashlardan mazhabsizlik haqida ma'lumot berish.

**1.Avesto – xalqimiz ahloqiy, diniy, adabiy, ilmiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho manba.** Qadimgi tariximiz, bobokalonlarimiz yashagan yurtda kechgan ijtimoiy, madaniy hayot, odamlar turmush tarzi va dunyoqarashi, ma'naviy jarayon tamoyillari haqida mustaqillikka erishguncha juda ko'p, taxminiy, soxta va g'ayriilmiy gaplar aytilar, faqat arxeologlarning oz bo'lsa-da, inkor etib bo'lmas darajadagi tarixiy, xotiramizga yangilik kirituvchi topilmalargina ko'ngilga taskin berib, o'tmish davrlarning qorong'u sahifalarini yorita boshladi.

Hozirgi vaqtda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar soni 200000 dan oshadi. 2001 yil YUNESKO tomonidan zardushtiylikning 2700 yilligi Xorazmda keng nishonlandi.

«Avesto» ta'limotiga ko'ra, olamda ikkita kuch, Yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik kabi qarama-qarshi kuchlar mavjud bo'lib, ular abadiy murosasiz kurashib keladilar. Yaxshilik va yorug'lik kuchlariga Axura Mazda boshchilik qiladi. Bu kurashda yorug'likning zulmat, Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alabasiga ishonch bildiriladi.

«Avesto»da mehnat nihoyatda ulug'lanadi. Mehnatni Yaxshilik, moddiy noz-ne'matlar manbai deb biladi. Inson saxovatli bo'lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o'z qo'li bilan noz-ne'matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi. «Avesto»da: «Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, imonni oziqlantirib turadi..», deyiladi. Bunga amal qilish o'n ming marta

ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish – erdagi yovuzlikni yo‘qotishdir, deb qaraladi. «G‘alla erdan unib chiqqanda, -deyiladi «Avesto»da, devlar larzaga keladi, g‘alla o‘rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g‘alla yanchib un qilinayotganda ular mahv bo‘ladi...» deb mehnat ulug‘lanadi.

«Avesto»da inson axloq-odobi, ma’naviyati quyidagi uchlikda: Gumata - Yaxshi fikr, Gugta-Yaxshi so‘z, Gvarshta-Yaxshi ishda ifodalanadi. «Men Yaxshi fikr, Yaxshi so‘z, Yaxshi ishga shon- shavkat baxsh etaman», -deb ta’kidlaydi Axura Mazda.

Yaxshi fikr deganda Yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tuShuniladi.

Yaxshi so‘zlar deganda esa o‘z va’dasiga rioya qilish, so‘zining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo‘lishga, qarzini o‘z vaqtida to‘lash, o‘g‘rilik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan o‘zini tiyish va hakozolar tushunilgan.

Yaxshi ishlar deganda insonning o‘z xatti-harakatida Yaxshi fikr va Yaxshi so‘zlarda ilgari surilgan barcha ijobiy yo‘l-yo‘riqlarga og‘ishmay amal qilish nazarda tutiladi.

Zardushtiylik axloq-odobi hayvonlarga nisbatan ham beshafqat bo‘lishni qat’iyan man etadi. Hayvonlarni kaltaklash va qiynash - gunoh deb hisoblanadi. Kishilarni foydali hayvonlar haqida g‘amxo‘rlik qilishga, ularga o‘z vaqtida ovqat berib turishga, yirtqich hayvonlardan qo‘riqlashga da’vat etadi. «Avesto»da tozalik, poklikka alohida e’tibor qaratilgan. Hovuzdan yuvilmagan, iflos ko‘zada suv olgan kishi besh darra bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish qat’iyan qoralangan.

«Avesto»da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e’tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug‘, aka-ukaning quda-anda bo‘lishi qoralangan.

Hozirgi meditsina fani aka-uka, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi qudachilik munosabatlari kelajak avlodning sog‘lom, to‘la-to‘kis bo‘lib tug‘ilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini to‘liq aniqlagan. Buni esa bizning ajdodlarimiz allaqachon aniqlaganlari hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi. Qolaversa, yaqin kishilarning nikoh masalalarida ma’naviy jihatlar ham borki, bunga inson qalbi yo‘l bermasligi kerak.

Mehmondo‘stlik, bolajonlik, Yaqin qo‘ni-qo‘shnichilik, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug‘lar, do‘stlar bilan Yaqin aloqada bo‘lish, sahiylik, halol bilan haromni farqlash O‘rta Osiyo xalqlarining hammasiga xos bo‘lgan ma’naviy fazilatlardir. Garchand mehmondo‘stlik bilan bog‘liq udumlar mintaqamizning hamma erida keng tarqalgan Yaxshi an’ana bo‘lsa ham, ular turli joylarda bir-biridan farq qiladi. Keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish ham Markaziy Osiyo xalqlarining o‘ziga xos yuksak ma’naviy boyligidir.

Keksalar ko‘pni ko‘rgan, aql va idrok bilan har ishda maslahat bera oladigan, yoshlarga katta tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o‘rganish ma’naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir. Ota-onani hurmat qilish, ularning gapiga, pand-nasihatiga quloq solish ham katta ma’naviy qadriyatdir. Ota-ona hech vaqt o‘zining farzandiga yomonlikni ravo ko‘rmaydi. Ular hayotda ko‘p og‘irlik, engilliklarni ko‘rgani sababli, farzandlarining istiqbolini ham ulardan ko‘ra ko‘proq o‘ylaydilar. Ba’zan ota-onaning nasihatlari noqobil farzandlarga og‘irroq tuyuladi. Bu - hayotni chuqur bilmaslik, hayotning turli jarayonlariga engil-elpi qarashning oqibatidir. Farzandlar ota-onaning qadrini o‘zlari ota-ona bo‘lganidan keyingina fahmlab oladilar. Bu davr ichida ular ma’naviy kamolotning ko‘p imkoniyatlarini qo‘ldan boy berib qo‘yadilar. Shuning uchun ulkan ma’naviy qadriyat bo‘lmish ota-onani hurmat qilish odatini aslo unutmaslik kerak.

Ota-onaga bo‘lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin bizning mintaqamizda bu qadriyatni e’zozlash boshqa joylarga nisbatan ustunroq turadi. Hashar yo‘li bilan uy-joy qurishda, uy-joylarni ta’mirlashda bir-biriga

yordam ko'rsatish, etim-esirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, mehr-muruvvatli bo'lish, ularni qarindosh-urug'lar o'z himoyasiga olib, xoru zor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy qadriyatlardan yana bari – **jamoatchilik fikridir**. Jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi bir-biriga Yaqinlik, o'zaro hurmatning ifodasi bo'lib, keng foydalanish mumkin bo'lgan qadriyatdir.

Milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilsa, Shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ladi. «Bugungi kunda, - mamlakatimiz 1-Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - an'anaviy qadriyatlarimizni demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir»[1]. «Avesto» kitobida ajdodlarimizning necha ming yillik ma'naviy merosi izlari o'z aksini topgan. Unda johillik, zo'ravonlik, tuhmat kabi yomon xislatlar qoralanadi. Sof ko'ngilli bo'lish, xiyonat qilmaslik, savdoda bir-birini aldamaslik, haqorat qilmaslik kabi ma'naviy xislatlar targ'ib etiladi.

Barcha Yaxshilik, go'zallik va ezgulik homiysi Ahura Mazdaga oltita yorqin kuchlar madad beradi. «Abadiy Yaxshilik», «Yaxshi fikr», «Yaxshi tartib», «Munosib qudrat», «Ilohiy tobe'lik», «Sihat-salomatlik» kabi tushunchalarning o'z ilohlari bo'lib, Ahura Mazda atrofida Yaxshilik urug'ini sepib yuradi. Tabiat voqealari hamda Yaxshilik bilan bog'liq turli tushunchalar real ma'no kasb etib, insoniylashgan qiyofada tasavvur qilingan. Mol, olov, temir, momaqaldiroq, bulutlar, yulduzlar, er, suv hamda o'simliklarning o'z xudolari bo'lgan. Masalan, Mitra nur, haqiqat va poklik xudosi sanalgan.

Yomonlik va razolat xudosi Anhra Manu eki Axrimanning ham o'z ishongan ruh va kuchlari mavjud. Anhra Manu iloji boricha Ahura Mazdaga zarar

---

[1] Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. –Т.: Ўзбекистон, 1998. 135-б.

keltirishga, uni koinotdan siqib chiqarishga harakat qiladi. U yolg‘onchilik, firibgarlik, ikkiyuzlamachilik, jaholat va qabohat timsoli, unga devlar yordam beradi. Ayniqsa, oltita dev ma’lum: «YOmon fikr»ni ifodalovchi Apa Manna, «so‘lish» va «o‘lim» devlari Tuarvi va Zariklardir.

Agar Ahura Mazda Yaxshi va go‘zal narsalarni bunyod etsa, Anhra Manu yomon va xunuk narsalarni yaratadi. Kurash tabiatda nur va zulmat, borliqda hayot va o‘lim, ahloqda Yaxshilik va yomonlik, nafosat olamida go‘zallik va xunuklik, dinda Ahura Mazda va Anhra Manuni azaliy va abadiy kelishmasligida namoyon bo‘ladi.

Axura Mazda barcha yorqinlik, Yaxshilik va adolat, Anhra Manu esa zulmat, zulm, xunuklik va nohaqlik urug‘ini sochuvchi. Biri baxt va shodlik belgisi, ikkinchisi razolat va jaholat timsolidir.

Bu ibtidoiy ruhlar egizak bo‘lsa, o‘z fikrati, kalomi va amallarida bir-biriga teskaridir. Ular – Yaxshilik va yomonlik fazilatlarida emas, gunohlarida farq qiladilar. Bu ikki ruh paydo bo‘lgach, hayot va o‘limni yaratdilar; oxiratda Ayyor ruh gunohkorlarga, Fozil ruh  esa some’larga nasib qildi. Ular o‘rtasidagi farqni ajrata olmaganlar devlar oldiga yugurdilar va Ayyor ruh tuzog‘iga ilindilar, g‘azab xudosiga uchrashib odamlarni kasalliklar bilan qiynashga tutindilar.

Qachon bu johillar jazolanadi? Qachon seni podshohligingdan yolg‘on ketib, haqiqat qaro topadi? Ana Shunda  Ayyor ruhning kuni bitadi. Barcha fozil – ruh – Mazda va Haqqoniyatning go‘zal maskaniga to‘planib, dorilomon yashashga muyassar bo‘ladi»[1].

«Avesto»da bayon etilgan Yaxshilik ruhi – bu yaratuvchanlik, bunyodkorlik kuchi, yomonlik ruhi esa buzish va buzgunchilikka olib keladi. Yaxshilik – hayot ramzi, erni odamlar, foydali hayvonlar va o‘simlik bilan to‘ldirish,  insoniyat umrini sog‘liq, kuch-qudrat, baxt va shodlik,  umid va ishonch, go‘zallik va ezgu fitrat, to‘kin-sochinlik bilan munavvar etmakdir. YOmonlik qurg‘oqchilik va

---

[1] Зелеман К.Г. Всеобщая история литературы. Под редакцией В.Корга, вып. I, СпБ., 1880, 174-бет.

ocharchilik, molarning qirilib ketishi, kasallik va ofat, jismoniy va ruhiy buzilishning oqibatidir.

Bu kurash asnosida goho yolg‘on va zo‘ravonlik, zulmat va betoblik, nohaqlik va firibgarlik ustun kelib qolsa-da, Ahura Mazdaning yorqin kuchlari pirovardida Anhra Manu ustidan g‘olib chiqadilar va dunyoda nur Yaxshilik, go‘zallik va quvonch tantana qiladi.

«Avesto» ta’limotiga  ko‘ra olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan: jismoniy narsalarda yorug‘lik va zulmat, tirik tabiatda hayot va o‘lim, ma’naviy olamda ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy hayotda adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o‘rtasidagi kurashlarda o‘z ifodasini topadi.Yorug‘lik, ezgulik kuchlariga Axura Mazda boshchilik qilib, ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo‘lgan Axrimon unga qarshi kurashib, odamlarni yomon ish va yo‘llarga  boshlayveradi. Imon-e’tiqodli odam albatta, ezgulik tarafida turadi. Bu kurashda yorug‘likning zulmat, ezgulikning yomonlik ustidan g‘alabasiga ishonch bildiriladi.

«Avesto» da mehnat nihoyatda ulug‘lanadi. Mehnatni Yaxshilik, moddiy noz-na’matlar manbai deb biladi.  Inson saxovatli bo‘lishi uchun avvalo mehnat qilishi , o‘z qo‘li bilan  noz-ne’matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi.

«Avesto»da : «Don ekkan kishi taqvodorlik urug‘ini ekadi, u mazdaga ixlosmandlik e’tiqodini olg‘a suradi, imonni oziqlantirib turadi…», deyiladi. Bunga amal qilish o‘n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish –erdagi yovuzlikni  yo‘qotishdir, deb qaraladi. «G‘alla erdan unib chiqqanda, -deyiladi «Avesto»da, devlar larzaga keladi, g‘alla o‘rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g‘alla yanchib un qilinayotganda ular mahv bo‘ladi…» deb mehnat ulug‘lanadi.

Zardushtiylik axloqining asosini - ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu ishlar tashkil etadi.

Ezgu fikr deganda Yaqin kishilarga mehribonlik , muhtojlik va xavf- xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol

kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tuShuniladi.

Yaxshi so‘zlar deganda esa va’dasiga rioya qilish , so‘zining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo‘lishga, qarzini  o‘z vaqtida to‘lash, o‘g‘irlik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan o‘zini tiyish va hokazolar tushunilgan.

Yaxshi ishlar deyilganda  insonning o‘z hatti-harakatida Yaxshi fikr va Yaxshi so‘zlarda ilgari  surilgan barcha ijobiy yo‘l- yo‘riqlarga og‘ishmay amal qilish nazarda tutiladi.

Zardushtiylik axloq-odobi hayvonlarga nisbatan ham beshavqat bo‘lishni qat’iyan man etadi. Hayvonlarni kaltaklash va qiynash- gunoh deb hisoblanadi. Kishilarni foydali hayvonlar haqida g‘amxo‘rlik qilishga, ularga o‘z vaqtida ovqat berib turishga, yirtqich hayvonlardan qo‘riqlashga da’vat etadi.

«Avesto»da tozalik, poklikka alohida e’tibor qaratilgan. Hovuzdan yuvilmagan, iflos ko‘zada suv olgan kishi besh darra bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish qat’iyan qoralangan. Naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e’tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug‘, aka-ukaning quda-anda bo‘lishi qoralangan.

Hozirgi meditsina fani aka-uka, Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi qudachilik munosabatlari kelajak avlodning sog‘lom, to‘la-to‘kis bo‘lib tug‘ilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini to‘liq aniqlagan. Buni esa bizning ajdodlarimiz allaqachon aniqlaganlari hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi. Qolaversa, Yaqin kishilarning nikoh masalalarida ma’naviy jihatlar ham borki, bunga inson qalbi yo‘l bermasligi kerak.

Har bir millat o‘z qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalq rivoji uchun imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish - demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana Shundadir. Mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi o‘rnini aniqlash borasida jiddiy ilmiy izlanishlar ham, amaliyot bilan bog‘liq muammolar ham davlat siyosati

darajasiga ko‘tarildi. Negaki, biron-bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o‘z istiqbollarini tasavvur eta olmaydi. Ayniqsa, Sharqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Xalqimizning Yaqin o‘tmishidagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganligi sababi ham ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo‘lganligidir. «Biz, deb ta’kidlaydi I.A.Karimov, - ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»[1]. Demak, O‘zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlarisiz, alohida ajratib bo‘lmaydi.

Milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma’naviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan asrlarga meros bo‘lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan va ko‘plab og‘ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o‘zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi xos jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) tug‘ilgan makon va ona yurtga ehtirom;

2) ajdodlar xotirasiga sadoqat;

3) kattalarga hurmat, yoshlarga izzat;

4) insoniy muomalada mulozamat;

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997. 137-б.

5) hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi. Ushbu jihatlarning hammasi Zardushtiylik ta’limoti mujassam. Bugungi kunda uni yoshlar ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyoda yashab kelayotgan xalqlar dunyoning eng qadimiy madaniyatiga ega ekanligini tarixda “Avesto” nomi bilan ma’lum bo‘lgan, qadimiy Xorazmda dunyoga kelgan diniy kitob ham isbotlaydi. “Avesto” zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. U Apastak, Ovisto, Ovusto, Avesto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatib kelingan bo‘lib, O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma’naviy madaniyatini o‘rganishda muhim va yagona manbadir.

Avesto dingina emas, dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar, o‘zi tarqalgan o‘lkalar, elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy va ma’naviy qarashlari, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari haqidagi manbalardandir. Unda bayon etilgan asosiy g‘oya, diniy e’tiqodning ilk sodda bilimlari Zardusht nomli payg‘ambar nomi bilan bog‘langan. U Avestoning eng qadimiy qismi «Gat» (xat – noma)ni ijod etgan. Avesto tarkibiga kirgan bilim, ma’lumotlar miloddan qariyb 2000 yil avval yuzaga kelib, avloddan-avlodga og‘zaki ko‘chirib olingan, uning ko‘p qismi yo‘qolgan, ettidan bir qismi saqlangan. Miloddan avvalgi 3 asrda Arshakiylar sulolasi davrida to‘plangan.

Dinshunoslikda Avesto uch tarixiy qatlamga ajratilgan: 1. Eng qadimiy qismi miloddan avvalgi 3 ming yillikda vujudga kelgan Yashtlardir; ularda urug‘chilik tuzumidagi e’tiqodlar, ko‘pxudolik tasavvurlari tasvirlangan. 2. Gatlar deb atalgan qismida Ahuramazda nomli xudo haqida uydirmalar yozilgan. Uni payg‘ambar Zardusht yozgan, deb taxmin qilinadi. 3. Qadimiy ko‘pxudolik va keyingi yakkaxudolik g‘oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan avvalgi V asrda har ikkisini kelishtirgan mazdakiylik dini shakllangan. Avesto bu dinning oxirgi va asosiy qismini tashkil etdi.

Hozirgi dinshunoslikka xos bo‘lgan Avesto 6-asrlarda Eronda hukmronlik qilgan Sosoniylar sulolasi shohi Xisrav V hukmronligi davrida yozib tugatilgan, keyinchalik pahlaviy tiliga tarjima qilingan. Bular «Zend» nomi bilan ma’lum. Avesto oldin 12 ming mol terisiga yozilib, hajmi g‘oyat katta bo‘lgani uchun undan foydalanishni osonlashtirish niyatida «Kichik Avesto» yaratildi (Beruniy).

VII asrda arab bosqinchilari Eron va O‘rta Osiyoni bosib olgach, zardushtiylik ham zarbalarga uchrab, unga ishonuvchilar quvg‘in va ta’qib ostida qolgandan so‘ng Avestoning beshdan uch qismi yo‘qolgan va unutilgan.

Avestoda bu dinning diniy-falsafiy tizimining qoida dasturlari bayon etilgan. U qadimiy ajdodlarimizning dunyoqarash, huquqiy, axloqiy, tamoyil qoidalarini o‘z doirasiga olgan. Unda tabiat falsafasi, kosmogoniya, tarix, etika, tibbiyotga doir materiallar, bilimlar yozilgan. YAna unda shoh, oliy tabaqa, quldor, qul, dindorlar va diniy urf-odatlar katta o‘rin olgan. Hokim va zolimlar ulug‘langan; ruhoniylarni hamma hurmat qilishi kerak, deb da’vo qilingan.

Avesto haqida Abu Rayhon Beruniy Shunday yozadi: «Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida [Avestoning] 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o‘ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o‘sha vaqtda Avestoning beshdan uchi yo‘qolib ketdi».

Avestoning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Gretsiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborgani, 12 ming qoramol terisidagi tillo matn haqida (at-Tabariyda–12000 pergament) ma’lumotlar keyingi davrlarda yaratilgan zardushtiylik adabiyotida mavjud.

Avestoning eng qadimiy qismlarida Zardusht tug‘ilgan va o‘z faoliyatini boshlagan yurt haqida ma’lumot berilgan. Unda aytilishicha, «bu mamlakatning ko‘p sonli lashkarlarini botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog‘lari bor, yaylov va suvlari bilan go‘zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, suvga mo‘l, chuqur ko‘llari, keng qirg‘oqli va kema yurar daryolari o‘z to‘lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xarayva (Areya), Gava (so‘g‘dlar yashaydigan

yurt), Xvarazm (Xorazm) mamlakatlari tomon eltuvchi daryolari bor». Shubhasiz, «keng qirg‘oqli, kema yurar daryolar» bu Amudaryo va Sirdaryo bo‘lib, Avesto tasvirlagan mazkur shaharlar O‘rta Osiyo shaharlarining bu ikki daryo qirg‘oqlarida joylashganlaridir. Shunga asoslanib, biz Zardushtning vatani, zardushtiylikning ilk makoni va Avestoning kelib chiqish joyi deb Xorazmni, tarqalish yo‘nalishi deb Xorazm-Marg‘iyona-Baqtriyani ayta olamiz.

Dunyoning eng qadimiy madaniy yozma yodgorliklaridan biri «Avesto» o‘zining butun mohiyati bilan insoniyat madaniyati, tafakkuri va jahon fani taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tarixiy-madaniy, asotiriy-diniy yodgorlik yuksak badiiy mo‘‘jizasi, o‘ziga xos tafakkur tarzi bilan asrlar mobaynida insoniyatni lol qoldirib kelmoqda. U kishilik jamiyati shakllanishining ilk bosqichlarida falsafiy tafakkurning butunlay yangi bosqichini boshlab berdi. Afsonalar, rivoyatlar va asotirlar ta’siridagi turmush tarzini buzib, tabiiy taraqqiyot, real hayot tamoyilini ilgari surdi. Bu o‘ziga xos sivilizatsiyaviy hodisa vaqt o‘tgani sari jahon faylasuflari, demograflari, antropologlari, etnograflari, tarix va adabiyot namoyandalari diqqatini o‘ziga tortdi. Xususan, G‘arb donishmandlarining qiziqishlari turlicha, ba’zan bir-biriga zid bo‘lsa-da, ular ta’limotlarida hayrat tuyg‘usi ko‘zga yaqqolroq tashlanmoqda. Hali-hamon turli xalqlar, millatlar, fan va madaniyat arboblarining ushbu qomusiy kitobga qiziqishlari tobora ortmoqda.

Avesto dini va kitobi haqida gap ketganda, uni jahongashta deb ataydilar. Bu bejiz emas. Mashriq xalqlari madaniyati, tarixi va qadriyatlarini chuqur o‘rganishga kirishgan yosh SharqShunos A. Dyuperron 1755 yili Hindistonga boradi. U zardushtiylar bilan bir necha yil yashaydi. Ularning qarashlari, diniy-e’tiqodiy aqidalari va turmush tarzlarini o‘rganadi. U erda zardushtiylik diniga mansub D. Kumar bilan tanishib, uning yordamida eski pahlaviy tili va yozuvini o‘zlashtiradi, «Avesto»ni o‘qish, tuShunish imkoniyatiga ega bo‘ladi. 1761 yili Parijga qaytib, «Avesto» bilan jiddiy Shug‘ullanadi. Uning butun falsafiy va g‘oyaviy qarashlarini o‘zlashtirishga harakat qiladi. O‘n yillik izlanishdan so‘ng,

1771 yili «Avesto»ni fransuz tiliga tarjima qiladi. Bu jahon madaniyatida o‘ziga xos favqulodda hodisa edi. Negaki, Sharq tafakkurining ilk qomusiy asari G‘arbga yoyila boshlagandi.

I.Meynersning 1778-1784 yillarda yozilgan “Zardushtning hayot yo‘li, nizomi, da’vatlari hamda asarlari” kitobi zardushtiylik falsafasi mohiyatini tuShunishda muhim qo‘llanma bo‘ldi. 1820-1827 yillarda I.G. Rotning “Zent xalqlari”, N. Roskoning “Zent Avesto” singari kitoblari yuzaga keldiki, ularda qadimgi Baqtriya, Midiya va forslar tarixi, dini, jumladan, «Avesto» chuqur tadqiq etildi.

Yirik tadqiqotchi S.F. Oldenburg Zardusht falsafasini o‘rganishda jiddiy ilmiy xulosalarni ilgari surdi. Uning mohiyatini, diniy-falsafiy qarashlarini fundamental o‘rganish borasida katta tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada “Zardushtiylik insoniyatning er yuzidagi hayotini engillashtirishga, uni baxtiyor qilishga qaratilgan eng oqilona din” degan xulosaga keldi.

Evropada «Avesto» tahlili va tadqiqiga bag‘ishlangan kitoblar, olib borilgan jiddiy tadqiqot ishlari orasida fransuz Brissitinning 1790 yilda yozilgan “Eronda shoh hukmronligi haqida” nomli asari alohida ahamiyatga ega. U qadimiy Turon, Eron, Ozarbayjon xalqlari urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi va diniy aqidalari haqida ko‘plab ma’lumot beradigan jiddiy tadqiqot ishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kitob XVII asrda fransuz, ingliz va italyan tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilib, yanada boyitilgan.

O‘z davrining yirik tarixchisi, etnografi va faylasufi, Oksford universiteti professori Tomas Gaid «Avesto» dunyoga kelgan makon, zardushtiylik dini va uning mohiyatini chuqur o‘rganib, 1770 yilda “Qadimgi eronliklar: parfiyan va midiyaliklar dinining tarixi” asarini nashr ettirdi. Bu tadqiqot ishi avestoShunoslikka o‘ziga xos yondaShuv sifatida katta ilmiy, nazariy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

1793 yili Silvestra De-Sasi «Avesto» haqidagi qarashlarini nashr ettirdi va u sosoniylar davrida tartibga solingan pahlaviy yozuvidagi nusxasini birinchi marta

asl manbadan o‘rganib, sharh yozdi. Bunda A. Dyuperronning nusxasiga tayandi va undan o‘rgandi. Ana Shu tarzda Dyuperron tarjimasi yangi ilmiy kashfiyotlarga asos bo‘ldi. Evropadagi ilk mukammal tarjima sifatida tan olindi.

G‘arb avestoshunosligida alohida mavqega ega bo‘lgan yirik SharqShunos olim A.O. Makovelskiyning ilmiy xizmatini alohida ta’kidlash joiz. U Evropada «Avesto» haqida eng asosli g‘oyalarni ilgari surgan. Zardushtiylik mohiyatini ilmiy va nazariy jihatdan chuqur tahlil etgan va unga xolis baho bergan yirik mutaxassislardan biri bo‘lmish bu olimning ilmiy kuzatishlari o‘z davrida ham, hozir ham «Avesto» atrofidagi turli munozara va bahslarga aniqlik kiritadi.

S. Bartoleme sanskrit va zent tillarining o‘xshash jihatlarini, uning qadimiy Midiyada, Eronda mavjudligini, mintaqa xalqlari ushbu tilda so‘zlashganliklarini ilmiy asoslab berdi. Italiyalik Jambattist Viko “YAngi fanni asoslash” nomli asarini yozib, zardusht g‘oyalarini falsafiy tahlil qildi. U zardusht falsafasi haqida gapirib, “qadimning buyuk tafakkuri” degan xulosaga keladi. Nemis falsafasining yirik namoyandasi, ulug‘ alloma Gegel zardushtiylik falsafasiga alohida qiziqish bilan qaraydi va uni chuqur o‘rgangan olim Zardushtni Eron dinining asoschisi, degan xulosaga keladi. Buyuk olim «Avesto» tili qadimgi Baqtriya, ya’ni zent tili ekanligini ilmiy asoslab beradi.

Gegel zardushtiylik dini haqida fikr yuritar ekan, uni tabiat, borliq haqidagi din, biroq insoniyat taqdirini o‘zida mujassam etgan g‘oya sifatida baholaydi. “Bu din yorug‘lik va mehr-oqibat dinidir. U yovuzlik va qorong‘ulikka qarshi turadi. YOrug‘likning yovuzlik bilan kurashi, hayotning o‘lim bilan kurashidir. Zoroastrning dini dunyoning rivojlanishi va hayotning barhayot bo‘lishi, ekin ekishni, uy hayvonlarini boqishni va erga qarashni talab qiladi” — deydi.

Gegel xulosalariga ko‘ra, Xudo – yaratguvchi, olam sarvari. Unda olamni rivojlantirishga da’vat etuvchi kuch, harakat, mehr-shafqat, rag‘bat va adolat bor. O‘zining ushbu fikrlarini zardushtiylik qarashlari bilan asoslaydi. Bu bilan Gegel «Avesto» va zardushtiylik dini insoniyat ilk rivojlanish bosqichining asoschisi,

uning zalvorli taraqqiyotiga kuchli turtki bergan sivilizatsiyaviy hodisa ekanligini isbotlab beradi. Bu esa insoniyat tarixida o‘ziga xos olamShumul voqea edi.

1879-1904 yillarda Maks Myuller 49 tomdan iborat “Sharqning muqaddas kitoblari” nomli ulkan tadqiqotlar majmuasini nashr ettiradi. Unga Sharq xalqlarining muqaddas kitoblari, ularning ingliz tiliga tarjimasi, tarjimalarga sharhlar va kitoblarga so‘zboshilar yozadi. Ushbu mahobatli nashrning 1, 4, 22, 31–jildlariga «Avesto»ning dunyoga kelishi, u yaratilgan davrdagi tarixiy, ijtimoiy sharoit va zardushtiylik falsafasining genezisi haqidagi muhim ma’lumotlar kirgan.

Avestoshunoslikda Xristian Bartoleme (1855-1925) alohida mavqega ega. U zardushtiylik qarashlarini tanqidiy o‘rgandi. Natijada 1904 yilda “Qadimiy Eron lug‘ati”ni yaratdi va nashr ettirdi. Ushbu asar jamoatchilik tomonidan xayrixohlik bilan kutib olindi. AvestoShunoslikda mazkur lug‘at asosiy manba maqomiga ega bo‘ldi. Bartoleme o‘z tadqiqot va izlanishlarini davom ettirib, «Avesto»dagi gohlarni qaytadan tarjima qildi. Frits Volf esa Bartoleme lug‘atiga tayanib, «Avesto»ning to‘la yangi tarjimasini amalga oshirdi.

1891 yili mumtoz adabiyotShunoslik mutaxassisi Karl Shenkel tashabbusi bilan Grant universitetida Sharq filologiyasi kafedrasi tashkil etildi. Uni doktor Yoxannes Krste boshqardi. Olim asosan qadimiy fors yozuvini o‘rganish va tarixiy poleografiyasini tadqiq etish bilan Shug‘ullandi. Natijada «Avesto»ni asosiy manbalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Avestoshunoslikda, zardushtiylik falsafasini o‘rganish borasida shveysariyalik olimlar ancha faollik ko‘rsatishdi. Islom fanlari instituti hamda Bern universiteti bu sohada yirik ilmiy markazga aylandi. Markaziy Osiyo, Eron adabiyotini o‘rganishga, ushbu hudud xalqlari madaniy-badiiy merosini tadqiq etishga doir bir qator tadqiqot markazlari ish boshladi. Frits Meya, Mixail Glyuns, Rudolf Gelpke, Xermann Landoldt, Yoxann Xristof Byurgel va boshqalar jiddiy ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ushbu markazlarda «Avesto» va unga Yaqin bo‘lgan Sharq qo‘lyozmalarini to‘plash, turli davr va xalqlarga tegishli manbalarni yig‘ish bo‘yicha katta hajmdagi ishlarni amalga oshirishdi. Berlin Sharq

qo‘lyozmalari to‘plami bu sohada jiddiy Shug‘ullandi. Parfiyan, so‘g‘d, baqtriya yozuvidagi nodir manbalar bu erdan joy oldi. Berlin Fanlar akademiyasida qator tegishli qo‘lyozmalar, madaniy yodgorliklar to‘plandi. Aytish mumkinki, ushbu qadimiy qo‘lyozmalar soni va ahamiyati jihatidan Parij, London va Sankt-Peterbergdagilardan ancha yuqori turadi.

XX asrning 70-yillarida sobiq GDR Fanlar akademiyasi – hozirgi Brandenburg Fanlar akademiyasi zahirasida O‘rta Osiyo va Eron xalqlari qadimiy madaniy yodgorliklarini o‘rganishga doir tadqiqotchilar guruhi tashkil etildi. Ayni paytda bu erda va Berlin etnografiya muzeyida so‘g‘d, eftalitlar va turkiy xalqlarga mansub bo‘lgan 4700 ga Yaqin qo‘lyozmalar to‘plangan.

Shu tarzda G‘arbda avestoshunoslik maktabi asta-sekin shakllanib, unga qiziquvchilar soni ortib bordi. Kimdir uning tarixiy jihatlarini, kelib chiqish sabablarini, tarixiy-xronologik tomonlarini o‘rgansa, boshqasi lisoniy qonuniyatlarini, ifoda usullarini tadqiq etishga kirishdi. Asosiy ko‘pchilik tadqiqotchilar esa uning ma’naviy, ma’rifiy, madaniy, axloqiy va falsafiy-g‘oyaviy jihatlarini o‘rganishga harakat qilishdi. «Avesto»ni nafaqat asotiriy-diniy, balki chuqur falsafiy tafakkur va g‘oyat insonparvar g‘oyaga asoslangan ta’limot majmuasi sifatida tan olishdi va uning mo‘‘jizaviy qudratidan hayratda qolishdi.

O‘zbekistonda avestoshunoslik uzoq tarixga ega. Beruniy, Forobiy, Ibn Sino va boshqalar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan Renessans davri bu sohada o‘ziga xos mavqega ega. Xususan, Beruniyning “Osur ul boqiya” asari qadimgi xalqlarning kelib chiqishi, Sharq va Yaqin Sharqda madaniy hayot taraqqiyoti asoslari, «Avesto» falsafasi, zardushtiylik dinining paydo bo‘lishiga doir qomusiy tadqiqotlari o‘zining betakrorligi va keng miqyosliligi bilan qimmatlidir. Asrlar mobaynida qadimiy Turonda zardushtiylik falsafasi o‘rganib kelindi. Aytish mumkinki, mustamlakachilik davrida, xususan, XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida avestoshunoslik bir muncha unutildi. Aniqrog‘i, bunday ulkan qadimiy madaniy yodgorlikni va umuman boy tarixiy-madaniy qadriyatlarimizni o‘rganishga ataylab e’tibor berilmadi. O‘tgan asrning o‘rtalariga kelib professor

N.M. Mallaev «Avesto»ga doir dastlabki tadqiqot ishlarini olib bordi. Uning 1958 yilda nashr etilgan “X–XII asrlar adabiyoti” nomli risolasida Sharq xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari haqida dastlabki fikrlarini bildirdi. Ushbu risola asosan adabiyot tarixiga doir tadqiqot ishi bo‘lganligi sababli muallif «Avesto»ga yozma adabiyot namunasi sifatida yondoshadi.

O‘zbekiston hukumati YUNESKOga “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligini nishonlash to‘g‘risida taklif bilan murojaat etdi. YUNESKO ushbu taklifni ko‘rib chiqib, Bosh konferensiyasining 1999 yil noyabr oyidagi yig‘ilishida ma’qullab, mazkur sanani dunyo miqyosida nishonlash to‘g‘risida qaror qabul qildi. 2000 yil 29 martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avesto” yubileyini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda “Avesto”ning dunyoda mavjud eng to‘liq nusxasi o‘zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi alohida band bilan ko‘rsatib o‘tildi. Mazkur mas’uliyatli va g‘oyatda og‘ir vazifa iste’dodli shoir va tarjimon Asqar Mahkam (Alloh rahmat qilsin) zimmasiga yuklatildi. Mutaxassislarning xulosalariga ko‘ra, bu qadimiy-madaniy yodgorlikning to‘liq nusxasi sifatida Tehron nashri tanlandi va ana Shu nashr asosida yaratilganidan buyon birinchi marta o‘zbek tiliga o‘girilib, nashr etildi. 2001 yilning oktyabr oyida “Avesto” qadimda dunyoga kelgan maskan – Xorazmda xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi va ushbu yubiley tantanali ravishda nishonlandi.

Olim va mutaxassislar tomonidan “Avesto”ning tarixiy, ma’naviy, ijtimoiy, falsafiy va huquqiy jihatlari chuqur tadqiq etilmoqda. Avesto qadimlardan buyon bosib o‘tgan yo‘limiz, yaratgan tariximizning bir qismidir. Uni bilish, mohiyatini tuShunib etish har bir ziyoli insonning burchi hisoblanadi.

**2. “Uyg'onish davri”** qanday davr? degan savolga javob berib o’tish zarur deb hisoblayman. Fanda “Renessans” - “Uyg'onish davri” deb ataladigan davr G’arbiy va Markaziy Yevropada joylashgan mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi rivojlanishning o’ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi

marotaba “uyg'onish” atamasining XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J. Vazari o’z asarlarida ishlatadi. Bu atama antik davr merosini, ya'ni antik madaniyatga o’xshash madaniyatning qaytadan “tirilishi”, “uyg'onish” ma'nosida ishlatila boshladi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo’llanila boshlandi. Shu ma'noda O’rta Osiyo xalqlari necha ming yillar davomida yaratgan va arablar bosqini davrida inqirozga uchragan madaniy hayotning IX asrdan boshlab tiklanishi va yuksak cho’qqilarga chiqishi davrini ham xaqli ravishda “renessans” - uyg'onish davri deb atash mumkin.

IX—XII asrlarda O’rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo’ldi. Movarounnahr deb ataladigan bu xududda mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko’rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Urganch va Marv kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib rivojlana boshladi.

Tarixchi Abu Mansur as-Saolobiyning Buxoro shahriga bergan ta'rifi butun O’rta Osiyo davlatlarining IX-XII asrlardagi axvoliga tegishlidir: ”..... shon-Shuxrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilarini jamlagan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda o’z davrining fozillari yig'ilgan joy edi”. Bu davrdagi O’rta Osiyo hukmdorlari ilm axli bilan Yaqinlashdilar. Mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslaxatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o’z saroylarida olim, shoir va usta san'atkorlar, turli soxalar bo’yicha qimmatbaxo kitoblarni to’plashga odatlandilar. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar, kutubxonalardagi nodir qo’lyozma asarlar bilan mag'rurlanardilar.

Bundan tashqari arab tiliga bo’lgan ehtiyoj va intilish tufayli ko’p vaqt o’tmay Movarounnahrda ham xatto o’z ona tilidan ko’ra arab tili va yozuvini Yaxshiroq o’zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo’ldi. O’rta Osiyo xalqlarining bilimga bo’lgan chanqoqligi, e'tiqodi tufayli tez orada arablarning o’ziga arab tilini o’rgatish darajasiga ko’tarildi. Shuning uchun ham ko’pgina olimlar Damashq,

Basra, Qohira, Bog'dod, Kufaga borib ijod etishga majbur qilinar edi. Bag'dod shahri Sharqning ilm- fan markazi sifatida olamga tanildi, Chunki VIII asrning oxirida bu yerda "Bayt ul - xikma" - (donishmandlar uyi) Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand xolda X asr oxirlarida Xorazmda xam xalifa Ma'mun davrida (995-997 y.) Bayt ul- xikma - Ma'mun akademiyasi (Xorazm akademiyasi) tashkil bo'ldi. Bu ikki ilm o'choqlarida Sharqning mashxur olimu - allomalari taxsil ko'rganlar. Ular orasida Axmad Farg'oniy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.

Xorazm akademiyasida falsafa, matematika va tib ilmiga oid masalalar muhokama qilinar edi. Bu yerda yirik mutafakkirlardan Ibn Sino, Beruniydan tashqari tarixchi Miskavayx, matematik Abu Nasr Arroq, faylasuf Abu Saxl Masixiy, tabib Ibn Xammorlar to'plangan edi. Ammo Urganchdagi bu muhit uzoq ishlamadi. U Maxmud G'aznaviyning tazyiqi ostida tezda tarqalib ketdi.

Buyuk olim va alloma vatandoshlarimiz jaxon ilm-fan xazinasiga qanday hissa qo'shdilar?

Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783-850) mashxur matematik astronom, geograf va tarixchi edi. Uning "Al Jabr va muqobala", "Hisob al- xind", "Kitob surati al-Arz", "Kitob at-tarix", "Kitob al-amal bul usturlabot" kabi asarlari olimga jaxonShumul Shuhrat keltirdi. Xorazmiy yaratgan 20 dan ortiq asardan bizning davrimizgacha faqat 10 tasi etib kelgan.

Xorazmiy ijodi merosida "Aljabr va al- muqobala" kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitob bilan u matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. Hatto "algebra" atamasi ushbu kitobning qisqacha "aljabr" deb yuritilgan qisqartirilgan nomning aynan ifodasidir.

Xorazmiy nomi esa matematika faniga "algoritm" atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning "aljabr" asari asrlar davomida avlodlar qo'lida er o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli xisob va o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Bu risola XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilindi. Keyinchalik Yevropa olimlari Xorazmiy asarlarini qayta-

qayta ishlab u asosda asarlar yozdilar. Xorazmiyning arifmetik risolasi xind raqamlariga asoslangan o’nlik pozitsion hisoblash tizimi Yevropada, qolaversa, butun dunyo taraqqiyotida buyuk ahamiyat kasb etdi, algebrani mustaqil fan darajasiga ko’tardi.

“Bayt ul-xikma” da faoliyat ko’rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf Axmad al-Farg’oniy (797—865)dir. U Farg’ona da tavallud topgani uchun Sharqda al Farg’oniy, G’arbda esa Alfarganus taxallusi bilan Shuhrat topgan. U avval Marv, so’ngra Bag’dod, Damashq va Qohira shaharlarida astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan Shug’ullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. “Kitob fi usul ilm an-Nujum” (Falakiyot ilmining usullari haqida kitob), “Falakiyot risolasi”, “Falak asarlari sababiyati”, “Al Majistiy”, “Ilm-xayya”, “Al Farg’oniy jadvallari”, “Usturlob bilan amal qilish haqida”, “Oy yerning ustida va ostida bo’lganida vaqtni aniqlash risolasi”, “Yetti iqlim hisobi”, “Usturlob yasash xaqida kitob” asarlarining qo’lyozmalari Angliya, Frantsiya, Germaniya, Misr, Xindiston, AQSh va Rossiyada saqlanmoqda.

Axmad Farg’oniy Bag’dod va Damashqda rasadxonalar qurilishida shaxsan qatnashdi. U 812 yilda quyosh tutilishini oldindan bashorat qilib berdi, yerning dumaloq ekanini ilmiy dalillar bilan isbotlab, bir xil fazo yoritgichlarni xar xil vaqtda ko’rilishini, tutilishini hamma joyda har xil kuzatish mumkinligini izoxlab berdi. 861 yilda Qohira shahri Yaqinida joylashgan Ravzo orolida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr — daryo oqimi satxini o’lchagich Miqyos an-Nil inshooti va uning darojoti qayta tiklandi.

Bizning davrimizgacha Axmad Farg’oniyning sakkiz asari saqlanib, ularning birortasi ham hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan edi. Axmad Farg’oniy tavalludining 1200 yilligi munosabati bilan uning ayrim risolalari o’zbek va rus tillariga tarjima qilindi.

Abu Nasr Forobiy 873 yilda Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan Forob (o’tror) shahrida tug’ildi. U avval ona shahrida, so’ng Samarqand, Buxoro va Bag’dodda bilim oldi.

Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilShunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U 160 dan ortiq asar yozib, o’rta asr fan va madaniyatiga ulkan xissa qo’shdi.

Aristotelning “Metafizika” asari maqsadlari haqida, “Musiqa kitobi”, “Baxt-saodatga eriShuv xaqida”, “Tirik mavjudot a'zolari haqida”, “Siyosat al Madoniya” (Shaharlar ustida siyosat yuritish) kabi asarlari Shular jumlasidandir. Forobiy bilimining kengligi va mantiqning kengligi tufayli u Sharqda Aristoteldan keyingi ikkinchi muallim — “Muallimus soniy” nomi bilan Shuhrat topdi. Forobiy ilk o’rta asr sharoitida aql va ilm tantanasi, ma'naviy ozodlik, komil inson va adolatli jamiyat uchun kurashgan buyuk siymo edi.

Bu davrning ulug’ mutafakkirlaridan yana biri Abu Ali ibn Sino edi. U 980 yili Buxoro Yaqinidagi Afshona qishlogida, mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. U 10 yoshlarida maktabni tugatgach, ustozi Abu Abdullox an Natimiydan mantiq, falsafa, riyoziyot va fikx ilmlarini o’rgandi. 16 yoshidan turli fanlar bo’yicha Sharq va G’arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil ravishda o’rgandi. U ayniqsa tabobat ilmining qadimgi allomalari Gipokrat va Golen xamda Sharqning buyuk xakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziy (864-925) ning asarlarini puxta o’rgandi. U 17 yoshidayoq e'tiborli olim va tabib bo’lib etishadi. U somoniylarning saroy kutubxonasida bir yil davomida bilimini chuqurlashtirishga erishdi. 1X asrning oxiri X asr boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi murakkab siyosiy vaziyat oqibatida yuzaga kelgan og'ir sharoitda Ibn Sino o’z ona shaxri Buxoroni tark etib, avval Urganchda Xorazmshox saroyidagi olimlar qatoridan joy oladi. So’ng Maxmud G'aznaviyning tazyiqi tufayli Xorazmdan chiqib ketadi. U umrining oxirigacha Obivard, Gurgan, Ray, Qavzin, Isfaxon, Xamadon shaharlarida hukmdorlar qo’lida tabiblik va vazirlik qildi. Ibn Sino arab va fors tillarida fanning turli soxalari bo’yicha 300 dan ortiq asarlar yozdi. Nazm va nasrda qalam tebratdi. Uning besh jildlik “Al Qonun fi-tib”, “Kitob ush-shifo”, “Donishnoma”, “Solomon Ibsol”, “Risolat at-Tayr” va boshqa ko’pgina asarlari Shular jumlasidandir. Olimning “Al Qonun fi-tib” asari XII asrdayoq lotinchaga

tarjima qilingan bo'lib, to XVII asrlargacha Evropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. O'rta asrning bu buyuk allomasi Sharqda "Shayx-ur rais", G'arbda esa "Avitsenna" nomlari bilan shuhrat topdi.

O'sha zamonda Urganchda yashab ijod etgan mutafakkirlardan biri Abu Rayxon Beruniy (973—1048) edi. U Urganchda ta'lim oldi. So'ng Xorazmshox Ma'mun saroyida, 1017 yildan esa Maxmud G'aznaviyning talabi bilan G'azna shahriga borib umrining oxirigacha shu yerda ijod qiladi. U falakiyot, geografiya, matematika va tarix fanlari bo'yicha 154 ta ilmiy asar yozgan. Beruniyning "Osor ul-bog'iya" ("o'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar"), "Xindiston", "Minerologiya", "Geodeziya" kabi yirik asarlari Shular jumlasidandir. U o'zining falakiyotga oid asarida Kopernikdan qariyib 5 asr ilgari yerning quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni birinchi bo'lib ilgari surgan edi. Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. Amerika qit'asi borligini bashorat qildi. U dunyoning geografik xaritasini tuzdi. Beruniyga fan olamida katta Shuhrat keltirgan asarlari "Xindiston" va "O'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar" nomli kitobidir. Olim "Xindiston" asarida Xindistonning geografiyasi, aholisining mifologik tasavvurlari haqida ma'lumot beradi. "O'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar" asarida esa yunonlar, rumliklar, forslar, So'g'dlar, xorazmliklar, nasorolar, yaxudiylar, arablarning islomgacha bo'lgan urf-odatlari, diniy e'tiqodlari, matematik va geografik tushunchalar to'g'risida qimmatli tarixiy ma'lumotlar bayon qilingan. Beruniyning ilmiy-falsafiy merosi Shubhasiz jaxon fani va madaniyati xazinasiga qo'shilgan katta xissa bo'ldi.

899 yilda Buxoro Yaqinidagi Narshax qishlog'ida tavallud topgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning ilmiy asarlari to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Uning faqat "Tarixi Buxoro" (Buxoro tarixi) asari bizgacha etib kelgan. Asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida "Tarixi Narshaxiy", "Taxqiq ul-Viloyat" (Viloyat haqiqatini aniqlash), "Axbori Buxoro" (Buxoro haqida xabarlar) kabi nomlar bilan atalishiga sabab uning asl nusxasi saqlanib qolmagan. Arab tilidan fors tiliga tarjima qilish jarayonida va nusxa ko'chirishda

matnlar qisqartirilgan va yangi voqealar bilan to’ldirilgan. Ana Shu tariqa Buxoro tarixiga Narshaxiy yashab o’tgan davrdan keyingi 1178 yildan 1220 yillargacha bo’lib o’tgan tarixiy voqealar kirib qolgan.

“Buxoro tarixi” asari o’zining ilmiy ahamiyatini yo’qotmagan va hozirgi kunda somoniylar davri tarixi bo’yicha eng noyob, qimmatli asar hisoblanadi. Asarda Somoniylar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hayotiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Movarounnahr va Xuroson aholisining arab bosqinchilariga qarshi Muqanna boshchiligidagi qo’zg'oloni bilan bog’liq bo’lgan ma'lumotlar ham bu asarda ma'lum darajada o’z ifodasini topgan. Narshaxiy saroy tarixchisi bo’lgani sababli hukmron tabaqa siyosatini yoqlab, xalqning hokimiyatga chiqishini qoralagan.

IX—XII asrlarda O’rta Osiyo madaniyati to’g’risida gap borganda adabiyot va san'at soxasida ham mahalliy xalqlar orasidan etishib chiqqan iste'dod soxiblari haqida to’xtalib o’tish joizdir.

Mashhur tilShunos olim Maxmud Qoshg'ariyning 1069 yilda yozgan “Devoni lug’ati turk” asari diqqatga sazovordir. Maxmud Koshg'ariy bu asarda qadimiy turkiy tilga oid so’zlar ifodalarining arab tiliga tarjimasini, shuningdek, she'riy parchalarni turkiy tilda bergan. Mazkur asar bizga qadim zamonlardagi turkiy xalqlarning tili, tarixi, turmush tarzi, badiiy ijodi to’g’risida keng ma'lumotlar beradi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari masnaviy yo’lida bitilgan doston bo’lib, u 1300 misradan ziyoddir. Bu asarning qimmati Shundaki, u eski turkiy tilda yozilgan shox asardir. Unda muallif ahloqiy-tarbiyaviy fikrlarni badiiy shaklda ifoda etib, ezgulik, adolatparvarlik va xalqparvarlikdan ta'lim beradi. Asar tilining ravonligi, badiiy barkamolligi, geografik ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi. Juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan nodir asardir.

XII asrda turkiy tilda ijod etgan shoir va mutafakkirlardan yana biri Axmad Yugnakiy, ikkinchisi esa Axmad Yassaviydir.

Axmad Yugnakiydan yagona meros — "Hibatul-xaqoyiq" nomli asari saqlanib qolgan. Shoir o'z asarida ilm-fan, olim va fozillarni ulug'laydi, ma'rifatparvarlikni targ'ib etadi, kishilarni ilmli va ma'rifatli bo'lishga chaqiradi.

Bu davrda yuksak badiiy tafakkur timsoli sifatida forsiyda daxo shoir hisoblangan Abulqosim Firdavsiy tomonidan yaratilgan shox asar "Shoxnoma" asarini ko'rsatish mumkin. Unda Eron va Xurosonning ming yillik boy tarixi podsholarning saltnati uchun olib borgan janglari, xalqlarning achchiq kechmishlari yuksak badiiy obrazlar timsolida yoritib berilgan.

O'rta Osiyoda arab, turkiy tillar bilan bir qatorda fors-tojik, dariy tili ham rivojlanib bordi. O'rta Osiyoda badiiy adabiyotning ravnaqiga tojik klassik poeziyasining asoschisi Abu Abdullox Ja'far Rudakiy, Abu Mansur Daqiqiy, Abdulxasan Balxiy va boshqalar g'oyat katta xissa qo'shdilar.

Rudakiy IX asr oxirlarida Panjikent Yaqinidagi Panjrudak qishlogida tug'ilgan. Yoshligidan u chang (rud) chalib, she'r yozib kuy bastalagan va xofizlik qilgan. Xalq o'rtasida dong'i tufayli u Nasr ibn Axmad tomonidan sozanda va shoir sifatida saroyga chaqirtirilgan. Rudakiy "Kalila va Dimna", "Sinbadnoma", "Arois va Nafois", "Davroni oftob" nomli asarlar yozgan. U she'riyatda, ayniqsa qasida bitishning mohir ustasi bo'lgan. Uning "Jo'yi Muliyon", "Mayning onasi" va "Qarilik" kabi qasidalari xalq o'rtasida g'oyat Shuhrat topgan. Rudakiy o'z she'rlarida ona Vatani, uning tabiati va aholisini, insoniy xis-tuyg'ularini tarannum etadi. Shoir xaqsizlik va adolatsizlikka qarshi dadil chiqadi, o'sha vaqtlarda hukm surgan tartibsizliklarni ayamay fosh etadi. Shuning uchun ham umr bo'yi ta'qib etilgan, oxiri Buxorodan quvilgan Rudakiy 941 yilda ona qishlogida vafot etadi.

IX-XII asrlarda islom dini O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol o'ynay boshlaydi. Bu vaqtda islom dini Sharqda keng tarqalib jaxon dini darajasiga ko'tarildi. Azaldan savodli bo'lgan, madaniyat darajasi yuqori bo'lgan xalq tez orada nafaqat arab tilini, balki islomni ham chuqur o'rganib arab tili va shariat masalalarida kitoblar yozadigan olimlarni etishtirib chiqara boshladi. O'sha davr shaharlari orasida islom dini ta'limotini chuqur targ'ib qilishda Buxoro shahri

alohida o’rinni egallaydi. Shu davrdan boshlab “Qubbatul islom”— “Islom dinining gumbazi” nomi bilan Shuhrat topa boshladi. Bu davrda islom ta'limotiga bebaho xissa qo’shgan Imom al-Buxoriy va Iso at-Termiziy kabi ko’plab ulamolar yetishib chiqdilar. Ular Shu kunga qadar xadis ilmining eng ko’zga ko’ringan, butun musulmon dunyosi tomonidan tan olingan allomalari darajasiga ko’tarilgan zotlardir.

Imom Buxoriy (809—870) Buxoroda tug’ilib, Shu yerda birinchi bilimlarni oladi. So’ngra bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida Makka, Madina, Bag’dod, Damashq, Kufa, Nishopur kabi shaharlarga boradi. Manbalardan bizga ma'lumki, Imom Buxoriy islom dini masalalariga bag'ishlangan 20 ga Yaqin asar yozgan. Shu kitoblar orasida Buxoriyni butun dunyoga mashhur qilgan asar “Al-Jome' as-Saxix” (Ishonchli to’plam) asaridir. Bu asar 160 qismdan iborat bo’lib, 7275 xadisni o’z ichiga oladi. Buxoriy xadislarni to’plash va bayon etishda uning haqiqiyligiga asosiy e'tibor bergan, uning haqiqatga Yaqinligini isbotlovchi dalillarni keltirgan va Shu asosda xadislarni klassifikatsiya qilgan olimdir. Uning diqqat markazida fanning inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma'naviy yuksalishi, fozilligi, donoligi, Yaxshi va yomonni ajrata olishi turadi. Umrining oxirida u o’z vataniga qaytib keladi va Samarqand Yaqinida vafot etadi.

Imom at-Termiziy (824-892) Termizdan uncha uzoq bo’lmagan Bug’ qishlogida tug’ilgan. U ham Buxoriy singari Sharqning juda ko’p shaxarlarida bo’lib, o’z bilimini oshirishga harakat qiladi. At Termiziy xadislardan tashqari filologiya va tarixga oid asarlar ham yozdi. Uning 10 dan ortiq yozgan asarlari orasida nomini butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari “Jome' at-Termiziy” yoki “Sunan at-Termiziy” dir. Bu asar islomda ulamolar tomonidan haqiqat deb tan olingan mashhur xadislar to’plamidan biridir. Termiziyning ilmiy merosi diniy ahamiyatga ega bo’lishi bilan birga, axloqiy, didaktika tarixida ham juda katta o’rin egallaydi.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda islom huquqi - shariat ancha rivoj topdi. Fiqh ilmi - musulmon qonunchiligi - Sharq xalqlari va islom

madaniyati erishgan buyuk yutuq bo'lib, bu borada Movarounnahr va Xorazm allomalari juda boy meros qoldirganlar. Vatandosh fiqhShunos olimlarimiz: Abu Havs al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturudiy, Abull-lays as-Samarqandiy, Abu Bakr al-Buxoriy, va boshqalar o'z davrida islom dunyosida ma'lum va mashhur bo'lganlar. Nomlari yuqorida tilga olingan olimlar orasida Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalil al-Farg'oniy ar- Rishtoniy al-Marg'inoniy alohida o'rin tutadi.

Burxoniddin Marg'inoniy musulmon olami fani erishgan barcha bilimlarni egallagan, ulug' allomalardan saboqlar olgan. Sunniy shariatining to'rt asosiy masxablari asoschilari va ularning shogirdlari asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan. Bu narsa ulug' allomaga fiqh ilmi bo'yicha tengsiz asarlar yozib qoldirishga imkoniyat yaratadi. FiqhShunos olimning "Bidoyat al-mubtadiy" (Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim), "Kifoyat al-muntaqiy" (Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim), "Nashr-ul masxab" (Masxabning yoyilishi), "Kitob ul-mazid" (Ilmni ziyoda qiluvchi kitob), "Kitob ul-faroiz" (Farzlar kitobi), "Majmaa ul-navozil" (Nozil bo'lgan narsalar to'plami), "Manosiq ul-xaj" (Haj marosimlari), "Kitob ul-mashoyix" (Shayxlar to'g'risidagi kitob) kabi buyuk asarlar Shular jumlasidandir. Albatta bu ulug' alloma ijodida "Xidoya fi furu' al fiqh" (Fiqh sohalari bo'yicha qo'llanma) tengi yo'q shox asardir. Bu asarni olim 1178 yilda Samarqandda yozgan. Burxoniddin Marg'inoniyning "Xidoya" kitobi to'rt jilddan iborat bo'lib, u 56 bobni o'z ichiga oladi. Bu asar o'ziga xos shariat kodeksi bo'lib, u hozirgi kunda ham islom dunyosi qonunShunoslari uchun asosiy qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Unda shariat masalalarida muallifning fikr-mulohazalari bilan bir qatorda Hanafiylik masxabining barcha imomlari, Shuningdek boshqa masxab vakillarining muloxazalari ham o'rin olgan. Asarda islomning asosiy marosim talablari, huquqiy va axloqiy qoidalari, xususan, taxorat, namoz, zakot, ro'za, xaj, qurbonlik, oila va nikoh bilan bog'liq bo'lgan masalalar, xuquqiy qoidalarni bajarmaganlik uchun jazo choralari belgilangan. "Hidoya" da mulkiy va moliyaviy munosabatlarga, jinoyat va jazo, fuqarolik huquqlari, sud va protsessual masalalar

keng o’rin olgan. Yana unda urushlar, o’lja olish va uni taqsimlash, turmush va faoliyatdagi taqiqlashlar, ijozatlar haqida ham yo’l-yo’riqlar berilgan.

Tasavvuf, ya'ni so’fiylik, umumiy tarzda aytganda, poklangan, zoxid, taqvodorlik ma'nosini anglatuvchi xalqparvar tariqat bo’lib, u o’rta asrlar musulmon Sharqida keng tarqalgan. Feodal davrning bu diniy-falsafiy oqimi dastlabki 1X asrda Iroqda yuzaga keldi. U jabrdiyda odamning nochorlik va zulmga qarshi noroziligini ifodalaydi. Tasavvuf xususiy mulkchilik hamda boylik va kambag'allikning vujudga kelishini adolatsizlikning oqibati deb qaraydi. Bu oqim Movarounnahrga Eron orqali kirib keladi. Uning yoyilishi o’rta asrlarning aqoid mutafakkirlari Hakim at-Termiziy, Abu Hamid G'azzoliy, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq xijduvoniy va Axmad Yassaviylarning nomlari bilan bog’liq bo’ldi. U hayot bilan chambarchas bog’liq bo’lib, izdoshlarini mehnatga, kasb-hunar egallashga da'vat etadi. Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Unda inson har bir narsaga ongli, aql-idrokli bo’lmog'i, bosgan har bir qadamida diqqat-e'tibor sezmog’i lozim, u Vatan ishqi bilan band bo’lmog'i, xalq bilan aloqada birga xayot kechirmoQi kerak deb uqtiradi.

Tasavvufning turli yillarda turli hildagi yo’nalishlari paydo bo’ladi. XII asrda Turkistonda yassaviya, XII asrning oxirida Xorazmda kubroviya, XIV asrda esa Buxoroda naqshbandiya va boshqalar vujudga keladi. Bular insonni mehnat qilishga, to’g’ri yo’ldan adashmaslikka targ’ib qiladi. U insonni xalol va pok bo’lishga, o’z mehnati bilan kun kechirishga, muxtojlarga hayr-exson berishga, sofdil va kamtar bo’lishga chaqiradi. Uning “Dil ba yor, dast ba kor” (Olloxni o’zingga yor bilginu, ammo mehnat qilishni unutmagin) degan xikmati shiorga aylandi.

“Naqshbandiya” tariqatining asoschisi Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy (1103-1179 y.) Sharq falsafasi tarixida o’ziga xos o’rin egallaydi. Uning falsafiy qarashlari tasavvufdagi Xojagon(Xojalar) xalqasida shakllandi. Agar bizgacha Axmad Yassaviyning “Hikmat” lari meros bo’lib qolgan bo’lsa, Abduxoliq G'ijduvoniydan “Risolai Soxibiya”, “Risolai ShayxShuyuk Hasrati Abu Yusuf

Hamadoniy” kabi asarlari meros bo’lib qolgan. Ammo bu asarlar xali Yaxshi o’rganilmagan va keng xalq ommasi orasida targ’ib qilinmagan. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy ustozidan ko’p narsalar o’rganar ekan, o’zi ko’p hollarda mustaqil fikr yuritib, ba'zi masalalarda o’z yo’lini shakllantirishga harakat qilgan. U zikr aytish yo’li bo’yicha “Zikri xufiya”, “Zikri dil” amalini targ’ib qila boshlagan. Xoja Abduxoliqning ustozi Yusuf Hamadoniy o’sha vaqtda o’z saxobalari bilan “Aloniya” zikr tushish usuliga amal qilgan. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy yuqorida qayd etib o’tilganidek “Xojagon” (Naqshbandiya) tariqatining asosiy qonun-qoidalarini ishlab chiqqan buyuk allomadir. Uning asarlari, hayoti, qilgan ishlari butun turk olamida aloxida o’rin egallab, ma'naviy hayotda o’chmas iz qoldirgan. Uning ma'naviy merosini o’rganish uchun katta ishlar amalga oshirilyapti. Asarlarini o’zbek tiliga tarjima qilish boshlandi. 2003 yil noyabr oyida Abduxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligini nishonlandi. Uning maqbarasi ta'mirlandi va qo’shimcha binolar qurilib kompleks ziyoratgoxga aylantirildi. Xuddi Shunday majmua Baxouddin Naqshband ziyoratgoxida ham tashkil etish mo’ljallangan.

Avval aytib o’tganimizdek XII asrda Xuroson va Movarounnahrda saljuqiylar, qoraxoniylar va qoraxitoylar singari sulolalar o’rtasida o’zaro kurashdan foydalangan Xorazm yana o’z mustaqilligini tiklab oldi.

Xorazm tarixi va madaniyatini o’rgangan olim S.P. Tolstov “Bu davrlardagi Xorazmning iqtisodiy parvozini nazardan o’tkazar ekansan, bir vaqtlar buyuk feodal monarxiya bo’lgan bu davlat qiyofasining qoldiqlari ko’z o’ngimizda namoyon bo’ladi. Bizning nigohimizda yuz ming gektarlab yerlarga obi hayot bergan ulkan irrigatsiya inshootlari, Xuroson, Movarounnahr va Qipchoq dashtlariga tutashib ketgan strategik va savdo yo’llari istexkomlari, shaharlarning qaynoq hayoti, hunarmandchilik ravnaq topgan savdo-sotiq xamda O’rta Osiyo, Eron va Volga bo’yi badiiy madaniyatining keyingi butun tarixiga kuchli ta'sir ko’rsatgan Xorazm uyg'onish davrining boy ulug’vorligi va boy ravnaqi gavdalanganday bo’ladi ...”, - deb yozgan edi.

Saljuqiylar Xorazmni egallagach, uni noiblar orqali boshqarishni yo’lga qo’ygan edilar. Masalan, Malikshox xuzurida (1072-1092 y.) devon maxkamasining boshlig’i Anushteginga Xorazmni boshqarish topshirib qo’yilgan edi.

1112-1127 yil uning o’gli Qutbiddin Muhammad noibligi davrida Xorazm mustaqillik yo’liga olib chiqildi. Uning o’g'li otsiz o’zini Xorazmshox deb e'lon qildi va Sirdaryo bo’yidagi turklar bilan urush olib bordi. Shimoli Sharqdagi Jandni va Manqishloq yarim orolini bosib oldi.

Otsizning nevarasi Takash (1172—1200) davrida Xorazm davlati yanada kengayib, u Sirdaryo etaklaridan to Iroqqacha cho’zilgan edi.

XIII asr boshlariga kelib Xorazmshoxlar O’rta Osiyoda xukmronlikni to’la o’rnatgan edi. Lekin bu davrga kelib feodal tarqoqlik avj olib, turli viloyatlarning beklari va amaldorlari o’z mustaqilligi uchun to’xtovsiz kurashlar olib bordilar. Muhammad Xorazmshox davlati tashqaridan kuchli ko’rinsada, aslida zaiflashib qolgan bir davlat edi.

O’zaro feodal urushlar, xalq qo’zg'olonlari va nihoyat xukmron tabaqa ichidagi oppozitsion kuchlar ta'siri markazlashgan davlat mavqeiga putur yetkazib uni ichki va tashqi dushmanlar uchun qulay shart-sharoitni yaratib berdi. Xuddi Shu davrda O’rta Osiyo yerlarini mo’g’ul bosqinchilari tomonidan bosib olinishi tasodifiy emas edi.

**3. Islomda yo‘nalishlarning vujudga kelishi.** 632 yilda Payg‘ambar (alayhis-salom) vafotidan so‘ng hokimiyat xalifalikka saylanganlar tomonidan boshqarildi. Birinchi Abu Bakr, ikkinchi Umar ibn Xattob saylandi, so‘ng Usmon ibn Affon va Ali ibn Abi Tolib xalifa bo‘ldi. Avvalgi ikki xalifa davrida xalifalikda ichki nizo va firqalanish bo‘lmadi. Usmon xalifaligi davrining so‘nggi yillarida ichki nizolar paydo bo‘lib, xalifaga qarshiliklar kuchaydi. Oxir-oqibat bir to‘da odamlar Hazrati Usmonning uyiga bostirib kiradilar va uni o‘ldiradilar. Uning o‘ldirilishi xalifalikda urushni keltirib chiqardi va Ali ibn Abi Tolib xalifaligi

davrida bunday nizolar yanada kuchaydi. Shom voliysi Muoviya xalifaga qarshi chiqib tezroq xalifa Usmon qotillarini topib jazolash talabini qo'yadi. Xalifa bu paytda avval ichki nizolarni tugatish bilan ishni boshlagan bo'ladi. Bu ixtilof qurolli to'qnaShuvga olib keladi. Bu to'qnaShuv 657 yili Iroqning Siffin degan joyida bo'lib o'tgani uchun jangning nomi Siffin deb atalgan. Shunda davlat tuzumi masalasida Payg'ambardan keyin xalifalik kimga o'tishi kerak degan masalada uch toifaga bo'linish yuz berdi.

Birinchi – xalifa Ali tarafdorlari bo'lgan, xalifalik faqat payg'ambar xonadonida meros sifatida o'tishi kerak deb hisoblovchi guruh. Natijada ulardan shialik oqimi kelib chiqdi.

Ikkinchi – xalifa Alining sobiq tarafdorlaridan tashkil topgan, uni Siffin jangidan keyin tashlab ketgan xorijiylar (ajrab chiqqanlar) guruhi hisoblanadi.

Uchinchi – «ahli sunna val jamoa» guruhi.

Islomdagi ilk bid'at, firqachilik va adashish xorijiylar va shialar guruhlarining faoliyatida ko'zga tashlanadi. Bunday firqalar asosiy ikki masalada yuzaga kelgan: imomat (davlatga rahbarlik) va aqidada.

Shuning uchun islomda firqalarga bo'linish asosan diniy-siyosiy nuqtai nazardan kelib chiqqan deb qaraladi. Birinchi xorijiylarning paydo bo'lishiga ham xalifa Ali siyosatiga qo'shilmaslik, shialik esa, xalifalik Ali va uning avlodlariga meros bo'lib qolishi kerak deb hisoblovchilar sabab bo'ldi. Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish zarurki, islomda firqalarga bo'linish Muhammad (alayhis-salom) hadislarida aytib o'tilgan. Muhammad payg'ambar (alayhis-salom) aytadilar: *«Yahudiylar 71 firqaga bo'lindi, nasroniylar 72 firqaga bo'lindi, ummatim esa 73 firqaga bo'linadi. Ulardan bittasi najot topadi, qolgani do'zax ahlidir»*, deganlarida, sahobiylar: «Najot topadigan firqa qaysi?», deb so'raganda Payg'ambar (alayhis-salom): *«Men bilan sahobiylarim tutgan yo'ldagisi»*, deb javob beradilar» (imom Termiziy rivoyati). Hadisda aytilgan najot topuchi firqa «ahli sunna val jamoa» hisoblanadi.

«Ahli sunna val jamoa» sunniylik deb ham nomlanadi. Buning o‘ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan jihatlari barcha sahobiylarni Yaxshi ko‘rish, kishini katta gunoh qilgan bo‘lsa ham musulmon deb hisoblash, agar u vafot etsa, janoza o‘qish, odil va zolim podshohga qarshi chiqmaslik, Allohning sifatlarini inkor qilmaslik va hokazo. Biroq ilk davrlarda musulmon olimlari tomonidan yakdil fikrga ega bo‘lgan musulmonlarning aqidasi ishlab chiqilmagani bois, «to‘g‘ri e’tiqod qilish» va «bid’at» to‘g‘risidagi tasavvur shia va xorijiylarning paydo bo‘lganidan keyin tizimga solindi. Xorijiylar xalifa Alining qo‘shinidan ajrab chiqqan va «ahli sunna val jamoa» e’tiqodiga to‘g‘ri kelmaydigan ekstremistik qarashlarni ilgari surgan murosasiz guruh. Bunda ular xalifa Alini kelishuvchilikda ayblab, undan ajralib ketganlar va xalifaga ham, Muoviyaga ham qarshi urush ochganlar. Xorijiylikning eng katta xatarli tomoni o‘z saflariga qo‘shilmaganlarni «dindan qaytgan»likda ayblashlari va ularning talqinidagi islom qoidalariga rioya qilmagan har qanday rahbarga bo‘ysunmay, unga qarshi kurashish zarurligini ta’kidlashlari bo‘lgan. Buning natijasida juda ko‘plab qonlar to‘kilgan. Odamlarni kofirga chiqarish va ularga qarshi «jihod» qilish g‘oyasini ishlab chiqib, terror amaliyotini boshlab bergan. Bugungi kundagi ISHID, Boko haram va Shunga o‘xshash boshqa terroristik tashkilotlarning uslublari aynan xorijiylik «an’ana»larining zamonaviy ko‘rinishidir.

Ular o‘zlarini haqiqiy musulmon hisoblagan va siyosiy hamda g‘oyaviy raqiblarga nisbatan murosasiz bo‘lgan. Xorijiylarning ta’limotiga ko‘ra, xalifa jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo‘ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto qul yoki qora tanli bo‘lsa ham) xalifalikka saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo‘shatiladi va hatto qatl etiladi. Xorijiylar gunohi kabira qilganlarni kofirlikda ayblab, ularni o‘ldirishgacha borib etganlar. Hatto ba’zi sahobiylarni ham kofir deyishgan. Bundan tashqari, «zolim» podshohga qo‘lida qurol bilan qarshi chiqishni diniy vazifa deydilar. Xorijiylik bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan yana bir oqim shialikdir. Shialik «shiatu Ali» (Ali guruhi) nomidan bo‘lib, aliparast oqim hisoblanadi. Bu

yo‘nalish dastlab har qanday ixtilof va aqidaviy farqlardan xoli holda, faqat siyosiy harakat sifatida namoyon bo‘lgan. Keyinroq diniy ixtiloflar, aqidaviy farqlar vujudga kelgan. Ularning fikricha hokimiyat xalifa Ali va uning avlodiga tegishli. Chunki imomat asosiy diniy ruknlardan hisoblanadi. Ularning ta’limotiga ko‘ra, rahbar xalq tomonidan saylanmaydi, balki meros sifatida o‘tadi.

Shuningdek, Payg‘ambar (alayhis-salom) Alini xalifa qilib tayinlaganlar. Xalifalardan Abu Bakr, Umar va Usmon bu huquqni Alidan zo‘rlik bilan tortib olishgan hamda Alining xalifaligini Alloh tomonidan berilgan ilohiy ko‘rsatma deb hisoblaydilar.

SHialar ham Qur’onni ilohiy kalom deb e’tirof etadi (ayrim mutaassib ruhdagi oqimlari xalifalar davrida uning ayrim qismlari tushirib qoldirilgan deb hisoblaydi). Ulamolari esa, Qur’on mazmunini majoziy talqin qilish yo‘li bilan o‘z ta’limotlarini asoslaydilar. Shuningdek, hadislardan faqat xalifa Ali, uning avlodi va ba’zi sahobiylar tomonidan keltirilgan rivoyatlarni tan oldilar va Shunday rivoyat-hadislardan iborat mustaqil to‘plamlar tuzgan. Sunniylikda e’tirof etilgan diniy aqidalardan farqlanib, shialikda tavhid, adl, nubuvvat, imomat, qiyomatdan iborat beshta aqidaga e’tiqod qilinadi. Bulardan to‘rt aqida – tavhid (Allohning yagonaligini e’tirof etish), adl (adolat, Allohning odilligi, ya’ni taqdir aqidasi), nubuvvat (payg‘ambarlik), qiyomat yoki maod (oxirat kunining kelishi va o‘lganlarning tirilishi), asosan, sunniylik ta’limotiga mos tushadi. Beshinchi aqida esa imomat (Ali va uning avlodlaridan iborat o‘n ikki imom hokimiyatini) esa, sunniylikka zid ekani bilan farq qiladi. SHialik ichida ixtiloflar yuz berishi natijasida ko‘p firqalar vujudga kelgan. Bulardan zaydiylar, ja’fariylar va boshqalar. Imomiylar va ismoiliylar shialikdagi ikki yirik oqim hisoblanadi.

Mo‘‘taziliylar oqimi aqida masalasi bo‘yicha ahli sunna val jamoa yo‘nalishidan ajralib chiqqan. Ular Qur’onni diniy haqiqatning manbai deb e’tirof etadilar, uni so‘zma-so‘z emas, majoziy talqin qilishga harakat qiladilar, rivoyatlarga ko‘r-ko‘rona ishonishga qarshi chiqadilar. Shuningdek, gunohi kabira, qabr azobi, avliyolar karomati kabi masalalar bo‘yicha o‘ziga xos qarashga ega.

Jumladan, gunohi kabira qilgan kishi mo‘min ham, kofir ham bo‘lmaydi, balki ikkisi orasida bo‘ladi, deganlar. Mo‘‘taziliylarning yana bir aqidasi bu Qur’onning yaratilgani to‘g‘risida bo‘lib, sunniylar Qur’on Allohning kalomi desalar, mo‘‘taziliylar Qur’on Allohning yaratgan narsasi, deb hisoblaganlar.

Xalifa Ma’mun (813-833) mo‘‘taziliylar ta’limotini davlat darajasiga olib chiqdi. U qozilar, olimlar, amaldorlar e’tiqodini sinab ko‘rdi. Natijada kim mu’taziliylar aqidasini (xususan, Qur’onning yaratilganini) tan olmasa, ishdan bo‘shatdi, hatto o‘lim jazosini qo‘lladi. Xalifa Mutavakkil (847-861) davrida ushbu ta’limot ta’qib ostiga olindi. Mu’taziliylar aql-idrokni aqidaning asosi deb e’tirof etgan, tasavvufni inkor etishga uringan, o‘zlarini tavhid va adolat (adl) tarafdorlari, deb bilgan adashgan firqadir. Keyinchalik 13-14-asrlarga kelib mo‘‘taziliylar butunlay yo‘qolib ketgan. Qadariya ham mo‘‘taziliylarga o‘xshab aqidaviy masalada adashgan hisoblanadi. Ularning asosiy da’volari Allohning qazosi va qadarini inkor etib, «Alloh bandalarining ishidan ojizdir», deydilar. Sunniylar esa, Alloh har bir narsani oldindan biladi, degan bo‘lsa, qadariylar uni inkor qildilar. Ular odillik xudoning asosiy sifatlaridan biri degan fikr asosida gunohni xudo oldindan belgilagan bo‘lishi mumkin emas. Xudodan faqat adolatli ishni kutish mumkin, gunoh ishlar esa inson faoliyati bilan bog‘liq, demak, inson iroda va faoliyat erkinligiga ega, Shuning uchun u gunoh qiladi, degan xulosaga kelib o‘zlarining adashgan firqa ekanini qo‘rsatdilar. Ularning ta’limotini keyinchalik mu’taziliylar davom ettirdi.

Jabariylar esa, qadariylar e’tiqodining aksini qilib, islomda taqdir masalasida adashgan deb tan olingan firqalardan biridir. Ular ahli sunna val jamoada tan olingan takdir masalasini inkor qiladi. Jabariylar inson taqdirini xudo mutlaq oldindan belgilab qo‘ygan, insonda hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo‘q, bular faqat xudoda mavjud, inson esa, ana Shu faoliyatni o‘zlashtirib olish imkoniyatiga ega, degan aqidani ilgari surgan. Alloh bandalarga gunoh ishlarni taqdir qilgan va inson gunoh amallarni qilishga majburdir, deb insondagi juziy ixtiyorni rad etadilar, ya’ni qabih va yomon narsalarni Allohga nisbat beradilar

hamda bandalarni gunoh ishlardan poklaydilar. Alloh insonga toqati etmaydigan narsani yuklashi mumkin, deb Allohga majbur qiluvchilik sifatini berdilar. Iroda erkinligi tarafdori bo‘lgan qadariylarga jabariylar qarshi bo‘lgan.

Mushabbihalar (o‘xshatuvchilar) e’tiqodi bo‘yicha Allohni inson suratiga o‘xshatib, uning inson a’zolariga o‘xshash jismi bor deydilar. Bu bilan «ahli sunna val jamoa» aqidasiga qarshi chiqqan. Chunonchi sunniylar Allohni hech narsaga o‘xshatmaydi va bunday o‘xshatish xato hisoblanadi.

Umuman olganda, islom tarixida vujudga kelgan adashgan firqalarning o‘zlari ham bir necha guruhlarga bo‘linib ketganlar. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, hozirgi kunda paydo bo‘layotgan islom nomidan ish ko‘rayotgan turli adashgan oqimlar tarixda o‘tgan o‘tmishdoshlarining aqidasini tutib, uni yangicha ko‘rinishda taqdim qilishi kuzatilmoqda. Jumladan, hozirgi kundagi jangari guruhlarning faoliyati o‘tmishdagi xorijiylarning buzg‘unchi amaliyotiga batamom mos keladi. Shu bois ham bugungi kundagi dinni niqob qilib olgan terrorchi guruhlarni «XXI asr xorijiylari» deb atash mumkin.

**4.Fiqhiy mazhablarning paydo bo‘lishi.** Islom dini tarqalgan hudud kengayib, turli millatlar va xalqlar Shu dinni qabul qilganlaridan so‘ng uni o‘z hayot tarziga aylantirdilar. Diniy masalalarni hal qilish maqsadida musulmon olimlar katta xizmat qilishdi. Muhammad (alayhis-salom) vafotlaridan keyin u kishining ishini xalifalar, sahobiylar, so‘ng tobeinlar davom ettirdilar. Payg‘ambardan keyin u kishining ishini sunna asosida davom ettirganlar «sunniylar» yoki «ahli sunna val jamoa» nomini oldi. Payg‘ambar (alayhis-salom) davrida biror masala yuzasidan savol paydo bo‘lsa, odamlar darhol Shu holatni payg‘ambarga etkazib, o‘zlariga aniq javob olganlar. Shuning uchun bu davrda ixtiloflar bo‘lmagan. Sahobiylar ham biror ixtilofli masalalarga duch kelganlarida ishni maslahat bilan hal qilingan. Ammo sahobiylar davri tugab borishi natijasida musulmonlar orasida turli ixtiloflar ko‘paydi.

VIII asrga kelib musulmonlar orasida shariatning turli masalalarni mustaqil echib bera oladigan olimlar paydo bo‘la boshladi. Ular turli fiqhiy masalalarni hal qilishda Qur’on oyatlari va hadislarni sharhlab, Shu bilan birga sahobiylarning qilgan ishlarini o‘rganib, o‘shalar asosida hukmlar chiqarib berdilar. Ushbu faqih olimlar atrofida shogirdlari ko‘payib, ularning qarashlarini yozib, ommalashtirdilar. Buning natijasida fiqhiy mazhablar paydo bo‘ldi. «SHariat» so‘zi arab tilida ikki ma’noda qo‘llaniladi: «suvga olib boradigan yo‘l» va «to‘g‘ri yo‘l». Masalan: **«So‘ngra (**ey, Muhammad!), **Biz sizni** (diniy) **ishdan iborat shariat uzra (barqaror) qildik...»** (Josiya, 18), oyatida shariat so‘zi «to‘g‘ri yo‘l» ma’nosida kelgan. Shariat – islom huquqiga ko‘ra, ulamolar nazdida, Qur’on va sunnatda kelgan ilohiy ko‘rsatmalar (hukmlar)ning majmuidir. Boshqacha aytganda, islom dinining amaliy qismidir. HuquqShunoslar esa, islom qonunchilik majmuini nazarda tutadilar.

«Fiqh» so‘zi lug‘atda «chuqur tushunish», «idrok etish», «bilish» ma’nolarini bildiradi. Istilohiy ma’noda esa «fiqh» – shariat hukmlarini o‘rganish, shariat qoidalarini barcha qismlari bilan anglash hamda qaysi maqsadda ishlab chiqarilganini tuShunish va o‘zlashtirilgan ushbu ilmni amalga tadbiq etishdir. Fiqhning asosiy manbasi: Qur’on, sunnat, ijmo va qiyos.

Fiqh bilan chuqur Shug‘ullangan olimlar faqihlar (fiqh olimi, huquqShunos) deb nomlandi. Bular orasida eng ko‘zga ko‘ringan va fiqhiy mazhabi hozirgacha etib kelgan mujtahid olimlar quyidagilardir: Imom Abu Hanifa No‘‘mon ibn Sobit Kufiy, imom Molik ibn Anas Madiniy, imom Muhammad ibn Idris Shofeiy va imom Ahmad ibn Hanbal SHayboniy.

Mazkur mazhablar, aqida nuqtai nazardan bir xil, faqat fiqhiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Shuningdek, bular bir-birini inkor etmaydi, balki qo‘llab-quvvatlaydi. Mazhablarning maqsadi diniy manbalardagi matnlarni keng xalq ommasiga oson tuShuntirish bo‘lgan va bu bilan oddiy xalq o‘z kundalik masalalarini tezda xal qilganlar.

«Mazhab» arabcha so‘z bo‘lib, «yo‘nalish», «yo‘l», «diniy ta’limot» ma’nolarini bildiradi. Islom shariati va aqidasining muayyan bir tizimga solingan holatdagi ko‘rinishi mazhab deyiladi. Ko‘rib o‘tganimizdek, mazhablar fiqhiy va aqidaviy degan ikki qismga bo‘linadi. Fiqhiy mazhablar to‘rtta: hanafiy, molikiy, Shofeiy va hanbaliy. Aqidaviy mazhablar: moturidiylik va ash’ariylikdir.

Molikiy mazhabiga madinalik olim imom Molik ibn Anas Abu Abdulloh (713-795) asos solgan. U «Madina imomi» unvoniga sazovor bo‘lgan. Imom Molik Madina olimlari qarashlari asosida o‘z mazhabini shakllantirgan. Shuning uchun ushbu imom Madina faqihlaridan fiqhni o‘rganib, ahli hadis qo‘llaydigan uslubni qabul qilgan va ushbu qoida asosida o‘z shogirdlarini tarbiyalagan. Imom Molik Qur’on, sunna va ijmoga tayanib hukm chiqargan. Shu bilan birga madinalik olimlar ittifoqini ham hukm chiqarishda e’tiborga olgan. Chunki Muhammad (alayhis-salom) Shu shaharda yashagan va bu shahar aholisi payg‘ambar va sahobiylarning ko‘rsatmalari hamda qilgan ishlarini mukammal o‘zlashtirgani bilan ajralib turadi. Olim «al-Muvatto» nomli hadis ilmiga oid to‘plam muallifi hisoblanadi va mazkur asar molikiy mazhabining asosiy manbasi sifatida qadrlanadi. Muhaddis buning uchun qirq yil umrini sarflagan. Bu asar ilk hadis to‘plamlaridan biri bo‘lib, bir necha ming hadisni o‘z ichiga olgan.

Imom Molik ibn Anasning shogirdlari orasida taniqli muhaddis va hanafiy mazhabi faqihi imom Muhammad SHayboniy (vaf. 805 y.), shofi’iylik mazhabi asoschisi Muhammad ibn Idris Shofeiy (vaf. 820 y.) bo‘lgan. Hozirgi vaqtda ham bu mazhab qoidalarining Marokash, Tunis, Jazoir va Liviya nikoh-oila va mulkka oid huquqiga sezilarli ta’siri bor.

Muhammad ibn Idris Shofeiy (767-820) ham alohida mazhabga asos solgan. Bu olim imom Molik va imom Abu Hanifaning katta shogirdi imom Muhammaddan dars olgan. Shu nuqtai nazardan ushbu mazhabning huquq tizimi xanafiylar va molikiylarning diniy-hukuqiy ta’limoti asosida ishlab chiqilgan, deb aytish mumkin. Shunday bo‘lsada, u ko‘proq molikiylarga Yaqin turadi. Boshqacha qilib aytganda, ahli hadis va ahli ra’yning qarashlarini birlashtirgan

hamda o‘ziga xos uslubni yaratgan. Olim ijmo bo‘yicha  ko‘proq ummat ijmosiga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Shu mazhabning keyingi ulamolari olimlar ijmosini ham qabul qilishga majbur bo‘ldilar. Shofeiylik ham boshqa mazhablar kabi Qur’on, sunna ijmo va qiyosga tayanadi. Imom Shofeiyning «al-Umm» va «ar-Risola» kitoblari ushbu mazhab usuliga asos bo‘ldi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hijriy uchinchi-to‘rtinchi (milodiy 9-10) asrlarda Markaziy Osiyoda Shofeiy mazhabi Hanafiy mazhabi bilan raqobat qilgan. Uning yirik vakili toshkentlik buyuk olim Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol SHoshiy (904-976) edi. U kishi fiqh, hadis, lug‘at va adabiyot bo‘yicha o‘z davrining mashhur olimlaridan bo‘lgan. Toshkentda vafot etgan, qabri Hastimom (Hazrati Imom) madrasasi yonida joylashgan.

Hanbaliy mazhabi asoschisi Ahmad ibn Hanbal (780-855) hisoblanadi. Olim yashagan Bag‘dod shahrida ilmu fan rivoj topishi bilan birga turli e’tiqodiy qarashlar markazi bo‘lgan. Hanbaliy mazhabida Qur’on, sunnat, ijmo va sahobiylarning so‘zlari asosiy o‘rin egallaydi. Qat’iy zarurat sezmagan holatlardan tashqari qiyosdan foydalanmaydi. Barcha hadislarni va rivoyatni (sahobiylar so‘zini) qiyosdan ustun qo‘ygan. Imom Ahmad xulafoi roshidin, sahobiylar, tobeiylar, Shuningdek, o‘zidan oldingi uch mazhab fiqhini o‘zlashtirgan. CHunonchi u ilk marta fiqhni imom Abu Hanifaning shogirdi imom Abu Yusufdan o‘rgangan. Shuningdek, «men hadis yozib olgan birinchi kishi Abu Yusuf edi», deganidan hadisni ham Shu kishidan olgani bilinadi. Keyinchalik imom Shofeiydan ham fiqhni o‘rgangan. O‘zi esa, imom Buxoriyga ustozlik qilgan. Hadis ilmi bo‘yicha «al-Musnad» asari juda mashhur hisoblanadi. Bu kitobda qiriq ming atrofida hadis jamlangan bo‘lib, asar hanbaliy mazhabining asosiy qarashlarini o‘zida ifoda etadi.

Yuqorida keltirilgan fiqhiy mazhablar diniy firqalardan farq qiladi. Ular bir-birining fikriga qarshi chiqmaydi va o‘zlarini boshqasi bilan teng deb hisolaydilar. Mazhablar shariatning biror masalasida engilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, mazhablar o‘zi tarqalgan mintaqalar sharoitidan

kelib chiqqan holda fatvolar berganlar. Jumladan, Shofeiy mazhabida tahoratdan so‘ng yuz-qo‘linini artmaslik afzal hisoblansa, hanafiy mazhabida yuz-qo‘lini artish afzaldir. Hanafiy mazhabi sovuq o‘lkalarda ham tarqalganini e’tiborga olinsa, Shofeiy mazhabi asosan issiq o‘lkalarda yoyilgan. Mazhablar turlicha bo‘lishiga qaramay asoschi mujtahidlarning barchasi bir-biriga ustoz-shogird martabasidadir. Ular bir-birlarining mazhabini tan oladilar. To‘rtta mazhab ham hijriy ikkinchi asrning o‘zida shakllanib ulgurgan. Ammo musulmon kishi ushbu mazhablarning faqat bittasiga amal qilishi lozim deb uqtiriladi.

**5. Imom Abu Hanifa va hanafiylik mazhabi.** Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa Nu’mon ibn Sobit (699-767) bo‘lib, «Imomi A’zam», ya’ni eng buyuk imom laqabi bilan mashhur bo‘lgan. Mazkur mujtahid olim Kufa shahrida tug‘ilib Shu erda vafot etgan.

Bu olim sunniy mazhablar asoschilari orasida yoshi eng kattasi hisoblanadi. Rivoyatlarga ko‘ra Abu Hanifaning bobosi o‘g‘li Sobitni sahobiy Ali oldiga olib kelib, uning haqiga duo qilishlarini so‘raydi. Hazrat Ali Sobitni o‘zi va zurriyotiga barakot so‘rab duo qiladilar. Sobitning zurriyotidan o‘g‘li Abu Hanifa katta Shuhrat qozondi. Imom Abu Hanifa otasining kasbi Kufada ipak va jun mato tijorati bilan Shug‘ullangan.

Imom A’zam yoshligidan Qur’onni yodlaydi. Ma’lum vaqt savdo ishlari bilan Shug‘ullanib yurgan. Shu orada Kufa va uning atrofida e’tiqodiy bahs-munozaralarda faol ishtirok etib borgan. Bir kuni ko‘chada imom SHa’biyning yonidan o‘tib ketayotganida, oldiga chaqirib, qaerga ketayotganini so‘raydi. U bozorga ketayotganini aytganda, men sendan uni emas, balki qaysi olimning darsiga borayapsan deb so‘raydi. Imom A’zam hech birining oldiga bormayapman, degandan so‘ng, imom SHa’biy Shunday deydi: «Ilm va ulamolar bilan ko‘rishib turgin. Seni nihoyatda zukko va ilmga tashnaligingni ko‘ryapman». SHa’biyning bu gapiga kirib, Abu Hanifa ilm yo‘lini tanlaydi.

Abu Hanifa Umaviylar va Abbosiylarning siyosiy kurashlari, hokimiyat bir suloladan boshqasiga oʻtgan davrda yashagan boʻlsa ham qoʻliga qurol olib ikki tomonning siyosatiga aralashmadi, balki oʻz ilmini oshirish va tarqatishga harakat qildi. Bu davrda aqidaviy oqimlar orasida kurashlar ancha qizigan. Olim bu kurashlarni kuzatib borgani tabiiy. Ibn Bazzozning rivoyatiga koʻra imom Abu Hanifa oʻgʻli Hammodga Shunday degan: «Bizlar munozara qilgan vaqtda suhbatdoshimizning haq va toʻgʻri yoʻlgan chiqib ketishidan qoʻrqar edik, lekin sizlar munozara vaqtida raqibingizni haq yoʻldan chiqishini istaysizlar. Har kim oʻz suhbatdoshini haq yoʻldan ogʻdirmoqchi boʻlsa, uni kufr tomonga yoʻllaydi, lekin uning oʻzi suhbatdoshidan oldinroq kufr yoʻliga oʻtgan boʻladi».

Manbalarda imom Abu Hanifaning sahobiylar bilan koʻrishgani aytiladi, Shuning uchun u tobeinlardan hisoblanadi. U Hammod ibn Abu Sulaymon, Ibrohim Naxaiy, SHa’biy kabi va boshqa olimlardan sahobiylar Ali va Abdulloh ibn Mas’ud, Abdulloh ibn Abboslarning fiqhini oʻzlashtirdi. Ayniqsa, Hammod uning eng asosiy ustozi hisolangan. Unga 22 yoshida shogird tushib, u kishidan oʻn sakkiz yil davomida fiqh ilmini oʻrganadi. Bu haqda oʻzi quyidagilarni aytgan: «Men ilm va fiqhning konida edim. Uning ahli ila majlis qurdim. Ularning faqihlaridan birini lozim tutdim». Uzoq yillar dars olishi va ustozi vafotidan soʻng uning oʻrnida dars berishni boshlagan. Ustozi oʻrniga dars berishi natijasida, Hammod qoldirgan maktab keyinchalik imom Abu Hanifa faoliyati natijasida mazhabga aylandi. Shuningdek, koʻp yurtlarga safar qilgan va oʻsha erlik olimlar bilan ilmiy bahs-munozaralarga kirishgan. Imom Abu Hanifa viqor va salobatli kishi boʻlgan. Koʻp fikr yuritib, kam soʻzlar edi. Taqvoli, parxezkor, zohid, bekorchi va foydasiz soʻzlarni gapirmas, gapirganda qisqa va loʻnda soʻzlardi. Biror kishi masala soʻrab kelsa, hozirjavoblik bilan ishni xal qilgan.

Imom Abu Hanifa Qur’on, sunnat, sahobiylarning soʻzlari, qiyos, istehson, ijmo, urf kabi fiqhiy manba va uslublariga koʻra hukm chiqargan.

Fiqhda Shunday maqomga erishganki, har bir oyat va hadisdan kerakli fiqhiy xulosalar chiqara olgan. Abu Hanifa hadisni, sahobiylar soʻzini puxta

o‘zlashtirgan. Hadislarning sahih va zaifini ajratib, ayniqsa, hadislardan chiqariladigan hukmlarning to‘g‘ri bo‘lishiga katta e’tibor qaratgan. Rivoyatlarning birida ustozi SHa’biy bir masalada murojaat qiladi. Abu Hanifa unga javob beradi. Shunda ustozi buni (javobni va unga hujjatni) qaerdan olding deb so‘raganda, Abu Hanifa o‘zingiz rivoyat qilgan hadisdan oldim deb hadisni aytadi. Javobdan so‘ng SHa’biy: «Sizlar tabiblarsiz, ey faqihlar jamoasi, biz (muhaddislar) doriShunosmiz», deydi.

Imom Abu Hanifa hadis ilmida ham yuqori martabalarga erishgan. Quyida imom Abu Hanifaning juda ko‘p hadis bilishini isbotlovchi ba’zi omillarni keltirish mumkin. Ulardan: 1. Ko‘plab olimlar qatori Imom Abu Hanifaga muxolif bo‘lganlar ham ittifoqan uning mujtahidligini tan oladilar, ya’ni uning mujtahid olim ekanida ixtilof yo‘q. Mujtahid bo‘lish shartlaridan biri hukm chiqarishga oid hadislarni Yaxshi bilishdir; 2. Manbalarda aytilishicha, Abu Hanifa sakson uch mingdan ortiq masalaga javob bergan. Hadislarni Yaxshi bilmaydigan kishi bunday ko‘p masalaga javob berishi mumkin emas; 3. Abu Hanifa hadis rivoyatiga ko‘p to‘xtalmagan. Buning sabablaridan birini o‘sha davr olimlari hadislarni Yaxshi bilganlaridir. Shuning uchun ular ilm majlislarida hadislardan chiqadigan masalalarga javob topishni, ya’ni istinbot bilan Shug‘ullanishni asosiy maqsad qilib olganlar. Hadisning fiqhini, uni tuShunishni, nosix va mansuxini, om va xosini, mutlaq va muqayyadini bilishga intilganlar, uning sahihligiga emas; 4. Abu Hanifa davrida nafaqat hadis ilmini, balki barcha ilmlarni yozib borish odat tusiga kirmagan, xuddi Payg‘ambar (alayhis-salom) va sahobiylar davrdagi kabi. Shunday bo‘lsada, Imom Abu Hanifa nazdida hadislarni rivoyat qilish mas’uliyatli ish ekanini Imom Abu Yusuf rivoyatidan ham bilish mumkin. Imom Abu Hanifa: «Kishi hadisni eshitgan vaqtidagidek, (ya’ni qanday eshitgan bo‘lsa o‘shanday) aytishi lozim», degan; 5. Abu Hanifa to‘rt mingdan ortiq ustozdan dars olgan. Chunki u Basraga 10 marta, Makka va Madinaga esa undan ko‘proq marta borgan. U joylardagi ko‘pgina olimlar suhbatida bo‘lgan. Demak, bahs-munozara vaqtida ko‘plab hadislar eshitgani tabiiy.

Imom Abu Hanifa qiyos va istehsonni (chiqarilgan xulosalardan musulmonlar uchun foydaliroq tomonini olish tamoyili) ko‘p qo‘llagan. Hatto zaif hadisni qiyosdan oldinga qo‘ygan. Bu borada imom Abu Hanifa Shunday degan: «Rasululloh (alayhis-salom)dan kelgan har narsa bosh ustiga, sahobiylardan kelganini esa orasidan Yaxshirog‘ini tanlab olamiz, ammo tobeiylardan kelgan bo‘lsa, biz ham ulardek kishilarmiz». Bu bilan o‘z mazhabining usulini ko‘rsatgan. Imom Abu Hanifaning mashhur shogirdlaridan biri Abu Yusuf YA’qub ibn Ibrohim Ansoriy va Muhammad ibn Hasan SHayboniydir. Abu Hanifaning bu ikki shogirdi uning ishini davom ettirib, boshqa olimlarga ustozlik qildilar.

Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa alohida muayyan mavzuga oid kitob yozmagan. Balki u rivoyat qilgan hadislarni, aytgan fatvolarini keyinchalik olimlar kitob holatiga keltirganlar. Jumladan, «al-Fiqh al-akbar», «al-Olim va-l-mutaallim», «al-Vasiyya» va «al-Musnad» va boshqalar. U dunyo ishlari va mansabga qiziqmagan. Xalifa unga bosh qozilik (qozi al-quzot) mansabiga taklif qilganda rad etgan. Shunday bo‘lsada, eng katta shogirdi imom Abu Yusuf «qozi al-quzzot» lavozimida faoliyat yuritib, hanafiylik mazhabining yanada keng yoyilishiga xizmat qilgan. Imom Muhammad hanafiy mazhabining nazariy asoslarini ishlab chiqib, o‘z asarlarida keltirib o‘tadi. Ushbu mazhab sunniy musulmonlar orasida keng tarqalgan, ya’ni 47% sunniy musulmon Shu mazhabga amal qiladi. Tarixda uning juda ko‘p davlatlardagi asosiy mazhab sifatida e’tirof etilishi jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida qo‘llanishi, milliy urf-odatlarga bag‘rikengligi, turli mintaqalardagi shart-sharoitlarga mos kelishi hamda boshqa omillar sababli uning ko‘p musulmon xalqlari tomonidan qabul qilinishiga sabab bo‘lgan. Uning keng miqyosda tarqalish sabablardan biri barcha mintaqalarda yashayotgan musulmonlarga chiqarilgan hukmlari oson amal qilishiga imkon bergan. O‘zbekiston hududida hanafiylik mazhabi buxorolik olim Abu Hafs Kabir harakati natijasida keng tarqalgan va Shu mintaqa aholisi mazkur mazhabga amal qilib kelmoqda.

**6.Mazhabsizlik va uning oqibatlari.** Bugungi kunda turli guruhlar tarafidan mazhablarni inkor qilish holatlari uchrab turibdi. Ular mazhabsizlik g‘oyasini ilgari surib, asosiy maqsadlari asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan fiqhiy mazhablarni inkor qilishdan iborat. Mazhabsizlik g‘oyasi deyarli 12 asrdan ortiq vaqt mobaynida yashagan minglab ulamolarning butun umrlarin davomida olgan ilmlari va qoldirgan meroslarini, yozgan asarlarini bekorga chiqaradi. Shu bilan birga asrlar davomida amal qilinib kelinayotgan an’analar noto‘g‘ri, ularga amal qilgan musulmonlar esa adashgan ekan degan xulosaga olib keladi. Bundan tashqari musulmonlar birligini xavf ostida qoldiradi. Zero, Muhammad payg‘ambar (alayhis-salom) hadislarida: *«Alloh ummatimni zalolatda jamlamaydi»*, *«Musulmonlar Yaxshi deb bilgan narsa Allohning huzurida ham Yaxshidir»* (hadislarni Hokim Naysaburiy rivoyat qilgan), deyilgan. Mazhablar ham musulmonlarning birligi. Olimlar butun umrini shariat ilmiga bag‘ishlab, undagi o‘ta nozik masalalarni o‘rganish uchun umrining ko‘p yillarini bag‘ishlaganlar, Qur’on va hadislarda uchraydigan va barcha insonlar tuShunishi qiyin bo‘lgan holatlarni fahmlash va tuShunishga oson shaklga keltirib so‘ngi xulosalarni berganlar.

Mazhabsizlik g‘oyasini soxta salafiylar ilgari surmoqda. Ularning fikricha, fiqhiy mazhablar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarni to‘g‘ri tuShunish usuli sifatida tan olinmaydi, balki shariat ahkomlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga tatbiq etish lozim deb hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, mazhabsizlarning da’vosi bo‘yicha har bir kishi, o‘zi Qur’ondan yoki hadisdan hukm olishi mumkin. Chunki mujtahidlarning xulosasi boshqalar uchun asos bo‘la olmaydi, har bir odam o‘zi fatvo berishi mumkin. Ularning bu g‘oyasiga amal qilinsa, barcha Qur’on va hadisdan hukm olishga o‘tsa, jamiyat hayoti o‘z-o‘zidan izdan chiqadi. CHunonchi tibbiyot, arxitektura va hokazo soha vakillari ham o‘zlari mustaqil tarzda Qur’on yoki hadislarni o‘rganib o‘z masalalarini hal etishlari lozim bo‘lib qolar edi.

Mazhabsizlikni targ‘ib qilayotgan soxta salafiylik mafkurasiga ko‘ra fiqhiy mazhablar tomonidan ishlab chiqilgan kategoriyalar shariatni to‘g‘ri tuShunish

uslubi sifatida tan olinmaydi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shariat ahkomlarini amalga tatbiq etish eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Bu yo‘l bilan minglab olimlarning mashqqat bilan amalga oshirgan ishlarini bekorga chiqaradi. Shu bilan birga asrlar davomida musulmonlar tomonidan amal qilinib kelinayotgan an’analarni noto‘g‘riga chiqarib, «o‘tmishdagi musulmonlarni adashgan edilar» degan buzuq xulosani beradi. Buning natijasida musulmonlar orasida parokandalik yuz beradi. Hozirgi kundagi ahli sunna val jamoa musulmonlarining barchasi to‘rt mazhabdan biriga ergashadi. Shu bilan birga ular bir-birini inkor qilmaydi va aqidada bir hisoblanadi.

Mazhabsizlarning da’volaridan yana biri faqat sahih hadisga amal qilish lozim, Chunki mujtahidlar har xil fatvo chiqarganlar, Shuning uchun bu bo‘linish hisoblanadi, deydilar. Aslida mazhablardagi bir masalaga turlicha qarash mujtahidning o‘sha masalani qanday tuShunishi bilan bog‘liq. Arab tili boy til bo‘lgani sababli, bir olim Qur’ondagi so‘zning bir ma’nosini qabul qilgan bo‘lsa, ikkinchi mujtahid boshqa ma’nosini olgan. Hukm ham, hadislardan hukm olish ham Shunga yarasha bo‘lgan. Bir mujtahid bir hadisni olgan va unga qarshi bo‘lgan hadisni esa, hukmi o‘chgan deb, boshqa mujtahid esa, o‘sha hadisni hukmi o‘chmagan deb qabul qilgan.

Bulardan tashqari Payg‘ambar (alayhis-salom) tomonidan sahobiylarga ham o‘z o‘rniga qarab turlicha masalahatlar berilgan. Sahobiylar esa, turli joylarga tarqalib, borgan joylarida o‘zlari bilgan ilm bilan boshqalarni tanishtirganlar. Shunga o‘xshash va boshqa sabablar bilan mazhablar orasida bir masalaga turlicha fatvolar berish holatlari paydo bo‘lgan. Shunday bo‘lsada mazhablar bir-birlarining hukmlarini xato deb hisoblamaydilar va boshqa hukmni hurmat qiladilar.

Shu o‘rinda fatvo va muftiy haqida to‘xtalib o‘tish o‘rinli. «Fatvo» deb lug‘atda «mushkul ishga javob qidirish», «savolga javob berish», «shariat masalalari yuzasidan fatvo chiqarmoq», «maslahat bermoq», «muftiyning xulosasi» degan ma’nolarni bildiradi. Istilohda esa, «dalilga asoslanib, shar’iy hukmni so‘rovchiga bayon qilib berish» ga fatvo deyiladi. Zamonaviy hanfiy

mazhabi olimlaridan biri fatvoni «diniy masalalarga javob berishdir», degan. «Muftiy» deb shariat hukmlari borasida fatvo beradigan odamga aytiladi. Faqih Qarofiy Shunday degan: «Muftiylar Alloh taoloning tarjimonlaridir. Chunki ular nass (Qur'on va hadis)ga tayangan holda hukm chiqaradilar». Imom SHotibiy: «Muftiylar ummat uchun Rasululloh (alayhis-salom) maqomlarida bo'ladilar. Bunga dalil qilib: *«Olimlar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir. Payg'ambarlar dinor yoki dirham emas, balki ilmni meros qilib qoldirganlar»* (imom Termiziy rivoyati), hadisini keltiradilar» deb sharhlagan.

Bugungi kundagi hanafiy olimlaridani biri Shunday deydi: «Mohir ustozlarning huzurida fiqhni o'rganmagan kimsaning fatvo berishi mumkin emas. Ustozlar huzurida fiqhni o'rgangan kishining fatvo berishi mumkin bo'lmaganidek, o'zi (mutaqil ravishda) fiqhiy kitoblarni mutolaa qilgan kimsaning ham fatvo berishi mumkin emas. Hatto u ahkom usullari, qoidalari va illatlari bilan tanishib chiqib, malaka hosil qilgan bo'lsa ham, mo''tabar kitoblarni boshqalardan ajratib olgan bo'lsa ham mumkin emas».

Hatto Payg'ambar (alayhis-salom) zamonlarida Qur'on oyatlari nozil bo'layotganini o'z ko'zlari bilan ko'rgan va din ilmlarini U zotdan to'g'ridan-to'g'ri olgan sahobalar ham fatvo berishdan ehtiyot bo'lib va xato qilishdan qo'rqib javob berishni bir-birlariga havola qilib «falonchidan so'ra» deganlar.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, barcha odamlarga, hatto u diniy kitoblarni o'qib tuShunsa ham diniy masalalarda fatvo berishi mumkin emas. Balki fatvo berish chuqur bilimli, Shu sohada o'zini ko'rsatgan mutaxassis kishilarga mumkin bo'ladi. Bu fikrni qo'llash quyidagi rivoyat qo'llaydi. Kishilar muhaddis olim, hanbaliy mazhabi asoschisi Ahmad ibn Hanbaldan yuz ming hadisni yod bilgan odam fatvo bersa bo'ladimi, deb so'raganlarida, u kishi, yo'q, deb javob berganlar. So'rovchilar yodlanishi lozim hadislarning sonini yuz mingdan oshirib borganlar, imom Ahmad yo'q, deb javob beraverganlar, besh yuz mingga etganlarida, umid qilaman, deganlar.

Odamlar shariat bilimlarini bilish darajasiga ko‘ra xos va ommaga bo‘linadi. Xos kishilar muayyan soha bilan Shug‘ullanib, uni mukammal o‘rgangan mutaxassislar hisoblanadi. Omma esa, o‘zlarining kasblari bilan mashg‘ul bo‘lib, kerakli vaqtda mutaxassisga murojaat qilib, o‘z masalasini xal qiladilar. SHariy hukmlar masalasida ham xos kishilar – mujtahid-faqihlar Shug‘ullanib, ommaga uning masalalarini etkazib, tuShuntirganlar. Omma esa unga amal qilgan. SHariy nuqtai nazardan odamlar mujtahid va muqallidga bo‘linadi. Manbalarda mujtahid deb ijtihod qilish (muayyan ilmiy salohiyatga ega faqih olim shariatning mufassal dalillaridan shar’iy hukmlarni chiqarib olishi, ya’ni istinbot qilish jarayoni) faoliyati bilan shug‘ullanadigan kishiga aytilgan. Mujtahid olimlar shariatning mustaqil manbasi emas. Balki mujtahid shariat qonunlarini sharhlovchisi va uning manbalarni tushuntiruvchisi deb tan olinadi.

Omma ijtihod qila olmaydigan, boshqacha qilib aytganda, mustaqil tarzda shariat manbalarini tushunmaydi va ulardan qanday hukm olinishini bilmaydigan kishilardir. Ular mujtahidga taqlid qiladi va u muqallid-taqlid qiluvchi deyiladi. Taqlid qiluvchi mujtahidning hukmiga amal qiladi. Musulmonlarning asosiy qismi Shu guruh – taqlid qiluvchilar guruhidan iborat. Shu kungacha yashagan musulmon olimlarining faoliyati natijasida mazhablar jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Mazhabsizlik va Shunga o‘xshash fikrlarni islom dushmanlari musulmonlar orasida tarqatishga harakat qilmoqda. Olimlardan SHoh Valiulloh Dehlaviy to‘rt mazhabdan biriga taqlid qilish haqida: «Bilginki, ushbu to‘rt mazhabning birini ushlashda (taqlid qilishda) ummat uchun katta foyda va afzallik bor. Ulardan yuz o‘girishda katta fasod bor», degan.

Aslini olganda, musulmonlar Payg‘ambar (alayhis-salom)ga ergashadi, mujtahidlarga taqlid qiladi xolos. Ulamolarning tutgan yo‘llari haqida mashhur muhaddis Zahabiy: «Biz, to‘rt imom (Abu Hanifa, Molik, Shofeiy, Ahmad), ikki Sufyon (Sufyon Savriy va Sufyon ibn Uyayna), Avzoiy, Dovud Zohiriy, Ishoq ibn Rohuvayh va boshqa imomlar haq yo‘lda bo‘lganlar, deb ishonishimiz lozim. Ular o‘zlari haqda aytilayotgan ayb (gap)lardan pok bo‘lib, ularga e’tibor qaratilmaydi.

Boshqa mujtahid muayyan bir mazhabga ergashishi shart... Ikki haram imomi (Juvayniy) ta'kidlaganidek, sahobiy va tobeiylarga ergashib bo'lmaydi, Chunki ularning mazhabi yozilmagan va shakllantirilmagan. Qozilik masalalari va fatvo berishda to'rt mazhabdan boshqasiga taqlid qilinmaydi», degan. Boshqa bir olim Tojuddin Subkiy Shunday yozadi: «Ushbu to'rt mazhab (hanafiy, molikiy, Shofeiy, hanbaliy), Alloh rahmati ila, e'tiqodda bir bo'lgan. Ularning ayrim izdoshlari mo''taziliylar va mujassimaga qo'shilib ketganlariga qaramasdan, mutlaq ko'pchiligi haqiqatga rioya qilganlar...». «Ahli sunna val-jamoa» olimlari to'rt mazhabdan biriga taqlid qilish shart ekani borasida ixtilofga bormaganlar.

**Xulosa** qilib aytish mumkinki, islomdagi fiqhiy mazhablar musulmonlarning birligini saqlashga va xalqning diniy hukmlarga rioya etishlaridagi qiyinchiliklari oldini olishga xizmat qilgan. Biroq mazhablarni inkor qilish musulmonlar qalbiga turli Shubhalarni solish barobarida sof islom aqidasini buzish va jamiyatda ixtilofli holatlarni keltirib chiqarishga qaratilgan.

### Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:

1. Islomda ilk bo'linish qaysi yili bo'lib o'tgan?
2. Fiqhiy mazhablarning paydo bo'lishiga qanday omillar bo'ldi?
3. Imom Abu Hanifa kim va u qanday mazhabga asos soldi?
4. Mazhabsizlik da'vo qilayotgan buzuq qarashlarning qanday salbiy oqibatlari bor?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Islom tarixida ixtiloflar va ularning xal etilishi.
2. Fiqhiy mazhablar tarixi.
3. Hanafiy mazhabi manbalari.
4. Salafiylik va uning tarixi.

### Adabiyotlar

1. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir SHayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.

2. Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. –

Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.–160 b.

3. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya sharhining talxiysi. – Toshkent: 2015. – 448 b.

4. Ochildiev O., Rahimjonov D., Muhamedov N. Va boshq. Dinshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 320 b.

5. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., va boshq. Dinshunoslik. – Toshkent: Mehnat, 2004. – 296 b.

6. Abdullaev A., Hakimova N., Jo‘raev SH., Karimov J. Ilmdan boshqa najot yo‘q. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 156 b.

7. W.MontgomeryWatt. Islamic philosophy and theology. Edinburg.1985.

8. Robert Audy. The Cambridge dictionary of philosophy, second edition. Cambridge university press. 1999.

9. William J. Wainwright. The Oxford Handbook of Philosophy of Religion. University of Wisconsin, Milwaukee.2010.

10. Phillip wodzinski. kant’s doctrine of religion as political philosophy. Boston college.2009.

11. John R. Hinnells. The Routledge Companion to the Study of Religion. Routledge.2005.

## TARQATMA MATERIALLAR:




**2-ilova**




**3-ilova**



**4-ilova**




**5-ilova**




**6-ilova**



**7-ilova**




**8-ilova**




**10-ilova**



## 4.2. O’ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGI

**REJA**:

1. O’zbekistonda vijdon erkinligining ta’minlanishi.
2. Vijdon erkinligi to’g’risidagi qonun va qo’shimchalar haqida.
3. Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati.
4. Missionerlik faoliyatida ijtimoiy tabaqalar bilan ishlash strategiyasi.
5. Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari.
6. Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari.

**Tayanch tushunchalar:** *diniy tashkilotlar, vijdon erkinligi, erkinlik, ozodlik, missionerlik, prozelitizm, sekta, diniy sektalar, diniy tashkilotlar, iegovo shohidlari, ettinchi kun adventistlari, missiya, Bibliya jamiyati.*

**Mavzu o‘quv maqsadi:** O’zbekistonda vijdon erkinligining ta’minlanishi, Vijdon erkinligi to’g’risidagi qonun va qo’shimchalar haqida ma’lumot berish hamda missionerlik va prozelitizmning asl maqsadlarini tushuntirish, missionerlik tashkilotlarining vazifalarini ko‘rsatish, ularning salbiy oqibatlarini bayon qilish.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala bo‘lib, kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog‘lom va barkamolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va bajaradigan vazifalari g‘oyat muhimdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlari vijdon erkinligi masalasi o‘z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul kilingan inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o‘z dini yoki e’tiqodini o‘zgartirish erkinligini, o‘z dini

yoki e'tiqodiga uzicha, Shuningdek boshqalar bilan birgalikda amal qilish 0kafolatini ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar orasida birga katnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari bu masala yana bir murakkab hodisani – turli dunyoqarash, e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi.

Odamlar doimo turli dunyoqarash va e'tiqod bilan yashaganlar va yashaydilar. Har kimning o'z ichki dunyosi, o'z e'tiqodi bo'ladi. U o'z hayotida ana Shularga amal qiladi, Shular bilan yashaydi, ularni himoya qiladi. Ammo bunday xilma – xillik, qarama – karshilik aqida va g'oyalarning mavjudligi murosasiz ziddiyatlarga, jiddiy tuqnaShuvlarga olib kelmasligi, odamlar, qavmu-millatlar, dinu mazhablar, Mamlakatu davlatlar o'rtasidagi Yaxshi munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga to'siq, sun'iy g'ov bo'lmasligi kerak. Xamma gap Shundaki, e'tiqodlar o'rtasida nizolar tug'ilmasligi lozim.

Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tuShuncha emas, u albatta ma'lum ijtimoiy vaziyatda namog'n bo'ladi. Shuning uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, ob'ektiv va sub'ektiv omillarisiz tasavvur qilish o'iyin. Bundan tashkari «vijdon erkinligi» tuShunchasini ilmiy talqin qilishda albatta milliy, mafkuraviy, madaniy va sinfiy omillarni ham nazarda tutish kerak.

Vijdon erkinligi dinga ishonuvchilarni majburan o'z e'tiqodlaridan qaytarib, dinni ma'muriy tarzda taqiqlab qo'yishning har qanday nazariy va amaliy ko'rinishlariga chek qo'yadi. Shuningdek, u jamiyatdagi barcha dinlar, cherkov va diniy birlashmalar, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi kishilarni teng huquqli deb biladi, biron bir dinni imtiyozli, boshqa dinlardan ustun qilib kuymaydi. Shu bilan birga jamiyatda ilmiy dunyoqarashning qaror topishini vijdon erkinligining amalda namog'n bo'lishi belgilaridan biri deb hisoblaydi.

Hayotni qayta qurish, madaniy inqilobini amalga oshirish, «odamlarni eskilik sarqitlaridan xalos qilish» va Shu kabi shiorlar ostida va ko'pincha ma'muriy va

o‘zboshimchalik yullari bilan minglab cherkov, masjid, ibodatxonalar, maktab, seminariya, akademiyalar yopib qo‘yildi, din peshvolari, ruhoniylari va ko‘pgina dinga ishonuvchilar qatag‘on qilindi.

Bunday mudhish jarayonlarda ayniqsa chekka o‘lkalarda, Shu jumladan Markaziy Osiyoda g‘oyat keskin va dahshatli tus oldi. Birgina respublikamiz hududida 24 mingdan ortiq masjid yopildi, ularning binolari buzib tashlandi. Mahalliy aholi musulmonlari uchun aziz, muqaddas bo‘lgan xalqning tarixiy va madaniy merosi hisoblangan yuzlab obidalar, maqbaralar, maktabu madrasalar xarobalarga aylantirildi. Toshkent shahridagi 26 madrasadan 1930 yilda 23 tasi buzib tashlandi. Dindorlik uchun odamlar quvg‘in qilindilar, ularning molu mulklari musodara etildi. Bunday qonunsizliklarga chidolmay, shahar va kishloq aholisidan anchagina qismi qo‘shni mamlakatlar – Afgoniston va Sharqiy Turkistonga qochib ketishga majbur bo‘ldi. Aholini tezroq savodxon va ma’rifatli qilish» bayrog‘i ostida asrlar bo‘yi xalqning madaniy boyligi, ma’rifat quroli, milliy g‘ururi bo‘lib kelgan arab kalligrafiyasiga asoslangan alifbo bekor qilinib, 11 yil ichida (1929-1940 yillarda ) avval lotin, so‘ng rus imlolari majburiy joriy etildi. Bu katta ma’naviy falokat edi, albatta, Chunki mahalliy xalqlar bu bilan o‘z o‘tmishidan, boy tarixi va madaniy merosi-dan, ajdodu avlodlari yaratgan boyliklardan mahrum bo‘lishga maxkum etildi. O‘adimiy madaniyat va ma’rifat o‘chog‘i bo‘lgan zamin, dunyoga mashhur olimu mutafakkirlar etishtirib bergan xalqlar endi «savodsiz», «qoloq», «madaniyatsiz» ga chiqarib qo‘yildi.

Arab alifbosidagi barcha kitobu risolalar taqiq ostiga olindi, ularga «xavfli, yot nashrlar» tamg‘alari bosildi. Bebaho va nog‘b kitoblar esa o‘lja sifatida markazlarga olib ketildi. Yuz minglab kitoblar, shu jumladan falsafa, huquq, tarix, fizika, ximiya, tibbiyot, astronomiya va texnika fanlariga oid adabiyotlar gulxanlarda yoqib tashlandi, eski kitoblarni saqlaganlar esa jinoyatchi hisoblanib, javobgarlikka tortildi.

Vijdon erkinligi prinsiplarini izchillik va qat’iyat bilan amalga oshirishda barqarorlik etishmas edi. Masalaga yondoshish va uni hal etishda ko‘pincha

mavsumiylik, gox u chekkaga, goh bu chekkaga og‘ib ketishlarga yo‘l qo‘yilar edi. Masalan, Ulug‘ Vatan urushi yillarida ahvol birdan jiddiy o‘zgardi. Dinga ishonuvchilar va ishonmovchilarni, davlat bilan diniy tashkilotlarni bir – biriga qarama – qarshi qo‘yish mamlakat xavf ostida to‘rgan payitda nao‘adar xatarli ekanligi hammaga ma’lum edi. Ko‘pchilik diniy uyushmalar, dinga ishonuvchilar dushmanga qarshi kurashning birinchi kunlaridayonoq o‘z vatanparvarlik burchlarini amalda namoyish qila boshladilarki, buni sezmaslik va hisobga olmaslik mumkin emas edi. 1943 yilda ilgari tugatib yuborilgan pravoslav cherkovi patriarxligi yana tiklandi, xuddi Shu yili O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi tashkil etildi. Buxorada Mirarab madrasasi ish boshladi, musulmonlarga haj qilishga ruhsat etildi.

Ammo 1960 yillarga kelib ahvol yana jiddiylasha boshladi. Turg‘unlik davrida diniy birlashmalarini ruyxatga olish, dindorlarning konstitu-sion huquqlaridan foydalanishi nihoyat darajada cheklab qo‘yildi. Oddiy bir masjid yoki ibodatxonani ochish masalasi ham bevosita Moskvada hal qilinadigan bo‘lib qoldi. Keyingi 25 yil mobaynida (1961-1986 yillar ) mamlakatda musulmon diniy uyushmalarning soni 1546 taga kamayib ketdi.

Agar 1984 yilda mamlakat buyicha hammasi bo‘lib 7 ta musulmon uyushmasi ruyxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa, 1985 yilda – 2 ta, 1986 yida 2 ta, 1987 yilda esa 7 ta, turt yil mobaynida jami bo‘lib, 18 ta uyushma ro‘yxatdan o‘tkazildi yoki boshqacha qilib aytganda, butun mamlakat buyicha 18 masjid ochildi, xolos. Ammo buning natijasida dindorlik kamaygani yo‘q, dinga ishonuvchilar e’tiqodlarini o‘zgartirganlari ham yo‘q. Din maxalla, xonadonlar, kishilar o‘albiga, ichki dunyosiga yanadan chuqurroq kirib boraveradi. Ruxsat etilmagan ibodat xonalar, masjidlar «maxfiy» diniy maktablar soni ko‘payaverdi. Shunday qilib dinga nisbatan qo‘llanilgan ko‘p yillik ma’muriy zuravonlik siyosati jamiyatimizga juda katta zarar keltirdi.

Mustaqillik tufayli vijdon erkinligi prinsiplarini tiklash va unga og‘ishmay amal qilish bu davr, kundalik hayot talabi va zaruriyatiga aylanib qoldi. Zaruriyat

qonuniy negizga tayanmogi kerak, qonun esa har doim harakatda, ishda bo‘lmog‘i darkor. 1991 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» gi yangi Qonunni qabul qildi. Qonun loyixasini tayyorlashda keng jamoatchi-lik vakillari, xalq deputatlari, olimlar, mutaxassislar, turli millat va din vakillari faol ishtirok etishdi. Bu qonun o‘z ruhi va mazmuni bilan ilgarigi qonunlardan katta farq qiladi.

Qonunning «Umumiy qoidalar» bobida vijdon erkinligining asosiy prinsiplari, vazifalari, ularni amalga oshirish yo‘llari, qoidalari va kafolati, fuqarolarning bu sohadagi huquq va burchlari bag‘n etilgan.

Qonuning 3 – moddasida har bir fuqaro dinga munosabatini o‘zi Mustaqil aniqlashi, u har qanday dinga e’tiqod qilish yoki xech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi va bu huquq esa O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanajagi takidlangan.

Yangi qonun ota – onalarga yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga o‘z bolalarini dinga o‘z munosabatlariga muvofiq ravishda tarbiyalash huquqini beradi.

O‘zbekiston fuqarolari dinga munosabatlaridan qat’iy nazar, respublika qonunlari oldida teng huquqlidirlar. Ularning huquqlarini dinga yoki dahriylikka munosabatlariga qarab cheklab qo‘yish yoki imtiyozlar berish, ular o‘rtasida nifoq va nafrat qo‘zg‘otish yoki fuqarolarning tuyg‘ularini haqoratlash kabi harakatlar qonun asosida o‘oralanadi va bu ishda aybdor bo‘lgan kishilar qonun oldida javobgardirlar. O‘z diniy e’tiqodini sabab qilib qonunda belgilab qo‘yilgan burchlarini bajarishdan hech kim buyintovlashi mumkin emas.

Yangi qonunda O‘zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi ko‘rsatilgan. Bu degani davlat diniy masalalar bilan Shug’ullanmaydi, diniy tashkilotlar (masjidlar) diniy boshqarma ishlariga aralashmaydi. Din va Diniy tashkilotlar ham davlat (hokimiyat) ishlariga aralashmasligi lozim. Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga biror davlat vazifasini yuklamaydi, diniy tashkilotlarning faoliyati qonunlarga zid kelmasa, unga

aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi, siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashmaydi va ularni mablag‘ bilan qo‘llab quvatlamaydi, davlat qonunlari va huquq – tartibotiga rioya qiladi. Lekin diniy tashkilotlar jamoat ishlarida ishtirok etish huquqlariga egadirlar.

Fuqarolar dinga bo‘lgan munosabatlaridan qat’iy nazar, ta’limning xilma – xil turlari va darajalarini egallashlari mumkin. Belgilangan qoidalar asosida davlat organida ruyxatdan Nizomga asosan o‘tish, fuqarolar uchun diniy tashkilotlar maxsus o‘quv yurtlari tashkil etishlari mumkin. Har bir fuqaro o‘zlari tanlab olgan tilda yakka o‘zi yoki boshqalar bilan birgalikda, Shu jumladan uyda va diniy tashkilotlar huzurida diniy ta’lim olishlari mumkin.

Yosh bolalarga tashkiliy ravishda diniy bilimlar berish ular faqat maktab yoshiga etgandagina, maktabdagi darslari tomom bo‘lgach, Shu o‘quvchilarning ota – onalarini yoki ota – onalar o‘rnini bosuvchi kishilarning yozma ruxsatnomalari bo‘lgandagina ruhsat beriladi. Yosh bolalar voyaga etgach, diniy bilim olish – olmasligini o‘zlari hal qiladilar.

Diniy ta’lim beruvchilar maxsus diniy ma’lumoti bor kishilar bo‘lib, bolalarni o‘o‘itish uchun diniy boshqarmaning, markazning ruhsatnomasiga ega bo‘lishi kerak. Xususiy diniy ta’lim berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bu qonun – qoidalarni buzganlar qonun oldida javobgardirlar. YAngi Qonunda diniy tashkilotlar (jamiyatlar, markazlar va boshqarmalar)ning faoliyati, huquq va vazifalariga alohida o‘rin berilgan.

Diniy tashkilotlar (diniy jamiyatlar, boshqarmalar, markazlar, monastirlar, diniy o‘quv yurtlari, birlashmalar va boshqalar) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan o‘z Nizomlari asosida ish yuritadilar. O‘zbekiston Respublikasida diniy xarakterga ega bo‘lgan partiyalar, respublikadan tashqaridagi diniy partiyalarning bo‘lim yoki filiallarini tuzish ham man etiladi. Diniy boshqarmalar va markazlar o‘z Nizomlariga ko‘ra diniy o‘quv yurtlari tashkil etishlari va ularda masjidlar, diniy boshqarmalarda, markazlarda ishlaydigan

ruhoniylar tayyorlashi mumkin. Diniy o‘quv yurtlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ruyxatdan o‘tishi shart.

Davlat qarmog‘idagi o‘quv yurtlari uchun qabul qilingan huquqiy normalar diniy o‘quv yurtlari uchun ham bab – baravar taalluqlidir.

Qonunchilikka muvofiq diniy jamiyatning tashkil topishida 18 yoshga to‘lgan va undan katta yoshli bo‘lajak jamiyat a’zolari tuman xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, O‘orakalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri Adliya vazirligi idoralariga o‘z Nizomlari va arizasini topshiradilar. Nizomi ruyxatdan o‘tkazilgan diniy jamiyatgina huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘ladi. YUqorida ko‘rsatilganidek, har qanday fuqaro 18 yoshga to‘lgandan keyin diniy jamiyatga a’zo bo‘lishi mumkin. Diniy jamiyat tashkil etish uchun unga bir xil e’tiqodga ega bo‘lgan kamida 10 kishi a’zo bo‘lishi kerak.

Diniy tashkilot Nizomi davlat qonunlariga zid bo‘lmasligi kerak. Agar diniy tashkilot Nizomi O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi» Qonuniga va mamlakatning boshqa qonuniy xujjatlariga zid bo‘lsa, diniy tashkilotlarning ushbu Nizomi ro’xatga olinmaydi.

Diniy jamiyat amaldagi qonuchilikni va respublika Konstitutsiyasini buzsa yoki dindorlarning ko‘pchiligi jamiyatni ruyxatdan o‘chirishni iltimos qilsa, bunday sharoitda diniy tashkilot faoliyati to‘xtatiladi. Jamiyatni ro‘yxatga olgan tegishli maxalliy organ idorasi bu haqida o‘z qarorini chaqirishi shart.

Diniy tashkilotlar o‘z mulklariga ega bo‘ladilar. Binolar, din bilan bog‘liq buyumlar, ishlab chiqarish, ijtimoiy va hayriya ishlariga mo‘ljallangan inshootlar, pul mablag‘lari hamda diniy tashkilotlar faoli-yatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan boshqa mol-mulk diniy tashkilotlar-ning mulki hisoblanadi. Mahalliy hokimiyat va davlat idoralari sajdagoh imoratlari va davlat mulki bo‘lgan boshqa mol-mulkni diniy tashkilotlarga mulk qilib berishi mumkin. Shunisi e’tiborga molikki, diniy tashkilotlarga tushadigan moliyaviy va mulkiy xayriyalardan, Shuningdek, fuqarolardan tushgan mablag‘lardan soliq undirilmaydi.

Qonun asosida diniy tashkilotlarga ishlab chiqarish, ta'mirlash – ko'rish, qishloq xo'jaligi korxonalarini, Shuningdek, huquqiy shaxs huquqiga ega bo'lgan xayriya muassasalari (etimxonalar, internatlar, shifoxonalar va boshqalar) ta'sis etish huquqi berilgan. Ularning ishlab chiqish faoliyatidan keladigan foydadan ijtimoiy tashkilotlar korxonalardan olinadigan hajmda soliq olinadi.

Qonunda fuqarolarning diniy e'tiqod, rasm-rusum va marosimlarida qatnashish bilan bog'liq bo'lgan huquqlariga katta o'rin berilgan.

Diniy tashkilotlar odamlar erkin kela oladigan ibodat yoki diniy yigilishlar joylariga, Shuningdek, u yoki bu din muqaddas hisoblaydigan joylarga (tavof joylarga) asos solish va saqlashga haklidirlar. Ibodat, diniy rasm-rusum va marosimlar o'tkazish mahalliy hokimyat tomonidan taqiqlanmaydi. Ular ibodat qiladigan binolar va uning atrofidagi hududlarda, tavof etiladigan joylarda, diniy tashkilotlarda, muassasalarda, kabristonlarda fuqarolarning xonadonlari va uy-joylari hech qanday to'sqinliksiz o'tkaziladi. Kasalxonalarda, gospitallarda, qariyalar va nogironlar uylarida, dastlabki qamoq joylarida va jazoni o'tash joylarida ibodatlar va diniy marosimlar ulardagi fuqarolarning iltimosiga muvofiq va ma'muriyatning kumaklaShuvida o'tkaziladi.

O'zga hollarda ommaviy ibodatlar, diniy rasm-rusumlar va marosimlar, mitinglar, ko'cha yurishlari o'tkazish uchun belgilangan tartibga amal kilinadi. Fuqarolar va diniy tashkilotlar o'zlari hohlagan tildagi diniy adabiyotni, Shuningdek diniy marosimlarda foydalanadigan boshqa buyumlar va materiallarni sotib olishga va foydalanishga haqlidirlar. Diniy tashkilotlar diniy adabiyot, diniy mazmundagi axborot materiallarini tayyorlash, eksport va import qilish, tarqatish va ularni ishlab chiqaradigan korxonalarni ta'sis etish huquqiga egadirlar.

Diniy tashkilotlar xayriya, mehr-muruvvat faoliyatini amalga oshira-dilar. Fuqarolar va diniy tashkilotlar xalqaro aloqalarda qatnashadilar, tavof qilish, yig'ilishlarda va boshqa diniy tadbirlarda qatnashish uchun chet mamlakatlarga chiqishga haqlidirlar. Diniy tashkilotlar diniy ta'lim olish uchun fuqarolarni chet

elga yuborishlari va chet el fuqarolarini ta’lim olish uchun qabul qilishlari mumkin.

Diniy tashkilotlar fuqarolarni ishga olishga xao‘lidirlar. Ular o‘rtasida mehnat munosabatlari bitim va shartnomalarda o‘z ifodasini topadi. Diniy tashkilotlarda mehnat shartnomasi asosida ishlovchi fuqarolar kasaba uyushmalarining a’zolari bo‘lishlari mumkin. Ular davlat va jamoat korxonalari va tashkilotlari ishchilari va xizmatchilari bilan baravar soliq to‘laydilar, ijtimoiy ta’minlanish va sugurta qilish xizmatlaridan foydalanadilar, umumiy asosda pensiya olishga haqlidirlar.

Qonunning oxirgi, oltinchi bobi davlat idoralari va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarga bag‘ishlangan. Bu munosabatlar endilikda, albatta, shakl va mazmunga egadir. Davlat idoralari diniy tashkilotlarning ichki ishlariga aralashmaydilar. Mazkur qonunning 29-moddasi alohida e’tiborga molikdir. Unda bayon etilishicha, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Konunni buzgan mansabdor kishilar va oddiy fuqarolar qonun oldida javob berishlari ko‘rsatilgan.

Birinchidan, mazkur qonunda dindorlarning erkin e’tiqod qilishiga alohida e’tibor berilgan. Avvallari, agar har bir diniy marosimga turli bahonalar bilan tano‘idiy baho berilgan bo‘lsa, endilikda bu narsaga chek qo‘yildi. Ikkinchidan, qonunda dindorlar ham, dahriylar ham O‘zbekiston qonunlari oldida teng huquqliligi ko‘rsatilgan. Undan tashkari avvallari diniy ibodatxona olish uchun 20 voyaga etgan kishilar yoki 18 va undan ortiq kishilar O‘zbekistonning tegishli organlariga ariza berishlari kerak bo‘lsa, endilikda ularning soni 10 kishiga kamaytirilgan.

Uchinchidan qonun vijdoniy e’tiqodga, uning dunyoviy va diniy shakllariga erk beradi, ularni Mustaqil, teng mavjudligini va nizosiz ish olib borishlarini ta’minlaydi, ularni qo‘llab-quvvatlaydi, g‘ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qiladi. Chunonchi, vijdon erkinligi huquqini 1992 yilda qabul kilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi himoyalaydi. Uning 31-moddasida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolat-lanadi. Har bir inson hohlagan dinga e’tiqod qilish yoki

xech o‘aysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi» deyilgan. Shunday ekan, O‘zbekiston Konstitutsiyasi va vijdon erkinligi qonuniga binoan har bir fuqaro dindor bo‘lish yoki bo‘lmaslikni shaxsan o‘zi belgilaydi. Dindorlar bilan dahriylar orasida bu masalada munosabatlarni keskinlaShuviga yo‘l qo‘yilmaydi, har qanday ekstremistik harakatlar o‘oralanadi va bu ishlarni tashkilotchilari va qatnashchilari qonun oldida javob beradilar.

Qonun boshidan oxirigacha vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyatini amalga oshirishni respublikada tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlikni ta’minlash bilan, jamoat xavfsizligini, fuqarolarning huquq va manfatlarini doimo muxofaza qilish bilan birga olib borishni ko‘zda tutadi. Qonun dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ‘ibot olib borish, nifoq, nafrat qo‘zg‘atish, millatlararo adovat uygatish hamda davlat manfatlariga va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qarshi qaratilgan boshqa xatti – harakatlar qilish, qonuniy ravishda va demokratik yo‘l bilan tuzilgan hokimiyat va boshqaruv idoralariga hamda davlat vakillariga nisbatan g‘ayriqonuniy usullar bilan tazyiq o‘tkazish uchun foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar biron-bir siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etmaydilar va ularga moliyaviy yordam bermaydilar. Diniy tashkilotlar boshqa idoralar kabi mamlakatimizda osoyishtalik, xalqlaro tinchli, O‘zbekistonning Mustaqilligi yo‘lida olib borilayotgan ishlariga munosib hissalarini qo‘shishlari lozim.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi vijdon erkinligi to‘liq ta’minlangan. Vijdon erkinligi-fuqarorlarning u yoki bu dinga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqidir.

1998 yilda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» gi qonuning 5-moddasiga ko‘ra: «Davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab quvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan hatti-xarakatlar (prozelitizm), Shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi» deb belgilab qo‘yilgan.

Missionerlik deganda nima tushunamiz?

Missionerlik (missiya-lotincha yuborish, topshiriq) – biror dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dini targ‘ib qilish demakdir.

Missionerlik asosan, xristianlikka xos bo‘lib, bu xarakat xristian-lik Vizantiya imperasida davlat dini sifatida e’lon qiliganidan e’tiboran olib boriladi. Mazkur xarakatning ilk davrida xristian missionerlari o‘zlarining missionerlik xarakatlarini Yevropa va Yaqin Sharqdagi ko‘p xudolikka sig‘inib kelgan aholini yakka xudolikka tarqib qilishdan iborat deb ko‘rsatganlar.

Keyinchalik bunday qarashlari eskirdi, xususan hozirgi vaqtda kelib, jahon aholisining deyarlik 80-90 foizi o‘z diniga, aksariyat hollarda yakka xudolikka ega bo‘lgan davrda «missionerlik» va ayniqsa, «prozelitizim» salbiy bir holatga aylanib qoldi.

Bugungi kunda O‘zbekiston misolida oladigan bo‘lsak, mahalliy xristian diniy tashkilotlarining «misionerlik» xarakatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahalliy-tub aholini «evangelizatsiya» qilishga, ya’ni o‘z diniga og‘dirishga qaratilgani namoyon bo‘ladi.

O‘sha davrdagi evangellashtirshni bugungi kunda hududimizda tatbiq etish to‘g‘ri bo‘larmikan va shartmikan? bugungi kunda mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamiz fuqarolarning 99 foizi o‘zini qaysidir bir diniy yo‘nalishiga tegishligini ma’lum qilgan, Shundan 90 foiziga Yaqini musulmonlar, 7-8 foizini pravoslavlar va boshqa din vakillari tashkil etadilar. Mazkur fuqarorlarning deyarli hammasi yakka xudolikka ishonadilar. Garchi Shunday ekan, ularni yana qanaqangi yakka xudolik, «haqiqiy» dinga etaklash mumkin.

*Xristian missionerlik tashkilotlarning maqsadlari asosan uch nuqtaga qaratilgan:*

1.Xalqlarni xristianlashtirish. Shu orqali ularni iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan g‘arb davlatlari ta’sir doirasiga tuShurish.

2.Xalqlar o‘rtasida o‘z e’tiqodiga Shubha uyg‘otish ishonch va e’tiqoddan yuz o‘girish va undan chiqqishiga olib kelish.

3.Xristianlikni qabul qilganlarni o‘z e’tiqodida qattiq turishini ta’minlash va Shu orqali ularning safini «Yangi xristianlar» bilan to‘ldirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun ular hech nimani ayamaydilar va doimo o‘z uslub va metodlarini takomillashtirib boradilar, jumladan mamlakatimiz hududida faoliyat yuritayotgan ba’zi xristian diniy tashkilotlari quyidagi usullaridan o‘zlarining missionerlik xarakatlarida foydalanadilar:

-xayriya yordamini ko‘rsatish, bunga birinchi navbatda moddiy yordam kiradi, tibbiy yordam, dori-darmon topib berish hamda oziq-ovqat bilan ta’minlash ham xayriya yordami hisoblanadi. Bunday harakatlari bilan ular o‘zlari haqida ijobiy xulosa yoki bahoga ega bo‘ladilar. Hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga muvaffaq bo‘ladilar:

- bepul xristianlikni targ‘ib qiluvchi mahalliy tilda chop etilgan, juda sifatli rangli ishlangan kitob va jurnallarni tarqatish.

- xristianlikga chaqiruvchi video-audio kassetalarni tarqatish;

- tibbiy, ta’lim-tarbiya sohasiga maxsus kadrlarni yuborish (tibbiy xizmatchi, o‘qituvchi-murabbiy);

- missionerlik ruhidagi kutubxona, ingliz tili va kompyuter o‘rgatish xonalarini tashkil etish;

- o‘z saflariga qo‘shilganlarni moddiy rag‘batlantirish, ularni xorijiy safarlarga yuborish va ish bilan ta’minlash.

Missionerlik harakatida yana bir holatini alohida ajratish lozim. Bu ma’lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olish va bilan maqsadli ish olib borish. Jumladan, yoshlar bilan ishlashning turli missiyalari mavjud bo‘lib, ulardan biri bolalar uchun xristian lagerlarini tashkil qilish. «Xalqaro xristian lagerlari» assotsiatsiyasining bugungi kunda 200 ga Yaqin lagerlari mavjud. O‘zbekistonda ham ularning borligi 90-yillardakuzatilgan. Nukusda «Emanuel» tashkiloti lager tashkil qilgan uchun yopilgan.

Qozog‘istonda «Niva» lageri («Jatva» cherkoviga oid) da oxirgi 5 yil ichida 3000 ta bola dam olgan. Ularning 80 % e’tiqod qilmaydiganlar oilasidan bo‘lgan.

Lager dasturiga ko‘ra, lager mavsumi tugashiga borib (15 kun ichida), dam oluvchilarning yarmi Iso Masihni tan olgan.

Missionerlikning bizning respublikaga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri-bu xristian diniy tashkilotlarida o‘zbek va boshqa mahalliy tillarda diniy ibodatlar olib borishga harakat qilishdir.

Ikkinchisi-bu mahalliy millat vakillari orasida o‘zbek va boshqa mahalliy tillardagi diniy adabiyotlarni tarqatish va ulardan foydalanish: «U murabbiydir», «Xudo tayin qilgan qurbonlik», «Iso Masihning shogirdlari «Xudo» so‘zi o‘rnida «Alloh» so‘zini ishlatilari mumkinmi?», «Xudo muqaddas uchlikda birlashgan», «Shaxsan menga Xudo murojaat qilyapti», «U sizni sevadi» va h.k.

Mazkur ko‘riinishdagi missionerlik harakatini eng ko‘p olib boradiganlar, hozirgi kunda, bu «Iegova shohidlari» diniy tashkiloti vakillaridir. Ularning vakillarini jamoat joylarida, xiyobon va mahallalarda ochiqdan-ochiq missionerlik ruhidagi adabiyotlarini tarqatishlarini kuzatish mumkin.

Missionerlik bilan faol Shug‘ullanuvchi «Iegov shohidlari» sektasida ta’sir etish mexanizmlari aniq va lo‘nda qilib ishlangan. Bu yo‘nalish 19-asrning 70-yillarida AQSHda vujudga kelgan. Bugungi kunda jahonning turli mamlakatlarida 100 ga Yaqin bo‘linmalariga ega. Bu tashkilot qat’iy markazlashgan bo‘lib, uning boshqaruvchi raisi cheklanmagan hokimiyatga ega. Yuqoridan pastga ko‘rsatmalar va adabiyotlar, pastdan yuqoriga hisobotlar yuborib turiladi. «Iegov shohidlari» o‘zining matbuot organiga ega. «Posbon minora», «Uyg‘on». Bu jurnallar jahon xalqlarining 160 dan ziyod tilida nashr qilinib, dunyoning turli burchaklarida tarqatiladi.

Ularning tarqatayotgan adabiyotlari didli, rangli va chiroyli manzaralar bilan tasvirlangan. «Jalb etuvchilar»ning ovoz ohanglari tinchlantiruvchi va mehrli sado etadi. Mutaxassislarning aytishicha, «Iegov shohidlari» sektasi a’zolari jalb etishning 86 xil usulidan foydalanar ekanlar.

Ular ko‘pincha quyidagi turdagi kishilarni o‘z ta’sir doiralariga olishga urinadilar.

-birinchi va to‘rtinchi kurs talabalari;

-keksalar, ayniqsa, endigina nafaqaga chiqqanlar va yolg‘iz qariyalar;

-o‘z o‘rnini topishga intilayotgan o‘smirlar;

-kuchli stressni (kasallik, Yaqin odamining vafoti, ajralish va x.k.) boshidan kechirayotganlar;

-qochoqlar, bemorlar va ishsizlar.

YAna bir missionerlik harakati bilan Shug‘ullanayotgan diniy tashkilot «To‘liq injil xristian cherkovi»dir. Ular ba’zi ibodat uylarida o‘zbek tilida ibodatlarni olib bormoqdalar, modiy yordam ko‘rsatish orqali o‘z dinlariga da’vat qilishga harakat qilmoqdalar.

Missionerlik faoliyatining eng cho‘qqisi bu prozelitizm. Prozelitizm – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga ishongan fuqaroni majburan o‘z dinidan voz kechtirish va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iborat.

Prozelitizm illatining ba’zi bir noxush natijalarini keltirish mumkin: bir qancha vaqt islom dinida yurib, keyin xristian dinini qabul qilgan kishilar vafot etganda, jasadlarini musulmon qarlariga qo‘yish muammo tug‘dirmoqda. Sababi, mayitning musulmon ota-onalari o‘z farzand-larini xristian mozoriga dafn etishni xohlamaydilar. Musulmonlar esa, xristian dini vakili jasadini o‘z musulmon birodarlari yotgan joyga ular uchun haqorat deb biladilar. Natijada kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Missionerlik qonun orqali ta’qib qilinib turiladi: O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi qonunan kafolatlangan. Har bir fuqaro xohlagan diniga e’tiqod qilishi mumkin. Davlat va diniy tashkilotlar bir-biridan ajratilgan. Shu bilan birga diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik, totuvlik va daxlsizlikni ta’minlash maqsadida prozelitizm (bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qatilgan xatti-harakatlar) va har qanday missionerlik faoliyati qonunan man etilgan.

Ushbu qoidaning buzlishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortiladilar.(Jinoyat kodeksining 216(1), 216(2) moddalari)

Aholining, xususan soha mutaxassislarining, missionerlik xaqida ma’lumotga ega bo‘lishlari ularning burch va vazifalari sanaladi. Chunki yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Islom-bu ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz dini. Uni tashqi ta’sir, buzg‘unchi unsurlardan tozalash muqaddas burch sanaladi.”

Mustaqil respublikamizdagi ayrim oilalarning, xususan, yoshlarning ota-bobalarimizning muqaddas islom dinidan voz kechib, xristian missionerlari domiga ilinayotganini inobatga olsak, bu faoliyat tinch-totuv yashayotgan xalqimiz o‘rtasiga solinayotgan rahna-adovat ekani kunday ravshan bo‘lib qoladi.

Missionerlik ta’siriga tushib qolmaslik uchun ham uni bilishimiz, u haqida quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz lozim ekan.

Birinchidan, xushyor bo‘lishimiz, loqaydlikka berilmasligimiz kerak bo‘ladi, Chunki “Vatan”, “millat”, “imon-e’tiqod” bu muqaddas tushunchalardir. Uni hech narsaga almashtirib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, har bir inson biror narsa haqida to‘g‘ri tuShunchaga ega bo‘lishi darkor. Hech kimning biror narsani, hattodinni ham noto‘g‘ri, yanglish va bo‘yab talqin qilishga xaqqi yo‘q va bo‘lmasligi kerak.

Uchinchidan va eng muhimi fuqarolar uchun nima kerak va muhim va nojoiz va kerak emasligini yana bir eslatib qo‘yish lozim bo‘ladi.

**1. Missionerlik va prozelitizmning mazmun-mohiyati.** Missionerlik so‘zi asli lotincha bo‘lib, «yuborish», «vazifa topshirish» degan ma’nolarni anglatadi.

Missionerlik bilan yonma-yon ishlatiladigan prozelitizm esa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qilishga qaratilgan harakatlarni anglatadi. U o‘z mohiyatiga ko‘ra missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini xristian missionerlari tashkil etadi. Dastlabki xalqaro xristian missiyalari, 1910 yilda Shotlandiyaning Edinburg shahrida paydo bo‘lgan edi. Bugungi kunda yuzlab Shunday maqomga ega missiyalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularni yanada rivojlantirish, etarli moddiy, ma’naviy va inson resurslari bilan ta’minlash juda

Yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Odatda, xalqaro missiyani tashkillashtirishda ma’lum bir konfessiyaning barcha shaxobchalari qatnashadi. Masalan, tashkilotning nashriyoti uni tegishli adabiyotlar bilan ta’minlasa, tadqiqot markazi muayyan mamlakat aholisi, uning hayot tarzi, urf-odatlari, zaif tomonlari haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish va diniy adabiyotlarni mahalliy tillarga tarjima qilish bilan Shug‘ullanadi. Missiyani moddiy-moliyaviy ta’minlashda ishlab chiqarish tuzulmalarining, missioner kadrlar tayyorlash va ko‘ngilli homiylarni topishda missionerlik bazalarining ahamiyati beqiyosdir. Mana Shunday kuch va tayyorgarlik bilan xalqaro missiya istalgan mamlakatda tegishli targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali tashkil etishiga Shubha qilmasa ham bo‘ladi.

Ayni damda, missionerlik faoliyati bilan faol Shug‘ullanishga harakat qilayotganlar orasida bahoiylar, krishnachilar bilan bir qatorda yangi paydo bo‘lgan sektalar borligini ham ta’kidlash zarur. Sekta bu – faqat o‘zini haq din, insonlarni najotga etkazuvchi deb da’vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlaydigan guruh hisoblanadi. Psixologlar mazkur sektalarni «ommaviy ijtimoiy-psixologik qirg‘in quroli» deb ta’riflaydilar.

Diniy sekta deganda ma’lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo‘lmagan holda din bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatadigan guruhlar tuShuniladi. Bugungi kunda missionerlik faoliyati bilan asosan turli sektalar Shug‘ullanadi. Hozirgi kunda taxminan 5000 ta sektaning faoliyati aniqlangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimiz bilan chegaradosh bo‘lgan davlatlarda «Bogorodichiy sentr», «Serkov ob’edineniya», «Serkov Iisusa», «Serkov Novogo Zaveta», «Beloe bratstvo», «Bojestvennыy orden Pervogo Angela», «Farxat ata», «Dianetika» kabi yuzlab diniy sektalar faoliyat olib bormoqda. Iblisga ibodat qilishga asoslangan «Satanizm» sektasi ham ayrim qo‘shni respublikalarda keng tarqalmoqda. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, o‘ta xavfli bo‘lgan mazkur sektaning Rossiyada 100 ming, Er yuzida 5 milliondan ortiq tarafdori bor.

Mazkur sektalar aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning Yaqinligi bilan qo‘rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo‘lganlar ichida tashviqot olib borish yo‘li bilan o‘z tarafdorlarini ko‘paytirishga harakat qilmoqda.

**2. Missionerlik faoliyatida ijtimoiy tabaqalar bilan ishlash strategiyasi.** Missionerlar makon va zamonga moslashgan holda o‘z uslub va vositalarini doimiy takomillashtirib kelganlar. So‘nggi vaqtlarda ular ma’lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olib, maqsadli ish olib borishga intilmoqdalar. Jumladan, missionerlar asosiy e’tiborni aralash millat vakillaridan iborat oilalarning a’zolari, ilgari hech bir dinga e’tiqod qilmagan, og‘ir xastalikka, judolikka, moddiy qiyinchilikka duch kelgan, axloq tuzatish muassasalaridan chiqib kelgan, ya’ni moddiy va ma’naviy ko‘makka muhtoj kishilarga qaratmoqdalar.

Ziyolilarning turli qatlamlari ichida san’at sohasi xodimlari, kutubxonachilar, o‘rta maktab o‘qituvchilari, turli idoralar xizmatchilari faol missionerlik targ‘iboti ob’ekti sifatida tanlanayotganini ham qayd etish lozim. Bunday yondaShuvda o‘ziga xos mantiq bor. Masalan, prozelit san’atkor san’atning hissiy-emotsional ta’sir quvvatidan foydalanib, e’tiqodiy bosim o‘tkazishda yuqori samaradorlikka erishishi mumkin bo‘lsa, e’tiqodini o‘zgartirgan kutubxonachida esa «o‘lja» sifatida tanlanganlar bilan yakka tartibda ishlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Missionerlarga tabiatan ishonuvchan, tashqi ta’sirga moyil bo‘lgan va ayni paytda, hayotda sabr-bardoshli va fidoiy bo‘lish bilan bir qatorda hamisha ma’naviy-ruhiy ko‘makka, qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadigan ayollarga ham alohida e’tibor bilan qaramoqdalar. Ularning maqsadi jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarish, ijtimoiy va milliy totuvlik asoslariga rahna solishdir.

Qayd etilgan misollar ham missionerlik ob’ekti sifatida tanlanayotgan qatlamlar doirasi muntazam ravishda kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Missionerlar o‘zlarining targ‘ibotchilik faoliyatini kuchaytirish maqsadida xilma-xil va turli davrlarga mo‘ljallangan dasturlar ishlab chiqqanlar. Xristian nazariyotchisi Luis Bush xristian missionerlari alohida e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan hudud - shimoliy kenglikning 10 va 40-parallellari orasida joylashgan, deb hisoblab, uni «10/40 OYNA», deb atagan edi. Ushbu parallellar orasi esa buddaviyliq konfutsiyliq xinduiylik, islom, sintoiylik va daosizm dinlari keng tarqalgan hududlar hisoblanadi. Bu hududda Osiyoning 40 ga Yaqin, Afrika qit’asining 20 dan ortiq davlati joylashgan.

Missionerlikda eng avvalo hududlarga xos xususiyatlar inobatga olinadi. Masalan, «10/40 OYNA» hududiga kiruvchi mamlakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, aholisining diniy qarashlari, turmush tarzi, missionerlik faoliyatini olib borishda e’tibor berilishi zarur bo‘lgan jihatlar xaqida batafsil ma’lumotlar shakllantirilgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda dunyodagi 3000 ga Yaqin etnik guruhlar to‘laqonli faoliyat yuritadigan cherkovlarga ega emas.

«Uiklif» xalqaro xristian missiyasi «Xushxabar»ni 600 dan ortiq tilga tarjima qilgan. Ularning harakatlari natijasida 45 million kishi «Muqaddas kitob» tarjimasi bilan tanishgan.

Hozirgi kunda ushbu missiya dunyo bo‘yicha mavjud 6913 ta til guruhidan 1376 tasida ish olib bormokda. Bunda avvalo tilning lingvistik tadqiqoti amalga oshiriladi va bu ish oxir-okibatda «Injil» ni o‘sha tilga tarjima qilish bilan yakunlanadi. Missiyaning dunyoning 60 davlatida faoliyat yuritayotgan 5277 ta va maxsus tayyorgarlikdan o‘tayotgan 442 ta missioneri oldiga ana Shunday vazifa qo‘yilgan.

Dunyo xalqlarini injillashtirish bo‘yicha mavjud rejalar haqida ham ta’kidlash lozim. 2002 yilda nashr etilgan AQSHda «Butunjahon xristianligi tendensiyasi» kitobida 2000 yilgi ko‘rsatkichlar va 2025 yilgacha erishishi lozim bo‘lgan holat qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, unda yozilishicha:

- Er yuzi aholisining «Injil» bilan tanishtirilishi 73,1 foizdan 100 foizga

etkazilishi;

- dunyo aholisi tarkibidagi xristianlarning ulushi 33 foizdan 40 foizga o‘sishi;
- xristianlarning 10 foizini tashkil qilgan missionerlarning ulushi 20 foizga ko‘tarilishi;
- xristianlar o‘z daromadlarining 1,8 foizini cherkov hisobiga o‘tkazib kelishgan bo‘lishsa, bu ko‘rsatkich 3 foizga etkazilishi;
- har 3000 kishiga 1 ta missioner to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich har 1000 kishiga 1 ta missionerni tashkil etishi;
- cherkov mavjud bo‘lmagan, aholisi 50000 dan ortiq 116 ta shaharning barchasida cherkovlar yuzaga kelishi;
- cherkovlar tuzilmagan 1000 dan ortiq etnik guruhning har birida cherkovlar tashkil etilishi;
- Yoki umuman tarjima qilinmagan, yoki qisman tarjima qilingan barcha tillarga «Injil» tarjima qilinishi lozim.

Real vokelik va missionerlar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni o‘rganish, afsuski, bu rejalarda belgilangan maqsadlarga asta-sekin bo‘lsa-da, erishilayotganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, missionerlikda yoshlarga alohida e’tibor berilayotganini ta’kidlash lozim. YOshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta’sir va tazyiqlarning asosiy ob’ektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali etarli tajribaga ega bo‘lmagan, tashqi ta’sirlarga tez beriluvchan va ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Missionerlikning taniqli nazariyotchisi Patrik Djonstoun talaba yoshlarni missionerlik faoliyatining asosiy ob’ekti deb qarab, o‘zining «Dunyo operatsiyasi» kitobida Shunday yozadi: «Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko‘plari 20 yildan so‘ng yirik mansablarni egallashadi». Ushbu fikrlar missionerlarning jamiyatning ertangi kunini belgilab

beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko‘zlab ish yuritayotganini anglash imkoniyatini beradi.

Xayriya yordamlari ko‘rsatish ham missionerlikdagi eng qadimiy va samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda turli tadbirlar uyushtirilib, ularga asosan yoshlar jalb etiladi. Beg‘araz deya taqdim etilayotgan, aslida jamiyatning yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlash va so‘ngra ular bilan maqsadli ish olib borishni ko‘zlaydigan bunday harakatlar hatto «YAngi yil», «Navro‘z», «Xotira va qadrlash kuni» kabi xalqimizda keng nishonlanadigan bayramlar davomida ham g‘arazli maqsadlarda amalga oshirilishi kuzatilgan. Missionerlar o‘zlari ko‘rsatayotgan «yordamni» Shu bayramlar ruhiga moslashtirishga ham harakat qilmoqda.

Uyma-uy yurib «Xushxabar» etkazish usulining o‘ziga xos xususiyatlari. Bu usul missionerlarga odamlar bilan kunning dolzarb masalalari haqida suhbatlashish, ularning dardlariga qiziqish bildirish va ushbu muammolardan chiqish yo‘llarini ko‘rsatib berishni taklif qilib, o‘z tashkilotlariga jalb qilishga asoslanadi. Bu missionerlikni amalga oshirishda eng Yaxshi samara beradigan va katta mablag‘ talab qilmaydigan usullardan biri hisoblanadi. Masalan, ushbu usuldan faol foydalayotgan «Iegovo shohidlari» oqimi a’zolari, o‘zlarini go‘yoki, Iso Masih o‘z havoriylariga buyurgan yo‘ldan foydalanayotganlarini da’vo qilib, muayyan hududda «tayanch nuqta»ni shakllantirish va unga suyangan holda Yaqin qo‘shnilar orasida uyma-uy yurib adabiyotlarni tarqatish, maktab o‘quvchilari va yoshlar orasida targ‘ibot ishlarini olib borishga alohida e’tibor bermoqda. Bunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan yilga ortib bormoqda va bugungi kunda dunyo bo‘yicha qariyb 7 millionni tashkil etmoqda.

Ta’lim-tarbiya sohasidagi missionerlikdan ko‘zlangan maqsadlar. Ta’lim tizimi bosqichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tufayli g‘oya va qarashlarni singdirishdagi tadrijiylik ta’minlanadi. Shu bilan birga, talim jarayonida amalga oshirilgan targ‘ibot natijalarini bevosita tekshirib ko‘rish va uni takomillashtirib borish imkoniyati ham mavjud. Bu kabi xususiyatlar missionerlarning ta’lim tizimiga alohida e’tibor bilan qarashini keltirib chiqarmoqda. Adventistlarning

dunyo bo‘yicha 5000 dan ortiq o‘quv markazlariga, pyatidesyatniklikning eng yirik oqimlaridan biri – «Xudo assambleyalari» cherkovlari bir necha kollej va Bibliya maktablariga egalik qilayotgani ham aynan Shu bilan izohlanadi.

Jumladan, O‘zbekiston istiqlolining dastlabki yillarida missionerlar turli volantyor tashkilotlar niqobi ostida mamlakatimiz ta’lim tizimiga kirib olishga uringanlari kuzatilgan. Ular yurtimizdagi mavjud ta’lim muassasalarida turli til, kompyuter, sport to‘garaklari tashkil etish niqobi ostida talaba va o‘quvchilar orasida o‘z dinlarini targ‘ib qilishga harakat qilgan.

Missionerlikda *mahalliy tillarda xristianlikni targ‘ib qiluvchi adabiyotlarni chop qilish va tarqatish* ham eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biridir. Kichik hajmdagi qo‘llanmalar juda ham ta’sirchan qilib yoziladi. Odamlarning e’tiborini jalb qilish uchun uni chiroyli suratlarga boy etib chop etiladi. Ularda dinni qabul qilishga ochiq-oydin taklif qilinmaydi. Ammo adabiyot oxirida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun tashkilot manzili yoki telefoni keltiriladi. Risolani o‘qigan va diniy bilimi sayoz bo‘lgan inson uning ta’siriga tushishi mumkin. Ma’lumotlarga ko‘ra, «To‘liq injil xristianlari» oqimi yangi vakillarining yarmidan ko‘pi dinni qabul qilishlarini xristian adabiyotlari ta’siri bilan bog‘lashadi. Adabiyotlarni olib kirish va tarqatish ko‘pincha mavjud qonunlarga zid ravishda amalga oshiriladi.

Tajribali missionerlar o‘z maqsadlari yo‘lida hatto o‘zbek mumtoz adabiyotdan ham «unumli» foydalanayotganini ko‘rsatadi. Xususan, ular o‘z maqsadlari yo‘lida badiiy adabiyot namunalari mazmunini buzib talqin qilishdan ham toymayotganiniqayd etish lozim. Ayrim missionerlar respublikamizda masihiylikni targ‘ib qilishda Alisher Navoiy she’rlaridagi muayyan misralardan foydalanishga intilayotgani ham fikrimizning tasdiqlaydi.

Masalan:

*Bir qadah bersang, qo‘yarmen butqa yuz, ey piri dayr,*

*Ikkisin olib, boshimg‘a hasbatan lilloh, kel.*

*Garchi kelmay-kelmay o‘lturding Navoiyni valek,*

*Ey Masih, oning mozori boshig‘a goh-goh kel.*

Bu ikki baytning asl mohiyatini tuShunib olish uchun avval u qaysi g‘azaldan yulib olinganini aniqlash, keyin o‘sha g‘azal matnini tahlil qilish zarur. Chunki baytlar o‘rtadan uzib olinsa, ulardan ko‘zlangan asl maqsad ochilmay qoladi. Oqibatda uning turlicha talqinlariga yo‘l ochiladi.

Bu ikki bayt Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» lirik to‘plamidagi «Favoyid ul-kibar» deb nomlangan to‘rtinchi devonning 387-g‘azalidan yulib olingan. G‘azal baytlarining nasriy bayoni quyidagicha:

*Bir qadah bersang, butga yuz qo‘yaman, ey dayr (butxona, mayxona) piri,*

*Ikkisini (qadah bilan butni) olib, Xudo haqi, boshimga kel.*

*Garchi kelmay-kelmay, Navoiyni o‘ldirding, lekin,*

*Ey Masih (Iso), u(Navoiy)ning mozori boshiga ba’zan-ba’zan kel.*

May, jumladan, uning idishi bo‘lmish qadah orqali tasavvufiy she’riyatda ishq ko‘zda tutiladi. Dayr piri mayxonada qadah tutgani singari, lirik qahramon pirdan ishq mayi quyishini istayapti.

Bundan tashqari, tasavvufda pir muridni Alloh ishqi yo‘lida tarbiyalaydi. Murid, piri buyursa, may iste’mol qilishi, hatto, butga yuz qo‘yishi ham mumkin. Ishq oshiqni pirning har qanday buyrug‘i bajarishga tayyor holga etgani, ishqi kamol topganiga ishora bor. Ammo bu erda hech ham nasroniylik targ‘ibi mavjud emas.

G‘azalda yorning kelmay-kelmay, Navoiyni o‘ldirgani aytilib, Masihdan mozori boshiga ba’zan-ba’zan kelib turishi so‘raladi.

Xo‘sh, nega aynan Masihdan so‘ralyapti?

Birinchidan, «Masih» deganda ham zimdan yor ko‘zda tutilgan, bevosita Iso payg‘ambarning o‘zi emas. Chunki lirik qahramon yorga oshiq, Iso payg‘ambarga emas. «Yor» deganda esa, albatta, Alloh taolo ko‘zda tutiladi. yorni tasavvuf shoirlari ba’zan «sanam» deb ham tilga olib ketaveradi. Bu erda esa Masih bekorga tilga olinmayapti. Tasavvuf ramziyotida Masih – ruh ramzi. Shuning uchun uni

ba’zan «Ruhulloh», ya’ni «Allohning ruhi» deb ham nomlashadi. Lirik qahramon aynan Alloh ruhining mozoriga yo‘qlab kelib turishini istayapti.

Demak, bu tasvirlarning nasroniylikka hech qanday aloqasi yo‘q. Chunki, islom ta’limotiga ko‘ra, 124 ming payg‘ambarning hammasi – islom payg‘ambarlari. Shuningdek, Dovud (a.s.)ga tushirilgan Zabur, Muso (a.s.)ga tushirilgan Tavrot, Iso (a.s.)ga tushirilgan Injil ham, xuddi Muhammad (alayhis-salom)ga tushirilgan Qur’on kabi samoviy kitoblar hisoblanadi. Faqat bir narsani yoddan chiqarmaslik kerakki, Tavrot tushganda Zabur, Injil tushganda Tavrot, Qur’on tushganda Injil mansux, ya’ni bekor qilingan.

Navoiy asarlarida uchraydigan Muhammad (alayhissalom)dan oldin o‘tgan payg‘ambarlar haqidagi talqinlarni hozirgi jahon dinShunosligi mezonlari bilan baholash ko‘pdan-ko‘p xato talqinlarga asos bo‘lishi mumkin. Buni hech qachon yoddan chiqarmaslik kerak.

Shu xulosalardan kelib chiqilsa, Alisher Navoiyning:

*La’lini sevdum, ko‘zining qatlidin qayg‘urmog‘um,*

*Ne g‘am o‘lmaktin, kishi bo‘lsa Masiho birla do‘st, –*degan baytida ham aynan kishi o‘lganidan keyin ruhi qolishiga suyanilgani uchun ham Masiho tilga olingan. Lirik qahramon yorning la’l(lab)ini sevganini, ko‘zining qatl etishidan qayg‘urmaslik lozimligini ta’kidlab, o‘limdan g‘am chekmaslikka undayapti, Chunki, uningcha, o‘lgandan keyin kishi Masiho (ya’ni ruh) bilan do‘st bo‘ladi.

Demak, yuqoridagi misralar «talmeh san’ati»ning, ya’ni joy, tarixiy shaxslar, payg‘ambarlar, avliyolar nomlarini o‘z fikrini ifoda etishi uchun badiiy tasvir vositasi sifatida ishlatishning yorqin namunasidir.

Shuningdek, Missionerlik tashkilotlari xristianlikni targ‘ib qilishda *audio, video va elektron mahsulotlar, ro‘znoma va oynomalar, teledasturlar, internetda onlayn o‘quv kurslari* tashkil etish yo‘llaridan foydalanmoqdalar. Missionerlik mazmunidagi SD disklar ishlab chiqarish va tarqatish bilan Shug‘ullanuvchi qator xalqaro agentliklar ham faoliyat yuritmoqda. Bunday yirik tashkilotlardan biri –

Global Recordings kompaniyasi bo‘lib, u 21 milliy agentlikni birlashtiradi hamda 4562 til lahjalarida mahsulot ishlab chiqaradi.

Evropa va Amerika qit’alarida missioner da’vatchilar mashhurlik borasida shou-biznes va kino yulduzlaridan qolishmaydilar. Ma’lum bo‘lishicha, televidenie orqali da’vat qilishdan eng ko‘p Adventist va To‘liq injil xristianlari jamoalari foydalanadi.

**3. Diniy sektalar va ular faoliyatining oqibatlari.** Sektalarga xos xususiyatlar haqida gap ketar ekan, ayrim sektalar muayyan konfessiya doirasida shakllanib, asosiy e’tiborni sobiq e’tiqoddoshlari orasida targ‘ibot olib borishga, ba’zi sektalar esa boshqa konfessiyaga mansub insonlar orasidan ham o‘z tarafdorlarini shakllantirishga harakat qilishini ta’kidlash zarur.




Ayni paytda, hech bir konfessiyaga mansub bo‘lmagan, muayyan shaxs – «ustoz», «yo‘lboshchi» yoki «rahnamo» tomonidan asos solingan va aholining

duch kelgan ijtimoiy va konfessional qatlami bilan ish olib boradigan sektalar ham mavjudligini qayd etish lozim.

Afsuski, yuqoridagi kabi koʻrinishlarda chiqadigan sektalar faoliyati natijasida bir qator salbiy, baʼzi hollarda fojiaviy hodisalar kelib chiqmoqda. Jumladan, oʻtgan asrning 70-yillarida AQSHning San-Fransisko shahrida Jim Jons ismli shaxs bir necha ming kishilik mahalliy protestantlarni oʻz ichiga olgan «Xalq ibodatxonasi» nomli jamoa tuzishga erishadi. Sekta asoschisining turli «qiliq»lari shahar jamoatchiligiga maʼlum boʻlib qolgach, Jons «chirkinliklarga toʻla shahar»dan ketib, Gayana changalzorlarida «Xudo Podshohligi»ni qurish lozimligini eʼlon qiladi.

1978 yili «Xudo Podshohligi»dagi holatni oʻrgangani borgan AQSH Kongressi komissiyasi sekta izdoshlari «podshohlikda» juda ogʻir sharoitlarda yashayotgani, ularga qullardek munosabatda boʻlinayotgani, Jons barcha «banda»larini oʻziga ibodat qilishga majbur qilganiga guvoh boʻladi. Kirdikorlari fosh boʻlib qolganini bilgan sekta rahbari bir kunning oʻzida barcha izdoshlarini oʻz jonlariga qasd qilishga majbur qiladi. Oqibatda Jonsga ishongan 912 kishi halok boʻladi.

Shunga oʻxshash holat AQSHning Texas shtatidagi Ueyko shahrida Devid Koresh tomonidan adventislik zamirida shakllantirilgan «Dovud avlodi» nomli sekta tarafdorlari bilan ham sodir etiladi. Oʻzini «Xaloskor» deb eʼlon qilgan, jamoada oʻzining mutlaq hokimiyatini oʻrnatib, barchaga oʻz mulkidek munosabatda boʻlgan sekta rahbari Ueyko shahrida qurilgan maxsus ranchoda izdoshlari bilan rohibona hayot kechiradi.

1993 yilda politsiya tomonidan uni qoʻlga olish boʻyicha amalga oshirilgan tadbir davomida, qamalishni istamagan «paygʻambar» oʻzi va barcha sekta aʼzolari joylashgan ranchoni portlatib yuboradi. Oqibatda 100ga Yaqin kishi, Shu jumladan, 25 nafar bola halok boʻladi.

Bunday sektalar qatoriga 1992 yilda Xitoyda Lyu Xunchji tomonidan tuzilgan va 2 milliondan ortiq tarafdori boʻlgan «Falungun» sektasini ham kiritish mumkin.

Lyu Xunchji faqat o‘zinigina zaminni halokatdan, kishilarni qiyinchiliklardan qutqaruvchi, jismoniy va ma’naviy etuklikka boshlovchi, gunohlardan forig‘ qilishga qodir, deb hisoblaydi. Jannat faqat uning tarafdorlarigagina nasib qilarmish. Oxirat bilan qo‘rqitish markaziy o‘rinni egallagan Lyu Xunchji ta’limotiga ergashish 2000 dan ortiq kishining halok bo‘lishi, yuzlab odamlarning ruhiy kasallikka chalinishiga sabab bo‘lgan.

Buddizm doirasida shakllangan «Aum Sinrikyo»ning 1995 yilda Tokio metrosida tinch aholiga nisbatan gaz hujumi uyushtirishi oqibatida 12 kishi halok bo‘lgani, AQSHda paydo bo‘lgan «Osmon darvozasi» sektasi a’zolaridan 60 dan ortiq kishi o‘z joniga qasd qilgani, Ugandada yuzaga kelgan «Xudoning o‘nta buyrug‘ini qayta tiklash harakati» sektasi qurbonlari soni 1000 dan ziyodni tashkil etgani ham bunday sektalar faoliyatining mudhish oqibatlaridan dalolat beradi.

Hozir ayrim rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan yoki norasmiy faoliyat yuritayotgan noislomiy diniy jamoalarning vakillari tomonidan ham missionerlik faoliyati amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Missionerlar aksariyat holatlarda o‘z jamoasiga jalb qilishda turli o‘qish kurslarini ochib, o‘z diniga targ‘ib qilish, xorijga o‘qishga yoki ishga jo‘natish, yoz faslida bolalarni dam olish lagerlariga jalb qilish, hayriya yordam ko‘rsatish, bepul tibbiy yordam berish va gazeta, jurnal, kitoblar tarqatish kabi usullardan foydalanmoqda. Ularning diniy ta’limotida Davlat ramzlarini humat qilish, Konstitutsion burchni bajargan holda harbiy xizmat o‘tash, jamoat ishlarida qatnashish man etilgan. Bunday holat xalqimiz uchun noan’anaviy bo‘lgan diniy jamoa va sekta vakillarining maqsadi jamiyatimiz a’zolarini fuqarolik faolligini so‘ndirish va qaram qilib olishga yo‘naltirilganidan yaqqol dalolat beradi. Shuningdek, ayrim noislomiy diniy jamoalarda ushbu jamoaga a’zo bo‘lgan shaxs bilan oila qurishi, jamoadan tashqaridan kelayotgan barcha ma’lumotlarni yolg‘on va zararli deb bilish belgilab qo‘yilgan, ba’zilarida oila qurish umuman ma’qullanmay, ular daromadlarining deyarli barchasini ushbu jamoa rahbariyatiga topshirishi lozim. Ushbu faktlar mazkur diniy jamoalardagi tartib shaxs, oila va jamiyat uchun naqadar zararli ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, yuqoridagi kabi sektalar, missionerlik tashkilotlari faoliyatiga chek qo‘yish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bir qator mamlakatlarda sektalar va missionerlar faoliyati natijasida jabr ko‘rganlarga moddiy va ma’naviy ko‘mak berish maqsadida maxsus markazlarning tuzilgani, afsuski, yuqoridagi kabi holatlarning ko‘payib borayotgani va xatarli ko‘lam kasb etib, jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini kuzatamiz.

Shuningdek, missionerlikning milliy hayotga tahdidi xususida ham to‘xtalib o‘tish lozim. Sir emaski, din milliy ma’naviyatning tarkibiy qismi, *millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.* Bir tilda gaplashadigan, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo‘lgan, ammo *turli dinlarga* yoki *diniy yo‘nalishlarga e’tiqod qiladigan millatlar hamon ichki milliy birlikni ta’minlay olmayotgani,* kichkina bir sabab qayta - qayta nizoli vaziyatlar va fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratayotgani va mamlakatlar o‘z taraqqiyotida o‘nlab yillarga orqada qolib ketayotgani ham Shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Livan aholisining 90 foizdan ortig‘ini arablar tashkil etadi. Rasmiy til arab tili hisoblanadi. Ammo livanliklarning bir qismi islomga (sunniy, shia, druz), qolgan qismi xristianlikka (maroniy, pravoslav, katolik) e’tiqod qilishi natijasida milliy birlikni ta’minlash qiyin kechmoqda. Mamlakatning amaldagi qonunchiligida davlat boshqaruv idoralarining diniy belgilar asosida shakllantirilishi mustahkamlab qo‘yilgani esa, ko‘pgina hollarda xilma-xil omillar ta’sirida uning to‘laqonli faoliyatiga to‘siq bo‘lmoqda. Musulmonlar va xristianlar o‘rtasida vaqti-vaqti bilan kelib chiqayotgan fuqarolar urushi esa bu birlikni ta’minlashni yanada mushkillashtirayotgani fikrimizning isboti bo‘la oladi.

Turli millat va din vakillari istiqomat qilib kelgan YUgoslaviyaning Serbiya, Sloveniya, Xorvatiya, Makedoniya, CHernogoriya, Bosniya va Gersegovina kabi davlatlarga parchalanib ketgani ham etnokonfessional ziddiyatlar qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligining hayotiy-amaliy ifodasidir.

Masalaning ana Shu jihatiga e'tibor berilsa, missionerlik harakatlari ortida diniy zaminda millatni ichidan bo‘lib tashlashga qaratilgan g‘arazli siyosiy maqsadlar yotganini va u keltirib chiqaradigan fojialarni anglab etish mumkin.

Bu, missionerlar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlarga erishadigan bo‘lsalar ular faoliyat olib borayotgan mamlakatda ham xalqning parokandalikka yuz tutishi va ma'naviy tanazzulning kelib chiqishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

**4. Missionerlikka qarshi kurashning huquqiy-amaliy asoslari.** O‘zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlarga olib kelishini hisobga olgan holda bu borada tegishli qonuniy asoslar ishlab chiqildi. Qonunlarda missionerlik harakatlari taqiqlandi.

Ma'lumki, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun (yangi tahriri) kishilarning vijdon erkinligini huquqiy kafolatlash bilan birga diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan hamda davlat va din munosabatlarini tartibga soladigan muhim hujjat hisoblanadi. Qonunga binoan «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), Shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar» (5-modda, 3-band).

Mazkur moddadan kelib chiqib, «O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»ga noqonuniy diniy xatti-harakatlarning oldini olish bilan bog‘liq bir qator moddalar kiritilgan. Jumladan:

•diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish;

•diniy yig‘ilishlar, ko‘cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o‘tkazish qoidalarini buzish;

•O‘zbekiston Respublikasida g‘ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash;

•noqonuniy diniy faoliyat bilan Shug'ullanish;

•diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortishi;

•dindorlar va diniy tashkilotlar a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'ilishlari, Shuningdek diniy marosimga aloqasi bo'lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to'garaklar hamda guruhlarni tashkil etish va o'tkazish;

•bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati;

•maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi Shuningdek xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish bilan bog'liq harakatlar sodir etilganda belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdoridagi jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi haqidagi qoidalar mustahkamlab qo'yilganini ta'kidlash zarur.

Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra, muayyan hollarda birinchi marta qonunni buzgan shaxs yoki tashkilotga ma'muriy jazo qo'llaniladi. Agarda o'sha shaxs yoki tashkilot Shundan keyin ham qonunni buzishda davom etsa, unga endi jinoyat kodeksidagi choralar qo'llaniladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi» normalariga ko'ra, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»ning yuqorida qayd etilgan bandlaridagi harakatlar ma'muriy jazo qo'llangandan keyin yana sodir etilsa, bu «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da belgilanganidan ko'ra og'irroq jazolar qo'llanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi»da «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi»da nazarda tutilmagan bir qator harakatlar uchun ham jazolar belgilanganini qayd etish zarur. Jumladan:

•voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish;

- voyaga etmagan bolalarni ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitish;
- dindorlardan majburiy yig‘im undirish va soliq olish;
- diniy ta’lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o‘z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog‘liq diniy faoliyat yuritish;
- g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash;
- g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki tashkilotlari faoliyatida faol qatnashish bilan bog‘liq harakatlar belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdorida jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga axloq tuzatish ishlari, yoki qamoq yohud ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda missionerlik va prozelitizmning oldini olish, ayniqsa yoshlarni bunday zararli oqimlar domiga tushib qolishlarining oldini olish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda yosh avlodni hozirgi davrda mamlakatimizda din sohasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, yaratilgan imkoniyatlar bilan muntazam asosda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, qiziqishlari, bilim darajalarini inobatga olgan va differensial yondashgan holda yoshlarning din, Shu jumladan, xalqimiz asrlar davomida e’tiqod qilib kelgan islom dini haqidagi bilimlarni va milliy-diniy an’analar asoslarini sog‘lom asosda egallashlariga ko‘maklashish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday bilimlar ob’ektiv bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi va o‘z mohiyatiga ko‘ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i kerak. Yoshlarimizning missionerlikning mohiyati haqida xolis va etarli bilimga ega bo‘lishlari unga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Tahlillar hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan xoli emasligini ko‘rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to‘g‘ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo‘lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo‘ladi. Egallangan bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo‘lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar, qadriyatlar ham Shunchalik mustahkam bo‘ladi. Shakllangan qadriyatlar tizimi esa turli tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

## Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:

1.O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida diniy e’tiqod erkinligiga qanday munosabat bildirilgan?

2.“Diniy tashkilotlar ” deganda nimalar nazarda tutiladi?

3.Turli konfessiyalar orasida nizo chiqmasligi uchun davlat qanday tadbirlarni qo’llaydi?

4.”Missionerlik” nima?

5.Prozelitizm nima?

6.Jamiyat xavfsizligiga Missionerlik va Prozelitizm qanday ta’sir ko’rsatishini tuShuntiring?

7.Missionerlik va prozelitizm so‘zlarining mazmun-mohiyati nimada?

8.Missionerlik tashkilotlari asosan qanday maqsadlarni ko‘zlaydi?

9. Zamonaviy sektalar tomonidan missionerlik faoliyatini olib borishda qanday uslublardan foydalanilmoqda?

## Mustaqil ish topshiriqlari

**1.** Missionerlik va prozelitizm ma’naviy tahdid sifatida.

**2.** Missionerlikning vujudga kelish va rivojlanish tarixi.

**3.** Missionerlikka qarshi kurashda davlat va jamoat tashkilotlari, xususan mahallaning o‘rni.

### Adabiyotlar:

1. Sa’dulla Otamurotov. Sarvar Otamurotov. O’zbekistonda ma’naviy – ruhiy tiklanish. O’quv qo’llanma. “Yangi asr avlodi”. Toshkent.: -2003

2. Mo’minov A., Yo’ldoshxo’jaev H., Raximjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. DinShunoslik. Darslik/Mas’ul muharrir akad. Ibrohimov N.I. – T.: Mehnat, 2004. – 296 b.

3. Hasanov A., Komilov M., Uvatov U., Azimov A., Raximjonov D., Zohidov Q., Islom tarixi. Darslik. – T.: “Toshkent islom universiteti” matbaa – nashriyot birlashmasi, 2008.

4. Mo’minov A.Q. DinShunoslik asoslarini o’qitish va o’rganishning yagona kontseptsiyasi. – T.: ToshDSHI nashriyoti, 1999.

5. Mo’minov A.Movarounnahr ulamolari: xanafiylar.- T., Sharqshunoslik.1999

6. Reodon V. Bag’rikenglik – tinchlik sari olg’a qadam.Tosh.2002

7. Buyuk siymolar.1-3 kitob. - T., O’zbekiston 1996-1997.

8. Imomnazarov.M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. - T., Sharq.1998

9. Mustaqillik izohli ilmiy – ommabop lug’at. - T., Sharq.1998

10. JumaevY.I. Insonning hayot mazmuni va komil inson muammosi.- Toshkent, 1997

11. Musurmonov O. O’quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirish.- Toshkent, 1993

12. Yovqochev Sh.A. Markakziy Osiyo dinlari tarixi. T. 2006 y.

13. W.MontgomeryWatt. Islamicphilosophyandtheology. Edinburg.1985.

14. Robert Audy. The Cambridge dictionary of philosophy, second edition. Cambridge university press. 1999.

15. William J. Wainwright. The Oxford Handbook of Philosophy of Religion. University of Wisconsin, Milwaukee.2010.

16. Phillip wodzinski. kant's doctrine of religion as political philosophy. Boston college.2009.

17. John R. Hinnells. The Routledge Companion to the Study of Religion. Routledge.2005.

18. Hillary Rodrigues, John S. Harding. Introduction to the study of Religion. Routledge, USA, 2009. - 177 p.

## TARQATMA MATERIALLAR:

**1-ilova**




**2-ilova**



**3-ilova**

## «VIJDON»

- A.Madvaliev tahriri ostida nashr etilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «Vijdon» so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:
- «Vijdon» (*arab.* ehtiros, his-tuyg'u, insof, diyonat) kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biri; diyonat, insof», deya izoh berilgan.

**4-ilova**

## FUQAROLIK VA SIYOSIY HUQUQLAR TO'G'RISIDAGI XALQARO PAKTNING 19-moddasida:

- Vijdon erkinligi shaxsning o'z dini va e'tiqodini o'zgartirish huquqini kafolatlashi aniq. Lekin bunday o'zgartirish boshqa shaxsning ta'sirida bo'lmasligi shart. Aks holda, bu qonunchiligimizda ta'qiqlangan missionerlikning bir ko'rinishiga aylanib qolishi mumkin.

**5-ilova**

## O'zbekiston respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunining 8-moddasida:

- «O'zbekiston respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi».

**6-ilova**




**7-ilova**




**8-ilova**



**9-ilova**

## Missionerlar ta'lim tizimida o'z faoliyatini amalga oshirishda alohida e'tibor beradigan jihatlar

- maktabga yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish uchun ta'mirlash materiallari olib beriladi;
- ibodatga qatnaydiganlarning bevosita ta'mir ishlarida qatnashishi ta'minlanadi;
- ibodatga keluvchilarning axborotlariga tayanib, konkret-adresli yondashuv asosida yangi o'quv yili arafasida muhtoj oilalarning 1-sinfga boradigan bolalariga daftar, qalam va boshqa kantselyariya mollari olib beriladi;
- “mehribonlik uyi” tarbiyalanuvchilariga bolalar kiyim-boshlariva o'yinchoqlar sovg'a qilinadi;
- til va kompьyuter o'rgatish markazlari, hatto maktab yoshigacha bo'lgan bolalar uchun shu yo'nalishdagi ixtisoslashgan bog'chalar ochish orqali ham yoshlar orasida tegishli targ'ibot tashkil etiladi

**10-ilova**

## BOLALAR ORASIDA MISSIONERLIKNI AMALGA OSHIRISHDA E'TIBOR BERILADIGAN JIHATLAR

- Bolalar uchun yozgi oromgohlar tashkil etish
- Yozgi ta'til davrida bolalarni dam olish joylariga qisqa muddatga olib chiqish
- Cherkov hududida bir necha smenali, kamida 2 mahal ovqat beriladigan kunduzgi dam olish lagerlari tashkil etish
- Cherkovga ibodatga keladiganlar orqali muhtoj oilalar bolalariga lagerlarga bepul yo'llanma berish
- Muayyan tayyorgarlikdan o'tgan bolalarni masihiylikka da'vat qiluvchi turli adabiyotlarni tarqatishda faol foydalanish
- Bolalar uchun qadimiy joylarga ekskursiyalar tashkil etish
- 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kunida bolalar uchun istirohat bog'larida maxsus dam olish dasturlarini tashkil etish
- Muhtoj oilalar farzandlariga “xayriya” yordami ko'rsatish, turli tansiq shirinliklarni o'z ichiga olgan oziq-ovqat paketlari va o'yinchoqlar tarqatish
- Cherkovlarda bolalar uchun mo'ljallangan «yakshanba» maktablari tashkil etish

## 4.3. DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH:O'ZBEKISTON TAJRIBASI

**REJA:**

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati.
2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.
3. Islom niqobidagi ekstremizmning g‘oyaviy ildizlari.
4. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy asoslari.

**Tayanch tushunchalar:** *ekstremizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm, mutaassiblik, aqidaparastlik, terror, terrorizm, xalqaro terrorizm, firqalar, xorijiylar, soxta salafiylar.*

**Mavzu o‘quv maqsadi:** ekstremizm, aqidaparsatlik, mutaassiblikning mohiyatini tuShuntirish, terror va unga olib boradigan yo‘llarni ko‘rsatish, din niqobida faoliyat yuritadigan ekstremistik guruhlar hamda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari borasida ma’lumotlar berish.

**1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati.** Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo‘lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi.

Ekstremizm (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, diniy ekstremizmga olib keladi.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an’anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g‘oyalarni aldov va zo‘rlik bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddaviylik, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta’qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a’zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Fundamentalizm – (lotincha – «asos») tuShunchasining ma’nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko‘rinishini anglatadi.

Diniy fundamentalizm – «ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta’limotini anglatadi. Istilohda aqidaning o‘zgarmasligini himoya qiladigan, muayyan diniy e’tiqod shakllanishining boshlang‘ich davrida belgilangan barcha yo‘l-yo‘riqlarni qat’iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo‘llaniladi.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog‘liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantlikdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin Shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an’anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so‘zma-so‘z sharhlashga qat’iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so‘z islomga nisbatan qo‘llanila boshladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi – Qur’on va hadislarni so‘zma-so‘z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ‘ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi yo‘nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon

matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi.

Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog‘lash mutlaqo asossiz. Xususan, islom dini, u bilan bog‘liq turmush tarzi va qadriyatlar majmui hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go‘yo din va musulmon jamoasi ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go‘yoki, keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko‘rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag‘ yig‘ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko‘zlaydi.

Hozirgi davrda ko‘plab ekstremistik uyushmalar va mutaassib harakatlar turli dinlar, Shu jumladan, islom, xristianlik, Yahudiylik dinlarini niqob qilib olgan holda faoliyat yuritayotganlarini ko‘rish mumkin.

Aqidaparastlik (arab. – «aqida» – «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog‘lash») muayyan sharoitda, biron-bir g‘oyaga qat’iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llash yoki Shunga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta’sir doirasini sun’iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo‘ladi.

Mutaassiblik (arab. – «g‘uluv ketish», «chuqur ketish») o‘z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to‘g‘riligiga o‘ta qattiq ishonib, boshqa diniy e’tiqodlarga murosasiz munosabatda bo‘lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qnaShuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g‘oyalarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni

siyosiylashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g‘arazli manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o‘rin qayd etish joizki, ko‘p manbalarda «aqidaparastlik» so‘zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «mutaassiblik» so‘zi bilan almashtirilgan holda istefoda etilmoqda.

Mutaassiblik va g‘uluv Qur’oni karimda muhokama qilingan mavzulardan hisoblanib, uning har qanday ko‘rinishi qat’iy rad etilgan. Jumladan, «Moida» surasida Shunday deyiladi:

**«Ey, imon keltirganlar! Sizlar uchun Alloh halol qilib qo‘ygan narsalarni haromga chiqarmangiz va haddan oshmangiz! Zero, Alloh haddan oShuvchilarni yoqtirmaydi»** *(Moida, 87).*

Payg‘ambarimiz (alayhis-salom) ham o‘zlarining qator hadislarida diniy masalalarda haddan oshganlar noto‘g‘ri yo‘lda ekanini ko‘p bor ta’kidlab, ularning aksariyati Allohning g‘azabiga uchrab, halok bo‘lganini aytib o‘tganlar. Jumladan, Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisi sharifda: *«Albatta, din osonlikdir. Kim dinda chuqur ketsa, u engiladi»,* deyilgan (Imom Buxoriy rivoyati). Boshqa bir hadisda esa, Rasululloh (alayhis-salom) *«Dinda chuqur ketadiganlar halok bo‘ldi. Dinda chuqur ketadiganlar halok bo‘ldi. Dinda chuqur ketadiganlar halok bo‘ldi»,* (Imom Muslim rivoyati) deb uch bora takror aytganlarining o‘zidan ham mutaassiblik va g‘uluvning naqadar yomon illat ekanini ko‘rishimiz mumkin.

**2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.** Terrorizm (lotincha – «qo‘rqitish», «vahimaga solish») – aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.

Terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo‘ravonlikdan hamda zo‘ravonlik qilish bilan tahdid solishdan muntazam foydalanishdir.

Shunday qilib, «terror» dushmanni jismoniy zo‘ravonlik yo‘li bilan qo‘rqitish, hatto uni jismonan yo‘q qilishni anglatadi. «Terrorizm» esa terror amaliyotidir. Bu ikki tuShunchani Shu tarzda chegaralash maqbul bo‘lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo‘lmay, bugungi kungacha asrlar qo‘ynidan etib kelgan, deb hisoblash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida «terrorizm»ga quyidagicha ta’rif berilgan: «Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur etkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo‘rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, Shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishni ta’minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalar va resurslar berish yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat».

Yuqorida keltirilgan ta’riflarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalariga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta’kidlangan. XX asrning 60-yillaridan boshlab, terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaruvchi hodisa sifatidagi salohiyati, butun-butun mintaqalar yo‘nalishi turlicha bo‘lgan terrorchi tashkilotlar va guruhlar faoliyat ko‘rsatgan joylarga aylanib qoldi. Buning natijasida, terrorchilik harakatining ko‘lamigina emas, balki metodlari ham o‘zgardi. Uning eng dahshatli ko‘rinishlaridan biri – o‘zini avvaldan o‘limga tayyorlagan terrorchi-kamikadzelar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni keltirish mumkin.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uyushmalar ommaviy bo‘la olmagani uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Demak, terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

«Xalqaro terrorizm» tuShunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo‘poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og‘ir jinoyatlardan bo‘lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni, ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, ya’ni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishi o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934 yilda Madridda bo‘lib o‘tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag‘ishlangan konferensiyada terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillaShuvni yo‘q qilish maqsadida biror bir vositani qo‘llash» degan ma’nodagi ta’rifi qabul qilinishiga erishilgan. 1937 yilda 20dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta’kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko‘proq uchragan bo‘lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko‘plab tasodifiy kishilarning qurbon bo‘lishiga olib keladigan qo‘poruvchilikni amalga oshirishga e’tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo‘lganlardan ko‘ra, uning guvohlariga qaratilgan.

**Xalqaro terrorchilik harakatlarining asosiy belgilari:**

- xalqaro huquq himoyasidagi ob’ekt yoki sub’ektlarga qarshi qaratilgani;
- davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;

- a’zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, Shu jumladan, yollanma shaxslar bo‘lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo‘poruvchilik harakatlari bo‘yicha xorijlik yo‘riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a’zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko‘rishi;
- tayyorgarlik ko‘rish va qo‘poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo‘lishi, unga xalqaro maqom berilishi va Shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko‘rilishiga olib keladi.

**3. Islom niqobidagi ekstremizmning g‘oyaviy ildizlari.** Islom niqobi ostida paydo bo‘lgan ekstremistik harakatlar tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning ildizlari uzoq o‘tmishga, hatto islom tarixining birinchi asriga borib taqalishini ko‘rish mumkin. Uning ilk vakillaridan biri sifatida 657 yili xalifa Ali (r.a.) askarlaridan ajralib chiqqan, o‘zlarini haqiqiy musulmon, saflariga qo‘shilmaganlarni «dindan qaytgan» deb e’lon qilib, ularga qarshi murosasiz kurash olib borgan «xorijiylar» (arabcha–ajralib chiqqanlar, isyonchilar) diniy-siyosiy oqimi faoliyati misol bo‘la oladi.

<u>Xorijiylik yo‘nalishi va ta’limoti</u>. Xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) (644-656) davriga kelib islom jamoasi ichida fitnalar paydo bo‘ldi. Usmon (r.a.)ga uyushtirilgan suiqasd (656 y.) ham ana Shu siyosiy kurashlarning natijasi edi. Xalifa o‘ldirilgach, uning o‘rniga Ali ibn Abu Tolib (r.a.) (656-661) saylandi.

657 yil (37 hijriy)da Shomning (Suriya) shimoli-Sharqida joylashgan Siffin mavzesida xalifa Ali (r.a.) qo‘shini bilan u erning hokimi Muoviya (r.a.) qo‘shini o‘rtasida «Jamal voqeasi»dan bir oy o‘tib, to‘qnaShuv sodir bo‘lgan. Ushbu to‘qnaShuv 656 yil uchinchi xalifa Usmonning (r.a.) o‘ldirilishi munosabati bilan Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.) tarafdorlari o‘rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar

sabab bo‘ldi. Marhum xalifaning Yaqin qarindoshi bo‘lgan Muoviya (r.a.) xalifalik taxtini egallagan Ali (r.a.)dan aybdor jinoyatchilarni jazolashni talab qilib, Shundan so‘nggina Ali (r.a.)ga bay’at qilishni ma’lum qildi. Jang to‘qqiz kun davom etdi. Ali (r.a.)ning qo‘li baland kelib turganda, Muoviya (r.a.) tarafdorlari hiyla ishlatdilar. Ular Amr ibn Oss (r.a.) ko‘rsatmasi bilan katta nayzalar uchiga yangi ko‘chirilgan Mushaf varaqlarini ilib, Qur’on bilan hukm chiqarishni talab qildilar. Muoviya (r.a.)ning janjalni sulh orqali hal qilish haqidagi taklifini Ali (r.a.) qabul qilgach, jang to‘xtatildi. Ali va Muoviya (r.a.)lar o‘rtasida hijriy 37 yil safar oyining 15 kuni (mil. 657 yil 8 sentyabr)da sulh tuzildi. Mazkur «Siffin» jangi musulmonlar uchun juda katta yo‘qotish bo‘ldi. Unda hammasi bo‘lib to‘qson ming musulmon halok bo‘ldi. Aynan «Jamal» va «Siffin» janglari musulmonlar o‘rtasida dastlabki bo‘linishlar va turli firqalar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Ahli sunna va-l-jamoa e’tiqodiga ko‘ra, sahobiylar orasida yuz bergan bu vaziyatlarda ular ayblanmay, ularning bari haqni izlagan mujtahidlar hisoblanadilar. Umumiy qoidaga asoslanib, ulardan qaysi birlari to‘g‘ri ijtihod qilgan bo‘lsalar, ikki ajr, xato ijtihod qilgan tarafga esa bir ajr beriladi.

Xalifa Ali (r.a.) bilan Muoviya (r.a.) o‘rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa Yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo‘shinning bir qismi norozi bo‘ldi. Ular «hukm chiqarish faqat Allohning iznidadir», degan shior bilan qo‘shinni tark etib, Kufa Yaqinidagi Harura qishlog‘iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi «xypyj» (bo‘ysunmaslik) voqeasi ularning «xavorij» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo‘ldi. Bu voqea Harura qishlog‘ida yuz berganligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o‘zlarini «Shurot» (Jonlarini Alloh yo‘lida tikkan kishilar) deb nomlaganlar. YAna ularning «Muhakkima» («hukm Allohning iznida» deguvchilar) degan nomlari ham bo‘lgan.

Xorijiylar o‘zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyni amir etib saylab, Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.)ni yo‘q qilish payiga tushdilar. Xalifa Ali (r.a.)ni 661 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o‘ldirgach, xorijiylar ikki firqaga bo‘linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida

xorijiylarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xorijiylar kuchayib, Kirmon, Fors, YAmoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar va o‘lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749-1258) qo‘liga o‘tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o‘z kuchini yo‘qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so‘nggina xorijiylar inqirozga yuz tutdi.

Demak, islomda dastlab paydo bo‘lgan firqa «xorijiylar»dir. «Xorijiylar» o‘z talqinlaridagi «sof» islom qoidalariga qat’iy rioya qilish tarafdori edi. Aynan ular o‘z qarashlari va faoliyatiga qo‘shilmaganlarni imonsizga chiqarish, ularga qarshi «jihod» olib borish haqidagi g‘oyalarni ishlab chiqib, terror uslubini qo‘llash orqali hukmdorlarni jismonan yo‘q qilish amaliyotini boshlab bergan edi. Bunday g‘oyalar kelib chiqishiga ko‘ra hokimiyat uchun kurashning zo‘ravonlikka asoslangan usullaridan bo‘lib, minglab kishilarning halok bo‘lishiga olib kelgan. O‘z davrida ular bilan bahs munozara qilish, ularning fikrlariga raddiya berish, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish maqsadida mashhur sahobiy Abdulloh ibn Abbos (r.a.) ularning huzuriga jo‘natilgan edi. Abdulloh ibn Abbos asosan ularning «Allohning hukmi» borasidagi xato qarashlariga raddiya bergan. Natijada jami olti minglik xorijiylardan ikki ming nafari noto‘g‘ri yo‘lda ekanliklarini anglagan holda undan qaytganlar.

VII asrning ikkinchi yarmida xorijiylar orasida rahbarlarining ismi bilan ataladigan bir necha firqalar paydo bo‘ldi. Ana Shunday mutaassib firqalar orasida eng murosasiz va shafqatsiz jamoa nomini olgan Nofi’ ibn Azraq (v.685y.) boshchiligidagi «Azraqiylar» oqimi alohida o‘rin egallaydi. Azraqiylar gunohi kabira (katta gunoh) qilgan barcha musulmonlarni «kofir» deb, ularning ta’limotiga qo‘shilmagan kishilarga qarshi jihod e’lon qilish, hattoki, qariya, ayol va bolalarning qonini to‘kishni halol, deb bilganlar.

IX asr oxirida Janubiy Iroqda yuzaga kelgan qarmatiylar namoz, ro‘za, zakot, haj kabi amallar farz qilinmagani, Qur’on oyatlarida masjid qurish yoki u erda

yig‘ilish haqida hukmlar yo‘q, degan da’vo bilan masjidlarga borishni man qilish darajasigacha borgan edi. Harakat o‘z nomini uning asoschisi Hamdon ibn Ash’asning laqabi Qarmat so‘zidan olgan bo‘lib, uning ma’nosi manbalarda turlicha «kalta oyoq» yoki «qizil ko‘z» kabi ma’nolarda ifodalangan. Islomdagi mavjud qoida va tartiblarning mohiyatini buzib talqin qilish oqibatida ular hattoki, hajga keluvchilar Ka’baga sig‘inib, Allohga shirk keltirishmoqda, degan da’volar ostida 930 yilda Makkaga hujum qilib, uni talon-taroj qilib, hojilarning bir qismini qul qilishgan, bir qismini esa o‘ldirishgan. Ka’bani vayron qilib, qora toshni ikkiga bo‘lib, Bahraynga olib ketishgan, faqat 20 yildan keyin katta to‘lov evaziga u Makkaga qaytarib berilgan. Qarmatiylar islom tarixida o‘chmas dog‘ qoldirgan jinoyatlarni sodir etgan.

XI asr oxirida Eronda yuzaga kelib, maxfiy ravishda ish ko‘rgan «hashshoshiylar» (arabcha – hashish (nasha) chekuvchilar, giyohvandlar) terrorchilik oqimi esa hokimiyatni egallash maqsadida ularga xayrixoh bo‘lmagan hukmdorlarga suiqasd uyushtirish amaliyotini oldinga surgan edi. Uzoq vaqt hashshoshiylar ko‘plab hukmdorlarga tahdid solib turgan, hattoki, ayrim Evropa mamlakatlari rahbarlari o‘z xavfsizliklarini ta’minlash uchun ularga to‘lov to‘lashga majbur bo‘lgan. Shu bilan birga, «hashshoshiylar» zamonaviy terrorchilar tomonidan ham keng qo‘llanilayotgan, oddiy kishilar va yoshlarga giyohvand moddalarni iste’mol qildirib, o‘lsa Shubhasiz jannatga tushishiga ishontirgan.

Diniy mutaassiblikka asoslangan ixtiloflar oqibatida cheksiz nizolar, kelishmovchiliklar, hatto qonli urushlar kelib chiqib, katta talofatlarga va jamiyatning inqiroz tomon yuz tutishiga sabab bo‘lgan. Buzg‘unchilik va zo‘ravonlikka asoslangan, e’tiqodiy birlikka tahdid solgan bunday oqimlar faoliyati o‘z davri ulamolari tomonidan qattiq qoralangan va ta’qib qilinganini alohida ta’kidlash lozim.

Vaqt o‘tishi bilan, mazkur g‘oyalardan yanada keng foydalangan holda, Shuningdek, o‘zgacha talqin va mohiyat kasb etgan yangidan yangi mutaassib

oqimlar faoliyati paydo bo‘ldi. Zamonaviy voqelik diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning salohiyati sifat va miqdor jihatidan jiddiy o‘sganini ko‘rsatmoqda. Bu o‘z navbatida diniy ekstremizm va terrorizmning global xavfsizlikka yo‘naltirilgan jiddiy tahdidga aylanishiga zamin yaratmoqda. Diniy-ekstremistik va terrorchi guruhlar globallaShuv jarayonlari va yirik davlatlar orasidagi geosiyosiy manfaatlar to‘qnaShuvidan hamda fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda ekstremizm va terrorizmga qarshi keng ko‘lamli kurash olib borilayotgan muhitga moslashishga xarakat qilmoqda. Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga salbiy ta’siri xalqaro terrorchilik tizimida etakchi o‘rinlarni egallab turgan quyidagi diniy-siyosiy tashkilotlarning mohiyati tahlil qilinganda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

***«Musulmon birodarlar» jamoasi («Jamoat al-Ixvon al-muslimin»).*** «Musulmon birodarlar» harakatiga 1928 yil mart oyida Misrning Ismoiliya shahrida Hasan al-Banno (1906-1949) tomonidan asos solingan. Tashkilotning asosiy g‘oyalari Hasan al-Banno va Said Qutb tomonidan targ‘ib qilingan.

«Musulmon birodarlar» o‘z tarixida bir necha bosqichlarini bosib o‘tgan. Dastlab «Musulmon birodarlar» tashkiloti XX asr birinchi yarmida mavjud bo‘lgan ko‘p sonli mayda islomiy guruhlardan biri hisoblanardi. Shuning uchun Hasan al-Banno o‘z targ‘ibotlarini odamlarga kengroq yoyish maqsadida, Misrning bir qancha shaharlariga safar uyushtirgan. Keyinchalik esa turli shahar va mintaqalarga o‘zining vakillarini yuborgan. Bunday safarlar natijasida, qisqa vaqt ichida, ya’ni 1930-yillar oxiriga borib, mamlakatning deyarli barcha mintaqasida tashkilotning bo‘limlari faoliyat yurita boshlagan. Tashkilot «Alloh – bizning maqsadimiz, Qur’on – qomusimiz, Payg‘ambar – bizning etakchimiz, Jihod – bizning yo‘limiz va Alloh yo‘lida qurbon bo‘lish bizning eng oliy orzuimizdir» degan tamoyilni o‘zining bosh shiori qilib olgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, «Musulmon birodarlar»ning mintaqaviy bo‘linmalari Bahrayn, Misr, Iordaniya, Yaman, Qatar, Kuvayt, Livan, Birlashgan Arab Amirliklari, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Sudan, Suriya, Turkiya, Buyuk

Britaniya, Daniya, Shveysariya, AQSH, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarda faoliyat yuritgan. O‘tgan davr mobaynida «Musulmon birodarlar»ning mahalliy bo‘limlaridan ajralib chiqib, mustaqil faoliyat yuritayotgan bir qator diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilotlar mavjud. Ular qatorida Misrda faoliyati kuzatilgan «al-Jamoa al-islomiya», «al-Jihod», «at-Takfir val-hijra», Jazoirdagi «Qurollangan islom guruhi», «Islom jihodi», Saudiya Arabistonidagi «Jumaymana al-Uteybiy», ko‘pchilik davlatlarda ildiz otishga harakat qilayotgan «Hizbut-tahrir al-islomiy» kabi tashkilotlarni ko‘rsatish mumkin.

XX asrning so‘nggi yillariga kelib, diniy uyushma sifatida ochiq faoliyat yuritgan «Musulmon birodarlar»ning siyosiy qanoti terrorizmdan voz kechib, parlament tipidagi partiyaga aylanganini e’lon qildi va jamiyatdagi ta’siri yanada kengayib bordi. Hattoki, 2005 yilning noyabr-dekabr oylarida bo‘lib o‘tgan «Milliy Majlis» saylovlarida «Musulmon birodarlar» harakatining a’zolari «Islom – muammolar echimi» shiori ostida parlament saylovlarida «mustaqil nomzodlar» sifatida qatnashib, umumiy hisobda 20 foiz ovozga ega bo‘ldi va mamlakat parlamentida eng yirik muxolifat (oppozitsiya) blokini tashkil etdi. Buning natijasida umumarab diniy harakatiga aylangan «Musulmon birodarlar» tashkilotining faoliyati oshkora siyosiy tus oldi. 2011 yil 25 yanvarda Misrning poytaxti Qohirada boshlangan yirik norozilik namoyishlari 11 fevralda Prezident Husniy Muborakning iste’fosi bilan yakunlandi. 2012 yil mamlakat prezidentini saylash uchun bo‘lib o‘tgan ikki bosqichli saylov natijalariga ko‘ra, 30 iyunda «Musulmon birodarlar» tashkilotning siyosiy qanoti hisoblangan «Adolat va ozodlik partiyasi» rahbari Muhammad Mursiy Misr prezidenti etib saylandi. Ko‘p o‘tmay, 2013 yil 3 iyulda «Musulmon birodarlar» harakati vakili bo‘lgan Muhammad Mursiy ommaviy noroziliklar natijasida harbiylar tomonidan hokimiyatdan chetlashtirildi.

Yuqorida qayd etilgan tahlil «Musulmon birodarlar»ning uzoq yillar davomida olib borgan faoliyati Misrda davriy ravishda ijtimoiy-iqtisodiy

beqarorlikni keltirib chiqarishi bilan bir qatorda musulmon dunyosiga mansub boshqa davlatlarda radikal diniy-siyosiy tashkilotlar vujudga kelishiga mafkuraviy va tashkiliy zamin yaratgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

*Hizbut-tahrir al-islomiy. (Islom ozodlik partiyasi).* «Hizbchilar», «tahrirchilar» deb ham yuritiladi. Falastinlik Taqiyiddin Nabahoniy (1909-1979) mazkur ekstremistik tashkilotning asoschisi hisoblanadi. Isroil davlatini tashkil etish haqidagi BMT qaroridan keyin 1947 yilda oilasini olib, Falastindan Bayrutga ko‘chgan. Aslida Misrdagi «Musulmon birodarlar» tashkiloti a’zosi bo‘lgan Nabahoniy 1953 yilda mazkur jamoa a’zoligidan chiqib, Quddus (Ierusalim)da «Hizbut-tahrir al-islomiy» tashkilotini tuzgan. Nabahoniy vafotidan so‘ng hizbga falastinlik Abdulqadim Zallum (1925-2003) boshchilik qildi. Uning rahbarligi davrida tashkilot sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarda (asosan Markaziy Osiyo hududida) o‘z faoliyatini jadallashtirgan. Abdulqadim Zallum vafotidan keyin «Hizbut-tahrir» harakatiga Ato Abu Rushta (Abu Yosin) rahbarlik qiladi.

Dastavval Falastinni ozod qilishni maqsad qilgan Nabahoniy, keyinchalik butun dunyo musulmon mamlakatlarini birlashtiruvchi yagona xalifalik davlatini qurishni bosh maqsad deb e’lon qilgan. Shundan keyin esa, ushbu shakllangan islom ummatining da’vatlari orqali butun dunyoda xalifalik davlatini qurish mumkin, deb hisoblaydi.

«Hizbut-tahrir»ning Markaziy Osiyo mintaqasidagi faoliyati XX asr 80-yillarning oxiri 90-yillariga to‘g‘ri keladi. «Hizbut-tahrir»ning o‘zagini 1990 yillar boshida Namanganda tuzilgan «Adolat», «Islom lashkarlari» va «Tavba» singari ekstremistik tashkilotlarning sobiq a’zolari tashkil qildi. 1992 yilda diniy ekstremistik guruhlar boshliqlari O‘zbekistondan qochib ketgach, ularning o‘rnini «Hizbut-tahrir» egalladi. Bu davrda «Hizbut-tahrir»ning ta’limotlariga oid chet davlatlarda nashr etilgan mutaassiblikka yo‘g‘rilgan turli xildagi kitob, risola va jurnal shaklidagi materiallar noqonuniy yo‘llar bilan yurtimizga kirib keldi.

So‘nggi yillarda «Hizbut-tahrir»da g‘oyaviy yakdillik yo‘qolib, faoliyatida yuzaga kelgan samarasizlik tarkibiy bo‘linishlarga olib keldi. Undan «Hizbun-

nusra» guruhi ajralib chiqdi. Shuningdek, «Hizbut-tahrir»ning «Ayollar qanoti» kuchaytirilishi barobarida, ular orasida o‘zini o‘zi o‘ldirish amaliyotidan keng foydalanilmoqda. Ular yosh qiz va ayollarga «uy tutish sirlari» (pazandalik, tikuvchilik)ni o‘rgatish orqali harakatning g‘oyalarini targ‘ib etish, tuzoqqa ilingan ayollarni go‘yoki, «hijrat» qilish yo‘lida chet davlatlardagi o‘z «birodarlari»ga yordam berish uchun jo‘natish yoki jazo muddatini o‘tayotgan jamoa a’zolariga turmushga chiqishga da’vat etish kabi amaliyotlar bilan Shug‘ullanmoqdalar.

*«Akromiylar».* Asoschisining nomidan kelib chiqqan holda, «Akromiylar» firqasi «imonchilar», «birodarlar», «xalifachilar» deb ham ataladi. «Hizbut-tahrir» tashkiloti asoschisi Taqiyiddin Nabahoniy kitoblaridan ta’sirlangan holda, 1992 yilda Akrom Yo‘ldoshev (1963-2009) tomonidan Andijonda shakllantirilgan.

«Akromiylar»ning bosh g‘oyasi – islomiy boshqaruv shaklidagi davlatni barpo etish hisoblanib, buning uchun bosqichma-bosqich harakat qilish, avval Farg‘ona vodiysida xalifalik tuzumi barpo etish va keyinchalik uni mintaqaning boshqa hududlariga yoyish maqsad qilingan.

Akrom Yo‘ldoshev «ilk diniy saboqlar»ini aynan «Hizbut-tahrir» uyushmasida olganligi bois, o‘z shaxsiy ta’limotini yaratishda harakatning nazariy va amaliy fikrlaridan yiroqlasha olmagan. Shu bois, «Hizbut-tahrir» adabiyotlaridan foydalangan holda o‘n ikki darsdan iborat «Imonga yo‘l» nomli kitobi orqali o‘z «diniy falsafiy» qarashlarini baёn qiladi. Sekin-asta o‘z atrofiga xayrixoh bo‘lgan kishilarni yig‘ib, mazkur kitob asosida darslar tashkillashtirgan va «Akromiylar» jamoasini shakllantirgan.

Harakat siyosiy hokimiyatga erishishning 5 ta – «sirli», «moddiy» («iqtisodiy»), «ma’naviy» («siyosiy»), «uzviy maydon» va «to‘ntarish» («oxirat») bosqichiga asoslanadi. So‘nggi ikki bosqich jamiyat «islomlashtirilgan»dan so‘ng amalga oshirilishi va u orqali hokimiyatni butunlay egallash rejalashtirilgan.

«Akromiylar» o‘zaro aloqalarni mustahkamlash maqsadida, tadbirkorlik bilan shug‘ullanganlar hamda yangi a’zolarni asosan qarindoshlar hisobiga o‘zlarining savdo do‘konlari, sartaroshxona, novvoyxona, duradgorlik, qandolatchilik,

kosibchilik va mebel ishlab chiqarish sexlariga ishga jalb qilish orqali kengaytirishga harakat qilganlar. «Akromiylar» yangi a’zolarga ertayu kech mavjud tuzumning kamchiliklari, o‘zlarining go‘yoki siyosatdan yiroq, kichik bo‘lsada, haqiqiy «birodarlar jamoasi» muhitining «go‘zal» jihatlarini uqtirib borish orqali ruhiy ta’sir o‘tkazishga harakat qilganlar. Bunda ular hokimiyatni qo‘lga olish bilan bog‘liq rejalarini jamoaning asosiy qismidan sir tutganliklari hamda yangi tarafdorlar ularni siyosatga aloqasi yo‘q deb bilganlari bois singdirilayotgan fikrlarga ko‘nikib boraverganliklarini ko‘rsatadi. Bu yo‘ldagi amaliy da’vat uslubi boshqa mutaassib kuchlar yondaShuvidan farqli bo‘lib, ommaga mafkuraviy tuzoq qo‘yishga asoslangan.

Ma’lumki, 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida «Akromiylar» oqimi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darish maqsadida ko‘plab odamlarning qurbon bo‘lishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta zarar etkazilishiga olib kelgan terrorchilik harakati sodir etgan. Tashqi kuchlar ta’siri bilan jinoiy guruh tomonidan yuzaga keltirilgan tartibsizliklar oqibatida hisobotga ko‘ra, 187 kishi qurbon bo‘lgan. Shundan 60 nafari tinch aholi vakillari (ularning ichida ikki nafar voyaga etmaganlar va bir nafari ayol) edi. Terrorchilar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning 31 nafarini o‘ldirishgan. 287 nafar kishi, jumladan, 91 nafar tinch aholi vakillari, 49 nafar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va 59 nafar harbiy turli darajadagi tan jarohatlari olishgan. Terrorchilarga qarshi chora-tadbirlar vaqtida esa 94 nafar terrorchi yo‘q qilingan, 76 nafari yaralangan.

Hozirgi vaqtda G‘arbda «Akromiylar» yangi diniy-siyosiy guruhlar tarkibida faoliyatni davom ettirmoqda. Jumladan, oqim tarafdorlari Germaniyaning Dyusseldorf shahrida 2009 yilning may oyida «Andijon – Adolat va Tiklanish» tashkiloti tashkil qilgan. 2011 yilda «Akromiylar» jamoasi va ularga moyil bo‘lgan «Andijon – Adolat va Tiklanish», «Tanyach» tashkilotlari va «Erk» partiyasi ishtirokida 2011 yilning may oyi oxirida Germaniyaning Berlin shahrida «O‘zbekiston xalq harakati» nomi ostida reaksion tashkilot tuzilgan. Ushbu harakat

a'zolari tomonidan «ozodlik», «e'tiqod erkinligi», «inson huquqlari» kabi jozibali tushunchalar ishlatilib, turli yo'llar, masalan, internet tizimi orqali asosan yurtimiz yoshlarini o'z saflariga qo'shishga harakat qilmoqda.

*«Iroq va Shom islom davlati» (ISHID) yoki «Islom davlati»* tashkil topishida «al-Qoida» tashkiloti muhim o'rin tutgan. Dastlab, 2004 yilda xalqaro miqyosdagi terrorchi Abu Mus'ab Zarqoviy Iroqda «Tavhid va jihod jamoati»ni tuzadi va «al-Qoida»ning Iroqdagi bo'limi sifatida faoliyat olib boradi. Iroqdagi harakat doirasini kengaytirish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib boriladi. Keyinchalik unga «Jaysh al-fotihin», «Jaysh as-sahoba» kabi bir qator terrorchi guruhlar qo'shilishi natijasida Zarqoviy 2006 yilda Abdulloh Rashid Bag'dodiy boshliq «Mujohidlar maslahat kengashi» tuzilganini e'lon qiladi. Buning natijasida Yaqin Sharqdagi bir necha terrorchi guruhlarni birlashtirgan tashkilot 2006 yil 15 oktyabrda «Iroq islom davlati» nomi ostida Iroqda tashkil topadi va unga Abu Umar Bag'dodiy ismli shaxs rahbarlik qiladi.

2010 yil 19 aprelda Abu Umar Bag'dodiy o'ldirilgandan so'ng guruhga Abu Bakr Bag'dodiy nomi bilan tanilgan Abdullo Ibrohim as-Samariy (ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Ibrohim Avvad al-Badriy al-Husayniy) rahbarlik qiladi. Suriyada kechayotgan mojarolarga mustaqil armiya sifatida kelib qo'shilgandan so'ng, 2013 yil aprel oyida tashkilot «Iroq va Shom islom davlati» (ISHID) deb nomlandi. «Al-Qoida» tashkiloti «ISHID»ning Suriyadagi mojarolarga aralashganidan so'ng, 2014 yil fevral oyida mazkur tashkilotning «al-Qoida»ga aloqasi yo'q deb bayonot berdi. BMT Xavfsizlik kengashi ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi eng xavfli hisoblangan «al-Qoida» faolligining kamayishi undanda kuchliroq terrorchilik tashkilotlari, xususan «Iroq va Shom islom davlati»ning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

2014 yil 29 iyunda tashkilot rahbarlari tomonidan Iroq va Shom (Suriya) hududida xalifalik tuzilgani va Abu Bakr Bag'dodiy xalifa ekani e'lon qilindi. Keyinchalik, «ISHID» o'zini «Islom davlati» deb nomladi.

Tashkilotning bosh maqsadi islom «xalifaligi»ni qayta tiklash va islom shariatini amalga tatbiq etishdan iborat. Bu yo‘lda Iroq, Suriya mamlakatlari negizida sunniy musulmonlarning yagona davlati «xalifalik»ni barpo etib, bosqichma-bosqich Yaqin Sharq va SHimoliy Afrika mamlakatlari hisobiga kengaytirishni e’tirof etadi.

Mazkur terrorchi tashkilot tomonidan 2013-2017 yillar mobaynida Iroq va Suriya hududlarida 10 mingdan ziyod terrorchilik harakatlari sodir etildi, o‘z joniga qasd qiluvchi terrorchilar tomonidan 100 dan ortiq qo‘poruvchilik harakatlari, portlashlar amalga oshirildi. Suriyada «ISHID» jangarilari 60 dan ziyod cherkov va monastirni vayron qilishdi.

«Global terrorizm indeksi» ma’lumotlariga ko‘ra, «Jabhat an-Nusra» tomonidan amalga oshirilgan terrorchilik amaliyotlari natijasida 2015 yilda 600 dan ortiq inson vafot etgan. Jumladan, 2015 yil sentyabr oyida jangarilar «Abu ad-Duxur» aerodromini qo‘lga kiritish chog‘ida asirga tushgan Suriya hukumatning 56 nafar askarlarini qatl etgan. Shuningdek, jangarilar 2014 yil avgust oyida BMTning tinchlikparvar kuchlaridan iborat 45 nafar kishini asir olgan. Keyinchalik 20 million AQSH dollari evaziga ularni ozod etgan.

2012 yil dekabrda AQSH Davlat Departamenti, 2013 yil may oyida BMT Xavfsizlik Kengashi «Jabhat an-nusra» harakatini terrorchi tashkilotlar ro‘yxatiga kiritdi. Shuningdek, Avstraliya, Buyuk Britaniya (2013) hamda Rossiya (2014) kabi bir qator davlatlar ham mazkur uyushmani terrorchi tashkilot deb e’lon qilgan.

Umuman olganda, din bayrog‘i ostida talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo‘poruvchilik harakatlari sodir etilayotgani, narkobiznes va noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi amalga oshirilayotgani, korxonalar va inshootlarga zarar etkazilayotgani ham hech kimga sir emas. Bunday harakatlar ijtimoiy barqarorlikning izdan chiqishiga, millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik va diniy ayirmachilik kayfiyatlarining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

**4. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy asoslari.** O‘zbekistonda shakllanayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati o‘ta murakkab va mashaqqatli siyosiy jarayonga asoslangan. Bir tomondan, eski sovet tuzumidan qolgan salbiy meros demokratik o‘zgarishlarga qarshilik ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, ayrim siyosiy kuchlar xalqimiz tanlagan dunyoviy taraqqiyot yo‘liga raxna solib, uni izdan chiqarish va diniy maqomga burib yuborishga harakat qilmoqda. Bu «ayrim siyosiy kuchlar» diniy ekstremizm va terrorizmning bevosita ilhomchilari va bajaruvchilari bo‘lib, ular o‘zlarining nopok siyosiy maqsadlari yo‘lida inson va jamiyatning eng nozik tuyg‘usi dindan foydalanishga urinmoqda. Ayniqsa, 1999 yilning 16 fevralida Toshkent shahrida terroristlar tomonidan uyushtirilgan portlashlardan keyin terrorizm muammosi O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatarlardan biriga aylandi.

Mustaqil davlatimiz qonunchiligida terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari (qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi) bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, **ularning asosiylari quyidagilardir:**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonuni (2000 yil 15 dekabr);

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (1994 yil 22 sentyabr);

3. O‘zbekiston Respublikasining «Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuni (2001 yil 29 avgust);

4. O‘zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonuni (2004 yil 26 avgust).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5 sentyabr 2019 yilda 07/19/4436/3693-sonli qarori.

Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi va «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonunlar alohida e'tiborga molik. Chunki bu qonunlar tufayli O'zbekistonda terrorizmga qarshi kurashning normativ, tashkiliy va moddiy-texnik asoslari yaratildi. Unga ko'ra, terrorizmni targ'ibot qilish, terrorchi gurux va tashkilotlarni tuzish hamda ularning faoliyati, tayyorlanayotgan yoki amalga oshirilgan terrorchi jinoyatlarga oid ma'lumot va dalillarni yashirish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi ekstremizm va terrorizm hamda uni moliyalashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham qat'iy siyosat olib bormoqda. 1999 yilda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi qonunning qabul qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Shuningdek, «Shanxay hamkorlik tashkilotining terrorizmga qarshi konvensiyasini (Ekaterinburg, 2009 yil 16 iyun) ratifikatsiya qilish to'g'risida», «Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Evroosiyo guruhi to'g'risidagi bitimni (Moskva, 2011 yil 16 iyun) ratifikatsiya qilish haqida»gi qonunlarni qabul qilib, ulardagi majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, bu masalalarda o'zining tashabbuslarini ilgari surayotganini ham alohida ta'kidlash zarur. Bunday hujjatlar hali ko'pgina mamlakatlarda qabul qilinmaganligini qayd etib o'tish darkor.

O'zbekiston aksilterror koalitsiyalarning faol a'zosi bo'lib, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik masalalariga xalqaro jamoatchilikning e'tiborini qaratib kelmoqda. Bu borada O'zbekiston dunyoning ko'plab davlatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Respublikamiz xalqaro terrorizmga qarshi kurash doirasida huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish harakatlarini to'la qo'llab-quvvatlab, BMT doirasida har tomonlama hamkorlikka asoslangan global tizim yaratish orqali bu yo'nalishda amaliy natijalarga erishish mumkin, deb hisoblaydi.

Darhaqiqat, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda BMTning o‘rni va ahamiyati kattadir. Bugunga qadar BMT terrorizmga qarshi 12 ta rezolyusiya, 16 konvensiya, 2 protokol qabul qilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston davlati va hukumati terrorizm muammosiga o‘zining tashqi va ichki siyosatining muhim masalasi sifatida yondashib, qonun asosida terrorchi, terrorchilik guruhi, terrorchilik tashkiloti kabi tushunchalarni umumlashtirgan holda ularning ta’rifiga aniqlik kiritildi. Jumladan, O‘zbekistondagi qonunchilik tizimida terrorchi, terrorchilik guruhi, terrorchilik tashkiloti kabi tushunchalarni umumlashtirgan holda ularning ta’rifiga aniqlik kiritildi. 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonunining ikkinchi moddasida terrorizm tuShunchasi quyidagicha ifodalangan: «…terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘ligiga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob’ektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur etkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rlik, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar», - deb ta’rif berilgan.

Terrorizmga qarshi kurash dastavval uni oziqlantiruvchi g‘oyaviy-ma’naviy va moliyaviy-iqtisodiy manbalarni zararsizlantirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan 2006 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Qonun jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunga ko‘ra, pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkka oid operatsiyalar ustidan

nazoratni amalga oshirish vakolati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. Respublika Bosh prokuraturasi huzurida faoliyat ko‘rsatayotgan Soliq, valyutaga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti zimmasiga moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning kanal va mexanizmlarini aniqlashga yo‘naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalarning monitoringini amalga oshirish, xorijiy davlatlarnint vakolatli organlari hamda xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlash kabi yangi vazifalar yuklatildi. Chunki bugun diniy shiorlar bilan niqoblangan, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosidan kelayotgan katta-katta mablag‘lar evaziga yashayotgan xalqaro terrorchilik mintaqa xavfsizligiga jiddiy tahdid solib kelmoqda.

Mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimizning dunyoviy, ilmiy, axloqiy salohiyatini yuksaltirish, ularda yurt istiqloliga sadoqat, milliy-ma’naviy, umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini kuchaytirish, jamiyatimizda diniy aqidaparastlikning har qanday ko‘rinishlarining oldini olish, o‘lkamizda ijtimoiy-ma’naviy va siyosiy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 martdagi 130-sonli «Ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilingan.

Qarorga ko‘ra, Respublika mutasaddi davlat idoralari hamda jamoat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan «Huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada Yaxshilash, diniy aqidaparastlikning oldini olish bo‘yicha tadbirlar dasturi» tasdiqlangan bo‘lib, jumladan unda:

- diniy va umuman mafkuraviy adabiyotlar, video va audiokassetalarning mazmuni va tarqatilishini tegishli qonunlarda belgilangan tarzda tekshiruvdan o‘tkazishni kuchaytirish;

- diniy aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi videomahsulotlarning namoyish etilishiga qarshi qonuniy choralar ko‘rish;
- diniy mavzudagi kitoblar, risolalar va boshqa turdagi matbaa asarlarida e’tiqodga ko‘r-ko‘rona mukkasidan ketish, bevosita va bilvosita milliy va diniy mahdudlik, aqidaparastlik targ‘ib etilishining oldini olish;
- viloyatlar markazlarida diniy adabiyotlar sotuviga ixsoslashtirilgan maxsus do‘konlar tashkil etish, sotilayotgan diniy adabiyotlar mazmunini nazoratga olish kabi muhim chora-tadbirlar belgilab berilgan.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunning 19-moddasida diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan matbaa nashrlar, kino, foto, audio, video mahsulotlari va Shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish muayyan javobgarlikka olib kelishi mumkinligini nazarda tutadi. Jumladan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning $184^{2}$-moddasiga asosan Diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish, fuqarolarga eng kam oylik ish haqining yigirma baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – ellik baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi nazarda tutilgan. Shuningdek, ma’muriy jazo qo‘llanilganidan so‘ng bir yil davomida xuddi Shunday qilmish takroran sodir etilsa, Jinoyat kodeksining $244^{3}$-moddasiga asosan eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqatish maqsadida tayyorlanadigan diniy mazmundagi mahsulotlarni ekspertizadan o‘tkazishda ularning mohiyati davlatimiz siyosati, milliy istiqlol g‘oyasi va diniy ta’limotlarga zid emasligi, bunday mahsulotlarga qay darajada ehtiyoj mavjudligi, ular diniy da’vat va missionerlikka, aholi o‘rtasida ixtilof va ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lmasligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston dunyoviy davlat hisoblanadi. Shu bois qonunga xilof tarzda dinga dav’at etish, undash ta’qiqlanadi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 202[1]-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida g‘ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash – eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi. Jinoyat kodeksining 216[1]-moddasiga muvofiq, yuqoridagi qonunbuzarlik ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, eng kam ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Biron-bir fuqaro o‘zining dinga, dinga e’tiqod qilishga yoki e’tiqod etmaslikka, ibodat, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta’lim olishga o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bu haqida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 241-moddasida ham aytib o‘tilgan bo‘lib, diniy ta’limotdan saboq berish tartibini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilangan. Mazkur moddaga ko‘ra, «Maxsus diniy ma’lumoti bo‘lmay turib va diniy tashklot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta’limotdan saboq berish, xuddi Shuningdek, xususiy tartibda diniy ta’limotdan saboq berish» ma’muriy huquqbuzarlik hisoblanib, bunday harakat uchun eng kam ish haqining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga qamoqqa olish jazosi belgilanadi.

Agar biror shaxs bunday qilmish uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgandan so‘ng bir yil davomida takroran Shunday harakatni sodir etsa, Jinoyat kodeksining 229[2]-moddasiga asosan eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko‘zda tutilgan. Shunday ekan, xususiy tartibdagi diniy ta’lim javobgarlikka asos bo‘ladi.

Bundan tashqari, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish (156-modda), jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish (216-modda), g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash ($216^1$-modda), diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish ($216^2$-modda), diniy ta’limotdan saboq berish tartibini buzish ($229^2$-modda), jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash yoki tarqatish ($244^1$-modda), diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish ($244^2$-modda) kabi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Demak, diniy ekstremizm va u bilan bog‘liq holda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish uchun eng avvalo, kishilarni, ayniqsa, yoshlarni huquqiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning o‘ziga xos huquqiy mexanizmi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, diniy ta’lim tizimini takomillashtirish, diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash va tarqatishni tartibga solish, Shuningdek, din bilan bog‘liq turli nizolarning oldini olish orqali yurt tinchligi va xavfsizligini ta’minlashda o‘ziga xos xizmat qilmoqda.

**5. O‘zbekistonda faoliyati aniqlangan norasmiy diniy jamoa va sektalar.** Tarix Shuni ko‘rsatadiki, chuqur ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar boshidan kechirayotgan jamiyatda rivojlanishning «yagona to‘g‘ri yo‘li»ni, agar jamiyatdagi vaziyat salbiy tomonga yo‘nalgan bo‘lsa, «yagona najot yo‘li»ni bilishga da’vo qiluvchi turli diniy jamoalar yoki sektalar vujudga kelishi kuzatiladi. O‘zbekistonda ham 1990-yillarning boshida muayyan darajada xarizma va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega, o‘ziga ishonchi yuqori bo‘lgan ayrim «yangi dindorlar» o‘z g‘oyalarini boshqalarga ham targ‘ib qila boshladilar. Oqibatda respublikada bir necha norasmiy diniy jamoalar shakllandi. Ularning a’zolari orasida maxsus diniy ma’lumotga ega shaxslar deyarli uchramaydi.

Norasmiy diniy jamoalar ilgari surayotgan diniy-g‘oyaviy qarashlarning aksariyati sof diniy xarakterga ega bo‘lib, «xalifalik qurish» kabi diniy-siyosiy maqsadlarga qaratilmasada, aqidaviy jihatdan hanafiylik mazhabi ta’limotiga mutlaqo zid g‘oyalarni targ‘ib etish va o‘zlariga ergashmagan musulmonlar va boshqa din vakillariga o‘ta keskin munosabat bildiriladi. Jamoa ichida ayrim holatlarda fuqarolarning qadr-qimmatini kamsituvchi tartiblar joriy qilingan va jamiyatga salbiy munosabatlar shakllantirilgan. Oqibatda jamoa a’zolarining jamiyat va ijtimoiy aloqalarning uzilib qolishi, ular va boshqa fuqarolar orasida o‘zaro mojarolar kelib chiqishi, ayrim adeptlarning oilalari barbod bo‘lishi kabi ijtimoiy illatlar kuzatilmoqda. Jamoa rahbarlari esa o‘z tarafdorlarini shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish holatlari aniqlangan. Hozirgi kunda respublikada faoliyati kuzatilayotgan norasmiy diniy jamoalar qatoriga «Ma’rifatchilar», «SHohidiylar» va «Baxshillochilar»ni kiritish mumkin.

***«Ma’rifatchilar»*** jamoasiga 1990-yillarning o‘rtasida Farg‘ona viloyati Toshloq tumanida yashovchi Bahodir Mamajonov (1950 y.t.) tomonidan asos solingan. Jamoaning g‘oyaviy ta’limoti B.Mamajonov tomonidan yozilgan va noqonuniy tarzda chop etilgan, diniy va ilmiy asossiz yozilgan «Ma’rifat», «Tilak», «Namoz-Sig‘inish», «Rost-Qur’on» kitoblari hisoblanadi.

«Ma’rifat» kitobi B.Mamajonovning diniy mavzudagi fikrlari va nozil bo‘lish tartibiga ko‘ra joylashtirilgan bir necha suralarning tarjimasidan iborat. Ushbu kitob nomidan kelib chiqqan holda aholi ichida B.Mamajonovning izdoshlari «Ma’rifatchilar» deb tanilgan. B.Mamajonov esa o‘zini va tarafdorlarini «To‘g‘ri din»dagilar deb hisoblaydi.

«Namoz-Sig‘inish» kitobida B.Mamajonov tomonidan belgilangan namoz tartibi bayon qilingan. «Rost-Qur’on» kitobida ham go‘yoki «Usmon ibn Affon davrida Qur’on noto‘g‘ri tartiblangan» degan da’vo ostida suralar nozil bo‘lish tartibiga ko‘ra joylashtirilgan.

**«Ma’rifatchilar»ning an’anaviy islom ta’limotiga zid da’volari:**

- Qur’on va namoz milliy tilda, ya’ni o‘zbek tilida o‘qilishi shart hisoblanib,

go‘yoki «o‘zi aniq bilmagan narsaga erishish» shirk ekani e’lon qilinib, «ota-bobolarimiz ... mushrik edilar» deb hisoblanadi;

- O‘zbekiston aholisi faqat 1990 yili «Sharq yulduzi» jurnalida chop etilgan Qur’on tarjimalari orqali haqiqiy Qur’onga (B.Mamajonovning da’vosicha – «Rost-Qur’on») erishgan, ungacha Qur’onga go‘yoki «shayton suralari qo‘shilgan» deb da’vo qilinadi hamda mavjud tafsirlar tan olinmaydi;
- Muhammad payg‘ambarga «vositachi», «uning vazifasi faqat Qur’onni etkazish edi» degan da’vo bilan hurmat ko‘rsatilmaydi, «xulafoi roshidin»dan keyingi xalifalar «do‘zaxi» sanaladi;
- Qur’on - yagona muqaddas manba, hadislar tan olinmaydi;
- dunyoviy partiya va boshqa dindagilar, Shu jumladan, Yahudiy va xristianlar «shaytonga ergashgan»lar deb qaraladi;
- mazhablarga ergashish «shirk» amal hisoblanadi;
- mayyitni kafanlash va «janoza» o‘qish islomda yo‘q amallar, deb qaraladi;
- go‘yoki isrof bahonasida davlat bayramlari va tug‘ilgan kunlarni nishonlash, to‘y-ma’rakalar o‘tkazish, diniy marosim va urf-odatlar dindan chiqaruvchi shirk amallar qatoriga kiritilgan;
- namoz va ibodatda ishlatiladigan sano va salovotlarning barchasi o‘zbek tilida o‘qilishi joriy qilingan, namoz vaqti va tartibi e’tiborga olinmaydi, bir sutkada besh mahal azonsiz, B.Mamajonov belgilagan vaqt va tartibda 17 rakat, kechasi 2 rakat sunnat namozi o‘qiladi.

Jamoa a’zolarining asosiy qismini B.Mamajonovning qarindoshlari va Yaqinlari tashkil etadi. Ayrim a’zolar O‘zbekiston islom harakatining jangovar lagerlarida «hijrat»da bo‘lib qaytganlar. Hozirda jamoaning kam sonli a’zolari Farg‘ona viloyatining Toshloq tumani va Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida istiqomat qiladi.

***«Shohidiylar»*** jamoasiga 1990-yillarning boshida diniy ma’lumotga ega bo‘lmagan andijonlik Karimov Xabib (1944 y.t.) asos solgan. Jamoa tarafdorlari 52 nafarni tashkil qilib, Andijon shahri va Andijon tumanidagi fuqarolar

yig‘inlarida faol harakat qilganlar. Oqim tarafdorlari navbati bilan davriy ravishda (15 kunda bir) o‘z xonadonlarida yig‘ilishlar tashkil qilib, oqimning «Qur’ondan ma’ruf» nomli kitobi asosida diniy darslar o‘tkazganlar. **Ushbu jamoa diniy qarashlarida islom ta’limotiga zid quyidagi tamoyillar mavjud:**

- Qur’on tafsirlari va hadislar inkor qilinadi;
- namoz besh mahal emas, istalgan vaqtda ikki rakat o‘qiladi, go‘yoki soliq amallar namoz hisobiga o‘tadi deb hisoblanadi;
- Makka shahridagi «Masjidul Harom»dan boshqa masjidlar tan olinmaydi, imom-xatiblar go‘yoki sof islomdan qaytgan hisoblanib, jamoa a’zolariga namoz uchun masjidga borish man etilgan, juma namozi faqat Makka ahliga farz etilgan deb da’vo qilinadi;
- islomiy marosimlar o‘tkazilmaydi. Jumladan, 2001 yilning sentyabrida X.Karimov onasi vafot etganda mayyitni kechasi yashirincha, «janoza» o‘qimay ko‘mib kelgan;
- jamoa a’zolariga to‘y va boshqa dunyoviy marosimlarni o‘tkazish yoki ishtirok etish ta’qiqlangan;
- quda-andachilik munosabatlari faqat oqim a’zolari o‘rtasida o‘rnatiladi;
- spirtli ichimliklarni ma’lum bir me’yorda (mast holatga keltirmaydigan) iste’mol qilish harom sanalmaydi.

«Shohidiylar» jamoaga yangi a’zolarni asosan o‘zlarining Yaqin qarindoshlari ichidan jalb qiladilar. Quda bo‘lish ham odatda faqat jamoa doirasida amalga oshiriladi. YAngi a’zolarga oq matoga o‘ng qo‘lini qo‘ygan holda qasamyod qilishi va 70 kun ro‘za tutishi yoki kuniga 800-1000 so‘m (jami 56-70 ming so‘m) miqdorida a’zolik badali to‘lashi buyuriladi.

Jamoa a’zolariga diniy tushunchalar «Qur’ondan ma’ruf» nomli kitob asosida beriladi. Ushbu kitob 1960-yillarda Toshkent shahri va viloyatida vujudga kelib, hozir faoliyati kuzatilmayotgan, hadislarning muqaddasligini va mazhablarga ergashishni rad etgan «Ahli Qur’on» norasmiy diniy jamoasi a’zolari tomonidan tayyorlangan.

Ma’lumki, islomda harom qilingan amal yoki narsani halol hisoblash e’tiqodiy shirk hisoblanadi. «Ma’rifatchilar» va «Shohidiylar» jamoasiga a’zo bo‘lgan shaxslar shariat hukmiga ko‘ra dindan chiqqan hisoblanadi.

«Shohidiylar» hozirda Andijon shahri va Andijon tumani hududida istiqomat qiladilar.

***«Baxshillochilar»*** norasmiy jamoasiga Buxoro viloyatida tug‘ilgan Aliev Baxshillo 1997 yilda asos solgan. Uning diniy qarashlari quyidagi holatlarga ko‘ra islom ta’limotiga zid sanaladi:

- B.Aliev o‘zini avval qiyomatdan oldin keladigan Mahdiy, keyinchalik esa payg‘ambar, turmush o‘rtog‘i Mohira Alievani «musulmonlar onasi», farzandlarini «musulmonlar amiri», Yaqin izdoshlarini «sahobiylar» deb e’lon qilgan;
- jamoada shahodat kalimasida B.Alievni payg‘ambar deb tan olish joriy qilingan;
- B.Aliev go‘yoki uni ziyorat etgan shaxs ham amalini bajargan odamning savobini olishini, o‘ziga ergashganlarga qiyomatda savol-javob yo‘qligi, ular qanday holatda vafot etishidan qat’iy nazar, shahidlik maqomi berilishi, hatto barcha erkak maslakdoshlariga payg‘ambarlik darajasi berilishi haqida targ‘ib qiladi;
- namoz besh emas, go‘yoki uch mahal farz qilingan;
- o‘g‘il farzandlarni islom talablariga muvofiq xatna qildirish bekor qilingan.

Jamoada tartib diniy sekta shaklida tashkil etilib, jamiyat bilan ijtimoiy aloqalari buzilgan. Jamoa a’zolari rahbarning barcha ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajaradilar va unga tegishli buyumlarni «tabarruk» sanaydilar. Ba’zi adeptlar turmush o‘rtoqlarini M.Alievaga «muxlisa» etishi oqibatida jamoada o‘ziga xos «ayollar qanoti» vujudga kelgan.

Ta’kidlash joizki, norasmiy diniy jamoalarning faoliyatida ishtirok etish, jamoa g‘oyalari asosida diniy ta’lim olish yoki o‘rgatish O‘zbekiston Respublikasi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonunning 5 va 9-moddalarini buzish hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi

Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida belgilangan qonuniy jazo qo‘llanishiga olib keladi.

**4. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlaridan asrashning dolzarb masalalari.** Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolyusiyasining hosilasi hisoblanadi. Hozirgi kuna hayotini internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Ayniqsa, yoshlar hayotida global tarmoqning o‘rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o‘zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan eng ko‘p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanar ekan.

O‘zbekistonda ham Internet tizimi rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur’atlar bilan kengayib bormoqda. So‘nggi o‘n yilda global tarmoqdan foydalanuvchilar o‘n barobarga oshgan. Tarmoq orqali axborot izlash, qabul qilish, uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishini ta’minlamoqda. Mamlakatimizda 2007 yilda internetdan foydalanuvchilar soni (mobil internet foydalanuvchilari bilan qo‘shib hisoblaganda) bir millionni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yil yakunida bu ko‘rsatkich o‘n ikki milliondan oshdi.

Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta’sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning rivoji yoshlarga g‘oyaviy ta’sir o‘tkazishning miqyosi va ko‘lamining keskin darajada o‘sishiga olib keldi.

Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari bo‘lgani kabi, internet tarmog‘i ham Shunday xususiyatlarga ega ekanini unutmaslik zarur. Albatta, global tarmoq – ulkan resurs. Biroq, bu resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishi ham juda jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Xususan, ma’lumotlarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog‘ida ma’naviy-axloqiy tubanlikni targ‘ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etgan.

Ushbu fakt va raqamlar internet sanoati rivojlanib borayotgan davrda kishilarning axborotlarga nisbatan juda ehtiyotkorlik, ogohlik va ziyraklik bilan

munosabatda bo‘lishlarini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kishilarimizda, ayniqsa, yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu taraqqiyot vositasidan ustamona foydalanib, qalblarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo‘llamoqda.

Bunda diniy-ekstremistik oqimlar o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, internet orqali turli tillarda targ‘ibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Masalan, bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o‘z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17-35 yosh oralig‘ida bo‘lgan kishilarni yollamoqda. Bunda psixologik ta’sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida ijtimoiy tarmoq a’zolarining sahifalari, qo‘yilayotgan rasmlar, sharh va izohlar hamda olib borilayotgan suhbat mavzularini puxta o‘rganadi va Shu asosda «nishon»ga olingan shaxsga mavzuga oid materiallar internetning Facebook, Odnoklassniki, VKontakte, Telegram, Twitter, WhatsApp kabi keng auditoriyaga ega bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali (yozma xabar, matn, fotosurat, stiker rasmlar, audio-video rolik) jo‘natiladi va o‘zaro aloqa yo‘lga qo‘yiladi.

Yoshlar orasida mutaassiblikka yo‘g‘irilgan bunday forumlarning tobora ommalaShuvi hamda ularda turli ko‘rinishdagi buzg‘unchi «fatvo»larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Chunki dunyo aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar katta kuch hisoblanadi. Ularning endi shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o‘sha toshga o‘yilgan naqshdek muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog‘iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuch-g‘ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo‘l keladi.

Shuning bilan birga, bugungi kunda aksariyat yoshlarning qo‘lida internetga ulangan zamonaviy uyali aloqa vositalari mavjud. Bu hol ularning yuqorida sanab o‘tilgan turli xil ijtimoiy tarmoqlarga bevosita ulanish, do‘stlari va tanishlari bilan uzluksiz muloqot qilish imkonini beradi. Ayni paytda, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda eng ko‘p yuklab olinayotgan dastur ichida «WhatsApp», «Telegram» tarmoqlari etakchi o‘rinni egallaydi. Ilm-fanning yutug‘i bo‘lmish bu yangiliklar insonlarning uzog‘ini Yaqin, mushkulini oson qilayotgani Shubhasiz. Shu bilan birga, bu kashfiyotlar dunyo yangiliklaridan bir zumda voqif bo‘lish va ma’lumotlarni oson tarqatish imkonini ham beradi. Biroq, mazkur tarmoqlarda millatlar va dinlar o‘rtasida adovatni keltirib chiqaruvchi, nizoli vaziyatlarga sabab bo‘luvchi, Shuningdek, insonlar orasida vahima uyg‘otishga qaratilgan ig‘vo, fitna-fasod xabarlarning keng tarqatilayotgani ko‘pchilikni tashvishga solishi tabiiy. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida urfga aylangan mazkur muloqot tizimidan diniy-ekstremistik oqim a’zolari ham unumli foydalanmoqda. Chunki internet orqali aloqa bog‘lashning osonligi, foydalanuvchilar sonining ko‘pligi, aloqaning anonimligi, tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklanganligi, axborotlar qisqa muddatda keng makonda tez tarqalishi, faoliyat sarf-xarajatlarining bir necha barobar kamligi terrorchi guruhlar uchun o‘z tarafdorlari sonini ko‘paytirishning qulay jihatlaridan biri hisoblanadi.

Ming afsuski, bunday manfur kuchlar asosan ilm va ma’rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali «jihod», «takfir», «shahidlik», «hijrat» tushunchalarini noto‘g‘ri talqin etgan holda o‘z Vatanlarini tark etishga urinmoqda. Shuningdek, ayrim kimsalar tomonidan maqsadli ravishda islom mohiyatiga zid bo‘lgan turli xil asossiz axborotlar, manbasi aniq bo‘lmagan diniy tusdagi xabarlar yoki kishilarni vahimaga soluvchi foto va videolavhalar keng targ‘ib etilmoqda. Bunda ba’zi yoshlarning axborot vositalari orqali tarqatilayotgan milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabarlar, aniq manbasi ko‘rsatilmagan, asossiz

axborot va ma’lumotlarga ishonib qolishayotgani, mulohaza qilmasdan ko‘r-ko‘rona qabul qilayotgani undan ham keskin oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugun axborot iste’mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o‘zida uni iste’mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur.

Axborot iste’moli madaniyati, eng umumiy ma’noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni qabul qilish, saralash, tuShunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o‘zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, hech bo‘lmaganda «Bu axborotni kim uzatayapti?», «Nima uchun uzatayapti?» va «Qanday maqsadda uzatayapti?» degan savollarni o‘z-o‘ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak.

Shundagina turli g‘oyalar ta’siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste’moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma’lumotlarga nisbatan o‘ziga xos qalqon rolini o‘taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo‘lishi lozimki, ular vertual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Axborot iste’moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta’siriga tushib qolmaydi, Chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

«Kimki axborotga ega bo‘lsa, u, dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e’tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yoshlarning turli oqimlarning ta’siriga tushib qolmasliklari uchun internetdan foydalanishda quyidagi zaruriy ko‘rsatmalarga ahamiyat berishni tavsiya etadi:

- Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tirish bilan o‘tkazishi xatodir. Chunki, hech narsa jonli, haqiqiy va real muloqotlar o‘rnini bosa olmaydi;
- Internetdan foydalanuvchilar shaxsiy ma’lumotlarini turli ijtimoiy tarmoqlar, bloglarga, elektron pochtalarga kiritishlari, g‘arazli maqsaddagi kishilarga ayni muddao bo‘lib xizmat qiladi;
- «o‘rgimchak to‘ri»da aqidaparastlikni targ‘ib qiluvchi saytlar tobora ko‘payib bormoqda. Bunday tahlikali zamonda yoshlarga faqat «uz» domenidagi saytlardan foydalanish tavsiya qilinadi;
- Har qanday xabarni boshqalarga tarqatish kerak deyilsa, tarqatavermaslik lozim. Ba’zan islomiy iboralar aralashgan maktub keladi. Unda bu xatni Shu kechaning o‘zida, bir necha kishiga tarqatishingiz kerak. Shunday qilsangiz undoq bo‘ladi. Qilmasangiz oqibati yomon bo‘lishi aytiladi. Aslida bu narsalarning bari yolg‘on hisoblanadi.

Darhaqiqat, islom dini ko‘rsatmalarida ham naql qilingan biror xabarga ishonishdan avval uni tekshirib, aniqlab olish talab etiladi. Jumladan, Qur’oni karimda Shunday deyiladi**: «Ey, mo‘minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar** (haqiqiy ahvolni) **bilmagan holingizda biror qavmga aziyat etkazib qo‘yib,** (keyin) **qilgan ishlaringizga pushaymon bo‘lmasligingiz uchun** (u xabarni) **aniqlab** (tekshirib) **ko‘ringiz!»** *(Hujurot, 6).*

Bu haqida Qur’oni karimning yana bir oyatida insonlar uchun muhim ko‘rsatma kelgan bo‘lib, unda ham turli vositalar orqali olinayotgan xabar va ma’lumotlarga ko‘r-ko‘rona ergashishdan qaytariladi: «(Ey, inson!) **O‘zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma! Chunki quloq, ko‘z, dilning har biri to‘g‘risida (har bir inson) mas’ul bo‘lur (javob berur)»** *(Isro, 36).* Demak, inson ko‘rgan, eshitgan har bir ma’lumotiga ishonishi, unga ergashishi oqibatida Alloh oldida ham so‘raladi.

Payg‘ambar Muhammad (alayhis-salom)dan rivoyat qilingan bir necha hadislarda ham Shunday deyiladi: *«Xabarni tekshirish Allohdan, (unda) shoshqaloqlik qilish shaytondandir»,* deganlar (Imom Bayhaqiy rivoyati). Shuningdek, *Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan boshqa bir hadisda esa, Rasululloh (alayhis-salom): «Kishining yolg‘onchi ekanligiga uning eshitgan har bir narsasini gapiraverishi kifoya qiladi» deganlar* (Imom Muslim rivoyati).

Ta’kidlash lozimki, internetda buzg‘unchiliklarni targ‘ib qiluvchi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqdagi guruhlar soni kun sayin ko‘paymoqda. Turli yolg‘on ma’lumotlar ko‘paygan bir vaqtda to‘g‘ri va haqqoniy axborotni ajratish yo‘llarini bilish lozim. Jumladan, bunday sharoitda ajdodlar tutgan yo‘lni tanlash kerak. Imom Buxoriy hazratlari hadislarning sahih, zaif va to‘qimalarini ajratishda juda mohir bo‘lganlari sir emas.

Rivoyat qilinishicha, Imom Buxoriy bir hadisning roviysi, ya’ni rivoyat qiluvchisini qidirib topadilar. Lekin roviy bir hayvonni quruq qo‘l bilan aldab, qo‘raga olib kirayotganini ko‘rib, suhbatlashmasdan qaytadilar va undan hadis rivoyat qilmaylar.

Demak, har bir olingan ma’lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o‘sha ma’lumotga qarab ish tutish islom mohiyatiga ko‘ra, shayton yo‘liga kirish hamda yolg‘onchi bo‘lib qolish bilan barobar bo‘ladi. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g‘arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo‘yiladi.

Yoshlarni turli xildagi yot g‘oyalardan asrashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

*Birinchidan,* jamoatchilik fikrini chalg‘itayotgan, vayronkor axborotlar tashqaridan kelayotganini nazarda tutib, muntazam ularga qarshi turish. Befarqlik va sukut saqlash kayfiyatiga barham berish.

*Ikkinchidan,* har qanday hujumkor va buzg‘unchi g‘oyaga qarshi o‘z vaqtida, mo‘ljalni aniq olib munosabat bildirish va bunda ehtirosga berilmaslik, ortiqcha

shov-Shuvlarga yo‘l qo‘ymasdan vazminlik va bosiqlik, ayni paytda, uddaburonlik bilan kuchlik ta’sir o‘tkazish usullarini qo‘llash.

Turli guruhar millatni yo‘q qilish, ildizini qirqib tashlash maqsadida axborot tizimidan foydalanishga zo‘r bermoqda. Mana Shu jarayonda yoshlar o‘zining aqliy salohiyatini ishga solib, o‘zini o‘zi himoya qilish va har qanday tajovuzlarga qarshi tura olish iqtidorini shakllantirishi lozim.

Oxirgi paytlarda internet tarmoqlarida har xil asossiz axborotlar, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan uydirma ma’lumotlar juda ko‘p tarqatilmoqdaki, bularning ta’sirida yoshlar orasida bir-biriga nisbatan keskin adovatlar avj olishi kuzatilmoqda.

Unutmaslik lozimki, axborot xurujlari – biron shaxsga, muayyan tashkilot yoki davlatga qarshi yo‘naltirilgan g‘oyaviy ta’sir hisoblanadi. Uning asl maqsadi o‘sha shaxs, tashkilot va davlatning tinchligini buzish hamda qora niyatiga etishdir.

Yoshlarning barchasi internet tarmog‘idan faqat ilm yo‘lida foydalanmoqda desak, yanglishamiz. Afsuski, internetdan noto‘g‘ri, buzg‘unchilik va behayolikka doir ma’lumotlarni olishda ham foydalanmoqda. Bu kabi noxush holatlardan so‘ng yoshlar kelajakda qahri qattiq, mehrsiz, hayosiz bo‘lib etishmaydi, deb hech kim kafolat berolmaydi.

Ma’lumki, ko‘plab sayt va tarmoqlar katta mablag‘lar evaziga filtirlab qo‘yilgan va bu holatni ko‘p davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta, ta’qiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan himoya qilish juda qiyin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5 sentyabr 2019 yilda 07/19/4436/3693-sonli qarori qabul qilindi. Unga asosan mamlakatimizda milliy an’ana va qadriyatlarimizni rivojlantirish, ulug‘ alloma ajdodlarimiz ilmiy merosini chuqur o‘rganish, yoshlarimizni Vatanga muhabbat, ilm-ma’rifatli, intellektual barkamol avlod etib tarbiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda.

Bu sohada olib borilayotgan islohotlar dunyo miqyosida ham munosib e’tirof etilib, diniy bag‘rikenglikning namunali modeli sifatida baholanmoqda. Xususan, O‘zbekistonning diniy erkinliklar sohasida alohida xavotir uyg‘otadigan davlatlar ro‘yxatidan chiqarilganligi, BMT Bosh Assambleyasi yalpi majlisida O‘zbekiston tomonidan taklif etilgan «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» rezolyusiyasining qabul qilinganligi bunga yaqqol misoldir.

Shunga qaramay, yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga diniy tus berish, soxta g‘oyalarni asl diniy qadriyatlar sifatida talqin qilish va aholi orasida nosog‘lom aqidani singdirish holatlari kuzatilmoqda.

Diniy-ma’rifiy sohani yanada takomillashtirish, jamiyatda «jaholatga qarshi - ma’rifat» degan ulug‘vor g‘oya asosida dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini hamda diniy bag‘rikenglik ruhini keng targ‘ib qilish, shuningdek, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning (Qo‘mita) Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston YOshlar ittifoqi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi bilan birgalikda jamiyatda vijdon erkinligi kafolatlari va diniy-ma’rifiy muhit barqarorligini ta’minlash bo‘yicha mustahkam va doimiy hamkorligini nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi.

Quyidagilar yangi tizim doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

- din sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadi, vazifalari va prinsiplarini keng jamoatchilikka, davlat va jamoat tashkilotlari rahbar va xodimlariga tushuntirish, ularning faolligi, tashabbuskorligi oshirildi;
- vijdon erkinligi kafolatlarining buzilishi holatlariga nisbatan tezkor choralar ko‘rildi;

-aholining, ayniqsa yosh avlodning diniy va dunyoviy qarashlarini rivojlantirildi;

- ommaviy axborot vositalari, Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan radikal g‘oyalarga qarshi milliy an’ana va qadriyatlarimizning keng targ‘ib etilishi ta’minlandi.

Qo‘mitaning yangilangan asosiy vazifalari etib belgilandi:

- vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq din ishlari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasining dunyoviy davlat tamoyilini amaliy ro‘yobga chiqarish, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish;
- diniy mutaassiblik va ekstremizm g‘oyalarini tarqatish, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni yuzaga keltirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;
- jamiyatda diniy-ma’rifiy muhit barqarorligi va e’tiqod erkinligiga tahdid tug‘dirishi mumkin bo‘lgan omillarni o‘rganish, tahlil qilish va ularning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, ushbu jarayonlarda diniy-ma’rifiy soha vakillarining ishtirokini kengaytirish;
- davlat organlarining diniy tashkilotlar bilan o‘zaro aloqasi va hamkorligini muvofiqlashtirish hamda davlat siyosatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan diniy tashkilotlar manfaatlarini aks ettirish;
- aholi orasida konfessiyalararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;
- fuqarolarning xorijiy davlatlarga va chet el fuqarolarining O‘zbekistonga ziyorat turizmini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ekstremizm, separatizm va mutaassiblik g‘oyalari ta’siriga tushib qolgan shaxslarni, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlarni sog‘lom hayotga qaytarish, jamiyatda tinchlik va totuvlik muhitini mustahkamlash borasida ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish, bu borada ilg‘or xorijiy tajriba asosida takliflar tayyorlash;

- manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda aholining diniy-ijtimoiy jarayonlarga munosabatini o‘rganish bo‘yicha sotsiologik so‘rovlarni tashkil etish.

Qo‘mita: jamiyatda «jaholatga qarshi — ma’rifat» degan ulug‘vor g‘oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlar ifodasi ekanligini targ‘ib etish maqsadida barcha davlat va nodavlat notijorat tashkilotlariga bu boradagi faoliyatni amalga oshirishda ko‘maklashmoqda;

- mamlakatdagi diniy-ijtimoiy jarayonlar hamda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash masalalarini o‘rganish natijalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, targ‘ibot va tashviqot tadbirlarini o‘tkazish choralari ko‘rildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan tarixiy nutqida ushbu dolzarb masalaga alohida e’tibor qaratib: “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”, – deya ta’kidlagan edi.

Bunday adolatli yondashuv xalqaro doiralarda keng muhokamalarga sabab bo‘ldi. BMT Xavfsizlik Kengashining 2017 yil 21 dekabrdagi 2396-sonli rezolyusiyasida: “Terrorizm, zo‘ravon ekstremizm hech bir din, millat va sivilizatsiya bilan aloqador emas va bog‘liq holda talqin qilinmasligi kerak”, deb qayd etildi.

O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasining tinchlik-osoyishtalikni saqlash, diniy bag‘rikenglikni ta’minlashdagi ahamiyatini quyidagi jihatlarda ko‘rish mumkin:

Birinchidan, rezolyusiya O‘zbekiston Prezidentining diniy-ma’rifiy sohaga oid tashabbuslari nafaqat xalqimiz, balki xalqaro jamoatchilik tomonidan ham faol qo‘llab-quvvatlanayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi – bularning barchasi xalqaro darajadagi yirik loyihalardir. Ushbu tashabbuslarning ahamiyati shundaki, ilm-ma’rifat, madaniyat zamini bo‘lgan O‘zbekistondan ma’rifiy islom g‘oyalari tarqalishi, muqaddas dinimizning asl insonparvarlik ta’limotlarini yoyish bo‘yicha Movarounnahrda shakllangan tarixiy maktablar an’anasining davom etishi “Jaholatga qarshi – ma’rifat” bilan kurashishning eng samarali echimi bo‘ladi.

Ikkinchidan, “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasi dunyo jamoatchiligini bezovta qilayotgan terrorizm, ekstremizm, zo‘ravonlik, murosasizlik kabi bugungi kunning o‘tkir muammolariga echim sifatida ilm-ma’rifat, o‘zgalarga adolatli va bag‘rikeng yondashuv hamda tinchlikparvar siyosatni targ‘ib qiladi.

**Xulosa.** Dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to‘qnaShuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko‘rinishdagi tahdidlarga qarshi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so‘z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo‘lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g‘oyalar ta’siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etish, bunda «fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish» har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi

**Mavzuni mustahkamlash uhun savollar:**

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblik tushunchalarining mazmuni nima?

**2.** Terrorizmning mohiyati va uning xalqaro miqyos kasb etishining sabablari nimada?

**3.** Diniy mutaassiblikning ilk paydo bo‘lishi qaysi davrga borib taqaladi?

**4.** Musulmon dunyosining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasining ahamiyatli jihatlarini keltiring.

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. O‘zbekistonda dinlararo bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlashning ustuvor vazifalari.

2. Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi mavzusida referat tayyorlash.

## Adabiyotlar

1.Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.

2.Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr. Mas’ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.

3.Ilmdan boshqa najot yo‘q / A.Abdullaev, N.Hakimova, Sh.Jo‘raev, J.Karimov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 156 b.

4.Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. – 224 b.

5.«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekistonning yangi qonunlari, № 19. – T.: Adolat, 1998.

6.Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

7.Najmiddinov J. Missionerlik: kecha va bugun. - Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.

8.Ochildiev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo‘llari. - Tosh kent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.

9.Hasanboev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. – T.:TIU, 2014. – 552 b.

## TARQATMA MATERIALLAR:

**1-ilova**




**2-ilova**




**3-ilova**



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:O‘zbekiston, 2018. –

4. 40 b.

5. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida (yangi tahriri). // O‘zbekistonning yangi Qonunlari. 19-son. – T.: Adolat, 1998.

6. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so’zi, 2020 yil, 25 yanvar, № 19 (7521), 4-bet.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil, 22 dekabr// www.uza.uz.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // “Xalq so‘zi”, 2017 yil 20 sentyabr.

9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

10. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // http://www.lex.uz.

11. Karimov I.A. Alloh qalbimizda, yuragimizda. «Turkiston press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar // Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T. 7. – T.: O‘zbekiston, 1999. – B. 349-355.

12. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. –T. 14. – T.: O‘zbekiston, 2006. – 280 b.

13. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

14. Alimova M. Dinshunoslikni o‘qitishda interfaol uslublardan foydalanishning ahamiyati // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. III-to‘plam. Ilmiy- amaliy anjuman materiallari. – T.: TIU, 2011. – B.44-47.

15. Alimova M. «Yangi dinlar» – modernizatsiya fenomeni sifatida // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –T.: TIU, 2012. – B.41-43.

16. Alimova M. Millatlararo va dinlararo totuvlikni ta’minlashda O‘zbekistonning tarixiy tajribasi // Konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi. Xalqaro konferensiya materiallari to‘plami. –Toshkent 2014 yil, 12 noyabr. – B.264-267.

17. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1968. – 486 b.

18. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari: o‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharrir A.S.Ochildiev; – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. – B. 246.

19. Dinshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma/ mas’ul muharrir: I.Usmonov. – T.: TIU, 2013. – 319 b.

20. Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T. : «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.

21. Dunyo dinlari tarixi. O‘quv qo‘llanma / Tuzuvchilar: S. Agzamxodjaev, D.Rahimjonov, N.Muhamedov va b. – T.: ToshDSHI, 2011. – 262 b.

22. Ibragimov E.F. va b. Jahon dinlari tarixi : Mutaxassislik fanidan o‘quv - uslubiy qo‘llanma. – T.: TIU, 2007. - 48 b.

23. Islom va dunyoviy ma’rifiy davlat (o‘zb. va nemis tillarida). / Z.I.Munavvarov va V.Shnayder-Detersning Umumiy tahriri ostida. – T.: Imom Buxoriy xalqaro jamg‘armasi-Fridrix Ebert jamg‘armasi, 2003. – 291 b.

24. Islom va hozirgi zamon / O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir SH.YOvqochev. – T.: «Toshkent islom universieti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 207 b.

25. Islom ma’rifati: asliyat va talqin: o‘quv-uslubiy qo‘llanma / Mas’ul muharrir Usmonxon Alimov. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 158.

26. Islom ma’rifatida dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi / mas’ul muharrir O.YUsupov. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 271.

27. Islom. Ensiklopediya: A-H /Z.Husniddinov tahriri ostida. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2004. – 320 b.

28. Islomda sog‘lom bola tarbiyasi. / Mas’ul muharrir: I.Usmonov. –Toshkent. «Movarounnahr», 2014.

29. Islomshunoslik qomusiy lug‘ati / Mas’ul muharrir Z.M.Islomov. – T. I. – T.: Movarounnahr, 2013. – 272 b.

30. Islomshunoslik qomusiy lug‘ati / Mas’ul muharrir Z.M.Islomov. – T. II. – T.: Movarounnahr, 2014. – 432 b.

31. Karomatov H.S. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. – T.: JIDU nashriyoti, 2008. – 663 s.

32. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K. 1. – T.: YOzuvchi, 1996. – 272 b.

33. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / mas’ul muharrir SH.YOvqochev. – T.: Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti, 2006. – 207 b.

34. Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymoalr, allomalar, adiblar)//Mas’ul muharrir: M.M. Xayrullaev/. – To‘ldirilgan qayta nashri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1999. – 400 b.

35. Murodov D. Diniy manbalarni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. 4-to‘plam. – T.: «TIU» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012. – B. 44-47.

36. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – T.: Mehnat, 2004. – 315 b.

37. Nizomiddinov N.G‘. Janubiy-SHraqiy Osiyo diniy – falsafiy ta’limotlari va islom. - T.: «Zar-qalam» nashriyoti, 2006.

38. Ochildiev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo‘llari (yuz savolga yuz javob). – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – B. 200.

39. Rahimjonov D. Yoshlarda diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish usullari // To‘p.: Dinshunoslikning dolzarb muammolari. – T. «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – B. 20-23.

40. Rahimjonov D., Muratov D. Hadisshunoslik: o‘quv qo‘llanma. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010.–71 b.

41. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To‘ldirilgan nashr. Mas’ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.

42. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya. Mas’ul muharrir A.Hasanov. – Toshkent: Movarounnahr, 2016. - 672 b.

43. Hasanboev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar,

44. Mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari / Mas’ul muharrirlar: K.Komilov, A.Mansurov. – T.: TIU, 2014. -552 b.

45. Hasanov A. Diniy bag‘rikenglik. O‘zbekiston-an’anaviy diniy bag‘rikenglik o‘lkasi // Ma’naviy va diniy etuklik – davr talabi / Mas’ul muharrir R.V.Abdullaev. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 274-278.

46. Hasanov A. Qadimgi Arabiston va ilk islom, Johiliya asri. T.: TIU, 2001.

47. Hasanov A. Makka va Madina tarixi (Qadimgi Arabiston tarixidan lavhalar). – T.: Mehnat, 1992. – 79 b.

48. Hasanov A., Komilov N., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q. Islom tarixi. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. – 256 b.

49. Hadisshunoslik. O‘quv qo‘llanma /Tuzuvchilar: D.Rahimjonov, D.Murodov, R.Obidov, M.Alimova. – T.: Toshkent islom universiteti, 2013. – 245 b.

## XORIJIY MANBALAR:

1. W.MontgomeryWatt. Islamicphilosophyandtheology. Edinburg.1985.

2. Robert Audy. The Cambridge dictionary of philosophy, second edition. Cambridge university press. 1999.

3. William J. Wainwright. The Oxford Handbook of Philosophy of Religion. University of Wisconsin, Milwaukee.2010.

4. Phillip wodzinski. kant’s doctrine of religion as political philosophy. Boston college.2009.

5. John R. Hinnells. The Routledge Companion to the Study of Religion. Routledge.2005.

## Internet saytlari

1. htpp:www. religioustoleranje. org/gl d. htm

2.htpp:www. alreligion. about.com

3.htpp:www. islam.ru

4.htpp:www.glossarist.com

5.www.infoxs.uz

6.www.turkistonsarkor.uz

7. www.ziyonet.uz

8.http://bookash.pro/ru/t/%D0%A0%D0%B5%D0%BB%D0%B8%D0%B3%D0%B8%D0%B8/.

## TESTLAR

**1. Din - nima?**

a) *Ijtimoiy hodisa

b) Ma'naviy madaniyatning bir qismi

v) Kishilarga Olloh in'om etgan haqiqat

g) Ruhoniylar kiritgan diniy tizim

**2. Diniy tashkilot nima?**

a) *Diniy e'tiqodlar va marosimlar umumiyligi asosida bir dinga ishonuvchilar va diniy jamoalarning professional ruhoniylar boshchiligidagi bo'ysunish sistemasiga ega uyushmasi

b) G'ayritabiiy kuchlarga ishonch tufayli paydo bo'lgan g'oyalar va obrazlarning yig'indisi.

v) Diniy tasavvurlar sistemasi bilan bog'langan hamda diniy ta'limotning muayyan jihatini hissiy-obrazli aks ettiradigan maxsus xatti-harakatlar, marosimlar, tantanalar majmuasi

g) Asosiy diniy yo'nalishning ichidagi oppozitsion oqimlar

**3. Dinning ijtimoiy vazifasi nima?**

a)*Birlashtirish

b) Aloqa

v) Ibodat qiluvchilik.

g) Dunyoqarash

**4.Atrof olamdagi narsalarda ruh bor deb e'tiqod qilish qaysi dinning xususiyati?**

a) *Animizm

b) Jaynizm

v) Totemizm

g) Sehrgarlik

**5.Braxmanlik kastalari nechta kastadan iborat.**

a)*4 ta

b) 3 ta

v) 8 ta

g) 6 ta

**6.“Sansara” ta'limoti (qayta tug‘ilish) qaysi dinga tegishli**

a) *Xinduizm, buddizm

b) Konfutsiychilik

v) Totemizm, animizm

g) Sikxizm, daosizm

**7.Jahonda e’tiqod qiluvchilar soni jihatidan eng katta milliy din qaysi?**

a) *Xinduiylik

b) Sintoizm

v) Islom

g) Yahudiylik

**8.Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” qaysi tilda yozilgan?**

a) *Qadimiy Paxlaviy

b) Qadimgi fors

v) Qadimgi turk

g) Qadimgi arab

**9. Konfutsiy (chilik) ta’limotida qaysi muammolar asosiy o‘rin tutadi?**

a) *Ijtimoiy –axloqiy va siyosiy

b) Falsafiy

v) Estetik

g) Siyosiy

**10. Sintoizmning bosh xudosi kim?**

a) *Quyosh ma’budasi Amatirasu

b) Saqlovchi xudo Vishnu

v) Oxirgi payg‘ambar Jina

g) YAratuvchi xudo Braxma.

**11. Xristian dininng asoschisi?**

a)*Iso

b) Muso

v) Budda

g) Muhammad

**12.Eng qadimgi jahon dini qaysi?**

a)*Buddaviylik

b) Islom

v) Nasroniylik

g) Yahudiylik.

**13. E’tiqod qiluvchilarning miqdori jihatidan eng katta din qaysi?**

a) *Xristianlik

b) Buddaviylik

v) Islom

g) Xinduiylik.

**14. Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan, hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi.Mazkur modda konsitutsiyaning nechanchi moddasida berilgan?**

a) *61 modda

b) 62 modda

v) 60 modda

g) 64 modda

**15. Nasroniylik qachon Rim imperiyasining davlat diniga aylandi?**

a) *Milodning IV-asrida

b) Milodning I- asrida

v) Milodning XI- asrida

g) Milodning II- asrida

**16. Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan uch qismga bo'linadi, ular qaysilar?**

a) *Sahih, Hasan, Zaif

b) Buxoriy hadislari Termiziy hadislari, Ibn Mojja hadislari

v) Hadisi qudsiy, hadisi nabaviy

g) Hadisi rabboniy, Hadisi ilohiy, payg'ambar hadislari

**17. G'arb va Sharq nasroniylari o'rtasidagi bo'linish qachon sodir bo'ldi?**

a) *1054 yilda

b) 325 yilda

v) 1526 yilda

g) 451 yilda

**18. Markaziy Osiyolik olti muhaddislar kimlar?**

a) *Ismoil al-Buxoriy, Imom  ibn al-Hajjoj, Iso at-Termiziy, Imom Sulaymon Sijistoniy, Imom Ahmad an-Nasoiy, Imom Ibn Mojja kabi siymolardir.

b) Imom Sijistoniy, Ismoil al-Buxoriy, Imom  ibn al-Hajjoj, Iso at-Termiziy, Imom Sulaymon Sijistoniy, Imom Xasaniy,

v) Imom Ahmad an-Nasoiy, Imom Ibn Mojja, Qaffol SHoshiy, Al Xasaniy, Ibn Ismoiliy, Muhammad SHayboniy

g) Muhammad SHayboniy, Ismoil al-Buxoriy, Imom  ibn al-Hajjoj, Iso at-Termiziy, Al Xasaniy, Ibn Ismoiliy.

**19. Yahve xudosi Muso payg'ambarga, Tur tog'ida nechta nasihat yuborgan**

a) *10 ta

b) 12 ta

v) 3 ta

g) 5 ta

**20.Tasavvufda "tariqat" so'zining ma'nosi nima?**

a) *«Tariqat» so'zining ma'nosi «yo'l» demak. YA'ni ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan kishining ruhiy-axloqiy kamolot yo'li

b) Tariqat tasavvufning amaliy qismi

v) Tariqatga qadam qo'ygan yo'lovchi

g) pir-muridlik qoidalari

**21. Muhammad (s.a.v.) qachon o'zini Allohning elchisi deb e'lon qildi?**

a) *610 yilda

b) 570 yilda

v) 622 yilda

g) 632 yilda

**22. Islomda kimlar “xulafoi roshidin” deb hisoblanadi?**

a) *Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali

b) Abu Hurayra, Ibn Xanbal, Ibn Hoshim

v) Muhammad, Ali, Hasan, Husan

g) Ibrohim, Muso, Iso, Dovud

**23. “Messiya” - so‘zining ma’nosi nima?**

a) *Xaloskor

b) Elchi

v) Payg‘ambar

g) vositachi

**24. Buddizmning asoschisi kim?**

a) *Sidxarta Gautama

b) Lao Szi

v) Ramayana

g) Krishna

**25. Shialikda muqaddas hadislar nima deb ataladi?**

a) *Axbor

b) Fiqx

v)K’alom

g) AShuro kunlari

**26. Islom diniga qadar arablar nimalarga sig‘inganlar?**

a) *Butlarga va sanamlarga

b) xudolarga

v) tabiatga

g) quyoshga

**27. Arablarda islomgacha bo‘lgan davr qanday nomlanadi?**

a) *Johiliya davri

b) ma’rifat

v) turg‘unlik

g) ma’naviyat

**28. Islom dini yo‘nalishlari qaysilar**

a) *Sunniylik, shialik, xorijiylik

b) Sunniylik, xanbaliylik, xorijiylik

v) Xorijiylik. Xanafiya, molikiya

g) Xanafiya, xanbaliya, Molikiya

**29. Milliy dinlarning o‘ziga xos xususiyatlari**

a) *Bir millatga mansublikda

b) Milliy davlat diniga aylanishga intilishida

v) O‘ziga xos urf odatlarida

g) Millatlarni birlatirishda

**30. Totemizm qaysi din turiga kiradi?**

a) *Ibtidoiy

b) Milliy

v) YAkkaxudolik

g) Mifologik

**31. Islom dini mazhablari**

a) *Xanafiya, xanbaliya, Molikiya, SHofe’iya

b) xanbaliya, Molikiya, SHof’eiya

v) Sunniylik, shialik

g) xanbaliya, Molikiya, SHofe’iya.

**32. Islom dinining qaysi, kimning mazhabida diniy bag‘rikenglik kengroq berilgan?**

a) *Xanafiya, Abu Xanifa No‘‘mon ibn Sobit

b) Xanbaliya, Ahmad ibn Xanbal

v) molikiya

g) Shofeiya

**33. Xristianlikning asosiy oqimlari**

a) *Katolitsizm, pavoslavie, protestantizm

b) Baptizi, pravoslavie, iudaizm

v) Lyuteranlik, katolitsizm, pravoslavie

g) Iudaizm, protestantizm, aglikanlik

**34. Sunniylikda islom aqidalari nechta**

a) *7 ta

b) 1 ta

v) 9 ta

g) 3 ta

**35. Qur’on nechta su’radan iborat**

a) *114 ta

b) 109 ta

v) 124 ta

g) 132 ta

**36. Islom dinida Shahid tushunchasi nima?**

a) *Arab.-guvoh

b) Xalok bo‘lgan

v) Payg‘ambar

g) o‘ldirilgan

**37. Vijdon erkinligi mohiyati nima?**

a) *Insoning o‘z dunyoqarash mavqeni, Shu jumladan dinga munosabatini ham erkin tanlashi

b) Diniy normalarga muvofiq diniy talablarni amalga oshiruvchi individ yoki gruppaning birgalikdagi harakati

v) Tinchlikni passiv targ‘ib qilishga va urushlarni qoralashga asoslangan burjua liberal siyosiy oqimning dini turi

g) Aqlning diniy qoidalarini erkin tanqidiy ko‘rib chiqishi va atrof olamni dinga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘rganish

**38. Yahudiylikning muqaddas kuni qaysi?**

a) *Shanba

b) Juma

v) Payshanba

g) Yakshanba

**39. Muhammad payg‘ambar davrida bo‘lib o‘tgan janglar qanday nomlangan?**

a) *Badr jangi, Uhud jangi, Xandaq jangi

b) Badr jangi, Uhud jangi, Mushruklar jangi

v) Uhud jangi, Mushruklar jangi, kofirlar jangi

g) Badr jangi, Uhud jangi, Makka jangi

**40. Qur’on mazmuni nima?**

a) *Qur’on (arab.-o‘qimoq, qiroat qilmoq) musulmonlarning asosiy muqadda kitobi

b) Qur’on (arab.-o‘qimoq

v) Qur’on  qiroat qilmoq .

g) Qur’on musulmonlarning asosiy muqadda kitobi

**41. Dinning ibtidoiy shakllari qaysilar?**

a) *Fetishizm, totemizm, magiya, animizm

b) Fetishizm, buddaviylik, qabila boshliqlarining shaxsiga sig‘inish, islom

v) Nasroniylik, totemizm, sintoizm, tabiatni ilohiylashti-rish

g) Magiya, Yahudiylik, jaynizm, zardushtiylik

**42.Yaxudiylik dini asoschisi kim?**

a) *Muso payg’ambar

b) Yoqub payg’ambar

v) Ibroxim payg’ambar

g) Iso payg’ambar

**43. “Messiya” - so’zining ma'nosi nima?**

a) *Xaloskor

b) Elchi

v) Payg’ambar

g) Ilohiy

**44. Asosan bir millat va elat vakillari qanday dinga e’tiqod qiladi?**

a) *milliy

b) urug‘-qabila

v) yakkaxudolik

g) dunyoviy

**45. Hinduiylik dinining asosiy xudolari qaysilar?**

a) *Braxma, Vishnu, SHiva

b) Jinna, Nanak, Gaumata

v) Amataresu, YAxve, Alloh

g) SHan-di, Lao-Szi, Pan-gu

**46. Xinduizmdagi asosiy 3 ta xudo qaysilar?**

a) *Braxma, Vishnu, Shiva

b) Braxma, Mitra, Varuna

v) Krishna, Shiva, Varuna

g) Diaus, Adita, Indra

**47. Hadisning mazmuni nima?**

a) *Hadis (arab.-“xabar”, yangilik-Muhammad(sav)ning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, ko‘rsatmalari to‘g‘risidagi rivoyatlar

b) Sunnalar

v) Rivoyatlar

g) Payg‘ambarning ko‘rsatmalari

**48. Islom so‘zining ma’nosi nima?**

a) *Islom (arab.-bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Alloh irodasiga topshirish)

b) Islom arab.-bo‘ysunish

v) O‘zini Alloh irodasiga topshirish

g) Itoat etish

**49. Buddaviylik dini qachon paydo bo‘ldi?**

a) *Miloddan avvalgi Vl asrida.

b) Milodning I asrida

v) Milodning VI asrida

g) Milodgacha XIII asrida.

**50. Buddaviylikda nechta axloqiy talab (pancha-shilaga) amal qilish kerak?**

a) *5 ta

b) 3 ta

v) 1 ta

g) 7 ta

**51. Xristianlik qachon paydo bo‘ldi?**

a) *Milodning 1 asrida

b) Milodgacha 1 asrda

v) Milodgacha 4 asrda

g) Milodning 5 asrida

**52. Volga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, mumkinmi?**

a) *Yo‘q mumkin emas

b) 12 yoshdan keyin

v) 11 yoshdan keyin

g) 7 yoshdan keyin

**53. O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilganmi?**

a) O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan, davlat diniy tashkilotlar faoliyatiga aralashmaydi

b) diniy tashkilotlar davlat davlat tashkilotlari qisoblanadi.

v) diniy marosimlar davlat tomonidan olib boriladi

g) davlat diniy xodimlarni saylaydi

**54. Buddaviylikning muqaddas kitobi “Tripitaka” so‘zini ma’nosi nima?**

a) *Uch savat

b) Uch dunyo

v) Uch odam

g) Uch daraxt

**55. Eng yosh jahon dini qaysi?**

a) *Islom

b) Xristianlik

v) Buddizm

g) Xinduizm

**56. Jahon dinlari qaysilar?**

a) *Xristianlik, Islom, Buddizm

b) Xristianlik, Islom, Xinduizm

v) Xristianlik, Islom, Zardushtiylik

g) Xristianlik, Islom, Yaxudiylik

**57. Eng qadimgi paydo bo‘lgan jahon dini?**

a) *Buddizm

b) Xristianlik

v) Islom

g) Zardushtiylik

**58. Ma’rifat so‘zining ma’nosi nima?**

a) *Ma’rifat (arab.-bilish, anglash, idrok etish)

b) Tasavvufdagi maqomlardan biri

v) Ilohiy sirlardan voqif bo‘lish

g) O‘zini anglash, Insoniy va ilohiy sirlardan voqif bo‘lish

**59. O‘zbekistonda keng tarqalgan din?**

a) Islom

b) Buddizm

v) Protestantizm

g) Katolitsizm

**60. Islom dinida jihot tushunchasi nima?**

a) *Jihod, g‘azavot (arab.-g‘ayrat qilish, kuchni iga solish)-din yo‘lida kurash

b) G‘ayridinlarga hujum qilish

v) Islomni yoyish

g) Islom dushmanlariga qarshi kurash

**61. Islom dinida Ka’ba nima?**

a) *Ka’ba (arab.-kub, to‘rt burchak)-islom dinining eng muqaddas ibodatxonasi

b) Allohning uyi

v) Hajning asosiy amallaridan biri

g) Muqaddas ibodatxona

**62. Islom dinida Sunnaning mazmuni nima?**

a) *Sunna (arab.odat, an’ana, xati xarakat tarzi)

b) Muhammadning so‘zlari, amallari

v) Sahobalarning payg‘ambarga tegishli rivoyatlari

g) Musulmonlar uchun ibrat xisoblangan Muhammad payg‘ambarning so‘zlari

**63. “AShuro” diniy bayrami, 12 imomni ulug‘lash qaysi yonalishda bor?**

a) * Shialikda

b) Sunniylikda

v) Xanafiylikda

g) Xorijiylikda

**64. O‘zbekiston Konstitutsiyasining qaysi moddasida fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi e’lon qilingan?**

a) *31- moddasida.

b) 57-moddasida.

v) 34-moddasida.

g) 18-moddasida

**65. Vahiy nima?**

a) *Alloqning oz payqambarldariga yuborgan korsatmalari

b) Iloqiy kitob

v) Ovoz

g) Xizr

**66. Konfutsiylikning asoschisi kim?**

a) *Kun Szi

b) Lao Szi

v) SHan Di

g) De szin

**67. Veda dinlarini nechta asosiy kitoblari bor?**

a) *4 ta

b) 5 ta

v) 3 ta

g) 2 ta

**68. Talmud qaysi dinning muqaddas kitoblaridan biridir?**

a) *Yahudiylik

b) Nasroniylik

v) Islom

g) Buddaviylik

**69. Dinning jamiyatda bajaradigan funksiyalari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

a) *Regulyatorlik, kompensatorlik, integratorlik, kommunikativ, legitimlovchilik

b) Kompensatorlik, integratorlik, regulyatorlik.

v) Kommutatorlik, kompensatorlik, regulyatorlik.

g) Integratorlik, kompensatorlik, kommutatorlik.

**70. Buddaviylikda dinga ishongan kishining asosiy maqsadi nima?**

a) *Nirvanaga erishish

b) «Muqaddas qadamjolar»ga sig‘inish

v) Rohiblikni qabul qilish

g) Qayta tug‘ilish zanjiridan o‘tish

**71. Injil (Bibliya) qanday qismlardan iborat?**

a) *Eski ahd va Yangi ahd

b) To‘rt Evangeliya

v) Besh kitob, Apokalipsis

g) Yangi ahd

**72. Qur’on qancha muddat davomida nozil bo‘lgan?**

a) *23 yil

b) 9 yil

v) 13 yil

g) 1 yil

**73. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” qaysi tilda yozilgan?**

a) *Qadimgi Pahlaviy tili

b) Fors tili

v) Turk tili

g) Arab tili

**74. Muhammad payg’ambarga necha yoshda vaqy kelgan?**

a) *40 yoshda

b) 34 yoshda

v) 35 yoshda

g) 25 yoshda

**75. Vido xutb'asi nima?**

a) * Muhammad payqambarning vidolaShuv xutbalari.

b) Iso payqambar nasiqati

v) Alining sozlari

g) Abu bakr sozi

**76. Islom dini qachon paydo bo‘ldi?**

a) *Milodning 7 asrida

b) Milodning 1 asrida

v) Milodning 6 asrida

g) Milodgacha 5 asrda

**77. Islomning qanday asosiy yo‘nalishi bor?**

a) *Sunniylik va shialik

b) Modernizm va fundamentalizm

v) Ismoiliylik va vahhobiylik

g) Bahoiylik va bobiylik

**78. Islom ma'naviyatini (badiiy asarlar orqali) yuksaklikka kotargan olim?**

a) * A.Navoiy

b) Gazzoliy

v) Mashrab

g) Yassaviy

**79. Islomda Allohning ismlari nechta?**

a) * 99 ta

b) 1 ta

v) 25 ta

g) 3 ta

**80. Assalomu-alaykum sozining ma'nosi nima?**

a) * Arab.-sizga tinchlik, salomatlik tilayman

b) Sizga qam tinchlik tilayman

v) Oilangizga tinchlik tilayman

g) Sizga salomatlik tilayman

**81. Avestoning paydo bo‘lgan joyi haqida 2 xil ilmiy bahslar?**

a) *Xorazmda, Eronda

b) Xindistonda, Pokistonda

v) Markaziy Osiyoda, Pokistonda

g) O‘zbekistonda, Eronda

**82. Zardushtiylikda qaysi mehnat turi ulug‘lanadi?**

a) *CHorvachilik, dehqonchilik

b) Xunarmandchilik, bog‘dorchilik

v) Ovchilik, chorvadorlik

g) Dehqonchilik, ishlab chiqarish

**83. O‘rta Osiyo musulmonlari qaysi mazhabga e’tiqod qiladilar, mazhab asoschisi kim?**

a) *Hanafiya mazhabiga e’tiqod qiladilar, asoschisi Abu Hanifa Nu’mon ibn Sobit

b) Molikiya mazhabiga ‘tiqod qiladilar, asoschisi Molik ibn Anas.

v) SHofi’iya mazhabiga e’tiqod qiladilar, asoschisi ibn Abbos ash-SHofi’iy

g) Hanbaliya mazhabiga e’tiqod qiailar, asoschisi Ahmad ibn Hanbal

**84. Konfutsiychilik qaerda paydo bo‘lgan?**

a) *Qadimgi Xitoyda

b) YAponiyada

v) Turonda

g) Xindistonda

**85. Budda so‘zining mashhur ma’nosi nima?**

a) *Nurlangan

b) Yarqiragan

v) Sochilgan

g) Tantana qiluvchi

**86. Budda nechta haqiqatni targ‘ib qilgan?**

a) *4 ta

b) 1 ta

v) 3 ta

g) 7 ta

**87. Komil inson g‘oyasi qaysi ta’limotda berilgan edi?**

a) *Tasavvuf ta’limotida

b) Islom dinida

v) Xristianlikda

g) Buddizmda

**88. Qadimgi O‘rta Osiyoda buddizm davlat dini sifatida qabul qilingan joy?**

a) *Kushon davlati

b) Eron

v) Xorazm

g) Turon

**89. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalari vijdon erkinligi masalalariga bag‘ishlangan**?

a) *18, 31, 61 moddalar

b) 37, 44, 19 moddalar

v) 52, 32, 117 moddalar

g) 14, 27, 64 moddalar

**90. Islom dinida kimlar “Sahobalar” deb ataladi?**

a) *Muhammad (sav)ning safdoshlari, u zot bilan muloqotda bo‘lgan kishilar

b) Xalifalar

v) Ilk musulmon jamoasi

g) Payg‘ambarning Yaqin kishilari

**91. Islom dinida musulmonlarning hulq atvorini tartibga soluvchi asosiy huquqiy manbalari qaysilar?**

a) *Qur'on, hadis, shariat (ijmo', qiyos, fatvo, odat) va boshqalar

b) Qur'on va xadis

v) Qadriyatlar

g) Xadislar

**92. O'zbekistonda Diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish kimlar tomonidan amalga oshiriladi?**

a) *O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirgi, Din ishlari bo'yi-cha ko'mita tomonidan ro'yhatga olinadi.

b) Joylardagi mahalliy xokimiyat tomonidan

v) Vazirlik tomonidan

g) Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan

**93. Xristianlik dini qaerda paydo bo'ldi?**

a) *Rim imperiyasidagi Falastinda

b) Rimda

v) Konstantinopolda

g) Ovrupoda

**94. Qaysi dinlar milliy dinlardan hisoblanadi?**

a) *Yaxudiylik,Hinduiylik, jaynizm, sintoizm, konfutsiylik

b) Fetishizm, totemizm, animizm

v) Buddaviylik, islom, xristianlik

g) Katolitsizm, pravoslaviya, protestantlik, lyuteranlik

**95. "Indulgensiya" haqidagi ta'limot qaysi diniy oqimda?**

a) *Katoliklarda

b) Prvoslavlarda

v) Prtestantizmda

g) Xristanlarda

**96. Eng ko‘p tarqalgan islom dini yo‘nalishi?**

a) *Sunniylik

b) SHialik

v) Xorijiylik

g) Molikiylik

**97. Islom dini qachon paydo bo‘lgan?**

a) *7 asrda

b) 6 asrda

v) 5 asrda

g) 8 asrda

**98. “Lison ut-tayr” (“Qush tili”), “Mahbub ul-qulub” asarlarining muallifi kim?**

a) *Alisher Navoiy

b) Abdurahmon Jomiy

v) Ahmad YAssaviy

g) Farididdin Attor

**99. Ma’rifat so‘zining lug‘aviy ma’nosi nima?**

a) *«Ma’rifat» so‘zi arabcha «arafa» – bilmoq so‘zidan yasalgan

b) Botiniy ilm

v) Ollohni bilish bosqichi

g) Dunyoni bilish

**100. Islom dini qachon paydo bo‘lgan?**

a) *VII asrda

b) VIII asrda

v) VI asrda

g) VI-VII asrlarda

**101. Islomning asosiy manbasi?**

a) *Qur’oni karim

b) Xadis

v) Islom olimlari manbalari

g) Abu Bakr jamlagan Qur’on

**102. Johiliyat davrida qanday dinlar bo‘lgan?**

a) *Butlarga sig‘inish

b) Monoteizm

v) Olovga sig‘inish

g) Hayvonlarga sig‘inish

**103. Johiliyat davrida jamiyat hayotida ayollar uchun qanday ma’naviy muammolar bor edi?**

a) *Ayollar huquqining buzilishi

b) Ichkilikbozlik

v) Qimorbozlik

g) Sudxo‘rlik

**104. Ayollar huquqi qaysi dinda tiklandi?**

a) * Islomda

b) Xristianlikda

v) Yahudiylikda

g) Buddaviylikda

**105. Milliy dinlarga qaysi dinlar kiradi?**

a) *Xinduizm

b) Totemizm

v) Fetishizm

g) Shomonizm

**106. Qaysi din shakli ibtidoiy dinlarga kiradi?**

a) * Magiya (sehrgarlik)

b) Daosizm

v) Sintoizm

g) Xinduizm

**107. Mifologik tasavvurlar qaysi dinga tegishli?**

a) *Zardushtiylikka

b) Islomga

v) Xristianlikka

g) buddizmga

**108. «Oxirgi payg‘ambar» deb kimga nisbatan aytiladi?**

a) *Muhammad payg‘ambarga

b) Iso payg‘ambarga

v) Yahyoga

g) Zakariyoga

**109. Sunniylikda islom aqidalari nechta?**

a) *7 ta

b) 5 ta

v) 9ta

g) 3 ta

**110. Islom dinida qanday qadriyat keng nishonlanadi?**

a) *Xayit bayrami

b) Poklanish

v) ziyoratga borish

g) Kasal ko‘rish

**111. Islomda qaysi kun muqaddas hisoblanadi?**

a) *Juma

b) YAkshanba

v) SHanba

g) qadr kechasi

**112. Sunniylikda xulafoyi roshidinlar (to‘g‘ri yo‘ldan borganlar) nechta deb tan olinadi?**

a) *4 ta

b) 1 ta

v) 3 ta

g) 12 ta

**113. Ishonchli (sahih) hadislar muallifi kim?**

a) *Al-Buxoriy

b) At-Termiziy

v) As-Sunan

g) Molik ibn onas

**114. Qur’ondan keyin ikkinchi muqaddas  manba nima?**

a) *Hadis

b) SHariat

v) Fiqh

g) Ijmo

**115. «SHahid» so‘zining ma’nosi nima?**

a) *Arabcha “guvoh”

b) Jannatiy

v) o‘ldirilgan

g) Jannat

**116. Sunniylikda nechta mazhab bor?**

a) *4 ta

b) 1 ta

v) 3 ta

g) 2 ta

**117. Din qanday turlarga bo‘linadi?**

a) *Ibtidoiy dinlar, Milliy dinlar, Jahon dinlari

b) Jahon dinlari, Xozirgi dinlar, Qadimiy dinlar

v) Islom dini, Xristian dini,

g) Milliy dinlar,Yaxudiylik dini, jahon dini, Ibtidoiy dinlar

**118. Muhammad payg‘ambarga necha yoshda Qur’on vahiy kelgan?**

a) *40 yoshda

b) 34 yoshda

v) 39 yoshda

g) 37 yoshda

**119. Davlat va din orasidagi munosabatlar qanday?**

a) *din davlatdan ajratilgan

b) diniy tashkilotlar davlat davlat tashkilotlari щisoblanadi.

v) diniy marosimlar davlat tomonidan olib boriladi

g) davlat diniy tashkilotlarga rahbarlik qiladi.

**120. Muhammad alayhissalom kim?**

a) *Islom dini payg‘ambari

b) Yahudiylarning payg‘ambari

v) payg‘ambar

g) Arablar bobokaloni

**121. Diniy tashkilotlar qaysi idoralar tomonidan ro‘yhatga olinadi?**

a) *din ishlari bo‘yicha qo‘mita va ichki ishlar

b) din ishlari bo‘yicha qo‘mita

v) Vazirlar Mahkamasi

g) Adliya vazirligi

**122. Islom so‘zining ma’nosi nima?**

a) *Arab. Bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Alloh irodasiga topshirish

b) E’tiqod

v) Ishonch

g) YAkkaxudolik

**123. “Injil” qaysi dinning kitobi?**

a) *Xristian dini kitobi

b) Masih yozgan muqaddas kitob

v) Yahudiylarning Tavroti

g) Iso (a.s.)ga nozil qilingan kitob

**124. Missionerlik nima?**

a) *(missiya-lotincha yuborish, topshiriq)-biror dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dini targ‘ib qilish demakdir.

b) Xudoning vakili bылish

v) Dinni targ‘ib qilish

g) Missio –yuborish

**125. Qora tosh qaerda?**

a) *Makkada

b) Quddus shahrida

v) Madinada

g) Turkiyada

**126. Odamato kim?**

a) *Alloh tomonidan yaratilgan er yuzidagi birinchi odam

b) Xristianlik payg‘ambari

v) Afsonaviy shaxs

g) Yahudiylar payg‘ambari

**127. Rasul so‘zining ma’nosi?**

a) *Arab.-elchi, payg‘ambar

b) Tashkilotchi so‘zlovchi

v) Tangri

g) Siylovchi

**128. Sahobalar kimlar?**

a) *Muhammad (s.a.v)ning safdoshlari

b) Payg‘ambarning qarindoshlari

v) Payg‘ambarning avlodlari

g) Xalifalar

**129. O‘zbekiston musulmonlari asosan qaysi mazhabda?**

a) *Abu Xanifa mazhabida

b) SHof’iiy mazxabida

v) Xanbaliya mazxabida

g) Molikiya mazhabida

**130. Fundamentalizm nima?**

a) *“fundament” bu poydevor, asos degan ma’noni anglatadi

b) zo‘rlab dinga kiritish

v) muqaddas urushga da’vat qilish

